

MUNDARIJA

1. Ma’ruzalar mavzulari

- 1.1. Mavzu bo‘yicha reja, tayanch so‘z va iboralar, asosiy matn, illyustrativ materiallar, xorijiy adabiyotlarga xavolalar.....
- 1.2. Amaliy mashg‘ulotlar mavzulari, asosiy matn, topshiriqlar, variantlari, masala va misollar, ko‘rsatmalar.....
- 1.3. Laboratoriya ishlarini mavzulari, asosiy matn zarur asbob-uskunalar xorijiy adabiyotlarga xavolalar.....
- 1.4. Mustaqil ta’lim mashg‘ulotlari, mavzulari, shakli, ko‘rsatmalar, variantlar, tushuntirishlar, boshqa ma’lumotlar.....

2. Glossariy

3. Illovalar:

- 3.1. Fan dasturi
- 3.2. Ishchi fan dasturi.....
- 3.3. Tarqatma materiallar,.....
- 3.4. Testlar
- 3.5. Baholash mezonlari.....
- 3.6. Qo‘srimcha materiallar.....

4. Foydalanilgan adabiyotlar.....

III-SEMESTR

№	Mavzu nomi
1.	Kirish.«Yong'in-portlash xavfsizligi asoslari» faniga kirish.
2.	Yong'inlar to'g'risida umumiy ma'lumotlar. Yong'in xavfsizligini ta'minlashning huquqiy - meyoriy asoslari.
3	Yong'in xavfsizligini ta'minlash sohasida davlat siyosati.
4	Yong'in xavfsizligini ta'minlash qoidalari ishlab chiqish, standart loyihalari, texnik shartlar va boshqa meyor-amaliyot hujjatlarini ko'rib chiqish tartibi.
5	Fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlarining yong'in xavfsizligini ta'minlashdagi ishtiroki.
6	Fuqarolarning yong'in xavfsizligi sohasidagi huquq va majburiyatları
7	Yonish jarayoni. Yonuvchi tizim, uning turlari.
8	O'z-o'zidan alangalanish, o'z-o'zidan yonishning alanga bilan davom etishi.
9	Modda va materiallarning yonish va portlashga xavflilik hususiyatlarini aniqlovchi ko'rsatkichlar.
10	Gaz-bug' havoli aralashmalar-ning, suyukliklarning, qattik moddalarning va changlar yonishining o'ziga xos xususiyatlari. Ularning yonish va portlashga xavflilik xususiyatlari
11	Bino va inshootlarni yong'in xavfsizligini ta'minlash assoslari.
12	Bino konstruktiv elementlari va materiallarining olovga chidamliligi.
13	Texnologik jarayonlarda yong'in, yong'in-portlash va portlash xavfsizligini ta'minlash prinsiplari
14	Korxonalarni va boshqa ob'ektlarni loyihalashtirish, qurish, kengaytirish, rekonstruksiya qilishda yong'in xavfsizliginita'minlash
15	Texnologik jarayonlarni bajarishda mashina va mexanizmlarni, texnik qurilma va uskunalarini ishlatishda yong'in xavfsizligini ta'minlash.
16	Ishlab chiqarish binolarining portlash va yong'in xavfi bo'yicha toifasi. Elementlarining yonuvchanlik guruhi va olovga chidamlilik chegarasi bo'yicha bino va inshootlarning darajalarga bo'linishi.
17	Binoda yong'in uzluksizligi, uning tarqalish tezligi va harorati o'zgarishiga ta'sir qiluvchi omillar.
18	Haroratning yog'ochga va uning issiqlik o'tkazuvchanligiga ta'siri
19	Yog'och konstruksiyalarini chirishdan va yong'indan himoya qilish usullari.
20	Antipirenlar haqida ma'lumot. Ularning afzalliklari va kamchiliklari.
21	Portlash hodisasi va uning umumiy tavsifi
22	Portlab yonish va yong'in xavfi bo'yicha xonalarning toifalarga bo'linishi
23	Portlash xavfi mavjud bo'lgan inshootlarni himoyalash

24	Sanoat korxonalarini loyihalash va qurishda yong'inga qarshi kurash tadbirlari
25	Sanoat korxonasi hududini zonalarga ajratish
26	Yonginga qarshi ishlataladigan texnik qurilmalar
27	Yonginni o'chirish taktikasi. Yong'inga qarshi suv ta'minoti

IV- SEMESTR

No	Mavzu nomi
1.	Yong'in xavfsizligini ta'minlash xizmati.
2.	Yong'indan saqlash xizmati, uning turlari, asosiy vazifalari.
3	Davlat yong'indan saqlash xizmati.
4	Korxonalarda yong'indan saqlash xizmatini tashkil qilish.
5	Ko'ngilli o't o'chiruvchilar va yosh o't o'chiruvchilar drujinalarini tashkil qilish
6	Yong'inga qarshi yo'riqnomasi.
7	DYOXX, uning strukturaviy tuzilishi, majburiyatlari va vazifalari
8	Axoli va xududlarni muxofaza qilish rejalari, ularning tuzilishi, unga qoyiladigan talablar
9	Korxonalarda va turli ob'ektlarda yong'in xavfsizligini tashkilashtirish tartibi, meyyoriy hujjatlar tizimi
10	Korxonalarning yong'inga qarshi holatini tekshirish usullari
11	Korxonalarni va boshqa ob'ektlarni loyihalashtirish qurish kengaytirish rekonstruksiya qilishda yong'in xavfsizligini ta'minlash
12	Korxonalarning yong'inga qarshi holatini tekshirish usullari
13	Neft va neft mahsulotlari omborlari. Neft va neft mahsulotlarini saqlash parklari. Meyoriy hujjat talablar
14	AYOQShlarni loyixalashda yonish-portlash xavfsizligi-ni ta'minlash chora - tadbirlari
15	Suyultirilgan yuqori bosimdagi gazlar saqlanuvchi ballonlarni ishlatishda yong'in xavfsizligi talablar
16	Bosim ostidagi idishlarning texnik holatini tekshirish va ulardan xavfsiz foydalanish
17	Gazsimon moddalarning yonish va portlash xususiyatlari
18	Texnik gazlar va ularning yong'in xavfi
19	Qattiq moddalarning yonish va yong'inga xafliilik xususiyatlari
20	Changlarning yonish va portlash xususiyatlari.
21	Yonuvchi suyuqliklarga qo'yila-digan yong'in xavfsizligi talablar
22	Shamollatish tizimlarining vazifasi. Ishlab chiqarish jarayonidagi bo'linib chiqadigan zararli chiqindilari va ularning yong'indan xavfliligi.
23	Elektr moslamalari bilan ishlaganda yong'in xavfsizligi ta'minlash chora-

	tadbirlari
24	Isitgich uskunalarini ishlatalishda yong'in xavfsizligi.
25	Elektr va gaz payvandlash ishlarida yong'in xavfsizligini ta'minlash
26	Yong'inga qarshi to'siq ishlarini tashkil qilish
27	Yong'inga qarshi devorlarga qo'yiladigan meyoriy hujjatlarning talablari
28	Yong'in -portlash xavfi mavjud obyektlardagi avariyalar
29	Paxta xomashyosini saqlash jarayonining yong'in xavfsizligi. Paxta xomashyosini saqlash maydonlariga bo'lgan talablar
30	Bino va inshootlarni paxtani qayta ishslash zavodlari maydonida joylashtirishga qo'yiladigan yong'in xavfsizligi talablari.
31	Tekstil ishlab chiqarishda qo'llaniladigan modda va materiallarning yong'in xavfi
32	Yog'och, plastmassalarga mexanik ishlov berish jarayonlarining yong'in xavfi. Xavfsizlik choralarini.
33	Turar joy va sanoat korxonalarini hududlarida yong'in xavfsizligi
34	Yong'in paytida odamlarni binolardan evakuatsiya qilish
35	Majburiy evakuatsiya jarayoni..
36	Odamlar oqimining xarakat o'lchamlari.
37	Evakuatsiya yo'llari va o'lchamlari
38	Evakuatsiya vaqtini aniqlash.
39	Yong'inni o'chirish usullari, moddalari va vositalari
40	Yong'in darakchilari, turlari va ishslash prinsiplari.
41	Drincher qurilmalarini ishslash pritsepi
42	Inson nafas olish organlarini gaz va tutundan himoya qilish vositalari
43	Birlamchi o't o'chirish vositalari, ularning turlari
44	Yong'in va portlashdan zarar ko'rganlarga birinchi yordam ko'rsatish.
45	Kuyishning darajalari. Birinchi yordam ko'rsatish usuli.

MA’RUZA № 1

«YONG’IN-PORTLASH XAVFSIZLIGI ASOSLARI» FANIGA KIRISH.

Reja

- 1 Yong’in xavfsizligi faning maqsadi
2. Yong’inning kelib chiqish sabablari va turlari

Tayanch so‘z va iboralar: yonish, portlash, potensial, oksidlanish jarayoni, yonuvchi modda, o‘z-o‘zidan alanganish, kimyoviy jarayon, organik moddalar, ob’ektning yong’in xavfsizligi.

”Yong’in xavfsizligi” fanining o‘qitilishidan maqsadi - bo‘lajak mutaxassislargacha turli tusdagi yong’in va portlash yuz berganda inson hayotini, fuqarolarni, shuningdek moddiy boyliklarni muhofaza qilish, talafot olganlarga birlamchi tibbiy yordam berish hamda iqtisodiyot tarmoqlarini va moddiy boyliklarni yonishdan. kuyib nobud bo‘lishdan saqlash tadbirlari va qoidalarini o‘rgatishdan iborat.

O‘quv fanini o‘rganishning asosiy vazifalari: yonish va portlash parametrlarini amaliy va tajriba yo‘llari bilan aniqlash, yonish jarayonining potensial portlash xavflilagini tahlil qilish, jarayonning termodinamik va ekzotermik parametrlarini aniqlash usullariga o‘rgatish, yong’in va portlash yuz berganda fuqarolar muhofazasini va moddiy boyliklarni asrashni tashkil etish, zarbali to‘lqinlarda bosimni hisoblash, qurilish konstruksiyalarini o‘tga bardoshliligini oshirish, materiallarni yonmaydigan toifaga o‘tqazish, yonish jarayonining turli parametrlari – o‘z - o‘zidan alanganish, chaqnash harorati, o‘z o‘zidan yonish, kislorod indeksi va boshqalarni aniqlash, kuygan va talafot olganlarga birlamchi tibbiy yordam ko‘rsatish va boshqa muhim vazifalarni bajara oladigan bilim, ko‘nikma va kasbiy malakaga ega insonni tarbiyalashga qaratilgan.

Yong’in sanoat korxonalari, xalq xo‘jaligining barcha tarmoqlarida yuz berib, yetkazadigan zarari jihatidan tabiiy ofatlarga tenglashishi mumkin bo‘lgan hodisa hisoblanada.Ular katta moddiy zarar keltirishi bilan birga og‘ir baxtsiz hodisalarga: zaharlanish, kuyish hamda kishilar halokatiga sabab bo‘lishi mumkin.

Yong’inga qarshi kurash ishlari davlat miqyosida amalga oshiriladi. Yong’in xavfsizligini ta’minalash, uning rivojlanib, tarqalib ketmasligi chora-tadbirlarini oldindan ko‘rish samarali kurash olib borish yong’inni o‘chirishda qo‘llaniladigan birlamchi vositalardan to‘g‘ri foydalanishga qaratilgan.

Murakkab oksidlanish jarayonida yonuvchi moddalardagi bir moddaning ikkinchi moddaga aylanishi oqibatida katta miqdorda issiqlik va nurlanish ajralishi bilan kechadigan holatga yonish deb tushuniladi. Yong’inga asosan uch omil: yonuvchi modda, yondiruvchi muhit, qizdirish jarayoni sabab bo‘ladi.

Yonish jarayoni, asosan, ikki xil bo‘lishi mumkin. Birinchidan, qattiq jismlar yonish jarayonida havo muhitidan ajralgan holda bo‘ladi. Bunday yonish havo harorati natijasida yonish zonasini kislorod bilan ta’minlaganligi uchun

diffuziyali yonish deyiladi, uni yog‘och, ko‘mir va boshqa moddalar yonganda kuzatish mumkin. Yonishning ikkinchi xili yonuvchi gazlar va suyuqliklarning parlari, yonuvchi moddalarning changlari havo bilan aralashgan holatdagi yonishi bo‘lib, u kinetik yonish deb yuritiladi. Bunday yonish hajmli yonish jarayonida o‘tadi.

Yonish tezligi modda to‘yinganligiga, harakatiga bog‘liq bo‘ladi. Agar bunday yonish yopiq hajmlarda yoki idishlarda bo‘lsa, portlash hodisasi ro‘y beradi.

Yonish quyidagi turlarga bo‘linadi:

- yonuvchi aralashmaning bir lahzada yonib, o‘chishi;
- qizdirish natijasida yonishning vujudga kelishi;
- uchqunlanish natijasida alangaga aylanish;
- organik moddalar ichida ro‘y beradigan ekzotermik reaksiyalar natijasida, yonuvchi aralashmaning tashqaridan qizdirishsiz o‘z-o‘zidan yonib ketishi;
- o‘z-o‘zidan alanganish, o‘z-o‘zidan yonishning alanga bilan davom etishi;
- portlash - kimyoviy jarayonning bosim va quvvat hosil qilish bilan o‘tishi.

Yonuvchi modda ma’lum haroratda o‘zidan yonuvchi bug‘ ajratishi natijasida alanganishni ta’minkasa, bu harorat alanganish harorati deb yuritiladi, Ba’zi bir organik moddalar (torf, qipiqlik, paxta, ko‘mir mahsulotlari) o‘z-o‘zidan yonib ketish xususiyatiga ega. Chunki bular g‘ovak asosga ega bo‘lganligi va oksidlanishi mumkin bo‘lgan yuza juda kattaliga tufayli, ochiq, joylarda ma’lum miqdorda yig‘ilib, ob-havo o‘zgarishi, kislород ta’sirida qizib, yonib ketadi. Buning asosiy sababi, organik namlanganda uning ichki qismida mikroorganizmlar rivojlanadi va natijada issiqlik ajralib chiqadi. Bu hodisa organik moddalarning o‘z-o‘zidan qizish jarayoni deb ataladi.

Yonish jarayoni yonuvchi modda molekulalarining kislород molekulalari bilan birikish hodisasi hisoblanadi. Uni akademik N.N.Semyonovning zanjirli reaksiya nazariyasi asosida tushuniladi. Oksidlanish reaksiyasi natijasida odatda issiqlik ajralishi ma’lum sharoitda tezlashib ketishi mumkin. Mana shu tezlanish davri yonishga o‘tgan davrga to‘g‘ri kelib, buni o‘z-o‘zidan alanganish hodisasi deb yuritiladi.

O‘z-o‘zidan alanganish issiqlik ta’sirida yoki zanjirli reaksiya asosida yuz berishi mumkin. Issiqlik ta’sirida yonishda reaksiya natijasida ajralib chiqayotgan issiqlik tashqi muhitga tarqalayotgan issiqlikdan katta bo‘lgan taqdirdagina vujudga keladi.

Yong‘in – bu maxsus manbadan tashqarida sodir bo‘ladigan va katta material zarar hamda talofatlar keltirib chiqaradigan nazoratsiz yonish jarayonidir.

Ob’ektning yong‘in xavfliligi deganda, ob’ektning yong‘in sodir bo‘lishi mumkin bo‘lgan holati va yong‘inning oqibatlari tushuniladi.

Ob’ektning yong‘in xavfsizligi deganda, belgilangan meyorlar va talablar asosida ob’ektida yong‘in sodir bo‘lish xavfi hamda uning xavfli va zararli faktorlarini inson hayotiga ta’siri cheklangan, ob’ektdagi materiallar to‘liq himoyalangan holati tushuniladi.

Yong‘in vaqtida sodir bo‘ladigan turli xil xavfli va zararli omillar ta’sirida material boyliklar nobud bo‘lishi va baxtsiz hodisalar ro‘y berishi

mumkin. Yong‘inning xavfli va zararli omillariga asosan quyidagilarni kiritishimiz mumkin: ochiq alanga, atrof-muhitning va yong‘inda qolgan buyumlarning yuqori harorati, yonish vaqtida hosil bo‘ladigan turli xil zaharli gaz va bug‘lar, tutunlar, kislородning kam kontsentratsiyada bo‘lishi, qurilish konstruksiyalari va materiallarining qulab tushayotgan qismlari, yong‘in vaqtida sodir bo‘ladigan portlash, portlashdagi to‘lqin zARBasi, portlash ta’sirida uchib ketgan materiallar va zararli moddalar va b.

Yuqorida keltirilgan omillarning xavflilik darajasi birinchi navbatda yong‘inning davomiylik vaqtiga bog‘liq bo‘ladi va u quyidagi ifoda orqali aniqlanadi;

$$T_{\ddot{e}} = N / v$$

bu erda N – yonuvchi moddalar miqdori, kg/m^3

V – moddalarning yonish tezligi, kg/m^3 soat.

Agar binoda turli xil qattiq va suyuq materiallar hamda moddalar mavjud bo‘lsa, yong‘inning davomiylik vaqtini quyidagicha aniqlash mumkin,

$$T_{\ddot{e}} = \frac{S_r}{6S_0} \left(\frac{g_1}{n_1} + \frac{g_2}{n_2} + \dots + \frac{g_m}{n_m} \right)$$

bu erda $g_1, g_2 \dots g_m$ - turli xil yonuvchi mahsulotlarning miqdori, kg/m^2 ;
 S_x - binoning yuzasi, m^2 ;

S_o - binodagi derazalarning yuzasi, m^2 ;

6 - bino yuzasining bino derazalari yuzasiga nisbati, $S_x/S_o=4\dots10$;

n_1, n_2, \dots, n_m - modda va materiallarning yonish tezligini hisobga olish koeffitsienti, kg/m^2 soat. Ushbu koeffitsient benzin uchun -15; rezina, orgsteklo uchun -35; avtomobil shinasi uchun- 40; yog‘och materialar uchun – 65 ga teng deb qabul qilinadi.

Ma’lumki yong‘inni o‘chirishga nisbatan uni oldini olish ham oson, ham foydalidir. Shu sababli, har bir mutaxassis, har bir xodim ishlab chiqarishdagi yong‘in sabablarini bilishi, yong‘in xavfsizligi qoidalariiga to‘liq rioya qilishi va yong‘inni oldini olishga qaratilgan tadbirlarni amalga oshirishi zarur. Shunga bog‘liq holda ob‘ektning yong‘in xavfsizligi - yong‘inni oldini olish sistemasi, yong‘inga qarshi himoya sistemasi, yong‘inning tarqalishini oldini olish sistemasi va tashkiliy-texnik tadbirlar orqali ta’milnadi.

Yong‘in xavfsizligi— odamlarning, yuridik va jismoniy shaxslar mol-mulkining, shuningdek atrof tabiiy muhitning yong‘inlardan himoyalanganligi holati;

Yong‘in xavfsizligi talablari— yong‘in xavfsizligini ta’minalash maqsadida qonun hujjatlarida belgilangan ijtimoiy va (yoki) texnik xususiyatga ega maxsus shartlar;

Yong‘in xavfsizligi talablarining buzilishi— yong‘in-xavfsizligi talablarini bajarmaslik yoki lozim darajada bajarmaslik;

Yong‘in - texnik mahsuloti yong‘in xavfsizligini ta’minalashga mo‘ljallangan maxsus texnik, ilmiy-texnik va intellektual mahsulotlar, shujumladan yong‘inni o‘chirish texnikasi va asbob-uskunalari, yong‘inni o‘chirish aslaha-anjomlari,

olovni o‘chirish va olordan himoya qilish moddalari hamda materiallari, — maxsus aloqa va boshqarish vositalari, elektron hujjatlar, elektron hisoblash mashinalari uchun dasturiy mahsulotlar va ma’lumotlar bazalari, shuningdek yong‘inlarning oldini olish hamda ularni o‘chirishning boshqa vositalari;

Yong‘inga qarshi rejim — yong‘in xavfsizligi talablari buzilishining oldi olinishini vayong‘inlar o‘chirilishini ta’minalash yuzasidan odamlarning xatti-harakat qoidalari, ishlab chiqarishni tashkil etish va (yoki) binolarni (hududlarni) saqlash tartibi;

Yong‘inga qarshi alohida rejim — yong‘in xavfi yuqori bo‘lgan davrda muayyan hududlarda qonun hujjatlariga muvofiq yong‘in xavfsizligining qo‘sishimcha talablarini belgilash kiradi.

MA’RUZA № 2

YONG‘INLAR TO‘G‘RISIDA UMUMIY MA’LUMOTLAR. YONG‘IN XAVFSIZLIGINI TA’MINLASHNING HUQUQIY - MEYORIY ASOSLARI.

Reja

1 Yong‘in xavfsizligi to‘g‘risidagi qonun hujjatlari

2 Davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlarining yong‘in xavfsizligi sohasidagi vakolatlari

Tayanch so‘z va iboralar: Davlat va xo‘jalik boshqaruvi, mahalliy davlat hokimiyyati, davlat siyosati, davlat ehtiyojlari, Davlat yong‘in xavfsizligi xizmati

Yong‘in xavfsizligi to‘g‘risidagi qonun hujjatlari. Yong‘in xavfsizligi to‘g‘risidagi qonun hujjatlari ushbu Qonun va boshqa qonun hujjatlaridan iboratdir. Agar O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida O‘zbekiston Respublikasining yong‘in xavfsizligi to‘g‘risidagi qonun hujjatlarida nazarda tutilganidan boshqacha qoidalari belgilangan bo‘lsa, xalqaro shartnoma qoidalari qo’llaniladi. Yong‘in xavfsizligini ta’minalash tizimi yong‘inlarning oldini olish hamda ularni o‘chirishga qaratilgan huquqiy, tashkiliy, iqtisodiy, ijtimoiy va ilmiy-texnik chora-tadbirlar, shuningdek kuchlar va vositalar majmuidan iboratdir.

Yong‘in xavfsizligini ta’minalash tizimi sub’ektlari davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyyati organlari, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, shuningdek korxonalar, muassasalar, tashkilotlar va fuqarolardir.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining yong‘in xavfsizligi sohasidagi vakolatlari

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi:

- Yong‘in xavfsizligi sohasida yagona davlat siyosati o‘tkazilishini ta’minalaydi;
- Yong‘in xavfsizligi sohasida davlat dasturlarini tasdiqlaydi vaularning amalga oshirilishini nazorat qiladi;

- Davlat vaxo‘jalik boshqaruvi organlarining, mahalliy davlat hokimiyati organlarining yong‘inxavfsizligi sohasidagi faoliyatini muvofiqlashtiradi;
- Yong‘inxavfsizligi sohasida moliyaviy, moddiy-texnika ta’minotini varesurslar bilan ta’minalashni amalga oshiradi;
- davlat ehtiyojlari uchun yong‘in-texnik mahsulotining nomenklaturasini, uni etkazib berish hajmlarini tasdiqlaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

Yong‘in xavfsizligi sohasidagi maxsus vakolatli organning vakolatlari

Yong‘in xavfsizligi sohasidagi maxsus vakolatli organ O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining Davlat yong‘in xavfsizligi xizmatidir. Davlat yong‘in xavfsizligi xizmati:

- yong‘inxavfsizligi to‘g‘risidagi qonun hujjatlarining ijrosini ta’minalaydi;
- yong‘inxavfsizligi sohasidagi davlat dasturlarini ishlab chiqadi vaularning amalga oshirilishini tashkil etadi;
- yong‘indan saqlash xizmati bo‘linmalarini yong‘inni o‘chirish -texnikasi vaboshqatexnika vositalari bilan jihozlashsohasida yagona texnika siyosatini amalga oshiradi;
- yong‘inlarni o‘chirishni, yong‘inzonasida qolgan odamlarni hamda yuridik vajismoniy shaxslarning mol-mulkiniqutqarishniamalga oshiradi;
- barcha turdag'i yong‘indan saqlash xizmati bo‘linmalarining yong‘inlarni o‘chirishga shayligi holati vayong‘inlar profilaktikasiga doir ishlarning bajarilishi ustidan davlat nazoratini amalga oshiradi;
- yong‘inxavfsizligi sohasidagi normativ-huquqiyhujjatlarning loyihalari ishlab chiqilishida ishtirok etadi;
- yong‘inxavfsizligi sohasidagi texnik reglamentlar, standartlar, normalar, qoidalar vaboshqanormativ hujjatlar ishlab chiqilishida ishtirok etadi;
- davlat yong‘innazoratini amalga oshiradi;
- yong‘inxavfsizligi talablaridan asosli ravishda chetga chiqilgan yoki bunday talablar mavjud bo‘lmasan taqdirdabinolar, inshootlarni va boshqa ob’ektlarni qurish, kapital ta’mirlash, rekonstruksiya qilish, kengaytirish vatemnik jihatdan qayta jihozlashga doir loyiha hujjatlarining yong‘in xavfsizligi talablariga rioya qilinishiga taalluqli qismini ko‘rib chiqadi;
- qurilish uchun maydonlar (trassalar) tanlash (ajratish) -komissiyasining, shuningdek qurilishi (rekonstruksiyasi) tugallangan ob’ektlarni foydalanishga qabul qilib olish komissiyalarining ishida ishtirok etadi;
- yong‘inxavfsizligi sohasida yong‘inga qarshi targ‘ibotni, o‘qitishni vaaxborot bilan ta’minalashni amalga oshiradi;
- yong‘in xavfsizligining ilmiy-texnik jihatdan ta’minalishini muvofiqlashtiradi;
- yong‘in xavfsizligi sohasida litsenziyalash va sertifikatlashtirishni belgilangan tartibda amalga oshiradi;
- yong‘inlar vaularning oqibatlari hisobini yuritadi;
- davlat vaxo‘jalik boshqaruvi organlariga, mahalliy davlat hokimiyati organlari, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, tashkilotlar

vafuqarolarga aniqlangan qoidabuzarliklarni bartaraf etish hamda yong‘inlarning oldini olishga doir tadbirlar o‘tkazish to‘g‘risida yozma ko‘rsatmalar beradi.

Davlat yong‘in xavfsizligi xizmati qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

Davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlarining yong‘in xavfsizligi sohasidagi vakolatlari.

Davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari (bundan buyon matnda vakolatlari organlar deb yuritiladi) o‘z vakolatlari doirasida:

- yong‘in xavfsizligi to‘g‘risidagi qonun hujjatlarining ijrosini ta’minlaydi;
- yong‘in xavfsizligi sohasidagi davlat dasturlarini ishlab chiqishda ishtirok etadi vaularning amalga oshirilishini tashkil etadi;
- yong‘inxavfsizligi sohasidagi normativ-huquqiyhujjatlarning loyihalari ishlab chiqilishida ishtirok etadi;
- yong‘inxavfsizligi sohasidagi texnik reglamentlar, standartlar, normalar, qoidalari vaboshqanormativ hujjatlar ishlab chiqilishida ishtirok etadi;
- yong‘innazoratini tashkil etadi;
- yong‘inxavfsizligi sohasidagi ilmiy tadqiqotlar vaishlanmalarni muvofiqlashtiradi;
- davlat ehtiyojlari uchun yong‘in-texnik mahsulotining -nomenklaturasini ishlab chiqadi vahajmlarini belgilaydi;
- yong‘inlarni vaularning oqibatlarini hisobga olish tizimini yaratadi;
- aholi punktlarida, o‘ta muhimdavlat, ahamiyatiga molik yoki yong‘invaportlash xavfi yuqori bo‘lgan ob‘ektlarda, ijtimoiy-madaniy, sanoat ob‘ektlarida hamda boshqaob‘ektlarda, hududlar vakommunikatsiyalarda yong‘inlar o‘chirilishini tashkil etadi.

Vakolatlari organlar qonun hujjatlariga muvofiq boshqa -vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

MA’RUZA № 3

YONG‘IN XAVFSIZLIGINI TA’MINLASH SOHASIDA DAVLAT SIYOSATI.

Reja:

1. Davlat yong‘nni nazorat qilish organi.
2. Davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlarining yong‘in xavfsizligi sohasidagi vakolatlari

Tayanch so‘z va iboralar: Davlat yong‘inni nazorat qilish organlari, o‘t o‘chiruvchi bo‘linmalar, ma’muriy, jinoiy javobgarlik, ob‘ekt.

Davlat yong‘inni nazorat qilish respublika Ichki ishlar Vazirligining yong‘indan muhofaza qilish Bosh boshqarmasi tomonidan amalga oshiriladi. Davlat yong‘inni nazorat qilish organlari zimmasiga yong‘indan muhofaza qilishga oid qoidalari, qo‘llanmalar ishlab chiqish va nashr qilish, yong‘inni oldini olishga oid qoida va me’yorlar, tadbirlarning hamma korxonalar, hamda aloxida shaxslar tomonidan bajarilishini nazorat qilish, loyihalash, qurish vaqtida

yong`inni oldini olishga oid talablarning bajarilishini tekshirish (xulosalar berish), o`t o`chiruvchi bo`linmalarning ishga shay turishini hamda o`t o`chirish vositalarining benuqsonligini tekshirish vazifalari yuklanadi.

Davlat yong`inni nazorat qilish organlari yong`inni oldini olishga oid qoida, me'yor va ko`rsatmalarining buzilishiga aybdor bo`lgan mas'ul shaxslarni ma'muriy yoki jinoiy javobgarlikka tortish, yong`in xavfi tug`ilganda ob'ektdagi ishlarni qisman yoki butunlay to`xtatib qo'yish huquqiga ega. Shaharlar va shahar tipidagi qishloq yong`in muhofazasi, shuningdek, o`zlarida o`t o`chiruvchi qismlar bo`lmagan korxonalarda, yangi qurilishlarda,

turar joy va jamoat binolarida yong`inni oldini olish nazoratini amalga oshiradi.

Davlat yong`in xavfsizligi xizmati qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

Davlat va xo'jalik boshqaruvi organlarining yong`in xavfsizligi sohasidagi vakolatlari.

Davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari (bundan buyon matnda vakolatlari organlar deb yuritiladi) o`z vakolatlari doirasida:

- yong`in xavfsizligi to`g`risidagi qonun hujjatlarining ijrosini ta'minlaydi;
- yong`in xavfsizligi sohasidagi davlat dasturlarini ishlab chiqishda ishtirok etadi vaularning amalga oshirilishini tashkil etadi;
- yong`inxavfsizligi sohasidagi normativ-huquqiyhujjatlarning loyihalari ishlab chiqilishida ishtirok etadi;
- yong`inxavfsizligi sohasidagi texnik reglamentlar, standartlar, normalar, qoidalar vaboshqanormativ hujjatlar ishlab chiqilishida ishtirok etadi;
- yong`innazoratini tashkil etadi;
- yong`inxavfsizligi sohasidagi ilmiy tadqiqotlar vaishlanmalarini muvofiqlashtiradi;
- davlat ehtiyojlari uchun yong`in-texnik mahsulotining -nomenklaturasini ishlab chiqadi vahajmlarini belgilaydi;
- yong`inlarni vaularning oqibatlarini hisobga olish tizimini yaratadi;
- aholi punktlarida, o`ta muhimdavlat, ahamiyatiga molik yoki yong`invaportlash xavfi yuqori bo`lgan ob'ektlarda, ijtimoiy-madaniy, sanoat ob'ektlarida hamda boshqa ob'ektlarda, hududlar vakommunikatsiyalarda yong`inlar o`chirilishini tashkil etadi.

Vakolatlari organlar qonun hujjatlariga muvofiq boshqa -vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

MA’RUZA № 4

Yong‘in xavfsizligini ta’minlash qoidalarini ishlab chiqish, standart loyihalari, texnik shartlar va boshqa meyor-amaliyot hujjatlarini ko‘rib chiqish tartibi.

Reja

1. Yong‘in xavfsizligini ta’minlash qoidalarini ishlab chiqarish tartibi
2. Yong‘in texnik komissiyalarining huquqlari
3. Yong‘in-texnik komissiyalari ishini tashkil etish tartibi

Tayanch so‘z va iboralar: IIV Yong‘in xavfsizligi Bosh boshqarmasi, Yong‘in-texnik komissiyalari, Vazirlar Mahkamasi, umumob’ekt, profilaktika xodimlari.

Yong‘in xavfsizligini ta’minlash qoidalari tarmoq va respublikaga oid bo‘lishi mumkin yong‘in xavfsizligi qoidalarini respublika yoki tarmoqqa oidligini O‘zbekiston Respublikasi IIV Yong‘in xavfsizligi Bosh boshqarmasi hal etadi.

Halq xo‘jaligi tarmoq maskanlarida yong‘in xavfi xususiyatlari va ishlab chiqarishning o‘ziga xos fazilatini hisobga olgan xolda, tarmoq yong‘in xavfsizligiga qaratilgan qoidalari O‘zbekiston Respublikasi IIV Yong‘in xavfsizligi boshqarmasi bilan kelishilgan amaliy topshiriq asosida vazirlik va mahkamalarning loyihalashtirish va ilmiy tekshiruv tashkilotlari tomonidan ishlab chiqariladi.

Yong‘in texnik komissiyalarining huquqlari

Yong‘in-texnik komissiyalari Vazirlar Mahkamasining 1995 yil 29 iyundagi 243-sون Qarorining 3-ilovasiga asosan tashkil qilinadi. Bu ilovada «Sanoat korxonalari va boshqa ob’ektlardagi yong‘in-texnik komissiyalari to‘g‘risidagi Nizom» keltirilgan.

1. Sanoat korxonalari, muassasalar va tashkilotlarning muhandislik-texnika xodimlarini. Xizmatchilarini yong‘inga qarshi profilaktika tadbirlarni o‘tkazishda qatnashishga jalb qilish, ob’ektlarda, mulkchilik shakllaridan qat’i nazar, yong‘inga qarshi himoyani yaxshilash maqsadida yong‘in-texnik komissiyalari tashkil etiladi.

2. Yong‘in-texnika komissiyalari mahalliy shart-sharoitlardan kelib chiqib, shuningdek, davlat yong‘in nazorati organlari taklifiga ko‘ra sanoat korxonalari, yangi qurilayotgan yirik ob’ektlarda, ilmiy-tadqiqot institutlari, o‘quv yurtlari, davolash, sog‘lomlashtirish, madaniy-tomosha muassasalarida, mehmonxonalar, teleradiouzatish markazlarida, yirik aloqa tarmoqlarida, aeroportlar va temir yo‘l vokzallarida, jamoa xo‘jaliklarida, qishloq xo‘jaligi korxonalarida va boshqa ob’ektlarda tashkil etiladi. Yong‘in-texnika komissiyalari tarkibiga, odatda, bosh muhandisi, yong‘indan saqlash (drujinasi) boshlig‘i, muhandis-texnik xodimlar va korxona rahbari xohishiga ko‘ra boshqa shaxslar kiritiladi.

Komissiya tarkibiga kasaba uyushmasi tashkiloti vakili kiritiladi.

3. Yong‘in-texnika komissiyalari davlat yong‘in nazorati mahalliy organlari bilan doimo aloqada bo‘lishlari kerak.

4. Yong'in-texnik komissiyalari o'z ish faoliyati davomida O'zbekiston Respublikasi hududida amal qilayotgan qonunlar va ushbu Nizom asosida yurgizadi.

5. Yong'in-texnika komissiyalari korxonalar, muassasalar, tashkilotlarda shu ob'ekt rahbari buyrug'i bilan tashkil etiladi.

Yong'in-texnik komissiyalari ishini tashkil etish tartibi

Yong'in-texnik komissiyalari o'z ishini ish vaqtida tashkil etadi va uni korxonaning barcha ish smenalarida olib boradi. Favqulodda holatlar (yong'in, halokat, avariya, avariya holatlari va shu kabilar) da yong'in-texnik komissiyasi a'zolari ob'ekt rahbarining buyrug'i bilan kunning istalgan vaqtida masalalarni hal etishga jalg qilinadilar.

Yirik sanoat korxonalarida, umumob'ekt yong'in-texnik komissiyalaridan tashqari, sex yong'in-texnik komissiyalari tashkil etilishi mumkin. Bu holatda umumob'ekt yong'in-texnik komissiyasi sex komissiyalari ishini nazorat qiladi va ularga boshchilik qiladi, butun korxonaning yong'inga qarshi ahvolini yaxshilash masalalarini hal etadi va yong'in chiqish xavfi kuchli bo'lган uchastkalar hamda ishlab chiqarish texnologiya jarayoni qurilmalarida yong'inning oldini olish chora-tadbirlarini ishlab chiqadi.

Umumob'ekt yong'in-texnik komissiyasi, qoidaga ko'ra, o'z ishini quyidagi ixtisoslashgan seksiyalar bo'yicha tashkil etadi:

- a) ishlab chiqarish texnologiya jarayonida va ishlab chiqarish asbob-uskunalarida yong'in chiqish xavfini kamaytirish seksiyasi;
- b) ratsionalizatorlik va ixtirochilik ishi seksiyasi;
- v) elektr tarmoqlari va elektr asbob-uskunalaridan xavfsiz foydalanish seksiyasi;
- g) yong'inga qarshi avtomatika va aloqa seksiyasi;
- d) yong'inga qarshi suv ta'minoti seksiyasi;
- e) yangi qurilish va rekonstruksiya qilishdagi qurilish normalari hamda qoidalariada yong'inga qarshi talablarga rioya qilish seksiyasi;
- j) ventilyasiya va tutun chiqarish tizimlarida foydalanishda yong'inga qarshi chora-tadbirlarni ishlab chiqish seksiyasi;
- z) turar joy sektorida yong'inga qarshi chora-tadbirlar seksiyasi;
- i) yong'inga qarshi targ'ibot va tashviqot seksiyasi.

Ob'ektni yong'inga qarshi namunali holatga keltirganliklari uchun yong'in-texnik komissiyalari a'zolari davlat yong'in nazorati hududiy yoki mahalliy organning taqdimnomasiga binoan ob'ekt rahbari tomonidan rag'batlantirilishi mumkin.

O'zR IIVning XYOXK va KYOXKlari tomonidan qo'riqlanayotgan maskanlarda yong'in nazoratining faoliyatini tashkillashtirish

O'zR IIV YOXBByning 17 - sonli buyrug'i bilan 2002 yilning 12 mart kunida tasdiqlangan «DYOXXning bo'linmalari tomonidan qo'riqlanayotgan maskanlarda yong'inni oldini olish ishlarini tashkillashtirish Qo'llanmasi» talablari asosida amalga oshiriladi. Bu vazifalar quyidagicha:

- qo'riqlayotgan Yong'in xavfsizlik qismining profilaktika xodimlari va navbatchi qorovulning jangovar hisobi kuchlaridan foydalanib korxona va uning

alohida xonalarining yong‘in xavfsizligi holatini kundalik tekshirib turish hamda taklif qilingan tadbirlarning o‘z vaqtida bajarilishini nazorat qilish;

- yong‘indan xavfli ishlarning o‘tkazilishini, yangi qurilayotgan binolarda hamda sexlarni, omborxonalarini va boshqa xonalarni rekonstruksiya qilish va qayta jihozlash chog‘ida yong‘in xavfsizligi qoidalari va meyorlari talablarining bajarilishini doimiy nazorat qilib turish;

- avtomatik va birlamchi o‘t o‘chirish vositalarining, yong‘inga qarshi suv ta’mnoti va yong‘in haqida xabar beruvchi tizimlarining ish holatini va ularga to‘g‘ri xizmat ko‘rsatish qanday tashkil qilinganligini tekshirib turish;

- ishchilar va xizmatchilar (shuningdek boshqa korxonalaridan vaqtinchalik kelgan ishchilar ham) bilan yong‘in xavfsizligi masalalari bo‘yicha yo‘riqnomalar, suhbatlar va maxsus mashg‘ulotlar o‘tish va yong‘inga qarshi targ‘ibot bo‘yicha boshqa tadbirlarni amalga oshirish;

- profilaktika ishlarini amalga oshirish va paydo bo‘lish ehtimoli bo‘lgan yong‘inlarni o‘chirish uchun ko‘ngilli o‘t o‘chirish drujinasining shaxsiy tarkibini tayyorlash;

- korxonaning yong‘in xavfsizligiga qaratilgan ishlarini yozma ko‘rsatma taqdim etish orqali yillik tekshirishni (qoida tariqasida, brigada usulida) amalga oshirish va uning bajarilishini nazorat qilish;

- sexlarda, uskunalarda (dastgohlarda), omborxonalarida, alohida agregatlarda va xonalarda yong‘in avtomatikasi moslamalari va tizimini joriy qilish bo‘yicha tadbirlarni amalga oshirish (qo‘riqlanayotgan korxona ma’muriyati orqali).

Qo‘riqlayotgan maskanda profilaktika ishlarini amalga oshirish uchun yong‘in xavfsizligi qismining butun shaxsiy tarkibi jalb etiladi. O‘t o‘chirish qismining profilaktik shaxsiy tarkibi esa korxona texnologik jarayonining, ishlatilayotgan va tayyorlanayotgan mahsulot va moddalarning yong‘in chiqish xavfini, hamda bino va inshootlar qurilish konstruksiyalarining o‘ziga xos jihatlarini, suv ta’mnoti tizimining va shu kabi masalalarning muhim tomonlarini bilishlari shart.

Navbatchi qorovul va KO‘O‘D shaxsiy tarkibini o‘t o‘chirish vositalarining holatini, elektr isitish vositalaridan korxonada qanday foydalananayotganliklarini, hamda alohida xonalarni kutilmaganda tekshirib qolish kabi ishlarga tez-tez jalb etib turish tavsija etiladi. Bunaqangi yoppasiga tekshirishlarni qishki mavsumga o‘tish chog‘ida yoki bayram oldi kunlarida o‘tkazish maqsadga muvofiqdir.

Yangi qurilayotgan, rekonstruksiya qilinayotgan va amalda ishlatilayotgan sanoat korxonalarini tekshirish chog‘ida meyoriy hujjatlarda nazarda tutilmagan va har xil o‘ylab topilgan kamchiliklarning bajarilishini talab qilmasdan, balki tasdiqlangan yong‘in xavfsizligi qoidalari talablarining bajarilishini rioya qilishni nazorat qilish kerak.

MA’RUZA № 5

FUQAROLAR O‘ZINI O‘ZI BOSHQARISH ORGANLARINING YONG‘IN XAVFSIZLIGINI TA’MINLASHDAGI ISHTIROKI.

1. Reja:

2. O‘zini o‘zi boshqarish organlarining yong‘in xavfsizligini ta’minlashdagi ishtiroki
3. Mahalliy davlat hokimiyati organlarining yong‘in xavfsizligi sohasidagi vakolatlari.

Tayanch so‘z va iboralar: IIV Yong‘in xavfsizligi Bosh boshqarmasi, Yong‘in-texnik komissiyalari, Vazirlar Mahkamasi, umumob’ekt, profilaktika xodimlari

Fuqarolar o‘zini o‘zi boshqarish organlarining yong‘in xavfsizligini ta’minlashdagi ishtiroki

Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari:

- ko‘ngilli yong‘indan saqlash xizmatining tashkil etilishiga va faoliyatiga ko‘maklashadi;
- yong‘in nazoratining amalga oshirilishiga ko‘maklashadi;
- yong‘in xavfsizligi talablariga rioya qilinishi ustidan jamoat nazoratini amalga oshiradi.

Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari qonun hujjatlariga muvofiq boshqa tadbirdarda ham ishtirok etishi mumkin.

Mahalliy davlat hokimiyati organlarining yong‘in xavfsizligi sohasidagi vakolatlari

Mahalliy davlat hokimiyati organlari:

- yong‘in xavfsizligi sohasidagi davlat dasturlari amalga oshirilishida ishtirok etadi;
- yong‘inxavfsizligi chora-tadbirlarining bajarilishini tashkil etadi;
- mahalliy byudjetlarning yong‘inxavfsizligiga, shujumladan yong‘indan saqlash xizmatining ta’mnoti xarajatlariga doir qismining ishlab chiqilishi, tasdiqlanishi vajro etilishini ta’minlaydi;
- yong‘ino‘chiruvchilar depolari qurilishini amalga oshiradi, yong‘indan saqlash xizmatining mahalliy byudjetlar mablag‘lari hisobidan moliyalashtiriladigan bo‘linmalarini belgilangan tartibda saqlaydi vamoddiy-texnikabazasi bilan ta’minlaydi;
- yong‘inxavfsizligini ta’minlashning ijtimoiy vaiqtisodiy jihatdan rag‘batlantirilishini amalga oshiradi;
- tegishli hududda yong‘inga qarshi alohida rejim o‘rnatadi.

Mahalliy davlat hokimiyati organlari qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

MA’RUZA № 6

FUQAROLARNING YONG‘IN XAVFSIZLIGI SOHASIDAGI HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

Reja:

1. Tashkilotlarning yong‘in xavfsizligi sohasidagi huquqlari va majburiyatları
2. Fuqarolarni yong‘in xavfsizligi sohasidagi huquq va majburiyatları\
3. Fuqarolar o‘zini o‘zi boshqarish organlarining yong‘in xavfsizligini ta’minlashdagi ishtiroki.

Tayanch so‘z va iboralar: IIV Yong‘in xavfsizligi Bosh boshqarmasi, Yong‘in-texnik komissiyalari, Vazirlar Mahkamasi, umumob’ekt, profilaktika xodimlari.

Tashkilotlar:

- yong‘indan saqlash xizmati bo‘linmalarini belgilangan tartibda o‘z mablag‘lari hisobidan tashkil etish, qayta tashkil etish vatugatish;
- tegishli organlarga yong‘inxavfsizligini ta’minlash bo‘yicha takliflar kiritish;
- belgilangan tartibda yong‘in-texnik komissiyalarini tashkil etish;
- o‘z hududida sodir bo‘lgan yong‘inlarning kelib chiqishvakuchayish (tarqalish) sabablari hamda sharoitlarini aniqlashga doir ishlarni bajarish;
- yong‘inxavfsizligini ta’minlashni ijtimoiy vaiqtisodiy jihatdan rag‘batlantirish chora-tadbirlarini belgilash;
- belgilangan tartibda yong‘inxavfsizligi masalalari bo‘yicha axborot olish, shujumladan yong‘indan saqlash xizmatining boshqaruv organlari vabo‘linmalaridan axborot olish huquqiga ega.

Tashkilotlar:

- yong‘inxavfsizligi talablariga rioya qilishi;
- yong‘indan saqlash xizmati mansabdor shaxslarining qonuniy talablarini bajarishi;
- yong‘inxavfsizligi chora-tadbirlarini ishlab chiqishi va—amalga oshirishi, shuningdek ularning bajarilishi ustidandoimiy nazoratni ta’minalashi;
- yong‘inga qarshi targ‘ibot o‘tkazishi vao‘z xodimlariga yong‘inxavfsizligi chora-tadbirlarini qo‘llashni o‘rgatishi;
- o‘ziga qarashli yong‘inga qarshi himoya tizimi vavositalarini, yong‘inga qarshi suv ta’moti manbalarini, shujumladan yong‘inni o‘chirishning birlamchi vositalarini ishga yaroqliholda saqlashi, ulardan belgilanganidan boshqamaqsadda foydalanimishiga yo‘l qo‘ymasligi;
- yong‘indan saqlash xizmati bo‘linmalariga yong‘inlarni o‘chirishda, shuningdek yong‘innazorati organlariga yong‘inlarning kelib chiqishvakuchayish (tarqalish) sabablari hamda sharoitlarini aniqlashda, yong‘inxavfsizligi talablarining buzilishida vayong‘inlar kelib chiqishida aybdor shaxslarni topishda belgilangan tartibda ko‘maklashishi;

- o‘z hududidagi yong‘inlarni o‘chirish chog‘ida zarur kuchlar va vositalarni belgilangan tartibda berishi;
- yong‘indan saqlash xizmatining mansabdor shaxslari o‘z xizmat vazifalarini bajarayotganda ularning o‘z hududiga, binolar, inshootlarga va boshqaob’ektlarga erkin kirishini ta’minlashi;
- o‘ziga qarashli ob’ektlarning yong‘inxavfsizligi holati to‘g‘risidagi, shujumladan o‘zi ishlab chiqarayotgan mahsulotning yong‘inxavfliligi haqidagi, shuningdek o‘z hududida sodir bo‘lgan yong‘inlar vaularning oqibatlari to‘g‘risidagi ma’lumotlarni hamda hujjatlarni yong‘innazorati organlari mansabdor shaxslarining talabiga ko‘ra taqdim etishi;
- kelib chiqqanyong‘inlar, mavjud yong‘inga qarshi himoya tizimlari vavositalaridagi nosozliklar to‘g‘risida, yo‘llar vator ko‘chalarning holati o‘zgarganligi haqida yong‘indan saqlash xizmatiga darholxabar qilishi;
- ko‘ngilli yong‘indan saqlash xizmatining faoliyatiga belgilangan tartibda ko‘maklashishi shart.

Tashkilotlar qonun hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ega bo‘lishi va ularning zimmasida boshqa majburiyatlar bo‘lishi mumkin.

Fuqarolarning yong‘in xavfsizligi sohasidagi huquq va majburiyatları

Fuqarolar:

- yong‘in kelib chiqqan taqdirda o‘z sog‘lig‘i va mol-mulkining himoya qilinishi;
- yong‘in tufayli o‘ziga etkazilgan zararning o‘rni belgilangan tartibda qoplanishi;
- o‘z sog‘lig‘iga va(yoki) mol-mulkiga zarar etkazgan yong‘inning kelib chiqish sabablari hamda sharoitlarini aniqlashda ishtirok etish;
- yong‘in xavfsizligi masalalari bo‘yicha belgilangan tartibda axborot olish;
- yong‘indan saqlash xizmati etib kelguniga qadar odamlarni, mol-mulkni qutqarish vayong‘inlarni o‘chirish yuzasidan choralar ko‘rish;
- yong‘inlarni o‘chirishda yong‘indan saqlash xizmatiga ko‘maklashish;
- yong‘in xavfsizligini ta’minlashda, shujumladan ko‘ngilli yong‘indan saqlash xizmati faoliyatida ishtirok etish huquqiga ega.

Fuqarolar:

- yong‘in xavfsizligi talablariga rioya qilishi;
- yong‘inni sezib qolganda buhaqdayong‘indan saqlash xizmatiga darholxabar qilishi;
- yong‘indan saqlash xizmati mansabdor shaxslarining qonuniy talablarini bajarishi;
- o‘ziga qarashli ishlab chiqarish, xo‘jalik binolarini, turarjoylarni vaboshqabinolar hamda imoratlarni belgilangan tartibda yong‘innazoratini amalga oshirish maqsadida ko‘zdan kechirishi vatekshirishi uchun yong‘innazorati organlariningmansabdor shaxslariga imkoniyat berishi shart.

Fuqarolar qonun hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ega bo‘lishi va ularning zimmasida boshqa majburiyatlar bo‘lishi mumkin.

MA’RUZA № 7

YONISH JARAYONI, UNING TURLARI VA HUSUSIYATLARI

Reja

- 1 Yonish jarayoni
- 2 Yonish turlari va xususiyatlari

Tayanch so‘z va iboralar: Yong‘in, qizdirish jarayoni, yonuvchi modda, yondiruvchi muhit, yong‘in-texnik komissiyalari, profilaktika xodimlari

Yonish deb, yonuvchi moddalardagi murakkab oksidlanish jarayonida bir moddadan ikkinchi moddaga aylanishi, katta miqdorda issiqlik va nurlanish ajralishi bilan kechadigan hodisaga aytildi.

Yonish bo‘lishi uchun asosan uch omil: 1) yonuvchi modda; 2) yondiruvchi muhit; 3) qizdirish jarayoni bo‘lishi shart. Yonuvchi modda deyarli hamma joyda bor: bular dar xil yog‘och mahsulotlari va jihozlari, qog‘oz mahsulotlari, ximiyaviy moddalar, yonuvchi suyuqliklar va umumiy har qanday organik moddalar yonadi. Yondiruvchi muhit bu bizni o‘rab turgan havo tarkibidagi kislород bo‘lib, u ham hamma vaqt mavjud. Ba’zi bir hollarda yonish jarayoni xlor, brom kabi oksidlovchilar muhitida ham ro‘y berishi mumkin. Endi qizdirish jarayoni bo‘lsa, yonish reaksiysi vujudga keladi. Buning uchun ma’lum miqdorda qizdirish manba‘i bo‘lishi kerak. Reaksiya boshlangandan keyin, reaksiya natijasida hosil bo‘lgan isiqlik yonishning davom etishini ta’minlaydi. Shuning uchun yonayotgan zona alangalanish manba‘i va yonish zonasini hisoblanadi. Bu zona harorati qancha katta bo‘lsa, yonish shuncha tez bo‘ladi.

Yonish jarayoni asosan ikki xil bo‘lishi mumkin. Birinchisida qattiq jismlari yonish jarayonida yonayotgan modda havo muhitidan ajralgan holda bo‘ladi. Kislород bilan birikish yonish zonasidagi issiqlik natijasida o‘tadi va bu birikkan modda (yoki yonish mahsuloti) qizigan holatda yuqoriga qarab yo‘naladi va o‘z o‘rniga havo bilan kislородни kirishiga sababchi bo‘ladi va bu holat yonuvchi modda tamom bo‘lguncha davom etishi mumkiin. Bu yonish havo harakati natijasida yonish zonasini kislород bilan ta’milaganligi uchun diffuziya yonishi deb yuritiladi. Bunday yonish yog‘och, ko‘mir, sham va boshqalar yonganda kuzatish mumkin.

Yong‘inlar ham asosan diffuziya tartibida bo‘ladi. Yonishning ikkinchi xili yonuvchi gazlar, yonuvchi suyuqliklarning parlari va yonuvchi moddalarning changlari havo bilan aralashgan holatdagi yonishi bu kinetik yonish deb ataladi. Bunday yonish hajmiy yonish jarayonida o‘tadi, ya’ni shu ma’lum hajmdagi modda baravar yonadi. yonish tezligi modda konsentratsiyasiga, haroratiga bog‘liq bo‘ladi. Agar bunday yonish yopiq hajmlarda yoki idishlarda bo‘lsa, portlash hodisasi ro‘y beradi.

Yonish turlari

Yonish jarayonini shartli ravishda quyidagi turlarga bo‘lish mumkin:

1) **Chaqnash** - yonuvchi aralashmaning bir lahzada yonib, o‘chishi. Bunda yonishning davom etishi uchun aralashma tayyorlanishining imkoniyati yo‘q.

2) **Yonish** - qizdirish natijasida yonishning vujudga kelishi.

3) **Alangalanish** - yonishning alanga olib davom etishi.

4) **O‘z-o‘zidan yonish** - moddalar ichida asosan organik moddalarda ro‘y beradigan ekzotermik reaksiyalar natijasida, tashqaridan qizdirishsiz yonuvchi aralashmaning o‘z-o‘zidan yonib ketishi.

5) **O‘z-o‘zidan alangalanish** o‘z-o‘zidan yonishning alanga bilan davom etishi.

6) **Portlash** - o‘ta tez yonish ximiyaviy jarayonining bosim va energiya hosil qilish bilan o‘tishi.

Yonuvchi modda ma’lum haroratda o‘zidan yonuvchi parlar ajratib chiqarishi natijasida muqim alangalanish ta’mirlansa, bu harorati alangalanish harorati deb yuritiladi.

Ba’zi bir, asosan organik moddalar (torf, qipiqlik, paxta, ba’zi bir ko‘mir mahsulotlari, qora mollarning chiqindilari) o‘z-o‘zidan yonib ketish xususiyatiga ega. Chunki bu materiallar g‘ovak asosga ega bo‘lganligi sababli oksidlanishi mumkin bo‘lgan yuzasi juda katta bo‘lganligidan, agar bu moddalar ochiq joylarda ma’lum miqdorda yig‘ilib qolsa, ob-havo sharoiti ta’sirida qizib yonib ketadi.

Buning asosiy sababi organik moddalar namlanganda uning ichki qismida mikroorganizmlar rivojlanadi va ularning rivojlanishi natijasida issiqlik ajralib chiqadi, bu hodisani organik moddalarning o‘z-o‘zidan qizish protsessi deb ataladi.

Bunday hodisalar ba’zi bir ximiyaviy moddalarda ham bo‘lishi mumkin. Masalan ishqoriy er metallar, kalsiy karbid, so‘ndirilmagan ohaq uncha ko‘p bo‘lmagan suv ta’siridan qizib alangalanib ketishi mumkin. Bunday hodisalar ko‘pincha yong‘in chiqishiga bevosita sababchi bo‘ladi.

Yonish jarayoni yonuvchi modda molekulalarining kislород molekulari bilan birikish hodisasi hisoblanadi.

Yonish jarayonini akademik N. N. Semyonov zanjirli reaksiya nazariyasi asosida tushuntiradi. Oksidlanish reaksiyasi odatda issiqlik ajralib bilan boradi va bu hodisa ma’lum sharoitda tezlashib ketishi mumkin. Oksidlanishning mana shu tezlanish davri yonishga o‘tgan davriga to‘g‘ri kelib, buni o‘z-o‘zidan alangalanish hodisasi deb yuritamiz. O‘z-o‘zidan alangalanish issiqlik ta’sirida yoki zanjir asosida yuz berishi mumkin.

O‘z-o‘zidan yonish issiqlik ta’sirida bo‘lganda reaksiya natijasida ajralib chiqayotgan issiqlik tashqi muhitga tarqalayotgan issiqlikdan katta bo‘lgan taqdirdagina vujudga keladi. Zanjir asosida bo‘lganda molekulalar zanjiri uzuksiz davom etishi va zanjirning tarmoqlari keskin ortib ketishi natijasida bo‘ladi.

O‘z-o‘zidan yonib ketishning issiqlik ta’sirida ro‘y berish holatini ko‘rib chiqamiz.

Faraz qilaylik idishda V hajmida yonuvchi gaz, yoki parlanib yonuvchi gaz holatida kelgan suyuqlik havo bilan birga to‘ldirilgan bo‘lsin. Shu xonadagi horrarat va atmosfera bosimida havo bilan to‘ldirilgan yonuvchi gaz yoki parlangan suyuqlik o‘rtasida hech qanday reaksiya bo‘lmaydi. Ma’lumki reaksiya

jarayoni faqatgina harorat ko‘tarilishi bilan ro‘yobga chiqadi. Agar biz idish haroratini asta-sekin ko‘tara borsak, ya’ni idishni qirdirsak, unda aralashma harorati ham ko‘tarila boradi, bu bilan reaksiya tezligi ham ortaboradi va o‘z navbatida reaksiya natijasida ajralib chiqaytgan issiqlik ham ortaboradi. Berilayotgan issiqlikka tisbatan ajralib chiqayotgan issiqlik miqdori quyidagi formula asosida bo‘ladi.

$$q_1 = Q V K C^v e^{-E/(RT)}$$

Bu erda q_1 - issiqlik ajralish tezligi; Q - gaz yonganda ajraladigan issiqlik; V - yonuvchi aralashmaning hajmi; K - reaksiya tezligi konstantasi; S - reaksiyaga kirishuvchi moddalar konsentratsiyasi; v - reaksiya tartibi; E - aktivatsiya energiyasi; R - gazning universal o‘zgarmas miqdori; T - aralashma harorati.

Ximiyaviy reaksiya tezligi sifatida ma’lum hajimdagi moddaning birikish miqdori qabul qilingan. Aktivatsiya energiyasi molekulalar o‘rtasidagi bog‘banishni o‘zgartirishga sarflanishi zarur bo‘lgan energiya miqdoridir. Ximiyaviy birikish eski moddadagi molekulalar sistemasidagi atoslar o‘rtasidagi bog‘lanishni buzib, yangi molekular bog‘lanishdagi sistemanı vujudga keltiradi.

Shuning uchun ham moddaning bir turdan ikkinchi turga aylanishni ta’minlovchi reaksiya uchun eski atomlar orasidagi bog‘lanishni buzish uchun ma’lum miqdorda aktivatsiya energiyasi sarflanadi. Shuning uchun ham reaksiyaga kirishga sarflanishi kerak bo‘lgan energiya miqdori yig‘ilgandagina paydo bo‘ladi. Bu energiya asosan atom va molekulalar o‘rtasidagi bog‘lanishlarni uzish, yoki susaytirish uchun sarflanadi. Molekularni uzilish holatga olib keladigan energiya miqdori aktivatsiya energiyasi deb yuritiladi.

Reaksiya natijasida ajralib chiqayotgan issiqlik yonuvchi aralashmani qizishiga olib keladi. Aralashmaning harorati idish devorlari haroratidan ko‘payib ketsa, unda ajralayotgan issiqlik atrof muhitga tarqalab boshlaydi. Ma’lum vaqt birligida idish devorlari orqali tarqalayotgan issiqlik miqdori, idish devori va aralashma harorati orasidagi ayirmaga to‘g‘ri proporsional bo‘ladi, ya’ni

$$q_2 = \alpha S (T_1 - T_0)$$

Bunda q_2 - idish devori orqali tarqalayotgan issiqlik tezligi;

α - issiqlik tarqatish koefitsienti; S - idish devorlari yuzasi; T_1 - aralashma harorati; T_0 - idish devori harorati yuqorida keltirilgan formulalarning grafik ko‘rinishi aks ettirilgan.

q_1 - egri chiziq sistemalari reaksiyaga kirishayotgan gazlar aralashmasining boshlang‘ich konsentratsiyasiga bog‘liq bo‘lgan ximiyaviy reaksiyalarning har xil tezliklariga mos keladi.

Reaksiya egri chizig‘i bo‘ylab borganda o‘z-o‘zidan alanganish bo‘lmaydi. Bu holat moddaning bir maromda oksidlanish jarayoniga mos keladi. Agar reaksiya egri chizig‘i asosida bo‘lsa, bunda issiqlik ajralishi tarqalayotgan issiqlikka nisbatan hamma vaqt ko‘p bo‘ladi. Bu holatda aralashmaning issiqligi ko‘tarila boradi va natijada o‘z-o‘zidan alanganish boshlanadi.

Reaksiyaga kirishuvchi moddalarning ajralayotgan issiqligi bilan tarqatayotgan issiqligi orasidagi mutanosidlik qizdirish egri chizig‘i bo‘ylab borganda kuzatiladi. Bunda qizdirilishning va issiqlik tarqatishning tenglashgan holati V nuqtaga to‘g‘ri keladi. Ammo bu tenglanish turg‘un holat emas. Bu

holatda uncha katta bo‘lmagan qizdirish ham moddalardan ko‘plab issiqlik ajralishini ta’minlash va o‘z-o‘zidan alangalanishga olib kelishi oson. Demak bu ikki chiziqning kesishgan nuqtasi V ni issiqlik ajralishi va tarqalishi tenglashgan holat deb qarash mumkin. Mana shu tenglashgan holatdagi haroratni o‘z-o‘zidan alangalanish harorati deb yuritiladi.

Harxil moddalar uchun o‘z-o‘zidan alangalanish harorati har xil bo‘ladi va ba’zan keskin farq qiladi. Masaln A-72 benzinining o‘z-o‘zidan alangalarini harorati 255 °S ga, qayin yog‘ochiniki 400 °S, linoleumnikи 411 °S ga teng.

Zanjirsimon o‘z-o‘zidan alangalanish. Tabiatda shunday aralashmalar uchraydiki, ularning haroratini oshirmagan holda ximiyaviy jarayonlar ro‘y berishi va bu jarayonlar o‘z-o‘zidan tezlanishishi (Albatta birlamchi uncha ko‘p bo‘lmagan issiqlik hisobga)va o‘z-o‘zidan alangalanish hodisasini vujudga keltirishi mumkin.

Bunday hodisalarni zanjirli ximiyaviy jarayonlar deb yuritiladi. Bu hodisaning bo‘lishiga asosiy sabab aralashma holidagi yonuvchi moddalarda, ma’lum sharoit taqozosi bilan, harorat o‘zgarmagan holda, bir yoki bir necha markazda moddaning aktiv atomlari hosil bo‘ladi va bu atomlar modda tarkibidagi molekulalar bilan aktiv reaksiyaga kirishadi, buning natijasida yonuvchi modda molekulalari parchalanadi va bu prachalangan molekulalar yangi aktiv markazlar hosil qiladi.

Agar zanjirsimon reaksiyaning markazi bitta bo‘lsa, unda zanjir reaksiya sust kechadi. Bu holda tarmoqlanmagan zanjir reaksiyasi deb ataladi. Agar markaz bir necha bo‘lsa, bunda reaksiya keskin kuchayadi va o‘z-o‘zidan alangalanish protsessiga olib keluvchi reaksiya tarmoqlangan deb yuritiladi.

Buni xlor bilan vodorod molekulalarining o‘zaro birikishi misolida tushuntirish mumkin. Xlor molekulalari yorug‘lik ta’sirida atom holidagi xlor vodorod bilan engil birikadi.

Atom holidagi vodorod yana prachalaydi Bularni o‘zaro qo‘shsak

Bundan ko‘rinib turibdiki, zanjirsimon reaksiya markazlari tugamaydi va davom etaveradi.

Zanjirsimon reaksiyaning o‘z-o‘zidan alangalanishiga olib keluvchi xususiyati harorat ko‘tarilganda tezlashadi.

MA'RUZA № 8

O'Z-O'ZIDAN ALANGALANISH, O'Z-O'ZIDAN YONISHNING ALANGA BILAN DAVOM ETISHI.

Reja:

1. Yonish sharti, yonishning turlari.
2. Ёндириш манбаи ҳақида тушунча
3. Очик ҳавода турган ўз-ўзидан алангаланувчи ва ўз-ўзидан ёнувчи моддалаг.

Tayanch so'z va iboralar: havodagi kislород, yonuvchi modda, kimyoviy reaksiya, portlovchi aralashmalar, механик таъсир, ўз-ўзидан алангаланувчи, ўз-ўзидан ёнувчи маҳсулотлар.

Yonuvchi modda bilan havodagi kislородning o`zaro ta'siri natijasida juda tez kechuvchi va ko`p miqdorda issiqlik ajralib chiquvchi kimyoviy reaksiyaga yonish deyiladi. Ko`p hollarda yonish yonuvchi modda zarrachalarining nurlanishi bilan birga kechadi. Yong'in hosil bo`lishi va davom yetishi uchun yonuvchi modda (qattiq, suyuq yoki gazsimon), oksidlovchi modda (oddiy sharoitda oksidlovchi modda 124 vazifasini havodagi kislород o`tashi mumkin) va yondiruvchi manba (uchqun, ochiq alanga va cho`qlangan narsa)mavjud bo`lishi kerak. Shuni aytish kerakki, havodagi kislород miqdori 15 %dan yuqori bo`lgandagina oksidlovchi vazifasini bajara oladi, undan past konsentrasiyada esa yonish sodir bo`lmaydi. Bundan tashqari, oksidlovchi modda vazifasini tegishli sharoitlarda xlor, brom, kaliy va boshqa moddalar ham o`tashi mumkin. Xavfliliги bo`yicha barcha modda va ashyolarni quyidagi turlarga bo`lish mumkin: yonmaydigan, yonish yoki yonish va portlash xavfi mavjud hamda portlash xavfi mavjud moddalar. Yonmaydigan modda va ashyolarning yonish yoki yong`inni uzatish xususiyatlari Yo`q. Masalan, g`isht, metall, beton va boshqalar. Yonish xavfi mavjud modda va ashyolar havoda yonish va yong`inni uzata olish xususiyatiga egadir. Masalan, yog`och, Qog`oz, paxta tolasi, mazut va portlash xossasiga ega bo`lмаган changlar Yonish va portlash xavfi mavjud modda va ashyolar, qattiq va suyuq yonuvchi moddalar bilan birikkanda bir zumda alangalanib ketish xossasiga ega. Bunday moddalarga vodorod angidridi, azot kislotosi va boshqalar hamda yonuvchi moddalar bilan aralashganda o`zidan kislород ajratib chiqaruvchi kislota ta'sirida, qizdirilganda yoki mexanik ta'sir ostida portlovchi birikmalar kiradi. Masalan, paxta yoki tamaki changi bilan selitra aralashganda shu hol ro`y berishi mumkin. Shu bilan birga havoda tarqalgan holda portlovchi aralashmalar hosil qiluvchi changlar ham bunga mansubdir. Masalan, lub, tamaki va kanop tolalari changlari. Yonish va portlash xavfi mavjud moddalarga o`zi yonmaydigan, lekin suv bilan aralashganda parchalanib, gaz ajratib chiqaruvchi va bu gaz havo bilan birikkanda portlovchi birikma hosil qiluvchi moddalar ham kiradi (kalsiy karbid).

Portlovchi narsa va moddalar havo bilan aralashib, portlovchi birikmalar (yonuvchi gaz, vodorod, asetilen) hosil qiladi. Portlash xavfi mavjud moddalarga yonuvchi gazlar bilan aralashganda portlash xavfini vujudga keltiradigan yonmaydigan gazlar ham kiradi (kislород yonuvchi gaz bilan aralashganda

portlashga olib keladi). Ayrim holda yonmaydigan va yonishni ta'minlay olmaydigan portlovchi gazlar ham bo'lishi mumkin. Masalan, balonlarda sinqilgan holda saqlanuvchi karbonat angidrid gazi. Portlovchi moddalarga, shuningdek, havo bilan aralashgan holdagi noorganik moddalar ham (alyuminiy, magniy va boshqa moddalar kukunlari) kiradi.

2. Ўта қизиган жисмлар (мажбуран алангаланиш) ёки экзотермик жараёнлар (ўз-ўзидан ёниш) маълум ҳажмдаги ёнувчи аралашмани белгиланган ҳароратгача қиздириши мумкин, қачонки иссиқлик ажралиш тезлиги (ёнувчи аралашма реакциясига асосан), реакция юз бераётган зонадан чиқиб кетаётган иссиқлик тезлигига teng ёки ундан катта бўлса, ҳамда манбанинг иссиқлик таъсирининг давомийлиги ва қуввати белгиланган вақт ичida ёниш фронтини ҳосил бўлишини ва ўз-ўзидан тарқалишини таъминлайдиган критик шароитларни таъминласа, улар ёндириш манбалари бўла олади.

Ишлаб чиқаришдаги ёндириш манбаларини қуидаги кетма-кетликда кўриб ўтамиз: очиқ аланга, ўта қизиган ёнувчи маҳсулотлар ва улар орқали қизиган юзалар; Механик энергиянинг иссиқлик кўринишлари; химиявий реакцияларнинг иссиқлик кўринишлари; электр энергиясининг иссиқлик кўринишлари.

Ишлаб чиқаришда асосан очиқ олов ёнувчи печлар, реакторлар, буғ ва газларни ёндиришдаги машъалаларда ишлатилади. Ишлаб чиқаришда очиқ олов таъмирлаш ишларида кўпинча горелка оловлари, улаш лампалари, машъалалар ёрдамида музлаган қувурларни иситишда, ерни қиздиришда ёки чиқиндиларни ёндиришда қўлланилади.

Юқори ҳароратли ($800\dots1200^{\circ}\text{C}$ ва ундан юқори) қаттиқ, суюқ ва газ ҳолатидаги моддаларнинг ёниши ҳисобига, юқори қиздирилган маҳсулотларнинг ёниши газ ҳолатидаги маҳсулотларнинг ёниши ҳолларини ишлаб чиқаришдаги ёндириш манбалари туркумига киритиш мумкин.

Двигателлар ва иссиқлик ўчоқларининг ишлашида ҳосил бўладиган учқунлар ҳам ишлаб чиқаришда ёндириш манбаи ҳисобланади. Улар ёнилғиларнинг ўта қизиган қаттиқ заррачалари ёки газ оқимидаги тўлиқ ёниш натижасида ҳосил бўладиган учқунларни ташкил қиласи.

Ишлаб чиқариш шароитида қаттиқ жисмларнинг тўқнашуви натижасида механик энергия иссиқлик энергиясига ўтади, (бунда учқун чиқиши ёки чиқмаслиги ҳам мумкин); ўзаро бир-бирига ишқаланиб ҳаракат қилаётган жисмларда; қаттиқ жисмларга кесувчи асбоблар билан ишлов берилишида; ҳамда газларни сиқишда ва пластмассани пресслашда жисмлар хавфли ҳароратгача қизиши мумкин: қаттиқ жисмларнинг тўқнашувидан ҳосил бўлган учқунлар; машинага металл ёки тошларни келиб урилишидан ҳосил бўлган учқунлар; машинани ҳаракатланувчи мосламаларининг қўзғалмас қисмларига урилиши натижасида ҳосил бўладиган учқунлар; машина ва аппаратлардаги подшипникларни ўта қизиб кетиши шу гурухдаги ёндириш манбаларига мисол бўла олади.

Кимёвий реакцияларнинг иссиқлик таъсири ишлаб чиқаришдаги ёндириш манбаидир. Катта миқдорда иссиқлик ажратиб чиқарувчи кимёвий реакциялар ўз остида ёнғин ёки портлаш потенциал хавфини беркитиб туради, негаки бунда

ўзаро таъсири қилувчи янги ҳосил бўлаётган ёки яқин жойлашган ёнувчи моддаларнинг назоратсиз қизиб кетиши кузатилиши мумкин.

Кимёвий моддаларни ишлаб чиқариш ва сақлаш шароитида бундай бирикмаларнинг кўп тури учрайдики, уларнинг ҳаво ёки сув билан, шунингдек ўзаро бир-бири билан таъсири ёнгин келиб чиқишининг сабаби бўлиши мумкин.

Очиқ ҳавода турган ўз-ўзидан аллангаланувчи ва ўз-ўзидан ёнувчи моддалар: Бундай моддаларга ўсимлик ёғларини, ҳайвон ёғларини, тош ва писта кўмирини, темирнинг олтингугуртли бирикмасини, алифни ва бошқа эритувчиларни, шунингдек ўз-ўзидан ёниб кетиш ҳароратигача қиздирилган моддаларни киритиш мумкин (гранитоль, склос ва бошқалар).

Кимёвий моддаларни ўзаро бир-бири билан алоқада бўлиши натижасида ёниши ишлаб чиқаришда кўп учрайдиган ҳодисадир. Бундай ҳодисалар асосан органик моддаларга оксидловчиларнинг таъсиридан содир бўлади. Оксидловчилар сифатида хлор, фтор, бром, азот оксидлари, селитралар, хлоратлар, перманганатлар ва бошқа моддалар намоён бўлади.

Оксидловчилар органик моддалар билан бирикиб ёки аралашиб кетганда уларнинг ёнишини келтириб чиқаради.

Қиздириш ёки механик таъсири орқали ёниб кетиш ёки портлаш хусусиятига эга бўлган моддалар: Ўз табиатига қўра турғун бўлмаган айrim кимёвий моддалар вақт ўтиши билан ҳароратнинг, ишқаланиш, урилиш ва бошқа таъсиrlар натижасида парчаланиши мумкин. Қоидага қўра уларга эндотермик бирикмалар ва уларнинг маълум миқдордаги иссиқликни чиқариш билан боғлиқ бўлган парчаланиш жараёни тўғри келади. Бу портловчи моддалар – селитралар, перекислар, гидроперекислар, айrim металларнинг карбидлари, ацетиленидлар, ацетиленлар, диацетиленлар, пирофор ва бошқалар.

Ишлаб чиқариш жараёнида технологик белгиланган тартибни бузиш, шундай моддаларни сақлаш ва ишлатиш, уларга иссиқлик манбаининг таъсири (масалан, иситиш мосламалари ва ёнувчи маҳсулот ташувчилар) ва айниқса содир бўлиши мумкин бўлган ёнгиннинг таъсири, уларнинг портлаб емирилишига олиб келиши мумкин.

Электр энергиясининг иссиқлик кўриниши – ишлаб чиқаришнинг ёндириш манбай. Ишлаб чиқаришнинг технологик жараёнларда ёниш-портлаш хавфи ҳолатлари қисқа туташув, ҳимоя қатламаларнинг очилиб қолиши, электр двигателларнинг ортиқча қизиб кетишида, электр тармоқларининг айrim қисмлари шикастланганида, статик ва атмосферадаги зарядларнинг разрядланишидаги учқун ҳисобига вужудга келади.

Қисқа туташув натижасида электр ёйи, учқунлар ҳосил бўлади ва катта миқдордаги иссиқлик ажralиб чиқиб, ҳимоя қатламини ёнишига, ўтказгичларни ва электр машина деталларининг эришига ва эриган металл қисмларини сачрашига олиб келади.

Электр тармоқлари ва машиналарининг ортиқча юкланиши электродвигателлар механик юкини кўпайтириб юбориш, шунингдек электр тармоқларига мўлжалланмаган қўшимча истеъмолчиларнинг уланиши сабабли ҳосил бўлади.

Улаш жойларидаги қаршиликлар асосан аппарат ва машиналарга ўтказгич ва кабелларнинг сифатсиз уланган жойларида ёки ток ўтказувчи сим ўрамларини бир-бирига совуқ ҳолатда ўраш, орқали улашида шунингдек ёмон уланган жойларда вужудга келади.

Статик электр зарядининг разрядланиши чанг , газ ва суюқликларни бир жойдан иккинчи жойга олиб боришда, урилишда, майдалашда, чанглатиш ва шунга ўхшаш механик жараёнлар таъсирида ҳосил бўлиши мумкин.

Ишлаб чиқариш қурилмалари, қувурлари, қурилиш конструкцияларида катта микдордаги электр кучланишининг ҳосил бўлишига атмосферадаги токнинг индукцион ва электромагнит таъсири ёрдам беради. Конструкция ва аппаратларнинг ёрга уланиш системасининг бутунлай йўқлиги ёки носозлиги, қувурлар орасидаги тўсиқчаларнинг йўқлиги хавфли учқунли разрядларни юзага келтириш мумкин.

MA’RUZA № 9

MODDA VA MATERIALLARNING YONISH VA PORTLASHGA XAVFLILIK HUSUSIYATLARINI ANIQLOVCHI KO’RSATKICHLAR.

Reja

1. Modda va materiallarning yonish turlari
2. Moddalarning yonish va portlashga xaflik hususiyatlari
3. Moddalarning yonish hususiyati

Tayanch so‘z va iboralar: Yong‘in, qizdirish jarayoni, yonuvchi modda, yondiruvchi muhit, yong‘in-texnik komissiyalari, profilaktika xodimlari

Moddalarning yonish hususiyati deb, qizdirish natijasida ularning parchalanib yonuvchi gazsimon va bug‘simon moddalar hosil qilishi tuShuniladi. Yonuvchi moddalarning parchalanish holatini uchuvchi qismining Yonish qonuniyatini o‘rganiшда qo‘llash mumkin.

Masalan, quruq moddalarni qizdirib haydash yo‘li bilan gazga aylantirish mumkin. Haydashdan keyin hosil bo‘lgan yoki qolgan qoldiq Koks qoldig‘i deb yuritiladi. Koks qoldig‘ining yonishi gazsimon moddalarning Yonish jarayonidan bir muncha farq qilsada,o‘z-o‘zidan alangalanshning issiklik nazariyasini o‘rganiшда yuqoridagi jaraYondan foydalanish mumkin. Qattiq moddalarning yong‘inga xavflilik xususiyatlari qattiq modda yonganda ajralib chiqadigan issiklik miqdori,o‘z-o‘zidan alangalanish, yonib ketish tezligi va material yuzasida yonishning tarqalishi bilan ifodalanadi.

Yonish xarorati qattiq jismlar yonganda hosil bo‘ladigan issiqlik miqdori va yonish zonasiga kelaYotgan havo miqdoriga bog‘liq.Kattiq va suyuq Yoqilg‘i Yonishi uchun kerak bo‘ladigan havo miqdorini quyidagicha hisoblash mumkin.

Har qanday Yonuvchi modda tarkibiga uglerod, oltingugurt, vodorod va kislorod kiradi. Shular tarkibidan kelib chiqib, jismning Yonishi uchun sarflanadigan havo miqdorini hisoblab chiqish mumkin:

$$V = 1/23(2,67 \div S \div 8H - O)$$

Qizish natijasida jismlarning Yonishi uchun havo almashish - konveksiya hodisasi sababli Yonish zonasiga nazariy jihatdan kerak bo‘ladiganiga nisbatan ko‘proq havo oqimiga olib keladi.Haqiqatda sarflangan havo miqdorining, nazariy jihatdan hisoblangan havo miqdoriga nisbati ortiqcha havo miqdori deb yuritiladi. Yong‘in vaqtida bu koeffitsient doirasi nihoyatda katta bo‘lib, 2-20% gacha o‘zgaradi. Etarli bo‘lmagan havo muhitida Yonish to‘liq bo‘lmaydi, hosil bo‘lgan Yong‘in mahsulotlari (SO, qurum, spirtlar) yana Yonish xususiyatiga ega bo‘ladi. Bunday mahsulotlar oz miqdorda bo‘lsada, tutun tarkibida bo‘ladi.

Qattiq moddalarning maydalangan $10^9\ldots 10^{10} \text{ m}^3$ kattaliqdagi zarralari havo muhitida uzoq vaqt yurishi katta zichlikka ega bo‘lgan tumansimon muhitni vujudga keltiradi. Bunday mayda zarrachalarning ko‘p miqdorda yig‘ilib qolishi xuddi gaz va Yonuvchi suyuqliklar kabi portlash xususiyatiga ega bo‘ladi.Odatda havo tarkibidaga changlar miqdori g/m^3 Yoki mg/l birliklarda o‘lchanadi. Ko‘pgina Yonuvchi moddalar changlarining portlash uchun pastki zichlik miqdori juda katta birliklarni tashkil qiladi.Qand va torf changining portlashi uchun quyi chegaradagi zichligi 13500 g/m^3 va 2200 g/m^3 tashkil etib bunday changlarni portlatib yuborish uchun katta quvvatdagi Yondiruvchi impuls zarur.

Portlashning boshlang‘ich fazasida havo tarkibidagi eng mayda zarralar hamda ularning ajratgan issig‘idan katta zarralar alanganadi, Shundan keyin zichlik etarli bo‘lsa, alanganish hajmini tus oladi va portlash yuz beradi. Shuning uchun ham zichlikning quyi chegarasi asosida changlarning yong‘inga va portlashga qarshi xavfliligi aniqlanadi. Alanganishning quyi chegarasi 65 g/m^3 gacha bo‘lgan zichlikka to‘g‘ri kelgan changlar portlashga xavfli (oltingugurt changi, un va b.), bu chegara 65 g/m^3 dan ortiq zichlikka to‘g‘ri kelsa, unda Yong‘inga xavfli changlar toifasiga kiradi (tamaki, yog‘och changi).

Yong‘in xalq xo‘jaligiga moddiy zarar keltiradi. Bir necha minut yoki soat ichida juda katta miqdordagi xalq boyliklari yonib, kulga aylanadi. Yong‘in vaqtida ajralib chiqadigan tutun, karbonat angidrid va boshqa zararli hid hamda gazlar atmosferaga ko‘tarilib, havoning tarkibini buzadi. Bundan tashqari, kishilarning jarohatlanishiga, hatto o‘limiga sabab bo‘ladi. Bularning hammasi, yong‘inga qarshi kurash tadbirlari va ishlarning xavfsiz bajarish usullarini mehnat muhofazasi bilan birgalikda o‘rganishni taqozo qiladi.

Hozirgi paytda respublikamiz to‘qimachilik korxonalarida yong‘in havfini kamaytirish borasida bir qator ishlar amalga oshirilgan. Xususan, korxonalarda yong‘in chiqish xavfi kamaytirilgan va butunlay xavfsiy ishlaydigan elektr uskunalari ishlatilmoqda. O‘t o‘chirishning mexanizatsiyalashgan va avtomatlashgan tizimlari tobora kengroq qo‘llanilmoqda. Lekin yong‘in chiqishining oldini olish va o‘t o‘chirishda asosiy ma’suliyat kishilar zimmasiga tushishini hamda ularning yong‘inni o‘chirish texnikasining barcha talablarini to‘liq bajarilishiga bog‘liq ekanligini unutmaslik kerak. To‘qimachilik korxonalarida bu tadbirlar tartibli ravishda, yong‘in texnikasi haqidagi nizom, yong‘in xavfsizligi qoidalari, yo‘riqnomalar va boshqa hujjatlar asosida olib borilishi shart. Respublikamizning har bir fuqarosi jamoat va davlat mulkini ko‘z qorachig‘iday saqlashi, asrab avaylashi, uni boyitish haqida qayg‘urishi va o‘t o‘chirish tadbirlari keng jamoatchilikka suyangan holda, sexlardagi har bir ishchining ishtirokida olib boriladi. Yong‘in muhofazasini tashkil qilish kasbiy

va ixtiyoriy turlarga bo`linadi. Kasbiy yong`in muhofazasi o`z navbatida, harbiylashtirilgan (yirik shahar va muhim obektlarga xizmat ko`rsatadi), harbiylashtirilmagan (tuman markazlari va yirik sanoat obektlariga xizmat ko`rsatadi) va tarmoq (ayrim birlashma va korxonalarga xizmat ko`rsatadi) turlariga bo`linadi. Yirik sanoat korxonalarida kasbiy yong`in qismlari tashkil qilinadi. QM va Q 11-8980 «Sanoat korxonalarining bosh rejalar» ga asosan ishlab chiqarishning yong`in xavfi bo`yicha A, B va V toifalari uchun (to`qimachilik korxonalarini V tofasiga mansub) kasbiy yong`in qismlarining xizmat ko`rsatish radiusi 2 km. dan oshmasligi kerak. Bu qismlar odatda korxona hududidan tashqariga joylashtiriladi.

Yong`in xavfi kam bo`lgan hamda kichikroq korxona muassasalarda yong`in muhofazasi va obektni qo`riqlash xizmati birgalikda qo`shib olib boriladi. To`qimachilik korxonalarida yong`in muhofazasini tashkil qilish va yong`in chiqishini ogohlantirish o`t o`chirish texnikasini hamda quollarini aloqa va o`chirish vositalarini jangovar holatda saqlash, yong`in chiqqan taqdirda ularni o`chirishda faol qatnashish, xalq mulkini asrab-avaylab saqlash borasida targ`ibot va tashviqot ishlarini olib borishni taqozo qiladi.

Korxona, muassasa va tashkilotlarda yong`in xavfsizligini ta'minlash ishini tashkil qilish. Ishchilar, xizmatchilar va muxandis-texnik xodimlarning ko`pchiligi jalg etilgandagina korxona, muassasa hamda tashkilotlarda yong`inga qarshi muvaffaqiyatli kurash olib borish mumkin. Buning uchun har bir ob'ektda yong`in-texnik komissiyasi tuziladi. Komissiyaga bosh muhandis, texnik rahbar yoki rahbarning birinchi o`rnbosari boshchilik qiladi, ularning vazifasi quyidagilardan iborat:

yong`inni oldini olish qoidalaring buzilishlarini va yong`in chiqishiga olib keluvchi kamchiliklarni aniqlash, ularni bartaraf etish tadbirlarini ishlab chiqish;

ob'ektiv yong`inning oldini olish tartibini ishlab chiqish va ularni o`tkazishda qatnashish;

ishchi xizmatchilar va muhandis-texnik xodimlar o`rtasida yong`inning oldini olish tartibi hamda qoidalari bo`yicha ommaviy tushuntirish ishini olib borish.

Ipakchilik sanoati korxonalaridagi yong`in muhofazasiga quyidagi vazifalar yuklatiladi:

- har kun iyong`inning oldini olishni amalga oshirish;
- yong`in chiqishiga yo`l qo`ymaydigan tadbirlarni ishlab chiqish;
- ishchi-xizmatchilar, muhandis-texnik xodimlarga yong`inga qarshi kurash yuzasidan yo`l-yo`riqlar berish va ular bilan mashg`ulotlar o`tkazish;

- Hamma o`t o`chirish tizimlari va qurilmalari hamda yong`in, aloqa va signalizatsiya vositalarining holatini nazorat qilish;

-qo`riqlanayotgan ob'ektdagi yonayotgan narsalar va yong`inni o`chirish.

Yonish faqat ma'lum xarorat sharoitidagina mavjud bulishi mumkin. Barcha yonuvchi moddalarning tarkibida uglerod va vodorod mavjuddir. Issiklik ta'siri ostida yonuvchi moddalar parchalanib yukoridagi gazlar ajralib chikib, xavodagi kislorod bilan birikib alanga xosil kiladi.

Yonish fazalarining quyidagi xili aniqlangan.

1. **Chaqnash.** Agar sekin-asta kizdirilayotgan yonuuchi suyuqlikka vakti-vakti bilan tashkaridan alanga ta'sir kildirsak, ma'lum bir xaroratga etganda, undan ajralib

chikayotgan gazsimon maxsulot chaknaydi va shu zaxotiyok uchib koladi. Suyuqlikning ana shu paytdagi xarorati chaknash xarorati deyiladi. Chaknagan gazlarning tez uchib kolishining sababi, bu xaroratda suyuqlikdan ajralib chikayotgan gazlar alangani davom ettirish uchun etarli emasligidir.

Chaqnash xarorati moddalarning yongin jixatidan xavflilagini aniklashda katta axamiyatga molikdir. Ayrim moddalardan ajralib chikuvchi bug va gazlar kup mikdorda ajralib chikuvchi bug va gazlar up mikdorda yigelishi natijasida ochik alanga bilan birikib kuchli portlash paydo qilishi mumkin.

2. Alangalanish. Suyuq, yonuvchi moddalarni kizdirish chaknash xaroratidan yukorida xam davom ettirilsa, uning buglanishi jadallahadi va shunday bir vakt keladiki, unga alangan yakinlashtirilsa chikayotgan buglar chaknaydi va yoyonishda davom etadi. Suyuqlikning shu xolatdagi xarorati alanganlanish xarorati deb ataladi.

3. O'z-o'zidan alangalanish. Agar yonuvchi suyuqlikni alanganlanish xaroratidan yukori bulgan xolatda xam kizdirish davom ettirilsa-yu, lekin ochik alanga yakinlashtirilmasa, ma'lum bir vaktda, ajralib chikayotgan buglar uzidan-uzi alanganlib ketadi. Yonuvchi suyuqlikning ana shu xolatdagi xarorati uz-uzidan alanganishxarorati deyiladi.

4. O'z-o'zidan yonib ketish. Ayrim yonuvchi kattik moddalarni saklash notugri tashkil etilgan xollarda uz-uzidan yonib ketishi mumkin. Maasalan, nam xolda garamlangan poxol, paxta, toshkumir, moy artilgan latta va boshkalar. Bu jarayon uz-uzidan yonish xarorati ma'lum xaroratdagina bulishi mumkin.

Ishlab chiqarishda yuz beradigan yong`inlarning kelib chiqish sabablarini ikki turga bo`lish mumkin.

1. Ishlab chiqarish texnologik jarayonidan alanga manbaini chiqarib tashlab bo`lmaydigan va sexlarda yonuvchi yoki portlovchi moddalar yig`ilib qolgan holat. Masalan, pardozlash fabrikasida matoning tukini kuydirish jarayoni yuqori haroratda olib boriladi, ya'ni kuydiruvchi yuza cho`g`lanib turganda 100 mG`min tezlikda mato o`tkaziladi. Mashinaning harakat qismlaridan birortasi to`xtab qolsa yoki mato ozgina bo`lsa-da, to`planib qolsa, darhol alanganlib yong`in chiqishi mumkin.

2. Ishlab chiqarish texnologik jarayonidan yonuvchi yoki portlovchi moddalarni chiqarib tashlab bo`lmaydigan va alanga manbaini qo`llashga yo`l qo`yilgan holat. Masalan, xomashyo va tayyor mahsulot omborlarida, titish-savash sexlarida paxta va matolar ko`p miqdorda to`planishi tabiiy. Lekin bu xonalarda ma'lum ehtiyyot choralar ko`rilmasdan ochiq alanga manbai ishlatilsa yong`in chiqishi mumkin

MA'RUZA № 10

Gaz-bug' havoli aralashmalarining, suyukliklarning, qattiq moddalarning va changlar yonishining o'ziga xos xususiyatlari.

Reja

1. Avariya holatida gaz va bug'larni chiqarib yuborish. Chiqarib yuborish tizimiga bo`lgan talablar.

2. Ishlab chiqarishdagi yondirish manbalarining sinflarga bo`linishi.

3. Ochiq alanga, qizigan yonish mahsulotlari va ular ta'sirida qizigan yuzalar yondirish manbai sifatida. Xavfsizlik choralar

Tayanch so'z va iboralar: Gaz va bug'lar, yonuvchi gazlar, xavfli hudud, avariya, yengil alangalanuvchi, favqulodda, mash'ala, turbulent, energiya, qattiq, suyuq va gaz holati, uchqun.

1.Yonuvchi gazlarni va bug'larni favqulodda chiqarib yuborish. Avariya yoki yong'in vaqtida xavfli hududlardan yonuvchi gazlarni, yengil alangalanuvchi va yonuvchi suyuqliklarning qizdirilgan bug'larini favqulodda chiqarib yuborish holati shunday mahsulotli apparatlardan foydalanish davrida yuz beradi. Yonuvchi gaz va bug'larni chiqarib yuborish jarayoni amaliyotda favqulodda chiqarib yuborish tizimi orqali, yonuvchi suyuqliklarni favqulodda belgilangan vaqt ichida tezkorlik bilan to'kib olish singari chiqarib yuborish talablariga javob berishi kerak. Gaz va bug'larni favqulodda chiqarib yuborish avariya jo'mraklarini ochib yuborish davrida hosil bo'ladigan ortiqcha bosim orqali bajariladi. Jo'mraklarini ochish qo'l yordamida yoki avtomat tarzda bajariladi. Biroq gaz va bug'larni chiqarib yuborishning suyuqliklarni to'kib olish tizimidan farqi shuki, ular maxsus idishlarga emas balki alohida quvur bilan mash'ala moslamasi orqali atmosferaga chiqarib yuboriladi. Lekin, bu holatda atrof-muhitni katta maydonda ifloslanishi sababli gazlarni chiqarib yuborishni yong'in xavfsizligi nuqtai nazaridan xavfsiz deb bo'lmaydi. Yonuvchi konsentrasiyani hosil bo'lish xavfining oldini olish maqsadida chiqarib yuborish tizimiga odatga ko'ra, har bir apparatga hisoblash yo'li orqali svecha moslamasining xavfsiz balandligi belgilanadi, chiqarib yuborish uchlariga mash'ala orqali chiqish sharoiti yaratiladi, ya'ni gaz va bug'larning oqimi tashqariga atmosferaning turbulentligini hisobga olgan holda chiqarib yuboriladi.

Yonuvchi gaz va bug'larni katta hajmda favqulodda chiqarib yuborish kerak bo'lsa, sex yoki korxonaning mash'ala tizimi orqali chiqarib yondirib yuborilishi ham mumkin.

2. O'ta qizigan jismlar (majburan alangalanish) yoki ekzotermik jarayonlar (o'z-o'zidan yonish) ma'lum hajmdagi yonuvchi aralashmani belgilangan haroratgacha qizdirishi mumkin, qachonki issiqlik ajralish tezligi (yonuvchi aralashma reaksiyasiga asosan), reaksiya yuz berayotgan zonadan chiqib ketayotgan issiqlik tezligiga teng yoki undan katta bo'lsa, hamda manbaning issiqlik ta'sirining davomiyligi va quvvati belgilangan vaqt ichida yonish frontini hosil bo'lishini va o'z-o'zidan tarqalishini ta'minlaydigan kritik sharoitlarni ta'minlasa, ular yondirish manbalari bo'la oladi.

Ishlab chiqarishdagi yondirish manbalarini quyidagi ketma-ketlikda ko'rib o'tamiz: ochiq alanga, o'ta qizigan yonuvchi mahsulotlar va ular orqali qizigan yuzalar; Mexanik energiyaning issiqlik ko'rinishlari; ximiyaviy reaksiyalarning issiqlik ko'rinishlari; elektr energiyasining issiqlik ko'rinishlari.

Ishlab chiqarishda asosan ochiq olov yonuvchi pechlar, reaktorlar, bug' va gazlarni yondirishdagi mash'alalarda ishlatiladi. Ishlab chiqarishda ochiq olov ta'mirlash ishlarida ko'pincha gorelka olovlari, ulash lampalari, mash'alalar yordamida muzlagan quvurlarni isitishda, yerni qizdirishda yoki chiqindilarni yondirishda qo'llaniladi.

Yuqori haroratli ($800\dots1200^{\circ}\text{S}$ va undan yuqori) qattiq, suyuq va gaz holatidagi moddalarning yonishi hisobiga, yuqori qizdirilgan mahsulotlarning yonishi gaz

holatidagi mahsulotlarning yonishi hollarini ishlab chiqarishdagi yondirish manbalari turkumiga kiritish mumkin.

Dvigatellar va issiqlik o‘choqlarining ishlashida hosil bo‘ladigan uchqunlar ham ishlab chiqarishda yondirish manbai hisoblanadi. Ular yonilg‘ilarning o‘ta qizigan qattiq zarrachalari yoki gaz oqimidagi to‘liq yonish natijasida hosil bo‘ladigan uchqunlarni tashkil qiladi.

Ishlab chiqarish sharoitida qattiq jismlarning to‘qnashuvi natijasida mexanik energiya issiqlik energiyasiga o‘tadi, (bunda uchqun chiqishi yoki chiqmasligi ham mumkin); o‘zaro bir-biriga ishqalanib harakat qilayotgan jismlarda; qattiq jismlarga kesuvchi asboblar bilan ishlov berilishida; hamda gazlarni siqishda va plastmassani presslashda jismlar xavfli haroratgacha qizishi mumkin: qattiq jismlarning to‘qnashuvidan hosil bo‘lgan uchqunlar; mashinaga metall yoki toshlarni kelib urilishidan hosil bo‘lgan uchqunlar; mashinani harakatlanuvchi moslamalarining qo‘zg‘almas qismlariga urilishi natijasida hosil bo‘ladigan uchqunlar; mashina va apparatlardagi podshipniklarni o‘ta qizib ketishi shu guruhdagi yondirish manbalariga misol bo‘la oladi.

Kimyoviy reaksiyalarning issiqlik ta’siri ishlab chiqarishdagi yondirish manbaidir. Katta miqdorda issiqlik ajratib chiqaruvchi kimyoviy reaksiyalar o‘z ostida yong‘in yoki portlash potensial xavfini berkitib turadi, negaki bunda o‘zaro ta’sir qiluvchi yangi hosil bo‘layotgan yoki yaqin joylashgan yonuvchi moddalarning nazoratsiz qizib ketishi kuzatilishi mumkin.

Kimyoviy moddalarni ishlab chiqarish va saqlash sharoitida bunday birikmalarining ko‘p turi uchraydiki, ularning havo yoki suv bilan, shuningdek o‘zaro bir-biri bilan ta’siri yong‘in kelib chiqishining sababi bo‘lishi mumkin.

Ochiq havoda turgan o‘z-o‘zidan alangalanuvchi va o‘z-o‘zidan yonuvchi moddalalar: Bunday moddalarga o‘simlik yog‘larini, hayvon yog‘larini, tosh va pista ko‘mirini, temirning oltingugurtli birikmasini, alifni va boshqa erituvchilarni, shuningdek o‘z-o‘zidan yonib ketish haroratigacha qizdirilgan moddalarni kiritish mumkin (granitol, sklos va boshqalar).

Kimyoviy moddalarni o‘zaro bir-biri bilan aloqada bo‘lishi natijasida yonishi ishlab chiqarishda ko‘p uchraydigan hodisadir. Bunday hodisalar asosan organik moddalarga oksidlovchilarning ta’siridan sodir bo‘ladi. Oksidlovchilar sifatida xlor, ftor, brom, azot oksidlari, selitralar, xloratlar, permanganatlar va boshqa moddalar namoyon bo‘ladi.

Oksidlovchilar organik moddalar bilan birikib yoki aralashib ketganda ularning yonishini keltirib chiqaradi.

Qizdirish yoki mexanik ta’sir orqali yonib ketish yoki portlash xususiyatiga ega bo‘lgan moddalalar: O‘z tabiatiga ko‘ra turg‘un bo‘lmagan ayrim kimyoviy moddalalar vaqt o‘tishi bilan haroratning, ishqalanish, urilish va boshqa ta’sirlar natijasida parchalanishi mumkin. Qoidaga ko‘ra ularga endotermik birikmalar va ularning ma’lum miqdordagi issiqlikni chiqarish bilan bog‘liq bo‘lgan parchalanish jarayoni to‘g‘ri keladi. Bu portlovchi moddalari – selitralar, perekislar, gidroperekislar, ayrim metallarning karbidlari, atsetilenidlar, atsetilenlar, diatsetilenlar, pirofor va boshqalar.

Ishlab chiqarish jarayonida texnologik belgilangan tartibni buzish, shunday moddalarni saqlash va ishlatish, ularga issiqlik manbaining ta'siri (masalan, isitish moslamalari va yonuvchi mahsulot tashuvchilar) va ayniqsa sodir bo'lishi mumkin bo'lgan yong'inning ta'siri, ularning portlab yemirilishiga olib kelishi mumkin.

Elektr energiyasining issiqlik ko'rinishi – ishlab chiqarishning yondirish manbai. Ishlab chiqarishning texnologik jarayonlarda yonish-portlash xavfi holatlari qisqa tutashuv, himoya qatlamalarning ochilib qolishi, elektr dvigatellarning ortiqcha qizib ketishida, elektr tarmoqlarining ayrim qismlari shikastlanganida, statik va atmosferadagi zaryadlarning razryadlanishidagi uchqun hisobiga vujudga keladi.

Qisqa tutashuv natijasida elektr yoyi, uchqunlar hosil bo'ladi va katta miqdordagi issiqlik ajralib chiqib, himoya qatlamini yonishiga, o'tkazgichlarni va elektr mashina detallarining erishiga va erigan metall qismlarini sachrashiga olib keladi.

Elektr tarmoqlari va mashinalarining ortiqcha yuklanishi elektrodvigatellar mexanik yukini ko'paytirib yuborish, shuningdek elektr tarmoqlariga mo'ljallanmagan qo'shimcha iste'molchilarning ulanishi sababli hosil bo'ladi.

Ulash joylaridagi qarshiliklar asosan apparat va mashinalarga o'tkazgich va kabellarning sifatsiz ulangan joylarida yoki tok o'tkazuvchi sim o'ramlarini bir-biriga sovuq holatda o'rash, orqali ularshida shuningdek yomon ulangan joylarda vujudga keladi.

Statik elektr zaryadining razryadlanishi chang, gaz va suyuqliklarni bir joydan ikkinchi joyga olib borishda, urilishda, maydalashda, changlatish va shunga o'xshash mexanik jarayonlar ta'sirida hosil bo'lishi mumkin.

Ishlab chiqarish qurilmalari, quvurlari, qurilish konstruksiyalarida katta miqdordagi elektr kuchlanishining hosil bo'lishiga atmosferadagi tokning induksion va elektromagnit ta'siri yordam beradi. Konstruksiya va apparatlarning yorga ulanish sistemasining butunlay yo'qligi yoki nosozligi, quvurlar orasidagi to'siqchalarining yo'qligi xavfli uchqunli razryadlarni yuzaga keltirish mumkin.

3. Ishlab chiqarishda asosan ochiq alanga - yonuvchi pechlar, reaktorlar, bug' va zavodlardagi chiqindi gazlarni yoqib yuborish mash'allarida, payvandlash ishlari va shu kabilarda ishlatiladi. Ishlab chiqarishda ochiq olov ta'mirlash ishlarida ko'pincha gorelka olovları, payvandlash lampalari, mash'allar yordamida muzlagan quvurlarni isitishda, yerni qizdirishda yoki chiqindilarni yondirishda qo'llaniladi.

Yuqori haroratli ($800\dots1200^{\circ}\text{S}$ va undan yuqori) qattiq, suyuq va gaz holatidagi moddalarning yonishi hisobiga, yuqori qizdirilgan mahsulotlarning yonishi, gaz holatidagi mahsulotlarning yonish hollarini ishlab chiqarishdagi yondirish manbalari turkumiga kiritish mumkin.

Dvigatellar va issiqlik o'choqlarining ishlashida hosil bo'ladigan uchqunlar ishlab chiqarishda yondirish manbai hisoblanadi.

Ular yonilg'ilarning qattiq, o'ta qizigan zarrachalari yoki gaz oqimi ko'rinish bo'ladi, ular asosan yonuvchi moddalarni to'liq yonmasligi yoki mexanik ravishda olib chiqib ketishi va mahsulotlar korroziyasi natijasida hosil bo'ladi.

Shuningdek ochiq alanga yondirish manbaiga olovdan ehtiyoitsizlik bilan foydalanish (sigaretaning cho'g'lari, gugurt va shu kabilalar)ni ham kiritish mumkin.

Alanga ta'siridan qizigan yuzalar (avtomobil dvigatellarining qizigan qismlari, pechlarning devorlari va h.k.) ham yondirish manbai bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Xavfsizlik choralarini: 1. Olov bilan ishlaydigan apparatlarni yonuvchi moddalardan izolyatsiya qilish (alohida xonalarga joylashtirish) yoki meyoriy yong'inga qarshi masofalarni saqlangan holda joylashtirish; 2. Zavodlarning mash'ala tizimlarini balandligi 25 metrdan, binolargacha bo'lgan masofasi esa 60-100 metrdan kam bo'lmasligi kerak. Bu masofa suyultirilgan gazlar omborigacha 150 metrdan ortiq bo'lishi lozim; 3. Mash'alalar atrofi 25-50 metr radiusda o'ralib qurigan o't-o'lanlardan, axlatlardan tozalab turilishi lozim; 4. Payvandlash ishlari alohida ajratilgan maxsus xonalarda, maydonlarda yoki sex ichida vaqtinchalik ajratilgan joylarda, ma'muriyat ruxsati bilan o'tkazilishi kerak. Bunda payvandlash maydoni 10 metr radiusda yonuvchi moddalardan tozalangan bo'lishi va birlamchi yong'in o'chirish vositalari bilan ta'minlanishi lozim.

MA’RUZA № 1

BINO VA INSHOOTLARNI YONG’IN XAVFSIZLIGINI TA’MINLASH ASOSLARI.

Reja:

1. Bino va inshootlarni yong’in va portlash xavfi bo’yicha guruxlanishi.
2. Binolarni loyihalash va konstruktiv echim qabul qilishda yong’in xavfsizligini ta’minalash.

Tayanch so’z va iboralar: Bino va inshoot, loyiha, yonuvchi gazlar, xavfli hudud, avariya, yengil alangalanuvchi, favqulodda, moyillik darajasi, energiya, qattiq, suyuq va gaz holati, uchqun.

Bino va inshootlarni yonish va portlashga moyillik darajasini aniqlashdan maqsad ularda sodir bulajak yong’in va portlashlar oqibatida yuzaga keluvchi buzilishlarni va odamlarga xavfli va dahshatli ta’sirini oldini olishdan iborat. Bino va inshootlarni yonish va portlashga moyilligi, ularning qanday ashyolardan qurilganligiga va ularda mavjud ishlab chiqorish jarayonida ishlatiladigan yoki saqlanadigan xomashyolarning yonuvchanlik xususiyatlari bilan belgilanadi. Umumittifoq texnologik loyihalash me’yori (ONTP 24-86. 1.2.3) va qurilish qoidalari va me’yorlari (KMK 2. 01.02-85) ga binoan sanoat korxonalari va omborlari yonish va portlash xavfi bo’yicha 5-ta toifalarga bo’linadi, jumladan **A**, **B**, **V**, **G** va **D**. Bularning **A** va **B** toifalari yonish va portlashga moyil. **V** va **G** toifalari bo’lsa faqat yonishga xavfli deb hisoblanadi. **D** toifasida esa na yonish va na portlash xavfi mavjud emas.

Bino va inshootlarni bunday guruhanishi, ularda ishlatiladigan yoki saqlanadigan engil yonuvchi gazsimon va suyuq moddalarning bug’lari havo bilan aralashganda, portlovchi gazli muxitni hosil qiluvchi agregat holati va ularning alangalanish harorati (Ta)- ga binoan amalga oshirilgan.

A-toifaga yonish va portlash xavfi mavjud bo’lgan, chaqnab yonish harorati 28°S dan past bo’lgan, yonuvchi gaz va engil alangalanuvchi suyuqlik bug’lari havodagi kislorod bilan yoki suv bilan birikishi natijasida, portlashga moyil xavfli bosimi 5 kPa dan oshiq bo’lgan, gazsimon aralashmalar hosil bo’ladigan, korxonalar kiradi. Bu guruhga kiruvchi kimyo sanoatining atseton, oltingugurt, karbon, efir, superfosfat va boshqa moddalarni ishlab chiqaruvchi korxonalarini misol qilib ko’rsatish mumkin.

B-toifaga ham yonish va portlash xavfi bo’lgan, chaqnab yonish harorati 28°S dan yuqori bo’lgan, engil alangalanuvchi suyuqlik bug’lari, yonuvchi chang va gazlar havodagi kislorod bilan suv bilan qo’shilganda xavfli, portlovchi aralashma hosil qiluvchi miqdorda bo’lib, ular yonganda xonadagi xavfli bosim 5 kPa dan yuqori bo’ladi. Bunga ammiak ishlab chiqorish sanoatini misol qilib ko’rsatish mumkin.

V-toifaga faqat yonuvchi, ya’ni A va B toifalarga kirmaydigan sanoat korxonalari, jumladan chaqnab yonish harorati 120°S dan yuqori bo’lgan, yonuvchi qattiq jismlarni ishlab chiqorish va qayta ishlov berish hamda harxil yoqilg’i moddalarni ishlatiladigan sanoat korxonalari kiradi. Bunga misol qilib, yog’ochni qayta ishlovchi mebelsozlik sanoati, qozg’oz, kardon, to’l qog’oz ishlab chiqaruvchi korxonalarini ko’rsatish mumkin.

G-toifaga, yonmaydigan modda va ashylarning qaynoq, cho'g'langan yoki eritilgan holatida ishlatiladigan korxonalar kiradi. Bunga metallurgiya sanoati korxonalari, issqlik ishlab chiqaruvchi markazlar va bug'xonalar misol bo'laoladilar.

D-toifaga, yonmaydigan modda va ashylarni sovuq holatda ishlatiladigan va saqlanadigan sanoat va qishloq xo'jaligi korxonalari kiradi. Masalan, toshni maydalash, keramika vassement zavodlari shular jumlasidandir.

Bino va inshootlarni yong'in va portlash xavfi bo'yicha guruhlanishi, ulardagi barcha xonalarning yonish va portlashga moyillik toifasi aniqlangandan so'ng belgilanadi. Agar binoda **A** toifaga taalluqli xona bo'lsayu, uning maydoni binodagi barcha xonalarning umumiyligi maydonidan 5% dan kam bo'lmasa yoki sathi 200 m² dan ko'p bo'lsa, bu holda bino **A** toifaga kiradi. Binoda harxil toifaga taalluqli xonalar mavjud bo'lsayu, **A** va **B** toifadgi xonalarning yig'indi maydoni, qolgan barcha xonalar umumiyligi maydonining 5% dan kam bo'lmasa yoki sathi 200 m² dan ziyod bo'lsa, bu bino **B** toifaga mansub bo'ladi.

Binolarni loyihalash va konstruktiv echim qabul qilishda yong'in xavfsizligini ta'minlash

Imorat va inshootlarni loyihalashda, qurilishda va ulardan foydalanishda binoning olovbardoshligi, yong'indan saqlanish va kam talofatlanish kabi talablarni qondirishga doir turli tadbirlar ko'llaniladi.

Loyihalashda imoratni o'rnini tanlashda, qo'shni imoratlarga nisbatan kamxavotir, yong'inga bardosh asosni, poydevorni, ko'tarish konstruk-siyalarni, qavatlar orasidagi yopmalarni, ustyopmani, devorlarni va boshqa konstruksiya va uskunalarini alohida talablar asosida tanlanadi.

Qurilish jarayonida loyiha talablarini bajarish, imoratlarda ko'zda tutilgan yong'in xavfsizlidan kelib chiqadigan qo'shimcha zinalar, koridorlar va cherdaklar og'ishsiz amalga oshirilishi shart. Keltirilgan 9.3-jadvalda qurilish materiallarining olovbardoshlikdagi eng kichik chegarasi (s) va olov tarqalishining eng yuqori chegarasi (sm) keltirilgan.

9.3 –jadval

Olov bardoshlik darajasini	Devorlar					ustunlar	Zinalar maydonchasi kosurlari va zina aadamlari	Ustyopia ko'taruvchi konstruksiyalari	Plitalar elementlari	Ustyopma elementlari
	Ko' taruvchi va zina kons- truksiyalar	o' z o' zini ko' taruvchi	Tashqarnadagi o'z-o'zi ko'taruvchi	ichkaridagi o' z-o' zni ko' taruvchi						
1	2 25/0	3	4	5	6	7	8	9	10	Balkalar fermalar ramalar arkalar
		1.25/0	0.5/0	0.5/0	2.5/0	1/0	1/0	0.5/0	0.5/0	
II	2/0	1/0	0.25/0	0.25/0	2/0	1/0	0.75/0	0.25/0	0.25/0	
III	2/0	1/0	0.25/0; 0,5/40	0,25/40	2/0	1/0	0.75/25	CHegara lanmaydi		
IIIa	1/0	0,5/0	0,25/40	0.25/40	0,25/0	1/0	0,25/0	0,25/25 0,25/0		

IIIb	1/40	0.5/40	0,25/0; 0.5/40	0,25/40	1/40	0,75/0	0,75/25	0,25/0; 0,75 0,5/25(40)
IV	0,5/40	0,25/40	0,25/40	0,25/40	0,5/40	0,25/25	0,25/25	CHegaralanmaydi
IVa	0,5/40	0,25/40	0,25/ chegaralanma ydi	0,25/40	0,25/40	0,25/0	0,25/0	0,25/(0)
V	CHegaralanmaydi							

Loyihalashda qabul qilingan qurilish materiallari, konstruksiyalar imoratning olovbardoshlik kategoryasi asosida tanlanadi. Imoratning olovbardoshligiga doir xarakteristikalarini va xususiyatlari 9.4- jadvalda keltirilgan. Binoning olovbardoshlik darajasi konstruksiyalarni eng kichik olovbardoshlik chegarasi asosida belgilanadi. Misol, agar konstruksiyalardan birining olovbardoshligi 0,25 soat bo'lsa, faqat temir konstruksiyalar qo'lllash, tashqaridagi devorlarida alyuminlar asosida tayyorlangan materiallardan foydalanish mumkin. Agar 11-darajali sanoat imorati loyhalansa, u holda qo'llaniladigan ustunning olovbardoshligi 0,75 s dan kam bo'lmasligi kerak.

Qurilish materiallari yonish darajasi bo'yicha 3-guruxga bo'linadi: yonmaydigan, yonishi murakkab va yonadigan. Masalan shipga qo'llaniladigan konstruksiya yonmaydigan, osma shiplar esa qiyin yonadigan va ba'zida yonishi mumkin bo'lgan materiallardan bo'lishlari mumkin. Stropilalarda, devorlarda, pollarda, tomlarda qo'llaniladigan materiallar ham yonishi mumkin bo'lgan materiallardan qilinishi mumkin. Albatta, stropila kabi ma'suliyatli konstruksiyalarni olovga bardoshligini ta'minlaydigan tadbirlar qo'llanilishgi shart.

jadval

Olov bardoshlik darajasi	Binoning konstruktiv xarakteristikalari
I	Tabiiy yoki sun'iy toshli maternallardan, beton yoki temirbetondan foydalanib tayyorlangan tunikasimon va plitali yonmaidigan materiallardan qurilgan ko'tarish va to'sish konstruksiyali binolar
II	Oldingideq bino yopmalarida himoyalanmagan metall konstruksiyalardan foydalanish mumkin.
III	Tabiiy yoki sun'iy toshli materiallardan, beton yoki temirbetondan qurilgan ko'tarish va to'sish konstruksiyali binolar. YOpilmalarda suvoq yoki qiyin yonuvchi tunikasimon, xamda plitali materiallar bilan himoyalangan yog'och konstruksiyalardan foydalanish mumkin. YOpilma elementlariga olovbardoshlik chegaralari va olov tarqalish chegaralari bo'yicha talablar qo'yilmaydi, shu bilan birga yog'ochli ustiyopma elementlari olovga qarshi ishlov beriladi.
IPa	Sinchli (Karkasli) konstruktiv sxemali binolar. Sinch elemetlari himoyalanmagan po'lat konstruksiyalardir. To'suvchi konstruksiyalar -profilangan po'lat listlardan yoki boshqa qiyin yonadigan himoyali yonmaydigan materiallardan iboratdir.

IPb	Asosan karkas konstruktivsxemali bir qavatli binolar. Karkas elementlari - olov tarqalish chegarasi talablarini bajaradigan olovbardoshlikga qarshi ishlov berilgan butun yoki kleylangan yog‘ochlardan iboratdir. To‘suvchi konstruksiyalar - yog‘och yoki uning asosidagi panellar yoki ularning yig‘malaridan bajariladi. YOG‘OCH va yonuvchi materiallardan iborat to‘suvchi konstruksiyalar, olov tarqalish chegaralari talablariga javob beradigan olovga qarshi himoya ishlovlari berilishi zarur.
IV	Olovga va yuqori haroratlarga qarshi suvoq yoki boshqa list yoki plitali materiallar bilan ximoyalangan butun yoki kleylangan va boshqa yonuvchi yoki qiyin yonuvchi materiallardan iborat ko‘tarish va to‘sish konstruksiyali binolar. YOpilma elementlariga olovbardoshlik chegaralari va olov tarqalish chegaralari bo‘yicha talablar qo‘yilmaydi, shu bilan birga yog‘ochli ustyopma elementlariga olovga qarshi ishlov beriladi.
IVa	Asosan karkas konstruktiv sxemali birqavatli binolar. Karkas elementlari - ximoyalanmagan po‘lat konstruksiyalardan iborat. To‘suvchi konstruksiyyalar - profillangan po‘lat listlardan yoki boshqa qiyin yonadigan ximoyali yonmaydigan materiallardan iboratdir.
V	Olovbardoshlik va olov tarqalish chegaralari bo‘yicha talablar qo‘yilmagan ko‘taruvchi va to‘suvchi konstruksiyali binolar.

Asosiy, yong‘inga qarshi to‘sinq turlari va ularning eng kichik olovbardoshlik chegaralari jadvada keltirilgan.

Yong‘inga qarshi to‘sinq turlari va olovbardoshlik chegaralari
jadval

YOnringa kartin tusnklar	YOnq‘inga qarshi tuisiq turlari yoki ularning elementlari	YOnq‘inga charshi Tusitslarnnng eng kichik Olovbardoshlik chegaralari va ularning elementlari soat
YOnq‘inga qarshi devorlar	1	.
	2	2,5
YOnringa qarshi tusiklar (peregorodki)	1	0,75
	2	0,75
	1	0,25
YOnq‘inga qarshi yompalar	2	2,51
	3	0,75
YOnq‘inga qarshi eshnk va derazalar	1	1,2
	2	0,6
	3	0,25
YOnq‘inga qarshi darvozalar, lyuklar, klapanlar	1	1,2
	2	0,6

Tambur-shlyuzlar		0,75
SHlyuz elementlari:	1	0,75
yong‘inga qarshi tusiqlar	3	0,6
yong‘inga qarshi yopmalar	2	-
yong‘inga qarshi eshiklar	I	
YOng‘inga qarshi zonalar		0,75
YOng‘inga qarshi zona elementlari:	2	0,25
zona xonalarini ajratuvchi	2	2,5
yong‘inga qarshi devorlar	-	0,75
zona ichkarisidagi yong‘inga	3	0,75
qarshi to‘sıqlar kolonnalar		0,75
yong‘inga qarshi yopmalar		-
yopmalar elementlari	2	
tashqi devorlar		0,76
YOng‘inga qarshi zonalar	-	0,76
YOng‘inga qarshi zonalar	-	DG5
elementlari:	-	0,75
yopmalar elementlari	-	chegaralanmaydi
tashqi devorlar	-	
kolonnalar grebni diafragmalar		

Loyihalashda nafaqat konstruksiyalarni balki elektr tarmoqlari, kabellar, issiq va sovuq suv uskunalarini, hamda kuchsiz tokli apparatlar tarmog‘ini olovbardoshligi ta’minlanadi.

Demak imoratlarni olovbardoshligi asosan loyihalash jarayonida va qurilish hamda foydalanish davrida ta’minlanadi va saqlanadi.

MA'RUZA № 12

BINO KONSTRUKTIV ELEMENTLARI VA MATERIALLARINING OLOVGA CHIDAMLILIGI.

Reja:

1. Qurilish ashyolarining yonuvchanligi.
2. Bino qurilmalarining o'tga chidamliligi.
3. Qurilish konstruksiyalarning o'tga chidamliligini oshirish.

Tayanch so'z va iboralar: Bino va inshoot, yong'in xavfsizligi, yonuvchi gazlar, xavfli hudud, avariya, yengil alanganuvchi, qiyin yonuvchi, moyillik darajasi, energiya, o'tga chidamliligini oshirish

Bino va inshootlarning yong'in xavfsizligi odatda ularning o'tga chidamlilik darajasi bilan ifodalanadi. Bu esa o'z navbatida ularda ishlatilgan qurilma va ashyolarning yonuvchanlik xususiyatlariiga bevosita bog'liq bo'ladi. Qurilish ashyolarining yuqori harorat ta'siridan alanganib yoki cho'g'lanib yonish natijasida parchalanishi ularni yonuvchanligini bildiradi.

KMK 2.01.02-85 raqamli yong'in xavfsizligi me'yorida qurilish ashyolari yonuvchanlik xususiyatlari bo'yicha uchta guruhga bo'lingan: **yonmaydigan, qiyin yonadigan va yonuvchi** guruhlar.


Yonmaydigan guruhlarga, alanga yoki yuqori harorat ta'sirida yonmaydigan va ko'mirlanmaydigan qurilish ashyolari kiradi, jumladan bularga tosh, beton, temirbeton, gips, alibastr kabilar misol bo'laoladi. Bunday ashyolardan yaratilgan qurilmalar, yonmaydigan qurilmalar deb yuritiladi.

Qiyin yonuvchi guruhlarga yonuvchi va yonmaydigan ashyolar aralashmasidan tashkil topgan qurilmalar, ya'ni tarkibida 8% dan ko'proq organiq birikmalari bo'lgan asfaltbeton va gipsli beton qurilmalar va hajm og'irligi 900 kg/m^3 dan oshmag'an somonliloy qorishmalari, antipiren suyuqligi bilan chuqur shimdirilgan yog'och

qurilmalar va shuningdek fibrolit hamda polimer ashyolar kiradi. Bunday ashyolarning ishtirokida yaratilgan qurilmalar, qiyin yonadigan qurilmalar deb qabul qilingan.

Yonuvchi guruhga, yuqori harorat manbaining ta'siridan yonadigan va manba yuqolgandan keyin ham cho'g'lanib yonishi davom etadigan, ya'ni yonmaydigan va qiyin yonuvchi ashyolarning talablariga javob bermaydigan, organiq ashyolar kiradi. Olov yoki yuqori harorat ta'siridan muhofizalanmagan yonuvchi ashyolardan yasalgan qurilmalar yonuvchi deb ataladi.


Qurilish ashyolarining yonuvchanlik xususiyatlarini tajriba usuli orqali aniqlash mumkin. Buning uchun 1 chizmada ifodalangan «olovli quvur» uskunasidan foydalanish mumkin.



1-rasm. Qartiq jismlarni yonuvchanligini aniqlash.
«Olovli quvur» uskunasi.

Ashyolarni sinash uchun mo'ljallangan bu uskuna uzunligi 165 mm, diametri 50 mm bo'lgan metal quvur (1) dan iborat bo'lib, u shtativ 2-ga o'rnatilgan. SHtativning pastki qismida, sinalayotgan namuna 3 ning yonish jarayonini kuzatish uchun xizmat qiladigan maxsus oyna 4 o'rnatilgan. Uskunanig tepa qismida maxsus tutg'ich 5 yordamida shablon quvurni ichida tik holatda o'rnatilgan bo'lishi kerak. YOnishni ta'minlash uchun shablonning ostida, bitta o'qda gaz yondirgich manba 6 o'rnatilgan. Namuna odatda 150x10x10mm o'lchamlarda tayyorlanadi. Namunani olovli quvurga shunday o'rnatilishi lozimki, u quvurdan 5mm chiqib tursin.

Namuna o'rnatilgandan keyin 1 min davomida isitiladi, undan keyin 10 min davomida olov ta'sirida sinov o'tkaziladi.



2-rasm. Shaxta pechi.

1-tutun so'rg'ich zont; 2-mo'rikon;

3-harorat o'lchagich;

4- namunani ushlab turgich; 5- sinalayotgan namuna; 6-pech devori; 7- gaz yondirgich; 8- shamol beruvchi uskuna.

Bu uskunada ashylarni sinalayotganda olovni o'chirgandan keyin ham 1 min davomida namuna yonib tursa va o'zini 20% hajmini yuuqotsa, bunday ashylayonuvchilar guruhiba kiradi. Tajribada aniqlanishicha yuqotilgan hajmi 20% dan kam bo'lgan va o'zi mustaqil yonmaydigan ashylardan tayyorlangan namunalarni kalorimetrlarda yoki shaxtali pechlarda sinaladi.

Qiyin yonuvchi ashylarni guruhini shaxta pechi yordamida aniqlash usulining mohiyati 10 min davomida 88 mDj/soat issiqlik beruvchi olovni ta'sirida ularda sodir bo'ladigan o'zgarishni aniqlashdan iboratdir. Harbir tajriba uchun 3 tadan shablon tayyorlanadi. Harqaysi namuna o'lchamlari 1000x190x50 mm ga teng bo'lgan 4 ta taxtachalarning quvur shaklida bog'langan holda chizma 6 da ko'rsatilgani kabi shaxta pechiga o'rnatiladi. SHaxta pechinining o'lchamlari odatda 2700x800x800 mm bo'ladi. Uning quyi qismida minutiga 10 m^3 hajmda havoni haydab beraoladigan shamollatgich o'rnatilgan, tepe qismida esa havoso'rg'ichli mo'rikon o'rnatilgandir. SHaxta ichidagi haroratni o'lchamoq uchun 6 ta va mo'rikonda 2 ta issiqlik o'lchagich termoparalar o'rnatilgan bo'ladi. Tajriba boshlangandan 1 min o'tishi bilan olov yoqiladi va 10 min davomida sinov o'tkaziladi. Olov o'chirilgandan so'ng namunaning yonishi tugagunga qadar shamollatgich uskunalar ishlab turishi lozim. Tajriba jarayonida har 2 minutda barcha issiqlik o'lchagich termoparalarning ko'rsatgan miqdorlari aiqlanib yozib boriladi va namunalarning mustaqil yonish vaqtini aniqlanadi. Tajriba tugagandan keyin namuna olinib uning buzilmagan qismining

o'lchamlari o'lchanadi va qoldiq og'irligi aniqlanadi va jad.3 dagi qiymatlar bilan taqqoslanadi.

1-Jadval

O'lchanayotgan o'lchamlar	O'rtacha qiymat	Eng katta qiymat
Mo'rikondagi havo harorati, grad;	235	250
Mustaqil yonish vaqtি, se;	30	60
Uzunligining qisqarganligi, % ;	85	90
Vaznining kamayganligi, %	80	85

Agar tajriba yakunida olingan qiymatlar ushbu jadvaldagi raqamlarga mos kelsa, bunday ashylardan tayyorlangan qurilmalar qiyin yonuvchilar guruhiga kiradi.

Qattiq jismlarning yonishi. Qattiq jismlarning yonishida o'ziga xos tomoni shudan iboratki, ular dastlab qiziyotganda va keyin yonish jarayonida parchalanadi va yonuvchan gazsimon bug'lar oqimini, ya'ni uchuvchanlik xususiyatiga ega bo'lgan butun hajmi bilan yonuvchi massani hosil qiladi. Bu massani yonish jarayonini tushuntirishda, gaz va bug' moddalarining yonish jarayoni qonuniyatlari asosida izohlash o'rnlidir.

Qattiq jismlarning yonish xavfi, ulardagi yonishning solishtirma issiqligi, yonish harorati, o'z-o'zidan yonish va alanganish, yonish tezligi va yonayotgan jismning sirti bo'ylab yong'inni tarqalishi kabi ko'rsatkichlar bilan izohlanadi. Qattiq jismlarning yonuvchanligi tajriba natijalariga ko'ra quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$K_q = \frac{q_n}{q_m} \quad (9.1)$$

bunda q_n - tajriba jarayonida namunadan ajralib chiqayotgan issiqlik miqdori, kDj ;

q_m - gorelkadan chiqayotgan issiqlik miqdori, kDj ;

Agar $K > 2,1$ bo'lsa sinalayotgan jism yonmaydigan, $K < 0,5$ bo'lsa qiyin yonadigan va $K \approx 0$ bo'lsa yonmaydigan deb qabul qilinadi.

Bino qurilmalarining o'tga chidamliligi

Bino va undagi qurilmalarning o'tga chidamliligi deb, yong'in sodir bo'lganda ularning yuqori harorat ta'siriga bardosh beraolishi va yuk ko'tarish xususiyatlarini uzoqroq muddatga saqlab qolish qobiliyatiga aytildi. Bino va inshootlarlarning yong'in xavfsizligi ko'pchilik hollarda ulardagи qurılma-larni olovda yonmasligi va

o'tga chidamliligi bilan ta'minlanadi. Inshoot qurilmalarining o'tga chidamliligi, ularning eng asosiy xususiyatlaridan hisoblanadi, bu ko'rsatkich maxsus me'yordan biri KMK 2.01.02-85 bilan me'yorlanadi.

Bu me'yorga binoan bino, inshootlar va ulardagi yong'inga qarshi devorlar bilan o'ralgan qismlari, 5 xildagi (**I, II, III, IV i V**) o'tga chidamlilik darajalarga bo'lingan. Binolarni o'tga chidamlilik darajasi ularning quyidagi qurilmalari bo'yicha aniqlanadi: ya'ni **devorlar** (yuk ko'taruvchi ichki va tashqi, zinaxona va evakuatsiya yo'llarini o'rab olgan devorlar); **ustunlar; zinaxona elementlari; tomyopg'ich plitalar va barcha yuk ko'tarish qobiliyatiga ega bo'lган boshqa qurilmalar**.

I darajali o'tga chidamli binolarga, yuk ko'taruvchi devorlari temirbeton, beton, tabiiy va sun'iy toshlardan va boshqa, olovda yonmaydigan ashylardan qurilgan inshootlar kiradi.

II darajali o'tga chidamli inshootlarga ham birinchi toifadagi bino va inshootlar kiradi, faqat farqi shundaki, bularning tomini yopishda himoyalanmagan metal qurilmalar ishlatilishi ruxsat etiladi.

III darajali o'tga chidamli inshootlarga yuk ko'taruvchi devorlari temirbeton, beton, tabiiy va sun'iy tosh ashylardan qurilgan inshootlar kiradi. Bularda tomyopg'ich qurilmalarini qiyin yonadigan ashylardan shuvoq, metal tunukalar yoki azbest plitkalar bilan himoyalash ruxsat etiladi.

IV darajali o'tga chidamli inshootlarga yuk ko'taruvchi devorlari va tomyopg'ich qurilmalari yaxlit yoki kleylangan yog'ochlardan va yonadigan yoki yonmaydigan ashylardan qurilib, shuvoq yoki azbest plitalari bilan himoyalangan inshootlar kiradi.

V darajali o'tga chidamli inshootlarga devorlari va boshqa qurilmalariga o'tga chidamlilik bo'yicha talablar qo'yilmaydigan barcha inshootlar kiradi.

Qurilmalarni yong'in sharoitida issiqlik ta'siridan yuk ko'tarish yoki to'sib turish qobiliyatini yuqolishiga sabab bo'luvchi dastlabki buzulishgacha bo'lган vaqt oralig'iga, ularni **o'tga chidamlilik chegarasi** deb ataladi va vaqt birligi soatda o'lchanib, qurilmalarni sinov boshlangan daqiqadan to quyidagi buzilish belgilarining birortasini paydo bo'lganiga qadar o'tgan vaqt oralig'i bilan ifodalanadi:

- qurilmada alanga yoki tutun o'taoladigan teshikni paydo bo'lishi;
- qurilmani yonmay turgan sirtida harorati 160°S ga ko'tarilsa, yoki uning boshqa ixtiyoriy nuqtasidagi harorat 220°S dan oshib ketsa;
- qurilmaning biror qismi qulab tushishi natijasida yuk ko'tarish qobiliyati kamayib qolganda va h.o.

Qurilmalarni o'tga chidamlilik chegarasi tajriba usuli bilan yoki analitik xisoblash yo'li bilan aniqlanadi. Bu usullarning asosiy shart va qoidalari Xalqaro mezonlashtirish tashkilotining tavsiyanomalarida (ISO) va mezon SEV 1000-78 «YOn'inga qarshi qurilishni loyihalashtirish me'yorlari» da aks ettirilgan.

Tajriba usulga binoan qurilmalarni haqiqiy o'lchamda namunasi tayyorlanib, maxsus pechlarda oldin isitiladi, keyin ularni ishlatilish joyidagi me'yoriy yuklar yig'indisiga mos keladigan holatda yuklantiriladi va sinov boshlani-shidan to uning sirtida o'tga chidamlilik chegarasini anglatuvchi belgilaridan birortasi paydo bo'lganiga qadar vaqt oralig'i aniqlanadi.

Bino va inshootlarni asosiy qurilmalarining talab etiladigan minimal o'tga chidamlilik chegarasi, ularning o'tga chidamlilik darajasiga nisbatan quyidagi 9.2 jadvalda berilgan qiymatlar bilan me'yoranadi.


2- Jadval

Bino-larning o'tga chidamlilik daraja-si	Binodagi asosiy qurilmalarning nomlari					
	Yuk ko'taruvchi devorlar, zinaxona devorlari, ustunlar	Zinaning qismlari: maydonchasi, marshi, pilapoya-lari	Yuk ko'tar-uvchi tashqi devor-lar	Yuk ko'tar-uvchi ichki devorlar	Yuk ko'tar-uvchi qavat-lararo tomyopg'i ch plitalar	Oxirgi qavatdagi tomyopg'ich qurilmalar va boshqalar
O'tga chidamlilik chegaralarining minimal miqdori, soat						
I	2,5	1	0,5	0,5	1	0,5
II	2	1	0,25	0,25	0,75	0,25
III	2	1	0,25	0,25	0,75	-
IV	0,5	0,25	0,25	0,25	0,25	-
V	-	-	-	-	-	-

Sinov kamerasidagi haroratning o'zgarishi 10% dan oshmagan holda 30 min davomida ruxsat etilishi mumkin, boshqa vaqtarda 5% dan oshmasligi lozim.

Qurilmalarning binoda joylashgan o’rniga qarab, sinov kamerasida ularga olovni ta’sirini harxil ta’minlanadi. Jumladan to’sinlarga to’rt tomondan, shopul va fermalarga uch tomondan, tomyopg’ich plitalar, devor va eshik qurilma-lariga esa bir tomonlama olov bilan ta’sir etish orqali sinaladi.

Sinash uchun umumiylar texnologik jarayonda tayyorlangan, kamida ikkita bixildagi namuna qurilma ajratib olinadi va ularning sirtiga kuzatish uchun zarur bo’lgan asbob va moslamalarni o’rnataladi. Isitish sharoiti va sinov uskunasi quyidagi chizma 10 da ko’rsatilgani kabi, sinalayotgan namuna qurilmalarning shakli va hajmiga teng o’lchamda tayyorlanadi va sinov kamerasida bino va inshootlardagi holatiga mos ravishda o’rnataladi. YUK ko’tarish uchun xizmat qiladigan qurilmalar amaldagi yuklar miqdori bilan zo’riqtirilgan holda sinaladi.



3. Qurilmalarni o’tga chidamlilik darajasini aniqlash uskunalari.

a-devorni yuksiz holatda sinash; **b**-tomyopg’ich plitasini yuk ta’siri bilan sinash; **v** - ustun yoki devorni yuk ta’siri bilan sinash chizgilari aks ettirilgan. 1- olov kamerasi; 2- sinalayotgan namuna qurilma; 3- teleshka; 4-namunaga qo’yilishi lozim bo’lgan yuk.

Analitik usul yordamida qurilmalarni talab darajasidagi o’tga chidamlilik chegarasi birinchi marta V.I. Murashov tomonidan taklif etilgan bo’lib, uning uslubi quyidagichadir.

Bino va inshootlarning yong’indan xavfsizlik sharti quyidagi tenglik bilan ifodalanadi:

$$P_t = R_0 t \quad (2)$$

bunda P_t – talab darajasidagi o’tga chidamlilik chegarasi, soat;

R_0 - o’tga chidamlilik koyfisenti;

t – yong’inni davom etish vaqt, soat.

Yong’in sharoitida erkin yonish vaqt quyidagi ifoda orqali aniqlanadi

$$t = Q \delta W_v / g_{yon} F_{yon} \quad (3)$$

bunda Q - yong'inda ajralib chiqayotgan issiqlik miqdori, kDj/kg;

δ - yonuvchi moddaning hajm og'irligi (zichligi), kg/m³;

W_v - yonuvchi moddaning hajmi, m³,

g_{yon} - yong'inning solishtirma issiqligi, Vt/m²;

F_{yon} - yonayotgan sirtning sadhi, m².

M.YA. Roytmanni ta'kidlashicha, qurilmalarni o'tga chidamlilik darajasini aniqlashda olovni o'chirish jarayonini birga inobatga olish, barcha hollarda ham zarur omillardan hisoblanadi.

YOn' in muddatini uni o'chirish jarayoni bilan qo'shib hisoblaganda, quyidagi o'lchamlar zarur bo'ladi: I - olovni o'chirish uchun etarli bo'lgan o't o'chirish vositasining uzatilish tezligi, l/m²sek; t_n - o't o'chirish vositasini ma'lum tezlikda uzatilayotgandagi me'yoriy o't o'chirish muddati, daqiqa yoki soat; Q - yong'inni to'liq o'chirish uchun etarli bo'lgan o't o'chirish vosita, l/daq; F_{yon} - yonayotgan sirtning ehtimoliy sadhi, m²; $f_{o'ch}$ - o'chirilishi mo'ljallanayotgan yonuvchi sirt, m²; Δt_o - yong' in boshlanishidan o'chirishni boshlagungacha o'tgan vaqt oralig'i, daq.

Agar $F_{yon} < f_{o'ch}$ bo'lsa, yonish muddatini o'chirish vaqt bilan birga hisoblaganda quyidagicha ifodalanadi

$$T_{o'ch} = q t_n Q \Delta t_o. \quad (4)$$

Agar $F_{yon} > f_{o'ch}$ bo'lsa, yonish muddati o'chirish vaqt bilan birga quyidagicha hisoblanadi

$$F_{yon} = t_{o'ch} q / t_n Q \Delta t_o. \quad (5)$$

$$f_{o'ch}$$

SHunda talab darajasidagi o'tga chidamlilik chegarasi quyidagi yakuniy ko'rinishga ega bo'ladi:

$$F_{yon} = I P_t q K_o (t_n Q \Delta t_o) / Q \quad (6)$$

Bu formuladagi o'lchamlarni dastlabki qiymatlari, sodir bo'lgan yong'in-larni tafsiloti va o't o'chirish vositalarini uzatish tezligini hamda o'chirishni me'yoriy

vaqtini aniqlash maqsadida o'tkazilgan, maxsus tajribalarni kuzatish natijalari asosida olingan.

Tajribada aniqlanishicha, o't o'chirishni me'yoriy vaqt bilan o'tni o'chiruvchi vositani uzatilish tezligi o'rtasida bevosita bog'liqlik mavjud va u qattiq jismlarni yopiq xonalarda suv bilan o'chirganda

$$t_{nq} = [5,2/(I-0,05)]^{0,578} \text{ ga teng} \quad (7)$$

hamda suyuq jismlarni o'chirishda esa $t_{nq} = [2f/(I-0,06)]^{0,474}$ (9.8)
ga teng .

Yonuvchi suyuqliklarni ishlatiladigan, ishlab chiqarish inshootlarini talab darajasidagi o'tga chidamlilik chegarasini aniqlash bo'yicha, amaliy masalalarni echish uchun quyidagi qiymatlardan foydalanish mumkin.

YOng'inni havoli mexaniq ko'pik bilan o'chirishda, o'chirish muddati **10** daqiqaga teng qilib belgilangan.

Erkin yonish vaqtin, ya'ni o'chirishni boshlagunga qadar ketgan muddat ichida, zarur ko'pikni 200 l/sek gacha bo'lган tezlik bilan etkazib berishda, $\Delta t_{oq} 20$ daq va 200 l/sek dan oshiq bo'lsa 30 daq miqdorida me'yorlanadi.

Agar qo'zg'almas holda o'rnatilgan uskunalarda suv yoki ko'pik bilan o't o'chirish erkin yonish vaqtin 10 daq qilib belgilangan. Agar o't o'chirish vositalari ko'chma uskunalar yordamida ishlatilsa $\Delta t_{oq} 15$ daq.

Tosh va g'isht qurilmalarining o'tga chidamliligi ularning qaysi ashyodan va qanday qalinlikda tayyorlanganligiga hamda ularni issiqlikka qarshilik ko'rsatish qobiliyatiga bog'liq bo'ladi. Bunday qurilmalarning o'ziga xos o'tda yonmaslik xususiyati va qalinligi tufayli, ular yong'in sharoitida olovning ta'siriga uzoq qarshilik ko'rsataoladi.

G'isht va tabiiy-marmar toshdan terilgan devorlar yuqori darajadagi o'tga chidamlilik qobiliyatga ega. Bunday qurilmalar yong'in sharoitida 900-1000°S harorat ta'siriga chidayoladi va ularning o'tga chidamlilik chegarasi 1,25-1,5 soatni tashkil etadi. SHu boisdan g'isht va toshdan qurilgan devorlar yong'in paytida alanga va haroratni yo'liga yaxshi to'siq bo'laoladi.

Temirbeton qurilmalari o'zining olovda yonmasligi va issiqlikni o'tkazuvchanlik koyfisenti uncha kata bo'lmanligi sababli, yong'inga etarli darajada qarshilik ko'rsataoladi, ammo bu qarshilik cheksiz davom etaverishi mumkin emas. Temirbeton qurilmalarining qalinligi uncha kata bo'lmanligi tufayli, ularning o'tga chidamliligi ham chegaralangan bo'ladi, va u ko'pincha 1 soatdan oshmaydi. Agar beton qurilmaning namligi 3,5 % dan yuqori bo'lsa, qisqa muddatli yong'nlarda beton sirtida mikro va makro yoriqlar hatto portlashlar hosil bo'lib, qurilma tezda o'zining ustuvorlik xususiyatini yuqotaboshlaydi va o'tga chidamliligi keskin pasayib boradi.

To'siq vazifasini o'tovchi, temirbeton qurilmalarining yong'inga teskari turgan tomonini 160°S ga qizdirilganda uning o'tga chidamliligi, namligiga, qalinligiga va betonni turiga bog'liq bo'ladi. Qalinligini oshishi va zichligini kamayishi, betonning o'tga chidamliligini oshishiga olib keladi.

Agar temirbeton tomyopg'ich plitalarning armatura ustidagi himoya qobig'i 10 mm bo'lib, armaturasi A-I, A-II sinfdagi po'latdan bo'lsa, o'tga chidamliligi 0,75 soatga, yoki A- III bo'lganda esa 1,0 soatga teng bo'ladi.

Azbestdan tayyorlangan shiferlar 400°S da o'zining xususiyatini yuqota-boshlaydi va 600°S dan oshganda parchalanib otilib ketaboshlaydi.

Temirbeton ustunlarining o'tga chidamliligi ularga qo'yiladigan yuklarning markaziy o'qidan qanchalik uzoq yoki yaqinligiga ham bog'liq bo'ladi. CHunki ustunga qo'yilgan yuk markazidan uzoq joylashgan bo'lsa, uning o'tga chidamlilik darjasini ustunning siqilishga ishlaydigan armaturasining himoya qobug'iga bog'liq bo'ladi, ya'ni issiqlik ta'sirida betonning mo'rtlashishi va bosib turgan yuk ta'sirida siqilishi natijasida armatura sirtidagi beton qobiqda mikro portlashlar sodir bo'ladi va sirti ochilgan armaturalar yuqori harorat ta'sirida tezda yumshab, o'zining mustahkamlik xususiyatini yuqotadi. Granit maydalaridan tayyorlangan betonda quyilgan ustunlarni o'tga chidamlilik darjasini ohaktosh maydalaridan tayyorlangan beton ustunnikiga nisbatan 20% kam ekanligi ilmiy asoslangan. Buni granitning tarkibiga kiruvchi kvarsning 573°S dayoq parchalanishi va ohaktoshni esa 800°S dan keyin emirilishi bilan izohlash mumkin.

Devorlarni o'tga chidamliligi ularning qalinligi va ularga qo'yilgan yukning vazn miqdoriga bog'liq bo'ladi, ya'ni qalinligini kamayishi va yukning ko'payishi o'tga chidamlilik darajasini pasayishiga va aksincha bo'lganda ko'payishiga olib keladi. Bino va inshootlardagi qavatlar soni ko'paygan sari, ularning devorlariga tushadigan yukning miqdori ham ortib boradi. SHuning uchun ulardagi yuk ko'taruvchi ko'ndalang devorlarning o'tga chidamliliginini minimal miqdorini ta'minlash maqsadida, devor qalinligini qavatlar soniga mos ravishda qabul qilinadi, ya'ni 5-9 qavatli jamoa va fuqaro binolarida -120 mm, 12 qavatli bo'lganda-140 mm, 16 qavatgacha bo'lsa -160 mm va qavatlar soni undan oshiq bo'lganda-180 mm.

Qurilish konstruksiyalarning o'tga chidamliliginini oshirish.

Harorati 1200°S gacha ko'tarilib uzlusiz davom etadigan yong'in sharoitida bino qurilmalarining (xususan goizontal holatdagilari) ustuvor turishi amri maholdir. SHu boisdan, ularni olov ta'siridan himoyalash, ya'ni yong'in paytida imkon darajasida bardosh berish vaqtini uzaytirish maqsadida, birqator qo'shimcha tadbirlarni qo'llash lozim bo'ladi.

Qurilishda qo'llaniladigan ashyolarni yonuvchanligi bo'yicha uchta toifaga bo'linishini nazarda tutsak, olov ta'sirida yonmaydigan ashyolar toifasiga beton, g'isht va tabiiy toshlar va metallar kiradi. Metal qurilmalar o'tda yonmasa hamki, tosh va beton ashyolarga ko'ra yuqori harorat ta'siriga chidamsiz bo'ladi. Masalan, [3.] 25G2S markali past legirlangan po'latdan tayyorlangan A-III sinfiga taalluqli armaturaning xavfli harorati 570°S dan oshmaydi, alyumin qorishmasidan tayyorlangan yuk ko'taruvchi qurilmalarning xavfli harorati esa 250°S ni tashkil etadi. Demak, eng mustahkam hisoblangan metal qurilmalar ham olovning zarbiga bardosh beraolmas ekan. SHu boisdan ularni olovdan muhofaza qilish zarurati tug'iladi.

Metal qurilmalar, o'zini o'ta yuqori issiqlik o'tkazuvchanlik xususiyatlari tufayli yong'in sharoitida juda tez qizib ketadi va natijada dastlabki qattiqlik xususiyati yuqolib, yumshab qoladi. Metal qurilmani xavfli haroratgacha qizib ketishiga, uning nisbiy qalinligi ham sabab bo'lishi mumkin. Metal qurilmalarni keltirilgan nisbiy qalinligi quyidagicha aniqlanadi:

$$\delta_{pr} = q \cdot G'/L \quad (6)$$

bunda G' - metal qurilmani ko'ndalang qirqimining yuzi, sm^2 ;


L- qizdirilayotgan yuzanining kesimi bo'ylab uzunligi, sm.

Misol uchun, himoyalanmagan biror metal qurilmaning keltirilgan qalinligi δ_{pr} q 0,3 sm bo'lsa, uning o'tga chidamlilik darjasи 0,12 soatga, va agar δ_{pr} q 3 sm bo'lganda, 0,45 soatga teng bo'lar ekan.

Alyumindan tayyorlangan qurilmalarni o'tga chidamlilik darjasи oddiy metalnikidan ham past. Ko'p qavatli binolarda ishlatiladigan metal konstruk-siyalarni o'tga chidamlilik chegaralarining talab darajasidan ancha pastligi tufayli, ularni olovdan himoya qilmasdan turib ishlatish xavfli hisoblanadi.

Metal qurilmalarni olovdan himoyalashda keng tarqalgan ommaviy usullardan biri, ularni sirtini o'tda yonmaydigan biror ashyo bilan qoplashdir. Qoplovchi ashylolar sifatida g'isht, issiqlikni o'tkazmaydigan plitkalar, simto'r ustidan yotqizilgan suvoq, yoki qurilmalarni ichidan suv haydash usuli va hokazolardan foydalanish mumkin.

Metaldan qilingan ustunlarni chiz. 1 da ko'rsatilgani kabi, suvoq (a), quyma yoki yig'ma beton (v), g'isht (b, g) bilan qoplash usullari orqali, yong'in harorati ta'siridan muhofaza qilib, ularni o'tga chidamlilik darajasini oshirish mumkin.



1. Metal ustunlarni yong'indan himoyalash.


a- simto'r ustidan suvoq qilish; b-g'isht terish; v-gipsobeton plitalar terish; g g'ovakli silikat bloklarni terish; 1-simto'r; 2-past markali beton

Bunday muhofizalgich qoplamlarning qalinligi, odatda ular qanday ashylardan qilinganligiga qarab va ularni issiqlikni o'tkazuv-chanlik xususiyatlarini his-obga olgan holda, analitik hisoblash yo'li bilan va ba'zan tajribada sinash usuli bilan ham aniqlanadi.

Sim to'r ustidan 25 mm qalinlikdagi suvoq metal ustunning o'tga chidamliliginin 50 daqiqagacha uzaytiraoladi. Agar suvoqni qalinligi ikki barovarga oshirilsa, ustunning o'tga chidash muddatini 2 soatgacha uzaytirishni ta'minlash mumkin. Ustunlarning ishtdan qilingan qoplamlalar bilan muhofizalash yaxshi samara beradi, chunki chorak g'isht qalinlikdagi himoya qobig'i ularni o'tga chidamlilik darajasini 2 soatu 10 daqiqaga, yarim g'isht qalinlikdagisi esa 5 so-tagcha saqlab turish imkonini beradi. Agar shu ustunlar bilan qoplama orasidagi bo'shliqni shlak, beton yoki boshqa, yonmaydigan ashyolar bilan to'ldirilsa, ustunning o'tga chidamliligi yana 3 soatga uzayishi aniqlangan. Agar metal ustun 40 mm qalinlikdagi keramzitbeton plitasi bilan qoplanib, ustidan 20 mm qalinlikda suvoq bilan pardozlanganda, uning olovga chidamlilik darajasini 2 soatgacha cho'zish mumkin bo'lar ekan va x.o.

Bino va inshootlardagi metaldan tayyorlangan to'sin, ferma va tomyopg'ich qurilmalarini yong'indan himoyalash, ancha murakkab xisoblanadi, chunki ularni sirtini qoplamlalar bilan himoyalashni iloji yo'q. Bunday hollarda ularning sirtiga verzikulit, perlit yoki harorat ta'sirida ko'pirib qalinlashadigan, o'tga chidamli maxsus tayyorlangan qorishmalarni 3-4 mm qalinlikgacha, birnecha marotaba purkash yoki surkash yo'li bilan himoyalash tavsiya etiladi. Bunda himoyalananayotgan metal sirtning 1 m² ga 5 kg atrofida qorishma sarflanishi mumkin bo'ladi. YUqori harorat ta'sirida ko'pirish natijasida metalni sirtiga surkalgan bunday qorishmaning qalinligi 50 -70 mm gacha ko'tarilishi va buning natijasida metal qurilmaning o'tga chidamlilik darajasi 15 daqiqadan 60 daqiqagacha ortishi mumkin. Bunday qorishmalarni narxi metal qurilmalarni narxidan 20-25% ni tashkil etadi.

Ba'zan qurilish tajribasida, metaldan tayyorlangan qurilmalarni o'tga chidamliliginin oshirish uchun ularni ichidan sovuq suvni haydash yo'li bilan himoyalash usuli ham qo'llaniladi. Bunda binoning ustunlari va yuk ko'taruvchi – korkash qismlari suv bilan to'lg'iziladi. Buning uchun ularni maxsus metal quvurlardan yoki germetik ulangan shvellerlardan tayyorланади va bosim ostida sovuq suvni haydash bilan isib qolgan suvlarni yong'in paytida uzliksiz almashtirib turiladi



7-rasm. Metal qurilmalarni suv to'lg'izib himoyalash usullari.

a-suv birmarta to'lg'iziladigan; b - suvni tabiiy aylanishga asoslangan; v- suvni avtomatik tarzda aylanishi va to'ldirilishiga asoslangan; g- yong'in paytida avtomatik tarzda suvni yo'naltiradigan; 1-metal ustun; 2 - suv uzatgich quvurlar; 3 - zaxira suv idishi;
4 - isigan suvni olib chiqib ketuvchi quvur; 5 – sovuq suv krani; 6 – suv purkagich spinkler;
7 – sprinklerni ishlatalish klapani; 8 – suv uzatgich tarmoq

Bunday usul bilan ko'pincha metal ustunlarni va ba'zan tomyopg'ich plitalar minadigan shopullarni suv to'lg'izib himoyalananadi. Buning uchun suvning tarkibiga metalni zanglashdan asraydigan maxsus qorishmalar qo'shiladi, isitilmaydigan binolarda esa antifriz ishlataladi. Suv to'lg'izish usullari chiz. 8 da ko'rsatilgani kabi faqat yong'in paytida birmarta to'lg'iziladigan, yoki suv doim majburiy aylanib turadigan usulda qo'llanishi mumkin. Bunday usul bilan muhofizalangan qurilmalarni o'tga chidamlilik darajasi uzatilayotgan suvning qalinligi va oqish tezligiga qarab 2 soatgacha oshirish mumkinligi aniqlangan. Bu usulni narxi qurilmani umumiy narxidan 8-10% tashkil etadi.

Yog'och qurilmalarni yong'indan himoyalashda ko'pincha azaldan otabobolarimiz qo'llab kelgan usul simto'r yoki qamichdan yasalgan buyralarni yog'och sirtiga yopishtirib ustidan avval somonli suvoq, keyin qum yoki ganch suvoq bilan muhofizalash keng qo'llanilgan. Bu usulni zamonaviy inshootlarda qo'llash imkonini bo'lmanan joylarda, yog'ochni bosim ostida yoki issiq vanna usulida olovda yonmaydigan maxsus kimyoviy eritmalar bilan shimdirlish yo'li bilan himoyalash usuli qo'llaniladi.

Ganch va cement suvoqlari o'zining qalinligiga qarab, yog'och qurilmalarni yong'indan 15-30 daqiqagacha himoyalash imkonini beradi.

Yog'ochlarni olovdan himoyalashda gipsdan qilingan quruq suvoq, quyma gipsqipiqliklari va asbosement faneralardan ham foydalanish mumkin.

Bulardan tashqari yog'ochni olovdan himoyalashni o'tda yonmaydigan, harorat ta'sirida ko'pchib ketadigan maxsus bo'yoqlar va loy qorishmalarni yog'och sirtiga 2-

3 qavat surkash yo'li bilan ham ta'minlash mumkin. Issiqlikdan ko'pchib ketadigan qorishmalar bilan himoyalangan yog'och qurilmalar qiyin yonadigan toifaga kiradi.

Oxirgi paytlarda yong'in sharoitida o'ta xavfli bo'lgan, **plastmassa va polimer moddalari** binolarni isitishda va pardozlash ishlarida, qurilish ashyolari sifatida keng qo'llanilmoqda.

Bu ashyolarning o'ziga xos betakror xususiyatlaridan biri, ularning bosim yoki issiqlik ta'sirida kerakli shaklga kirishi va o'z shaklini saqlab qolishidir. Bundan tashqari ular chirimaslik, suv o'tkazmaslik, zanglamaslik va oson ishlov berish imkoniyatlariga ega.

Qurilishda keng qo'llaniladigan polimer ashyolarga plastik va organiq shishalar, viniplast, penoplast, sotoplast va boshqalar misol bo'laoladi. Bularning asosiy kamchiliklariga yonuvchanlik, oquvchanlik va yumshoqlik kabi xususiyatlar kiradi. Ko'pchilik plastik ashyolarning alanganish harorati yog'ochnikidan ko'ra past bo'ladi.

Qurilishda polimer ashyolar, tomyopg'ich plitalar va ko'p qatlamlili devor panellarini tayyorlashda isitgich ashyolar sifatida keng qo'llaniladi. Bunday qurilmalarning o'tga chidamlilik darajasi 0,15 dan 0,5 soatgacha bo'ladi.

Bu qurilmalarni polimerlar tufayli o'tga chidamlilik darajasi juda pastligini va yong'in sharoitida o'zidan zararli gaz va bug'larni chiqorishini inobatga olgan holda, ularni faqat **D** toifadagi, o'tga chidamlilik darajasi **IV** va **V** bo'lgan bino va inshootlarga ishlatish tavsiya etiladi.

Termoplast ashyolar 100°S gacha bo'lgan haroratda yumshaydi va 300°S da parchalanib yonaboshlaydi. Barcha plastik ashyolar yonuvchanlik xususiyatiga ega. Ular yonganda inson hayoti uchun o'ta xavfli bo'lgan zaharli gaz va bug' moddalarini ajralib chiqishiga sababchi bo'ladi. SHuning uchun turarjoy va jamoa bino va inshootlarida pardozlash yoki akustik ashyolar sifatida plastmassalardan foydalanishni saqlanish foydadan xoli bo'lmaydi.

Temirbeton qurilmalarni o'tga chidamliligin konstruktiv echimlar va issiqlika chidamli metal va beton ashyolardan foydalanish yo'llari bilan oshirish mumkin.

Konstruktiv echimlarga quyidagilar kiradi:

- qurilmalarni qalinligini oshirish;
- betonni himoya qobig'ini qalinligini oshirish;
- qurilmaga yuklatiladigan yukni kamaytirish;
- qurilmalarni bir-biriga mingashib turishini va ishslash uslubini o'zgartirish va boshqalar.

MA'RUZA № 13

TEXNOLOGIK JARAYONLARDA YONG'IN, YONG'IN-PORTLASH VA PORTLASH XAVFSIZLIGINI TA'MINLASH PRINSIPLARI

Reja:

1. Texnologik jihozlarni portlashda shikastlanishdan himoyalash.
2. Yonuvchi suyuqliklarni uzatib berish qurilmalarining yong'in xavfsizligi.

Tayanch so'z va iboralar: texnologik jarayon, mexanizmlar, yonish, alangalanish chegaralari, xavflilik darajasi, yonish tezligi, tarqalish tezligi, katta diapazon, elektr energiyasi, stanok, elektr simlari, kuchlanish, tok o'tayotganda, muhofaza qobig'i, o'tkazgich, elektr sistemalari, uchqun, shikastlanish.

1. Apparatlarni portlashdan himoya qilish. Apparatlarda shikastlanish darajasidagi portlash yuz berganda, apparat ichidagi moddani (yong'in xavfi bo'lgan suyuqliklar, sochiluvchan moddalarni) katta maydonlarga, ishlab chiqarish sexlariga yoki ochiq maydonlarga sochib yuborish orqali yong'inni birdaniga tezlik bilan tarqalishiga, sochib yuborilgan apparat parchalari va to'lqin zarbasi ta'sirida yon-atrofdagi apparatlarni shikastlanishiga sharoit yaratiladi. Apparatlarning portlashda shikastlanishi insonlar hayoti uchun xavflidir. Shu sababli, apparatlarni portlash natijasida shikastlanishidan himoya qilish masalasi yong'in xavfsizligini ta'minlash vazifalari orasida eng asosiysi deb belgilangan.

Portlashda shikastlovchi bo'lib apparat ichida birdaniga o'ta katta tezlik bilan ortib boruvchi bosim hisoblanadi. Portlashda bosimni ortib borishi, uni kuchi yoki kattaligi yonuvchi aralashmaning kimyoviy tarkibiga, aralashmadagi yonuvchi komponent konsentrasiyasiga, portlashdagi yonib bo'lgan moddaning umumiy miqdoriga, boshlang'ich yonuvchi aralashmaning boshlang'ich harorati va bosimiga bog'liq. Gazli va bug'li-havo aralashmalarini portlashdagi (detonasiyasiz) yonishi idishlardagi bosimning boshlang'ich holatiga nisbatan 8-10 martaga, changli-havo aralashmalarining yonishida esa 4-6 martaga ortishiga olib keladi.

Apparatlarni portlashdan himoya qilish, ularda hosil bo‘lgan yonish mahsulotlarini o‘z vaqtida chiqarib yuborish yo‘li bilan amalga oshiriladi. Bu maqsadlarda ishlab chiqarish texnologik jarayonida apparatlardagi ortiqcha bosimni chiqarib yuboruvchi saqlash klapanlaridan foydalaniladi. Saqlash klapanlari yo‘l qo‘yib bo‘lmaydigan katta ishlab ketish inersiyasiga va portlashdagi mahsulotlarni chiqarib yuborish uchun kichik kesim yuzasiga ega. Buning uchun portlash sodir bo‘lgan apparatda belgilangan bosimdan ortiqcha bosim hosil bo‘lmasligi uchun, apparatni portlashdan himoya qiluvchi membrana turidagi saqlash klapanlari (portlash membranalari) yoki sharnirli ochib tashlanuvchi eshiklar qo‘llaniladi. Texnologiyada portlash membranalari keng qo‘llaniladi. Ulardan markazdan qochuvchi sochma quritgichlarni (quruq sut unini, ozuqa xamirturushini ishlab chiqarishda), asetilen generatorlarini va asetilen quvurlarini, ksanta apparatlarni (viskoza tolasini ishlab chiqarish), rekupirasiya stansiyasining markaziy quvurlarini, chang ushlab qolish tizimidagi elektr va yengli filtrlarni hamda boshqa apparatlarni himoya qilish maqsadida ishlatiladi. Membranalalar shikastlanishi bo‘yicha quyidagi turlarga ajratiladi, yoriluvchan, kesiluvchan, sinuvchan, paqillovchi, otib yuboriluvchi va yirtiluvchilarga.

Yoriluvchan membranalalar asosan yupqa plastina, tekis yuzali shaklda egiluvchan materiallardan (alyumin, nikel, mis, latun va boshqalardan) tayyorlanadi.

Kesiluvchan membranalalar yorilmaydi, aksincha uni qisib turgan halqaning o‘tkir chekkalarini perimetri bo‘yicha kesib tashlanadi. Ular ham yumshoq materiallardan tayyorlanadi.

Sinuvchan membranalalar sinishi uchun ular mo‘rt materiallardan (cho‘yan, grafit, shisha va h.z.) tayyorlanadi. Ular dinamik yuklanishga sezgir bo‘lgani uchun kichik inersiyali hisoblanadi.

Paqillovchi membranalalar sferik gumbaz shaklida bo‘lib bo‘rtib chiqqan tarafi portlash sodir bo‘ladigan zonaga, ya’ni apparat ichiga qaratilgan bo‘ladi. Bosimni belgilangan kritik holatdan ortishi bilan sferik gumbaz membranasi o‘zining mustahkamligi yo‘qolib, teskari tarafga ag‘dariladi va xoch simon (krest shaklidagi) pichoq bilan to‘qnashib kesilishi natijasida bosim chiqarib yuboriladi. Bu membranalalar yupqa egiluvchan materiallardan tayyorlanadi.

Otib yuboriluvchi membranalalar yoriluvchan va kesiluvchan membranalarni qalinligi yetarli darajada bo‘limganligi sababli bexos ishlab ketishi mumkin bo‘lgan apparatlarda qo‘llaniladi. Bu membranalalar ko‘proq g‘ovaksimon shaklda plastmassadan tayyorlanib, ularni maxsus joylarga (halqali o‘ram) yumshoq payvandlash yoki yopishtirish orqali o‘rnataladi. Membranalalar ishlab ketganda o‘rnatalgan joyidan otib yuboriladi, ya’ni egallab turgan chiqarib yuborish kesim yuzasini to‘liq bo‘shatib ochiq holda qoldiradi. Ularni yana qayta bir necha bor ishlatish mumkin.

2. Kimyo sanoatida suyuq yoki gaz holdagi mahsulotlarni quvurlar orqali uzatish katta ahamiyatga ega. Suyuqlikni quvurlar orqali yoki apparatda harakatlanishi energiya sarfi bilan bog‘liq. Agar suyuqlik yuqorida pastga qarab harakatlansa u holda o‘z og‘irlik kuchi ta’sirida oqib tushib tashqi energiya sarflanmaydi. Ichki potensial energiya kinetik energiyaga o‘tish holi yuz beradi.

Suyuqliklarni gorizontal va vertikal quvurlarda uzatish uchun nasoslar qo'llaniladi. Bundan tashqari suyuqlik suv bug'i, suv yoki siqilgan gaz yordamida uzatilishi mumkin - bu oqimli nasos gazlift va montejolarda yuz beradi.

Nasos - bu shunday gidravlik mashinaki, mexanik energiyani harakatlanayotgan suyuqlik energiyasiga aylantirib, oqimning bosimini ortiradi.

Nasoslar ishslash prinsipiga ko'ra - markazdan qochma yoki parrakli, hajmiy, uyurmaviy va oqimli bo'lishi mumkin.

Parrakli nasoslarda (m.q) - bosim parrakli g'ildiraklar aylanishi natijasida hosil bo'lgan m.q. kuchni suyuqlikka ta'siri natijasida hosil bo'ladi.

Hajmiy nasoslarda bosimlar farqi suyuqlikning yopiq ilgarilama-qaytma harakat qiladigan jismlar yordamida itarib chiqarilishida hosil bo'ladi.

Bu mashinalarga porshenli, rotorli nasoslardan kiradi. Rotorli nasoslardan shesternyalı, plastinali, vintli bo'lishi mumkin.

Uyurmaviy nasoslarda ish g'ildiragi suyuqlik ichida aylanishi natijasida hosil bo'lgan uyurmalar energiyasini bosim energiyasiga aylantiradi.

Oqimli nasoslarda suyuqlik harakati yordamchi modda - suv bug'i yoki suv oqimi harakati natijasida ro'y beradi.

Gazliftlarda - suyuqlik harakati suyuqlik va gazning zichliklari farqi ta'sirida ro'y beradi.

Montejyu kabi nasoslarda suyuqlik yuzasiga ta'sir qiluvchi gaz yoki suv bug'i bosimning ta'siri tufayli suyuqlikda harakat ro'y beradi.

Suyuqliklarni uzatib berish jarayonining yong'in xavfi, ular uzatib beradigan suyuqliklarning yong'in xavfi bilan bevosita bog'liqdir. Bundan tashqari nasoslarning yong'in xavfi ularning vallaridan chiqish mumkin bo'lgan suyuqliklarning miqdoriga ham bevosita bog'liq. Nasoslardan normal ishlab turgan holda ularning ichki hajmi suyuqlik bilan to'la to'lgan bo'ladi va yonuvchan fazo hosil bo'lmaydi. Bu yerda yong'in xavfi ikki holda sodir bo'lishi mumkin. 1. Shikastlanishda. 2. To'xtatish va ishga tushirish vaqtlarida. Nasoslarning ishdan chiqishiga sabab vibrasiya, ishqalanish, korroziya, podshipniklarning qizib ketishi va vallarning qiyshayib qolishidir. Xavfsizlikni ta'minlash uchun qotirish joylarining germetikligini nazorat qilib turish, yon tomondan qotirishni qo'llash, salniksiz nasoslarni qo'llash, iloji boricha nasos xonalarini ochiq maydonlarda joylashtirish, nasoslarning vibrasiyaga yuz tutishini oldini olish, nasoslarning ishqalanish joylarida qizib ketishni oldini olish ishlarini amalga oshirish lozim bo'ladi. Issiq yonuvchi moddalarni so'rish nasoslari boshqa nasoslardan tuynugi bo'lmanan devor yordamida ajratilishi kerak. Yengil alanganuvchi suyuqliklarni so'ruvchi nasoslarda ichki yonuv dvigateli ishlatilganda, ular nasoslardan tuynuksiz singib o'tmaydigan devorlar bilan ajratilishi, vallar atrofi esa zichlashtirilishi lozim. O'chirish armaturalari binodan 3 metrdan, so'ridan (naves) 5 metrdan kam bo'lmanan masofada joylashtirilishi lozim, lekin 50 metrdan ko'p emas. Hajmi 500 m³ gacha bo'lgan nasos stansiyalari stasionar bug' bilan yong'in o'chirish tizimi, ochiq nasos stansiyalari (shuningdek 500 m³ dan ortiq yopiq nasos stansiyalari) esa stasionar ko'pik bilan o'chirish tizimi bilan jihozlanishi lozim.

Korxonalarini va boshqa ob'ektlarni loyihalashtirish, qurish, kengaytirish, rekonstruksiya qilishda yong'in xavfsizliginita'minlash

Reja.

1. Korxonalarini loyihalashtirish qurish kengaytirish rekonstruksiyasida yong'in xavfsizligini ta'minlash.

2. Boshqa ob'ektlarda yong'in xavfsizligini ta'minlash.

Tayanch so'z va iboralar: texnologik jarayon, mexanizmlar, ob'ektlarni loyihalashtirish, rekonstruksiya qilish, xavflilik darajasi, yonish tezligi, tarqalish tezligi, katta diapazon, qurilish me'yor va qoidalari, muhofaza qobig'i, o'tkazgich, elektr sistemalari, uchqun, shikastlanish.

Har bir ishlab chiqarish korxonasi ishlab chiqarish texnologiyasi, ishlatiladigan hom ashYosi, chiqaradigan mahsuloti va joylashgan binosining konstruksiyasi hisobga olingan holda Yong'in chiqishga, portlashga va Yong'in chiqqan taqdirda uning tarqalishiga, Shuningdek Yong'ining asoratiga asoslangan holda Yong'inga va portlashga xavflilik darajasi belgilanadi.

Albatta har bir ishlab chiqarish korxonasida Yong'in xavfi birinchi navbatda u erda ishlatilaYotgan xom ashYoning va chiqarilaYotgan mahsulotning Yong'inga xavfliligi darajasi bilan o'lchanadi.

ishlab chiqarish korxonasi gazsimon Yonuvchi moddalar ishlatsa, oladigan mahsuloti engil alanganuvchi suyuqliklar holatida bo'lsa, unda albatta Yonmaydigan hom ashYo ishlatilib, Yonmaydigan mahsulot olaYotgan korxonaga nisbatan Yong'in chiqish ehtimoli albatta ko'p, Shuning bilan birga bu korxonada Yong'inni tarqalib ketishi osonlashadi va bu kroxonada Yong'indan ko'rildigan zarrari albatta katta bo'ladi.

Shuning uchun ham ishlab chiqarish korxonalarini kategoriyalarga ajratganda ishlatilaYotgan moddalarning fizik-kimyoviy xususiyatlari albatta hisobga olinadi.

Mana Shu xususiyatlarni hisobga olgan holda Qurilish me'Yor va qoidalari (QMII-90-81) asosida hamma ishlab chiqarish korxonalari, skladlar Yong'in va portlashga xavfi bo'yicha beshta kategoriyaga bo'linadi.

Portlashga xavfli aralashma miqdorini hisoblashda quyidagi mulohazalarga e'tibor beriladi:

1) Apparatlardan birida avariya natijasida bino xonasiga xavfli moddaning katta miqdori to'kilishi mumkin;

2) Aparatdagagi hamma modda tashqariga chiqariladi, bir qismi esa avariya sistemasi orqali boshqa idishga o'tkazib yuboriladi.

3) Ta'minlovchi trubalardan birida modda to'kilishi mumkin bo'lgan imkoniyat tug'ildi va bu to'kilish ta'minlovchi oqimni to'xtatib qo'yish davrida ma'lum miqdorda to'kilishi mumkin, avtomatik ravishda to'xtatganda 2 min, qo'lda to'xtatganda 15 min;

4) To'kilgan suyuqlik yuzasidan parlanish natijasida hosil bo'lishi mumkin. Bunday hollarda to'kilgan suyuqlik yuzasini hisoblaganda agar ma'lumotnomalarda ma'lumot Yo'q bo'lsa, 1 m^2 yuzaga 1 l suyuqlik Yoyiladi deb hisoblanadi;

5) Normal sharoitda idishlarning ochiq yuzalaridan va yangi bo‘yalgan yuzalardan parlanish;

6) Suyuqliklar va suyultirilgan gazlarning parlanish davrlari, Shu suyuqlik va gaz to‘la parlanishgacha o‘tgan vaqt hisoblanadi, ammo bu vaqt 1soatdan oshmasligi kerak;

7) Muhitda portlashga xavfli aralashma hosil bo‘lishi aralashmaning alanganishning quyi chegarasiga qarab belgilanadi. Bu zapas koeffitsienti 1,5 qabul qilinadi;

8) Hamma hollarda ishlab chiqarish korxonasi xonasining bo‘s sh hajmi, ya’ni mashina va mexanizmlar o‘rnatilmagan hajmi hisobga olinadi, Yoki xonaning umumiy geometrik hajmining 80 % qabul qilinadi.

Shuning uchun ham texnologik apparatlar to‘xtatilgan vaqtida uning ichida qolgan gaz va suyuqliklar parlarini suv parlari Yordamida chiqarib yuborish tavsiya etiladi. Shuningdek havoni ham Shu usulda chiqarib yuborish mumkin. Ishlab chiqarish korxonalarida Yonuvchi aralashmalarni alanganishiga olib kelishiga sababchi bo‘ladigan omillar ochiq alangali olovlardan foydalanish, cho‘g‘langan Yonuvchi moddalar, mexanik energiyani issiqlik energiyasiga aylantirish, Shuningdek elektr energiyasini issiqlik energiyasiga aylantirish va ximiyaviy reaksiyalar hisoblanadi.

Yondirish manbai sifatida qizdirilgan pechlar, har xil ishlab chiqarish chiqindilarini Yondirish qurilmalari, qizdirish lampalari, gaz payvandlash gorelkalari, elektr payvandlash ishlarida chiqadigan uchqunlarni hisobga olish kerak.

Mexanik energiyani issiqlik energiyasiga aylanishi uchun qatiq jismlar bir-biriga urilishi natijasida uchqunlar chiqishi, bir biriga ishqalishi va gazlarning siqilishi natijasida bo‘lishi mumkin.

Elektr energiyaning issiqlik ta’siri elektr simlar bir-birlari bilan qisqa to‘qnashganda, sistemada kuchlanish haddan tashqari ko‘payib ketganda va statik va atmosfera elektrlarining chaqnab toksizlanish jarayoni yuz berganda sodir bo‘ladi.

Rezina-texnikaviy buyumlar, shinalar, polimer materiallar, ugitlar, kimyoviy maxsulotlar, moddalar va boshqa narsalar ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari Yong‘inga xavfli xisoblanadi, chunki qo‘llanadigan xomashy, tayyr maxsulotlar Yonishga moyildir.

Modda va materiallarni Yong‘in, portlashga xavflilik ko‘rsatgichlarini aniqlash, tanlash ularni ag‘regat xolatiga, qo‘llash sharoitiga bog‘lik. Modda va materiallarni Yong‘inga, portlashga xavflilagini belgilaydigan ko‘rsatgichlarga gaz, suyuqlik va changlarni Yonuvchanlik guruxi, suyuqliklarni chaqnash xarorati, moddalarni alanganish va o‘z-o‘zidan alanganish xarorati, past va yuqori portlash kontsentratsiya chegaralari, alangani tarqalish xarorati chegaralari, minimal Yonish energiyasi, kislород indeksi, to‘tun xosil bulish koeffitsienti, o‘z-o‘zidan Yonish issiqlik sharoitlari, parchalanish xarorati, Yonish maxsulotlarini zaharliligi ko‘rsatgichlari va bosh qalar kiradi.

Suyuqlik va gazlar Yonuvchanlik buyicha uch guruxga bo‘lingan, ya’ni Yonadigan, qiyin Yonadigan va ynmaydigan. Ynmaydigan gaz, suyuqliklar havo ishtirokida Yonmaydi, Yonish xususiyatiga ega emas. Kiyin Yonadigan gaz, suyuqliklar mustakil ynmaydi, alanga manb’ai va havo ishtirokida vaqtincha Yonadi.

Yonadigan gaz, suyuqliklar alanga manb'ai ishtirokida va manb'ai olinganda ham Yonadi, o'z-o'zidan alangalanadi.

Chaqnash xarorati deb, suyuqlik yuzasida xosil bo'lgan gaz Yoki bug'lar havo bilan aralashib, o't manb'ai ishtirokida chaknay oladigan kichik xarorat miqdoriga aytildi.

Alangalanish xarorati deb, maxsus sinov vaqtida suyuqlik Yonuvchi gaz ajratib Yokilganda ma'lum tezlikda alangali va doimiy Yonish bo'laytgan xaroratga aytildi.

O'z-o'zidan alangalanish xarorati deb, sinov vaqtida ekzotermik reaktsiya tezligi ortib alangali Yonish bilan yakunlanadigan xaroratga aytildi.

Alangani tarqalish quyi va yuqori kontsentratsiya chegarasi deb, xoxlagan masofaga alanga tarkatadigan aralashmadagi Yonuvchi moddani kichik va katta miqdorlariga aytildi.

MA'RUZA № 15

Texnologik jarayonlarni bajarishda mashina va mexanizmlarni, texnik qurilma va uskunalarni ishlatalishda yong'in xavfsizligini ta'minlash.

Reja:

1. Texnologik jihozlarni kimyoviy ta'sir natijasida shikastlanishi
2. Texnologik jihozlarni loyihalashtirish va ekspluatasiya qilish davrida yonuvchi moddalarning miqdorini kamaytirish.
3. Texnologik jaroynlarni yong'in xavfsizligini ta'minlash

Tayanch so'z va iboralar: Texnologik jarayon, buzilishlar, yong'in, elektrstatik, elektr zaryadlaridan himoyalananish, xavfli, ashyolar, korroziya, oksidlanish, asbob-uskunalar, yuqori harorat, sorbent, yonuvchi modda.

1. Texnologik jarayonda ishlatalayotgan moddalar hamda atrof-muhit texnologik asbob-uskunalar tayyorlangan materiallar bilan o'zaro kimyoviy ta'sir qiladi va uni asta-sekin yemiradi (shikastlaydi).

Materialning tashqi muhit bilan o'zaro ta'siri natijasida buzilishi korroziya (zanglash) deb ataladi.

Kimyoviy korroziya yuqori haroratgacha qizigan suyuq dielektriklar yoki gazlar muhitida kuzatiladi. Bu oksidlanish-tiklanish kimyoviy jarayoni bo'lib, bunga kislородли vodorod sulfidli, oltingugurtli hamda vodorodli, shuningdek apparatda 200°C dan yuqori bo'lgan haroratda hosil bo'ladigan boshqa turdag'i korroziyalar kiradi.

Elektr kimyoviy korroziya hosil bo'lgan galvanik bug'larning ta'siri natijasida elektrolitlardagi metallarning erishi va bir qutbdan ikkinchi qutbga ko'chish jarayonini keltirib chiqaradi. Buning natijasida anod vazifasini bajarayotgan jism tez yemirila boshlaydi.

Korroziya jarayonining asosiy qonuniyatlaridan kelib chiqqan holda u bilan kurashda quyidagi yo'naliishlardan foydalaniladi: korroziya-bardosh metallarni qo'llash; metallarni aggressiv muhitdan himoya qoplamlari bilan qoplash; muhitning korroziya

aktivligini kamaytirish; metall bo‘lman kimyoviy bardoshli materiallardan foydalanish; kator hamda protektorli himoyalash qurilmasini o‘rnatish.

2. Loyihalash bosqichida ishlab chiqarish texnologiyalaridagi yonuvchi moddalarning miqdorini kamaytirish bo‘yicha uchta asosiy yo‘nalish mavjud: ishlab chiqarish uslubini tanlash, texnologik sxemalarni ishlab chiqish va texnologik jihozlarni joylashtirish variantlarini tanlash.

Ishlab chiqarish uslubini tanlash. Bunda yong‘in va portlash xavfi kam bo‘lgan xomashyoni qo‘llash va uning sarfi bir dona tayyor mahsulotga eng kam bo‘ladigan jarayonni tanlash kerak.

Texnologik sxemalarni ishlab chiqish. Bunda boshlang‘ich materiallarning hisoblariga asosan standart va nostandart (ko‘proq uzlusiz ishlaydigan apparatlarga talab bo‘ladi) jihozlarning turi, ularning soni va o‘lchamlarini, shuningdek, unda ishlatilayotgan xavfli modda va materiallarning miqdorini aniqlash ko‘zda tutiladi. Ishlab chiqarishda turli jinsga mansub bo‘lgan va sorbent sifatida qo‘llanilayotgan suyuqliklarning ro‘yxatini qisqartirish ham e’tiborga olinadi.

Texnologik jihozlarni joylashtirish variantlarini tanlash. Bu iqtisod masalalari qatorida, texnologik ishlab chiqarishdagi yonuvchi moddalarning nisbiy miqdorini kamaytirish hisobiga yong‘in xavfsizligi darajasini ko‘tarish imkonini beradi.

Ishlab chiqarishdan normal foydalanish davrida yonuvchi moddalarning miqdorini kamaytirishda quyidagi yong‘in xavfsizligi yechimlari qo‘llaniladi: ishlab chiqarish xonalarini yonuvchi moddalar bilan to ‘lib ketishidan saqlash, yonuvchi chiqindilarning miqdorini kamaytirish, yonuvchi moddalarni xavfsizlari bilan almashtirish.

Yonuvchi chiqindilarning miqdorini kamaytirish, ya’ni ishlab chiqarish sharoitida moddalarni qayta ishlash (ishlov berish) usulini tanlash orqali amalga oshiriladi.

Ishlab chiqarish xonalarida yonuvchi moddalarning miqdorini kamaytirish uchun eng asosiysi, xonalarni texnologik jarayonlarda hosil bo‘ladigan yonuvchi chiqindilardan o‘z vaqtida tozalab turishdir.

Yonuvchi moddalarni yonmaydiganlari bilan yoki yonish xavfi kamroq bo‘lganlariga almashtirish nafaqat loyihalash davrida balki ishlab chiqarishdan foydalanishda ham yong‘in xavfsizligini ta’minlashda katta ahamiyatga ega.

3.Texnologik jaroynlarni yong‘in xavfsizligini ta’minlashda quyidagi umumiyyatdbirlar amalga oshiriladi:

Xavfli texnologik usullarni xavfsiz turiga almashtirish;

Uskuna-moslamalarni tusiklangan xolatda joylashtirish;

Korxona binolaridagi qo‘llanadigan Yonuvchi va portlashga xavfli moddalarning miqdorini kamaytirish;

Uskuna, gaz quvurlarida, havo almashtirish tizimida Yonuvchi moddalarning portlashga xavfli kontsentratsiya xosil bo‘lishiga Yo‘l qo‘ymaslik, yonuvchi aralashmalarga ingibitorlar, inert moddalar kushishi,

yong‘in alanganadigan moddalar saqlashda, ular bilan ishlashda inert muxit qo‘llash, ishlab chiqarishni avtomtalashtirish, mexanizatsiyalash, uzlusizligini ta’minlash, texnologik uskuna va kommunikatsiyalarni germetikligini ta’minlash va jaroynda vakuum qo‘llash, belgilangan texnologik rejimni aniq bajarish, standartlarga amal qilish, texnologik uskunalarni ta’mirlash, tuzatishdan sung va ishga tushirishdan avval suv bugi yoki inert gaz bilan ishlash;

Xavfli joylarda o‘t manbaini paydo bo‘lishiga yo‘l qo‘ymaslik, yong‘in va portlashni tarqalishiga yo‘l qo‘ymaslik,

Suyuqliklarni to‘liq to‘qilmasligi, gazlarni chiqarilmamasligi, yonuvchi gaz bug‘larni xajmdan-idishdan bushatilmamasligi, uskuna va quvurlarni germetik-butun bo‘lmasligi, xavfli maxsulotlar qoldig‘i bo‘lishi yonadigan aralashmalarni xosil bo‘lishiga olib keladi. O‘tga xavfli engil uchuvchan suyuqliklarni kamroq xavfli, qaynash xarorati 110 °C dan yuqori bo‘lgan suyuqliklarga (amilatsetat, etileng‘likol, xlorbenzol,ksilol, amil spirti) bilan almashtirish yong‘in xavfsizligini ta‘minlashda samarali usullardan xisoblanadi. O‘tni tarqalishiga yo‘l qo‘ymaslik uchun suyuqlik xarakatlanadigan kuvurlarda qarshi klapanlar, turli filtrlar-o‘tni to‘siquidichlar, gidravlik zatvorlar urnatiladi. Gaz quvurlarida bo‘linadigan membranalar, zatvorlar, changli havo yullarida esa uzib kuyadigan maxsus moslama shiberlar o‘rnataladi.

Texnologik jaroynlarni yong‘in xavfsizligini ta‘minlashda quyidagi umumiylardabirlar amalga oshiriladi:

Xavfli texnologik usullarni xavfsiz turiga almashtirish;

Uskuna-moslama uskuna tusiklangan xolatda joylashtirish;

Korxona binolaridagi qo‘llanadigan Yonuvchi va portlashga xavfli moddalarning miqdorini kamaytirish;

Uskuna, gaz quvurlarida, havo almashtirish tizimida Yonuvchi moddalarning portlashga xavfli kontsentratsiya xosil bo‘lishiga Yo‘l qo‘ymaslik, yonuvchi aralashmalarga ingibitorlar, inert moddalar kushishi,

yong‘in alanganadigan moddalar saqlashda, ular bilan ishlashda inert muxit qo‘llash, ishlab chiqarishni avtomtalashtirish, mexanizatsiyalash, uzlusizligini ta‘minlash, texnologik uskuna va kommunikatsiyalarni germetikligini ta‘minlash va jaroynda vakuum qo‘llash, belgilangan texnologik rejimni aniq bajarish, standartlarga amal qilish, texnologik uskunalarni ta‘mirlash, tuzatishdan sung va ishga tushirishdan avval suv bugi yoki inert gaz bilan ishlash;

Xavfli joylarda o‘t manbaini paydo bo‘lishiga yo‘l qo‘ymaslik, yong‘in va portlashni tarqalishiga yo‘l qo‘ymaslik,

Suyuqliklarni to‘liq to‘qilmasligi, gazlarni chiqarilmamasligi, yonuvchi gaz bug‘larni xajmdan-idishdan bushatilmamasligi, uskuna va quvurlarni germetik-butun bo‘lmasligi, xavfli maxsulotlar qoldig‘i bo‘lishi yonadigan aralashmalarni xosil bo‘lishiga olib keladi. O‘tga xavfli engil uchuvchan suyuqliklarni kamroq xavfli, qaynash xarorati 110 °C dan yuqori bo‘lgan suyuqliklarga (amilatsetat, etileng‘likol, xlorbenzol,ksilol, amil spirti) bilan almashtirish yong‘in xavfsizligini ta‘minlashda samarali usullardan xisoblanadi. O‘tni tarqalishiga yo‘l qo‘ymaslik uchun suyuqlik xarakatlanadigan kuvurlarda qarshi klapanlar, turli filtrlar-o‘tni to‘siquidichlar, gidravlik zatvorlar urnatiladi. Gaz quvurlarida bo‘linadigan membranalar, zatvorlar, changli havo yullarida esa uzib kuyadigan maxsus moslama shiberlar o‘rnataladi.

MA’RUZA № 16

**Ishlab chiqarish binolarining portlash va yong‘in xavfi bo‘yicha toifasi.
Elementlarining yonuvchanlik guruhi va olovga chidamlilik chegarasi bo‘yicha
bino va inshootlarning darajalarga bo‘linishi.**

Reja

1. Bino va inshootlarni yong'in va portlash
2. Xavfi boyicha guruxlanishi.

Tayanch so'z va iboralar: Bino va inshoot, toifalanish, yong'in va portlash, xavf, texnologik, guruhanishi, moyilligi, engil yonuvchi gazsimon, engil alangananuvchi suyuqlik, xavfli bosim, chang va gazlar, bug', issqlik

Bino va inshootlarni yonish va portlashga moyillik darajasini aniqlashdan maqsad ularda sodir bulajak yong'in va portlashlar oqibatida yuzaga keluvchi buzilishlarni va odamlarga xavfli va dahshatli ta'sirini oldini olishdan iborat. Bino va inshootlarni Yonish va portlashga moyilligi, ularning qanday ashyolardan qurilganligiga va ularda mavjud ishlab chiqarish jarayonida ishlatiladigan Yoki saqlanadigan xomashyolarning Yonuvchanlik xususiyatlari bilan belgilanadi.

Umumittifoq texnologik loyihalash meyori (ONTP 24-86. 1.2.3) va qurilish qoidalari va meyorlari (KMK 2. 01.02-85) ga binoan sanoat korxonalari va omborlari Yonish va portlash xavfi boyicha 5-ta toifalarga bo'linadi, jumladan **A**, **B**, **V**, **G** va **D**. Bularning **A** va **B** toifalari Yonish va portlashga moyil. **V** va **G** toifalari bo'lsa faqat Yonishga xavfli deb hisoblanadi. **D** tofasida esa na Yonish va na portlash xavfi mavjud emas.

Bino va inshootlarni bunday guruhanishi, ularda ishlatiladigan Yoki saqlanadigan engil yonuvchi gazsimon va suyuq moddalarning bug'lari havo bilan aralashganda, portlovchi xavfli bosimi hosil qiluvchi agregat holati va ularning alanganish harorati (Ta)- ga binoan amalga oshirilgan.

A-toifaga Yonish va portlash xavfi mavjud bo'lган, chaqnab Yonish harorati 28°S dan past bo'lган, Yonuvchi gaz va engil alangananuvchi suyuqlik bug'lari havodagi kislorod bilan Yoki suv bilan birikishi natijasida, portlashga moyil xavfli bosimi 5 kPa dan oshiq bo'lган, gazsimon aralashmalar hosil bo'ladigan, korxonalar kiradi. Bu guruhga kiruvchi kimyo sanoatining atseton, oltingugurt, karbon, efir, superfosfat va boshqa moddalarni ishlab chiqaruvchi korxonalarini misol qilib ko'rsatish mumkin.

B-toifaga ham Yonish va portlash xavfi bo'lган, chaqnab Yonish harorati 28°S dan yuqori bo'lган, engil alangananuvchi suyuqlik bug'lari, Yonuvchi chang va gazlar havodagi kislorod bilan suv bilan qo'shilganda xavfli, portlovchi aralashma hosil qiluvchi miqdorda bo'lib, ular Yonganda xonadagi xavfli bosim 5 kPa dan yuqori bo'ladi. Bunga ammiak ishlab chiqarish sanoatini misol qilib ko'rsatish mumkin.

V-toifaga faqat Yonuvchi, ya'ni A va B toifalarga kirmaydigan sanoat korxonalari, jumladan chaqnab Yonish harorati 120°S dan yuqori bo'lган, Yonuvchi qattiq jismlarni ishlab chiqarish va qayta ishlov berish hamda harxil Yoqilg'i moddalarni ishlatiladigan sanoat korxonalar kiradi. Bunga misol qilib, Yog'ochni qayta ishlovchi mebelsozlik sanoati, qozg'oz, kardon, to'l qog'oz ishlab chiqaruvchi korxonalarini ko'rsatish mumkin.

G-toifaga, Yonmaydigan modda va ashyolarning qaynoq, cho'g'langan Yoki eritilgan holatida ishlatiladigan korxonalar kiradi. Bunga metallurgiya sanoati korxonalari, issqlik ishlab chiqaruvchi markazlar va bug'xonalar misol bo'laoladilar.

D-toifaga, Yonmaydigan modda va ashylarni sovuq holatda ishlataladigan va saqlanadigan sanoat va qishloq xo'jaligi korxonalari kiradi. Masalan, toshni maydalash, keramika va sement zavodlari Shular jumlasidandir.

Bino va inshootlarni Yong'in va portlash xavfi boyicha guruhlanishi, ulardagi barcha xonalarning Yonish va portlashga moyillik toifasi aniqlangandan so'ng belgilanadi. Agar binoda **A** toifaga taalluqli xona bo'lsayu, uning maydoni binodagi barcha xonalarning umumiyligi maydonidan 5% dan kam bo'lmasa Yoki sathi 200 m² dan ko'p bo'lsa, bu holda bino **A** toifaga kiradi. Binoda harxil toifaga taalluqli xonalar mavjud bo'lsayu, **A** va **B** toifadagi xonalarning yig'indi maydoni, qolgan barcha xonalar umumiyligi maydonining 5% dan kam bo'lmasa Yoki sathi 200 m² dan ziyod bo'lsa, bu bino **B** toifaga mansub bo'ladi.

Bino qurilmalarining o'tga chidamliligi.

Bino va undagi qurilmalarning o'tga chidamliligi deb, Yong'in sodir bo'lganda ularning yuqori harorat ta'siriga bardosh beraolishi va yuk ko'tarish xususiyatlarini uzoqroq muddatga saqlab qolish qobiliyatiga aytildi. Bino va inshootlarning Yong'in xavfsizligi ko'pchilik hollarda ulardagi qurilma-larni olovda Yonmasligi va o'tga chidamliligi bilan ta'minlanadi. Inshoot qurilmalarining o'tga chidamliligi, ularning eng asosiy xususiyatlaridan hisoblanadi, bu ko'rsatkich maxsus meyorlardan biri KMK 2.01.02-85 bilan meyoranadi.

Bu meyorga binoan bino, inshootlar va ulardagi Yong'inga qarshi devorlar bilan o'rالgan qismlari, 5 xildagi (**I, II, III, IV i V**) o'tga chidamlilik darajalarga bo'lingan. Binolarni o'tga chidamlilik darajasi ularning quyidagi qurilmalari boyicha aniqlanadi: ya'ni **devorlar** (yuk ko'taruvchi ichki va tashqi, zinaxona va evakuatsiya Yo'llarini o'rab olgan devorlar); **ustunlar;** **zinaxona elementlari;** **tomYopg'ich plitalar va barcha yuk ko'tarish qobiliyatiga ega bo'lgan boshqa qurilmalar.**

I darajali o'tga chidamli binolarga, yuk ko'taruvchi devorlari temirbeton, beton, tabiiy va sun'iy toshlardan va boshqa, olovda Yonmaydigan ashylardan qurilgan inshootlar kiradi.

II darajali o'tga chidamli inshootlarga ham birinchi toifadagi bino va inshootlar kiradi, faqat farqi Shundaki, bularning tomini Yopishda himoyalanmagan metal qurilmalar ishlatalishi ruxsat etiladi.

III darajali o'tga chidamli inshootlarga yuk ko'taruvchi devorlari temirbeton, beton, tabiiy va sun'iy tosh ashylardan qurilgan inshootlar kiradi. Bularda tomYopg'ich qurilmalarini qiyin Yonadigan ashylardan Shuvoq, metal tunukalar Yoki azbest plitkalar bilan himoyalash ruxsat etiladi.

IV darajali o'tga chidamli inshootlarga yuk ko'taruvchi devorlari va tomYopg'ich qurilmalari yaxlit Yoki kleylangan Yog'ochlardan va Yonadigan Yoki Yonmaydigan ashylardan qurilib, Shuvoq Yoki azbest plitalari bilan himoyalangan inshootlar kiradi.

V darajali o'tga chidamli inshootlarga devorlari va boshqa qurilmalariga o'tga chidamlilik boyicha talablar qoyilmaydigan barcha inshootlar kiradi.

Qurilmalarni Yong'in sharoitida issiqlik ta'siridan yuk ko'tarish Yoki to'sib turish qobiliyatini yuqolishiga sabab bo'luvchi dastlabki buzulishgacha bo'lgan vaqt oralig'iga, ularni **o'tga chidamlilik chegarasi** deb ataladi va vaqt birligi soatda o'lchanib, qurilmalarni sinov boshlangan daqiqadan to quyidagi buzilish belgilarining birortasini paydo bo'lganiga qadar o'tgan vaqt oralig'i bilan ifodalanadi:

- qurilmada alanga Yoki tutun o'taoladigan teshikni paydo bo'lishi;
- qurilmani Yonmay turgan sirtida harorati 160°S ga ko'tarilsa, Yoki uning boshqa ixtiYoriy nuqtasidagi harorat 220°S dan oshib ketsa;
- qurilmaning biror qismi qulab tushishi natijasida yuk ko'tarish qobiliyati kamayib qolganda va h.o.

Qurilmalarni o'tga chidamlilik chegarasi tajriba usuli bilan Yoki analitik xisoblash Yo'li bilan aniqlanadi. Bu usullarning asosiy shart va qoidalari Xalqaro mezonlashtirish tashkilotining tavsiyanomalarida (ISO) va mezon SEV 1000-78 «Yong'inga qarshi qurilishni loyihalashtirish meyorlari» da aks ettirilgan.

Tajriba usulga binoan qurilmalarni haqiqiy o'lchamda namunasi tayYorlanib, maxsus pechlarda oldin isitiladi, keyin ularni ishlatalish joyidagi meyoriy yuklar yig'indisiga mos keladigan holatda yuklantiriladi va sinov boshlani-shidan to uning sirtida o'tga chidamlilik chegarasini anglatuvchi belgilaridan birortasi paydo bo'lganiga qadar vaqt oralig'i aniqlanadi.

Tosh va g'isht qurilmalarining o'tga chidamliligi ularning qaysi ashayodan va qanday qalinlikda tayYorlanganligiga hamda ularni issiqlikka qarshilik ko'rsatish qobiliyatiga bog'liq bo'ladi. Bunday qurilmalarning o'ziga xos o'tda Yonmaslik xususiyati va qalinligi tufayli, ular Yong'in sharoitida olovning ta'siriga uzoq qarshilik ko'rsata oladi.

G'isht va tabiiy-marmar toshdan terilgan devorlar yuqori darajadagi o'tga chidamlilik qobiliyatga ega. Bunday qurilmalar Yong'in sharoitida 900-1000°S harorat ta'siriga chidaYoladi va ularning o'tga chidamlilik chegarasi 1,25-1,5 soatni tashkil etadi. Shu boisdan g'isht va toshdan qurilgan devorlar Yong'in paytida alanga va haroratni Yo'liga yaxshi to'siq bo'laoladi.

Temirbeton qurilmalari o'zining olovda Yonmasligi va issiqlikni o'tkazuvchanlik koyfisenti uncha kata bo'limganligi sababli, Yong'inga etarli darajada qarshilik ko'rsataoladi, ammo bu qarshilik cheksiz davom etaverishi mumkin emas. Temirbeton qurilmalarining qalinligi uncha kata bo'limganligi tufayli, ularning o'tga chidamliligi ham chegaralangan bo'ladi, va u ko'pincha 1 soatdan oshmaydi. Agar beton qurilmaning namligi 3,5 % dan yuqori bo'lsa, qisqa muddatli Yong'lnarda beton sirtida mikro va makro Yoriqlar hatto portlashlar hosil bo'lib, qurilma tezda o'zining ustuvorlik xususiyatini yuqotaboshlaydi va o'tga chidamliligi keskin pasayib boradi.

To'siq vazifasini o'tovchi, temirbeton qurilmalarning Yong'inga teskari turgan tomonini 160°S ga qizdirilganda uning o'tga chidamliligi, namligiga, qalinligiga va betonni turiga bog'liq bo'ladi. Qalinligini oshishi va zichligini kamayishi, betonning o'tga chidamliligini oshishiga olib keladi.

Agar temirbeton tomYopg'ich plitalarning armatura ustidagi himoya qobig'i 10 mm bo'lib, armaturasi A-I, A-II sinfdagi po'latdan bo'lsa, o'tga chidamliligi 0,75 soatga, Yoki A- III bo'lganda esa 1,0 soatga teng bo'ladi.

Azbestdan tayYorlangan shiferlar 400°S da o'zining xususiyatini yuqota-boshlaydi va 600°S dan oshganda parchalanib otilib ketaboshlaydi.

Temirbeton ustunlarining o'tga chidamliligi ularga qoyiladigan yuklarning markaziy o'qidan qanchalik uzoq Yoki yaqinligiga ham bog'liq bo'ladi. Chunki ustunga qoyilgan yuk markazidan uzoq joylashgan bo'lsa, uning o'tga chidamlilik darajasi ustunning

siqilishga ishlaydigan armaturasining himoya qobug'iga bog'liq bo'ladi, ya'ni issiqlik ta'sirida betonning mo'rtlashishi va bosib turgan yuk ta'sirida siqilishi natijasida armatura sirtidagi beton qobiqda mikro portlashlar sodir bo'ladi va sirti ochilgan armaturalar yuqori harorat ta'sirida tezda yumshab, o'zining mustahkamlik xususiyatini yuqotadi. Granit maydalaridan tayYorlangan betonda quyilgan ustunlarni o'tga chidamlilik darajasi ohaktosh maydalaridan tayYorlangan beton ustunnikiga nisbatan 20% kam ekanligi ilmiy asoslangan. Buni granitning tarkibiga kiruvchi kvarsning 573°S daYoq parchalanishi va ohaktoshni esa 800°S dan keyin emirilishi bilan izohlash mumkin.

Devorlarni o'tga chidamliligi ularning qalinligi va ularga qoyilgan yukning vazn miqdoriga bog'liq bo'ladi, ya'ni qalinligini kamayishi va yukning ko'payishi o'tga chidamlilik darajasini pasayishiga va aksincha bo'lganda ko'payishiga olib keladi. Bino va inshootlardagi qavatlar soni ko'paygan sari, ularning devorlariga tushadigan yukning miqdori ham ortib boradi. Shuning uchun ulardagi yuk ko'taruvchi ko'ndalang devorlarning o'tga chidamliligini minimal miqdorini ta'minlash maqsadida, devor qalinligini qavatlar soniga mos ravishda qabul qilinadi, ya'ni 5-9 qavatli jamoa va fuqaro binolarida -120 mm, 12 qavatli bo'lganda-140 mm, 16 qavatgacha bo'lsa -160 mm va qavatlar soni undan oshiq bo'lganda-180 mm.

MA'RUZA № 17

Binoda yong'in uzluksizligi, uning tarqalish tezligi va harorati o'zgarishiga ta'sir ciluvchi omillar.

Reja

- 1 Yonishning fizik- kimyoviy asoslari
- 2 Yonish fazalari va portlash chegaralari.

Ishlab chiqarishda Yong'inni kelib chiqishiga, ko'pincha Yong'in Yoki elektr xavfsizligi qoidalarini qo'pol ravishda buzilishi, elektr tarmoqlarini yaxshi himoyalanmaganligi, Yonuvchi moddalarning saqlash qoidalarini buzilishi hamda olovga nisbatan ehtiYotsizlik qilish kabilar sabab bo'ladi. Ba'zan Yong'inni Yoki portlashni kelib chiqishiga, inshootni loyihalash vaqtida bo'lajak sanoat korxonasini Yonish va portlash xavfi bo'yicha noto'g'ri toifalanishi, ya'ni unda ishlatiladigan xomashYoning Yonish va portlash xususiyatlari aniq xisobga olinmaganligi ham sabab bo'ladi.

Ishlab chiqarish jarayonida Yong'in xavfsizligini to'la ta'minlashda korxonalarini Yong'in xavfi bo'yicha toifalanishi kifoya qilmaydi. Buning uchun ishlab chiqarishda Yong'in va portlashni keltirib chiqaruvchi xavfli omillarni mukammal o'rGANIB chiqish lozim bo'ladi. Demak ishlab chiqarish tartiboti jarayonida Yonish va portlash xavfi mavjudligini quyidagi tartibda aniqlash mumkin:

- 1.Korxonada ishlatiladigan Yonuvchi va portlovchi moddalarning turlari va ularning miqdori aniqlanadi;
- 2.Ishlab chiqarish tartiboti va unda ishlatiladigan Yonuvchi moddalarning ishlatilish tartibi aniqlanadi;

3.Korxonadagi texnologik uskunalaridan Yonuvchi moddalarning oqib chiqishini mavjud sabablari va hajmi aniqlanadi;

4.Yondiruvchi va portlovchi manba'larni kelib chiqish sabablari aniqlanadi;

5.Sodir bo'lishi mumkin bo'lgan Yong'in sabablarini va uning ehtimoliy Yo'nalishini, binoning loyihalanish uslubiga va Yonishga moyil bo'lgan pardozlov ashYolarining joylanishiga qarab aniqlanadi va hokazolar.

Texnologik jaraYonlarni Yonish va portlash xavfini tahlil qilishda, odatda texnologik jaraYonda qo'llaniladigan tartibot uslubi va ishlab chiqarishni me'Yoriy rejalar, hamda ishlatiladigan Yonuvchi moddalarning kimyoviy xossalari haqidagi ma'lumotlar atroflicha keng o'rgaaniladi.

Texnologik tartibot uslubi va undagi me'Yoriy qoidalarga binoan qaysi idish Yoki aparatlarda qanday va qancha Yonuvchi gaz, suyuqlik Yoki boshqa moddalar borligi hamda ular qanday bosim ostida va haroratda ishlashi mumkinligi haqida aniq ko'rsatmalar ifodali tarzda jaraYonni boshqaruv pultida baYon etilgan bo'lishi shart.

Texnologik jaraYonda ishlatiladigan gazlar havo bilan Yoki kislorod bilan birikmagan holda ishlatiladi. Gazlar aparadtagi jumraklardan Yoki texnik nosozliklar orqali chiqayotganda, havo bilan birikishi mumkin. Bunday holatlarda Yonuvchi gazning havo bilan aralashmasi tarkibidagi miqdori uning quyi Yonish chegara miqdoridan kam, Yoki yuqori Yonish chegarasidan baland bo'lishi shart. YA'ni bu ikki chegara orasida bo'lishi o'ta xavfli hisoblanadi.

YOnuvchi suyuq modda solinadigan idishlar xavfsizlik qoidasiga binoan oxirigacha to'lg'azilmaydi, ya'ni idishlarni shifti bilan suyuqlik satxi orasida keyinchalik gaz bug'lari bilan to'yinadigan havo bo'shlig'i mavjud bo'ladi. Idishning tepe qismida hosil bo'ladigan portlovchi muhitning yuzaga kelishi, suyuqlik bug'lari bilan to'yingan havo aralashmasidagi Yonuvchi bug'ning miqdoriga va idishdagi suyuqlikning haroratiga ham bog'liq bo'ladi, ya'ni suyuqliknin harorati uning quyi va yuqori Yonish harorati chegaralari oralig'ida bo'lsa, xavfli muxit portlashga moyil bo'ladi.

Ishlab chiqarishda sodir bo'ladigan bunday sharoitlarda alangalanib Yoki portlab Yonishga quyidagi manba'lар sabab bo'lishi mumkin: Yonib turgan olov, cho'g'lanib qizib turgan Yonuvchi buyum, mexanik harakat Yoki elektr tarmog'inining qizishi natijasida hosil bo'ladigan uchqunlar Yoki moddalarning o'zaro kimyoviy birikishi va boshqalar.

Yong'in uzluksizligi va haroratining o'zgarishi.


Yong'inni uzluksiz davom etishi Yonuvchi moddalar va ashYolarning turi va miqdoriga, ularning tarkibiy stukturasiga, namligiga hamda Yonish tezligiga bog'liq bo'ladi. Agar Yonuvchi moddaning miqdori (N) va uning Yonish tezligi (V) ma'lum bo'lsa, Yong'inni uzluksiz davom etish muddati (τ), quyidagi ifoda bilan oson aniqlanadi

$$\frac{N}{V} \tau = \text{-----} \quad (10)$$

Yong'inni davom etish muddati ushbu - ifodada ko'rsatilganidek sodda tuyulgani bilan, uni echishda ma'lum qiyinchiliklar mavjud, chunki harqanday moddaning Yonish tezligi o'zgarmas emas va u Yonish muhitini kislorod bilan

ta'minlanganligiga, moddaning strukturaviy tuzilishiga hamda joylanish sharoitiga ham bog'liq bo'ladi. YOng'inni uzluksizligiga bevosita ta'sir ko'rsatadigan yana bir asosiy omil bunda hisobga olinmagan, u ham bo'lsa undagi haroratning o'zgarishidir. Chizma 6 da berilgan teng hajmdagi turli xil moddiy ashYolar ning, masalan Yogoch (3) bilan paxta (2) ni Yonish jarayonini kuzatsak, Yog'ochning Yonishdagi eng yuqori harorati 900°S ga teng bo'lib, tajribaning 40 daqiqa sige to'g'ri kelsa, paxtaniki bo'lsa 500°S dan oshmaydi va 10 -chi daqiqa sida sodir bo'ladi. Bundan ko'rinish turibtiki, turli xildagi Yonuvchi ashYolarning Yonish jarayoni turlicha vaqt davomida kechadi, binobarin ularning inshoot qurilmalariga ta'sir etish darajasi ham harxil bo'ladi.

HaYotdagagi Yong'inlardan ma'lumki, katta hajmdagi binolarda haroratning 1200°S gacha ko'tarilishi va davom etish vaqt 1,5-3 soatgacha cho'zilishi kuzatilgan. Erto'lalarda sodir bo'lgan Yong'inlarda harorat birmuncha past bo'ladi, ya'ni davom etish muddati 3-5 soat bo'lganda ham harorati 800°S dan oshmasligi aniqlangan.



Чизма 6. Ҳархил ашёларнинг ёнишида ҳароратнинг ўзгариши:


1 - курага; 2 - пакта; 3 - ячмень;
4 - резина; 5 - полистирол.

Turar joy binolaridagi Yong'inlarning davomiyligi (o'chirish vaqt bilan birga) odatda 1-1,5 soatdan oshmaydi, lekin ulardagagi eng yuqori harorat 1100°S gacha ko'tarilishi kuzatilgan.

Respublikamiz hududida sodir bo'lgan Yong'inlarni tahlili Shuni ko'rsatadiki, Yong'inlarni davomiyligi turlicha bo'lib, 0,5-3 soatgacha cho'zilishi aniqlangan.

Yong'indagi haroratni vaqt omili bilan bog'liqligini hartomonlama chucher o'rganilgandan keyin, ko'pchilik xorijiy davlatlarda, Shu jumladan O'zbekistonda ham bino va inshootlarda ishlataladigan qurilmalarni o'tga chidamlilagini sinash jarayonida qo'llash maqsadida, Yong'in sharoitida haroratni vaqt davomida o'zgarishini aks ettiraoladigan (chiz.7) «**standart harorat**» grafigini 1966 yilda Xalqaro mezonlashtirish tashkiloti (ISO) taklifi bilan qabul qilindi. CHizma 6 va 7 larni o'zaro solishtirganda, ulardagagi egri chiziqlarni bir-biridan farqi Shundaki, chizma 6 ashYolarning tabiiy Yong'in sharoitida harorat o'zgarishini ko'rsatadi. CHizma 7 dagi egri chiziqlar esa Yong'indagi haroratning maksimal o'zgarish holatini aks etadi va

bino qurilmalarini o'tga chidamlilik darajasini aniqlashda, Yong'in sharoitiga mos harorat o'zgarishini ta'minlashda me'zon sifatida xizmat qiladi.



Chizma. 7. Yong'inda «Standart harorat» grafigi.

Shunday qilib, qurilmalarni zarur bo'lgan o'tga chidamlilik darajasini aniqlash uchun, Yong'inni haqiqiy cho'zilish vaqtini hisoblash shart emas, balki vaqt birligida ifodalangan «standart harorat» grafigi Yordamida harorat o'zgarishini aniqlash kifoya bo'ladi.

Tajriba jarayonida pechning olovli kamerasida haroratning vaqtga nisbatan o'zgarishi yuqorida izohlangan standart harorat grafigi asosida Yoki quyidagi ifoda Yordamida oson aniqlanadi.

$$t \approx 345 \operatorname{Ig}(8\tau Q_1) \quad (13)$$

bunda t -olv kamerasida o'rtacha harorat miqdori, $^{\circ}\text{S}$;
 τ -sinov boshlangandan keyin o'tgan vaqt, daqiqa.

Yonish fazalari va portlash chegaralari.

Yonish faqat ma'lum xarorat sharoitidagina mavjud bulishi mumkin. Barcha yonuvchi moddalarining tarkibida uglerod va vodorod mavjuddir. Issiklik ta'siri ostida yonuvchi moddalar parchalanib yukoridagi gazlar ajralib chikib, xavodagi kislород bilan birikib alanga xosil kiladi.

Yonish fazalarining quyidagi xili aniqlangan.

1. Chaqnash. Agar sekin-asta kizdirilayotgan yonuuchi suyuqlikka vakti-vakti bilan tashkaridan alanga ta'sir kildirsak, ma'lum bir xaroratga etganda, undan ajralib chikayotgan gazsimon maxsulot chaknaydi va shu zaxotiyok uchib koladi. Suyuqlikning ana shu paytdagi xarorati chaknash xarorati deyiladi. Chaqnagan gazlarning tez uchib kolishining sababi, bu xaroratda suyuqlikdan ajralib chikayotgan gazlar alangani davom ettirish uchun etarli emasligidir.

Chaknash xarorati moddalarining yongin jixatidan xavflilagini aniklashda katta axamiyatga molikdir. Ayrim moddalaridan ajralib chikuvchi bug va gazlar kup mikdorda ajralib chiquvchi bug va gazlar ko'p miqdorda yigelishi natijasida ochiq alanga bilan birikib kuchli portlash paydo qilishi mumkin.

2. Alangalanish. Suyuq, yonuvchi moddalarini kizdirish chaknash xaroratidan yukorida xam davom ettirilsa, uning buglanishi jadallahashi va shunday bir vakt keladiki, unga alangan yakinlashtirilsa chikayotgan buglar chaknaydi va yoyonishda davom etadi. Suyuqlikning shu xolatdagi xarorati alanganlanish xarorati deb ataladi.

3. Uz-uzidan alangalanish. Agar yonuvchi suyuqlikni alanganlanish xaroratidan yukori bulgan xolatda xam kizdirish davom ettirilsa-yu, lekin ochik alanga yakinlashtirilmasa, ma'lum bir vaktda, ajralib chikayotgan buglar uzidan-uzi

alangalanib ketadi. YOnuvchi suyuqlikning ana shu xolatdagi xarorati uz-uzidan alangalanishxarorati deyiladi.

4. Uz-uzidan yonib ketish. Ayrim yonuvchi kattik moddalarni saklash notugri tashkil etilgan xollarda uz-uzidan yonib ketishi mumkin. Maasalan, nam xolda garamlangan poxol, paxta, toshkumir, moy artilgan latta va boshkalar. Bu jarayon uz-uzidan yonish xarorati ma'lum xaroratdagina bulishi mumkin.

Kattiq moddalar yonayotganda, yonayotgan kismlariga yondosh kismlarning kizishi va ulardan uz navbatida yonuvchi gazlar ajralib chikishi va ularning xam yona boshlashi natijasida uzlusiz zanjir reaksiyasi kechadi. Bu biror bir tusuvchi omilga uchramasa yonuvchi modda yonib tamom bulguncha davom etadi.

Yonuvchi suyuq moddalarning yonishi fakat yuzalari ochik bulgan xolatdagina, ya'ni xavo bilan tutash bulgan yuzalardagina yuz berishi mumkin. Bunda suyuqlik yuzasidagi alanga pastki katlalarni kizdiradi va yonuvchi buglarning yangi-yangilarini chikaradi va ular xam yona boshlaydi, shunday kilib bu erda xam zanjir reaksiyasi kechadi.

Yonuvchi suyuq moddalarning chaknash xarorati 45°S ga teng yoki undan kichik bo'lsa, bunday moddalar engil yonuvchi suyuqliklar (LVJ) deyiladi. Bularga benzin, serouglerod, spirtlar va boshkalar misol bula oladi. CHaknash xarorati 45°S dan yukori bulganlari esa yonuvchi suyuqliklar deyiladi. (GJ). Kurilish me'yorlari va qoidalari SNiP 11.3-70 da keltirilishi bo'yicha yongindan muxofaza qilish ilmiy tekshirish institutining tavsiyasiga binoan engil yonuvchi suyuqliklarga chaknash xarorati 61°S ga teng va undan past bo'lganlarni, yonuvchi suyuqliklarga esa 61°S dan yuqorilarini kiritish belgilangan.

Gazlarda esa, gazning xar bir molekulasi kislороднинг molekulalari bilan bevosita kontaktda bulishi mumkinligi va ular bir vaktning uzida oksidlanish jarayoniga tayyor bulganligi uchun, yonish jarayoni katta tezlikda kechadi.

Yonuvchi modda buylab alanganing tarkalish tezligi sekundiga bir necha metrni tashkil etsa yonish, bir necha yuz metrni tashkil etsa portlash, bir necha kilometrni tashkil etsa detonatsiya deb ataladi.

Gaz va buglarning xavo bilan aralashmasining yonish va portlash xavfi, alanganing tarkalish xaroratidan tashkari ularning xavodagi konsentratsiya chegarasi (buglar uchun) bilan xarakterlanadi.

Portlashning konsentratsiya chegarasi deb yopik tigel ichida yonuvchi gaz va buglarning xavodagi mikdori tashki alanga ta'siri ostida alangalanib keta oladigan mikdorga aytildi.

Havo bilan tuldirilgan berk idish olib, unga ma'lum mikdorda yonuvchi gaz yoki bug kushib boramiz va xar gal uni yokib kuramiz. Bu gazning mikdori (foizlarda yoki ogirlik konsentratsiyasida) kam bulganda alanganmaydi, ya'ni idish ichidagi bosim atmosfera bosimiga tengligicha kolaveradi. 33 rasmda koordinata uklarida yonuvchi gazning yoki bugning idish ichidagi kotsentratsiyasi, absissa bo'yicha portlash bosimi kursatilgan.

Youvchi moddaning konsentratsiyasi oshirib borilishi natijasida shunday xolat yuzaga keladiki, bunda aralashma kuchsiz portlaydi (rasmda "A" nuktasi). YOpik idish ichida yonuvchi gaz yoki bugning xavo bilan aralashmasining yondirilganda portlash paydo kiladigan minimal kimati portlashning pastki chegarasi deb ataladi.

Idish ichiga berilayotgan gaz yoki bugning konsentratsiyasi yana oshira borilsa, portlash kuchi orta beradi va biror maksimal kiymatga erishadi. Konsentratsiyaning yanada oshib borishi endi portlash kuchini oshirmay, balki pasaytiradi va sekin asta suna boshlaydi va ma'lum konsentratsiyada esa butunlay tuxtaydi ("B" nukta). YOpik idish ichida yonuvchi gaz yoki bugning xavo bilan aralashmasining, yondirilganda portlaydigan maksimal kiymati portlashning yukori chegarasi deb ataladi. Portlashning pastki va yukori yaegaralari orasidagi fark ancha katta bo'lsa, moddaning portlash xavfi shuncha yukori buladi.

Xar bir yonuvchi moddaning buglari va gazlari, xamda changlar uzlarining pastki va yukorigi portlash chegaralari kiymatlariga ega.

Yonuvchi changlar va tolalar, ularning pastki portlash chegarasi 65 g/m^3 dan past bo'lsa, portlash xavfi mavjud xisoblanadi. Agar ularning pastki portlash chegarasi 65 g/m^3 dan yukori bo'lsa, ular yongin xavfi bulgan changlar xisoblanadi.

Suyuqliklar buglari uchun xam portlashning xarorat chegaralari pastki va yukorigi kiymatlarga egadir. Portlashning pastki xarorat chegarasi deb, yopik idish ichidagi, suyuqlikning tuyingan buglarining tashki manba ta'sirida alanga olishi mumkin bulgan eng pastki xarorat tushuniladi.

Portlashning yukorigi xarorat chegarasi deb, yopik idish ichidagi suyuqlikning tuyingan buglarining tashki manba ta'sirida alangan olishi mumkin bulgan eng yukorigi xarorat tushuniladi. YOnuvchi suyuqliklarning gaz va buglarning xavo bilan aralashmasini yukorida kursatilgan chegaralaridan tashkari kiymatlarida xech kanday manba bilan alanganlatib bulmaydi. Masalan, atseton tuyingan buglari uchun portlashning pastki xarorat chegarasi - 20°S , yukorigisi 7°S , serouglерод uchun tegishlicha - 14°S va - 7°S .

Gazlar va changning yonishi. YOnuvchi gazlar xavo bilan birikib portlash jixatidan xavfli aralashmalar xosil qilishi mumkin, shu sababli ular portlash jixatidan xavfli moddalar toifasiga kiradi. Gaz - xavo aralashmalarining xavflilik darajasi ularning alanga olish xaroratiga va portlashning mikdoriy chegaralariga karab baxolanadi.

Gazlar barkaror yonayotganda xarorati 1400°S gacha, portlaganda esa 2000°S gacha kutarilishi mumkin. Gazlar portlaganida bosimi 10^5 Pa ga etishi mumkin.

YOnuvchi gazlarning, shuningdek, suyuqlik buglarining portlanisha karshi kurash tadbirlarini tugri tashkil qilish uchun ularning xavo bo'yicha zichligini bilish zarur, chunki xavo bo'yicha zichligi birdan kichik bulgan gazlar xonaning yukori kismida, zichligi birdan katta bulgan gazlar esa xonaning patski kismida, kuduklar, uralar, xandaklarda tupланади.

Ishlab chikarishdagi alanga olish manbalari. YOnuvchi ashyolarning alanga olishiga va yonuvchi aralashmalarning porlashiga sabab buluvchi issiklik manbalari ularning issiklik jamgarmalari (zapaslari) va ularning yuzaga kelish sabablariga kura turli tuman bo'lsada, ammo ularning barchasi kandaydir energiya yoki kimyoviy reaksiyalarda issiklik chikishi yoki ortishi yutilishining natijasidir.

Kimyoviy reaksiyalarda issiklik chikishi yoki yutilishi. Ochik alanga, chuglangan yonish maxsullari, uchkunlar, issiklik chikaradigan kimyoviy reakiyalar alangan olish manbai bulishi mumkin.

Turli xil gorelkalar, kavsharlash lampalari, elektr yoylari, isitish pechlari, elektr tokida va gaz alangasida payvandlash jarayonlari, chchekish uchun yokilgan gugurt yoki zajigalka ochik alangan oilish manbai bulishi mumkin. Ochik alanga manbaining va issiklik energiyasi jamgarmasining xarorati deyarli xamma yonuvchi moddalar va xar kanday gaz-xavo xamda bug-xavo aralashmalarining olishi uchun etarlidir.

MA’RUZA № 18

HARORATNING YOG‘OCHGA VA UNING ISSIQLIK O‘TKAZUVCHANLIGIGA TA’SIRI

Reja:

1. Yog‘och konstruksiyalarining qo‘llanish sohalari
2. Haroratning yog‘ochga va uning issiqlik o‘tkazuvchanligiga ta’siri
3. Yog‘ochning mexanik tarkibiga turli faktorlarning ta’siri

Tayanch so’z va iboralar: Yog‘ochkonstruksiyalari , cherish, toifalanish, yong‘in xavf, texnologik, guruhlanishi, moyilligi, engil yonuvchi, xavfli bosim, issqlik ta’siri, sinchli binolar.

Yog‘och - bebahoh qurilish materialidir. Yog‘och materialining zahirasi MDH davlatlari ichida Rossiya xududida eng ko‘p edi va shuning uchun ilgari ham, hozirda ham juda ko‘p mamlakatlarga yog‘och materialini asosan Rossiya eksport qiladi, shu jumladan O‘zbyokiston respublikasi qurilishlarida ishlatiladigan sara yog‘och materiallari ham asosan Rossiyadan olinadi.

Bugungi kunda O‘zbyokiston Respublikasi hududida va boshqa xorijiy davlatlarda devorlari mahalliy materiallardan, yog‘och sinchli ko‘plab yakka tartibdagi uylar qurilmoqda. Qurayotgan ustalar uzoq yillardan beri xalqimiz erishgan mahalliy qurilish san’ati yutuqlarini egallagan va milliy qurilish an’analarini davom ettirib kelayotgan ustalardir. YOg‘och-sinchli binolar ilmiy jihatdan nisbatan kam o‘rganilgan, ayrim xususiy tadqiqotlar o‘tkazilgan xolos. Qurilish me’yorlari va qoidalarida ham bu turdagи binolar to‘g‘risida juda kam ma’lumotlar berilgan. YOg‘och seysmik mustahkam binolar qurishda eng sara material bo‘lishiga qaramay, undan qurilgan sinch uylarni zilzilabardoshlik talablariga amal qilingan holda loyiha asosida qurilsagina o‘zining ijobiy xossalari namoyon eta oladi. 1980 yilda Toshkent shahri yaqinidagi Nazarbek tumanida hamda 1976 va 1984 yilda Gazlida sodir bo‘lgan zilzilalar natijasida yog‘och-sinch devorli uylar jiddiy shikastlangan, vayronaga aylangan, bir qancha insonlar-go‘daklar nobud bo‘lganlar. SHunga qaramasdan respublikamizda va xorij mamlakatlarida hozirda ham yog‘och-sinchli uylarni ko‘plab qurmoqdalar. Bu albatta biz olimlarni tashvishga solmoqda. CHunki, bu turdagи binolarni haligacha to‘liq kompleks ilmiy-tadqiq qilinmagan.

YOg‘och-sinch devorli binolarda sinchlarning orasi odatda guvala bilan to‘ldiriladi va somonli loy bilan suvoq qilinadi. Bunday uylarning ichki iqlimi yozda salqin va qishda issiqlikdir. Uzoq kuzatishlar shuni ko‘rsatadiki, bunday uylarda yashagan insonlarni salomatligiga ham zarar etmaydi, sababi ularni qurilishida qo‘llanilgan

qurilish materiallarining barchasi tabiiy materiallardir. SHuning uchun ham mazkur yog‘och konstruksiyali uylar ekologik jihatdan sofdir.

YOg‘och sinchli binolarni qo‘s sh va yakka sinchli qilib quriladi. Qo‘s shsinch orasini ba’zi ustalar guvala-loy va parcha g‘isht-loy aralashgan nam tuproq bilan to‘ldirishadi, devorni issiq-sovuq o‘tkazmaslik xususiyatini shu yo‘sinda oshirmoqchi bo‘lishadi. Biroq, bunda binoning umumiyligi og‘irligi ortib ketadi. Bu esa zilzilabardoshlik nuqtai nazaridan noto‘g‘ridir. SHuning uchun devorning issiq-sovuq o‘tkazmasligini boshqa yo‘llar bilan oshirish zarur masalan, qo‘s shsinch orasini qipiqligi yoki shunga o‘xshash engil materiallar bilan to‘ldirish mumkin.

Qo‘s shsinch devorni qurishda quyidagi tartibga rioya qilinishi bino mustahkamligini yanada oshiradi: 1. Tashqi sinch to‘ldiriladi. 2. Tashqi sinchni ichki tomonini somonli loy bilan suvaladi. 3. Ichki sinchni to‘ldirish bilan bir vaqtda ichki tomonini somonli loy bilan suvaladi. 4. Ichki sinchni ichki tomoni, tashqi sinchni tashqi tomoni suvaladi. 5. Uy burchaklarini esa to‘la loy va g‘isht bilan zich to‘ldirib chiqiladi.

Yog‘och konstruksiyali binolar barchaning ko‘z o‘ngida zilzila sinovlaridan o‘tgan. «Sinch uyim- tinch uyim» maqoli bejiz paydo bo‘lmagan. Respublikamiz hududida keyingi yillarda ikki qavatli yog‘och sinchli binolar qurila boshlandi. Bu albatta mustaqilligimiz sharofati va yog‘och materiallari asosidagi qurilishlarning yangi XXI asrdagi rivojlanish bosqichidir.

Haroratning yog‘ochga va uning issiqlik o‘tkazuvchanligiga ta’siri

Harorat ko‘tarilganda mustahkamlik chegarasi va elastiklik moduli kamayadi va yog‘ochning mo‘rtligi oshadi. Masalan, qarag‘ay yog‘ochini siqilishdagi mustahkamlik chegarasi, uni 20°S dan 50°S gacha qizdirilganda o‘rtacha 70% gacha kamayadi, 100°S gacha qizdirilganda esa, boshlang‘ich qiymatidan 30% gacha kamayadi.

t - haroratdagi yog‘ochning mustahkamlik chegarasini, uning boshlang‘ich 20°S dagi mustahkamlik chegarasi hamda to‘g‘rilovchi β koeffitsientni hisobga olgan holda aniqlash mumkin:

$$\sigma_t = \sigma_{20} - \beta(t - 20), \quad (5.15.1)$$

bu erda: σ_t - mavjud t haroratdagi mustahkamlik chegarasi; σ_{20} - 20°S haroratdagi mustahkamlik chegarasi; β - o‘tkazish koeffitsienti(2-jadval); t – sinalayotgan vaqtdagi mavjud harorat, $^{\circ}\text{S}$.

Manfiy haroratlarda yog‘ochdagisi namlik muzga aylanadi va namlik 25% gacha bo‘lganda siqilishdagi mustahkamligi ortadi, lyokin mo‘rt bo‘lib qoladi.

YOg‘ochning harorat ta’siridagi deformatsiyasi α -chiziqli kengayish koeffitsienti bilan aniqlanadi. YOg‘och tolalari bo‘ylab aniqlangan bu koeffitsient juda kichik va u $5 \cdot 10^{-6}$ dan oshmaydi, o‘z navbatida bu yog‘och uylarni harorat choklarisiz qurish imkoniyatini beradi. Tolalariga ko‘ndalanggi bo‘yicha esa bu koeffitsient $7 \div 10$ marta kattadir.

. β -to‘g‘rilovchi koeffitsientning qiymatlari

3-jadval

YOg‘och turi	β , MPa			
	tolalar bo‘ylab siqilishda	statik egilishda	Tolalar bo‘ylab	
			siljish, yorilishda	cho‘zilis hda
Qarag‘ay	3,5	4,5	0,4	4
Qora qarag‘ay	2,5	3	-	-
Tilog‘och	4,5	-	-	-
Oq qarag‘ay	2,5	-	-	-
Oq qayin	4,5	-	-	-

YOg‘ochning issiqlik o‘tkazuvchanligi, uning trubasimon-g‘ovak tuzilishiga ega bo‘lganligi hisobiga ayniqsa tolalariga ko‘ndalanggi bo‘yicha kichikdir. Quruq yog‘ochni tolalariga ko‘ndalanggi bo‘yicha o‘rtacha issiqlik o‘tkazuvchanlik koeffitsienti $\lambda = 0,14 \text{ Vt} / (\text{m} \cdot ^\circ\text{S})$ ga tengdir. Issiqlik o‘tkazuvchanligi kam bo‘lganligi uchun yog‘och engil to‘siq konstruksiyalari uchun samarali material hisoblanadi. YOg‘ochni issiqlik sig‘imi kattadir, quruq yog‘ochniki o‘rtacha $S = 1,6 \text{ kJ} / (\text{kg} \cdot ^\circ\text{S})$ ga tengdir.

Yog‘ochning mexanik tarkibiga turli faktorlarning ta’siri

YOg‘och tuzilishining har xilligi tashqi yuklar ta’sirida uning tolalari yo‘nalishi bo‘yicha turlicha qarshilik ko‘rsatishiga sababchi bo‘ladi. YOg‘ochning mustaqamlilik chegarasi tashqi yuk va uning tolalari yo‘nalishi bo‘yicha ta’sir qilganda yuqori bo‘ladi. Turli xildagi yog‘och materiallarining mustahkamligi chegarasi qisqa muddatli sinovlar natijasida aniqlanadi. Biron, amalda yog‘och konstruksiyasining uzoq muddatli ekspluatatsiya jarayonida, tashqi ta’sirlar natijasida uning mustaqamligini kamayishi kuzatiladi. SHuning uchun qisqa sinov paytida aniqlangan mustaqamlilik ko‘rsatkichi yog‘och konstruksiyasining xaqiqiy yuk ko‘tarish qobiliyatini ko‘rsata olmaydi.

YOg‘och konstruksisi uzoq muddat yuk ta’siri ostida bo‘lsa, unda solqilanish hosil bo‘ladi. YOg‘och konstruksiyasining davomiylik chegaraviy qarshiligi uning sinov paytida olingan mustahkamlik chegarasi ko‘rsatkichini davomiylik koeffitsientiga ko‘paitirish orqali aniqlanadi.

6.4-jadvalda turli xildagi yog‘ochlarning har xil deformatsiya ta’sirida hisobiy qarshiligi qiymatlari keltirilgan.

6.4- jadval

Daraxt turlari	Znchligi	Tolasi bo‘yicha mustahkamlik chegarasi,
----------------	----------	---

		, Kg/m ³	MPa			
			Siqilishda	CHO'zili shda	Ezilishda	Statik egilishda
Igna bargli	Listvennitsa	660	64,5	125	9,9	111,5
	Sosna	500	48,5	103,5	7,5	86
	Archa	450	44,5	103,5	6,9	79,5
Oddiy bargln	Dub	690	57,5	-	10,2	107,5
	Oq qayin	640	55	168	9,3	109,5
	Osina	495	42,5	125,5	6,3	78

Eslatma: Namlikning oshib borishi bilan mustahkamlik kamayib boradi va 50% li namlik darajasida yuqoridagi keltirilgan ko'rsatkichlar yarmidan ko'proqqa kamyadi.

YOg'ochning elastiklik moduli ikkinchi guruh chegaraviy holatlar bo'yicha hisoblanganda quyidagicha qabul qilinadi [KMK]:

- tolalari bo'yicha $E = 10000$ MPa;
- tolalariga ko'ndalangiga $E_{90} = 400$ MPa;
- yog'ochning tolalari bo'ylab va ko'ndalangiga yo'nalgan o'qlarga nisbatan siljish moduli $G_{90} = 500$ MPa.

Qurilish fanerining tunuka taxta tyokisligidagi elastiklik modullari va Puasson koeffitsientlari ikkinchi guruh bo'yicha hisoblaganda 6.5 - jadval bo'yicha qabul qilinadi.

6.5- jadval

Faner turi	Elastiklik moduli, Ef, MPa	Siljish moduli, Sf, MPa	Puasson koeffitsient, f
Oq qayindan elimlangan V/VV,V/S, VV/S navli FSF markadagi etti va besh qatlamlili faner: • Tashqi qatlamlar tolalari builab; • tashqi qatlamlar tolalariga ko'ndalangiga; • tolalari 45° burchak ostida.	000 000 500	750 750 3000	0,085 0,065 0,6
Tilog'och yog'ochidan elimlangan V/VV va VV/S navli FSF markadagi etti qatlamlili faner: • tashqi qatlamlar tolalari bo'ylab; • tashqi qatlamlar tolalariga ko'ndalangiga; • tolalari 45° burchak ostida	000 500 000	800 800 2200	0,07 0,06 0,6

Namlikning ta'siri. YOg'och konstruksiyalarini namlikning standart holatidan kam (15%) holatlarda qo'llanilishi uning mustahkamligini oshishiga olib keladi, namlik yuqori bo'lgan (15%) hollarda mustahkamligi kamayadi. Namlikning ta'siri ayniqsa konstruksiyaning egilishida, tolalari bo'ylab siqilishida ko'proq seziladi.

YOg'och materialidan qurilish konstruksiyalari yasash uchun unda namlikning maksimal qiymati quyidagi jadvaldan aniqlanadi.

Konstruksiyalarda yog'ochning namligi

Konstruksiyaning ko'rinnshi va turlari	YOg'ochning namligi, % gacha
Elimlanuvchi	15
Elimlanmaydigai: A ₁ , A ₂ va B ₁	20
A ₃ , B ₂ , V, G ₁ va G ₂	25
D ₁ va D ₂	chegaralanmaydi

Haroratning ta'siri. 35-50° - darajali, uzoq muddat ta'sir etadigan harorat ostida yog'ochning mustahkamligi, ayniqsa uning elastiklik moduli kamayadi. Tajribalardan ma'lum bo'ladiki, haroratning 20°dan 50° darajaga o'zgarishidan yog'ochning siqilishdagi mustahkamligi 20-40% ga, cho'zilishdagi mustahkamligi 12-15% ga va ezelishda esa 15-20% kamayadi. Haroratning ushbu chegarada ko'tarilshsh 15% nisbiy namlik holatida olingan elastiklik modulini 2,5 marta hamda 30% holatidagi elastiklik modulini 2,75 martaga kamaytiryadi. Ma'lumki, yog'och konstruksiyalari biroz egilgan holatida quriy boshlaydi va bu bilan uning elastikligi oshadi. Yuqori harorat va namlik ostidagi egiluvchi elementlarda ham xuddi shunday holat kuzatiladi. SHuning uchun, uzoq vaqt davom etadigan yuqori harorat (50° darajadadan yuqori) ostidagi inshootlarda yog'och konstruksiyalaridan foydalanish tavsiya etilmaydi.

MA'RUZA № 19

YOG‘OCH KONSTRUKSIYALARINI CHIRISHDAN VA YONG‘INDAN HIMOYA QILISH USULLARI.

Reja:

1. Yog‘och konstruksiyalarini chirishdan va yong‘indan himoya qilish
2. Yog‘och konstruksiyalarining afzalligi va kamchiliklari

Tayanch so’z va iboralar: Yog‘och konstruksiyalari , chirish, toifalanish, yong‘in xavf, texnologik, guruhlanishi, moyilligi, engil yonuvchi, xavfli bosim, issqlik ta’siri, sinchli binolar.

Doimiy harorat va namlik sharoitiga ega bo‘lgan, yog‘ochning namligi 20% dan oshmaydigan, bundan tashqari suv ostida va doimiy muzliklar qoplagan joylarda yog‘och umrboqiy qurilish ashyosi hisoblanadi. Biroq chirishga moyil bo‘lgan yog‘och konstruksiyalari bir necha oydan so‘ng ishlatishhp mutlaqo yaroqsiz bo‘lib qolishi mumkin.

Yog‘och asosan uning, tarkibini kemiradigan qo‘ziqorinlar ta’sirida chiriysi. Chirish jarayoni yog‘ochda namlik kamida 20 %, havo etarlicha bo‘lganda va harorat 5° dan 45° gacha bo‘lgan hollarda davom etadi. Ushbu faktorlarning birortasi bo‘lmaganda chirishning davom etishni mumkin emas. Bu holatdan himoya sifatida yog‘ochni quritish va uni imkonli boricha namlikdan saqlash lozim bo‘ladi.

Chirishni oldini olishning konstruktiv choralarini. Namlikdan saqlashning konstruktiv usullari, bu tomni ishonchli qilib yopish, doimiy profilaktik ishlarni amalga oshirish, binoni topshirishda binoni to‘liq namlikdan bartaraf etish, er osti suvlaridan himoya sifatida gidroizolyasiya ishlarini sifatli bajarish, istiladigan xonalarni va ertulalarini shamollatishni tashkil etish va x.k ishlar kiradi.

Antiseptlash. Ekspluatatsiya jarayonida yog‘ochning namligini 20% kamaytirishning iloji bo‘lmasa, unda kimyoviy ishlov-antiseptlash ishlari amalga oshiriladi. SHu maqsadda turli kimyoviy tarkibga ega bo‘lgan moddalar bilan yog‘ochni sirtini bo‘yash yoki uni shimdirish yo‘li bilan yog‘ochni kemiruvchi qo‘ziqorinlarni rivojlanishiga yo‘l qo‘yilmaydi.

Antiseptik moddalarning quyidagilaridan foydalanishga ruxsat beriladi: qo‘ziqorinlar rivojlanishini oldini oladigan noorganiq, suvda va organiq erituvchilarda eriydigan moddalar. Bu moddalar inson va hayvonlarga zararsiz bo‘lishi, konstruksianing mexaniq mustahkamligiga zarar etkazmaydigan, uning zichligini, elektr o‘tkazuvchanligiga salbiy ta’sir qilmaydigan bo‘lishi lozim.

Yog‘och konstruksiyalarni yong‘indan saqlash. Yog‘och 250-300° darajada o‘zidan tez yonuvchan gaz chiqara boshlaydi va bunda uchqun tegsa yong‘in paydo bo‘ladi. YOg‘och konstruksiyasiga uzoq muddatli issiqlik manbai ta’sir etib tursa, yog‘och xatto 150-160° darajada xam yonib ketishi mumkin. Yonish jarayonida yog‘ochning sirti tez yonadi va ma’lum bir ko‘mir qavati hosil bo‘lgach, yonish jarayoni susayadi.

Yog‘och konstruksiyalarini yong‘indan saqlash uchun konstruktiv chora tadbirlar qo‘llash lozim. Tom yopmalarini yonmaydigan qurilish ashyolaridan bajarish, oralqsiz elimli bir biriga yopishtirilgan massiv konstruksinlarni qo‘llash yong‘in chiqishini oldini oluvchi chorallardir. Bundan tashqari yong‘in xavfsizligi maqsadida binolarni bir biridan ajratish, ma’lum bir yong‘in xavfsizligi zonasini qoldirish, yong‘inni avtomatik o‘chirish vositalarini qo‘llash, pechъ va tutun chiqaruvchi mo‘rilarni ishonchli qilib himoyalash va boshqa tadbirlar ko‘rinish kerak. Qo‘llanilgan konstruktiv choralar etarli bo‘lmasa, kimyoviy himoya vositalari qo‘llaniladi.

Yog‘och konstruksiyalarini chirish va yonishdan himoya qilish. CHirish - yog‘ochni oddiy o‘suvchi organizmlar ta’sirida buzilishidir. YOg‘och bu organizmlar uchun oziq-ovqat muhiti vazifasini bajaradi. YOg‘ochni va yog‘och materiallarini biologik zararkunandalari juda katta iqtisodiy zarar keltiradi. Biologik zararkunandalarga bakteriyalarning ba’zi turlari, yog‘ochni buzuvchi zamburug‘lar, yog‘och teshuvchi qurtlar, chumolilar va dengiz-yog‘och teshuvchilari-molyuskalarini ba’zi turlari kiradi. Hozirgacha bakteriyalarning yog‘ochga ta’siri kam o‘rganilgan. Ma’lum bir bakteriyalar yog‘och tarkibidagi ayrim moddalarni achishiga sabab bo‘lib, uning buzilishiga olib keladi. Bularning ta’sirida yog‘och mustahkamligini asta-syokin yo‘qotib boradi. Eng ko‘p tarqalgan yog‘och zararkunandalari bu zamburug‘lardir. Ular o‘rmon, ombor va uy zamburug‘lari turiga bo‘linadi. O‘rmon zamburug‘i asosan o‘sayotgan yog‘och daraxtini zararlaydi. Ombar zamburug‘lari asosan yog‘och materialini saqlash jarayonida erga tegib turgan qismini zararlaydi. Uy zamburug‘lari esa yog‘och materialini konstruksiya sifatida ishlatish jarayonida zararlaydi va uning chirishiga sabab bo‘ladi. Zamburug‘lar Q_3 °Sdan 45 °S gacha bo‘lgan haroratlarda va $18\div20$ % namlikdan kam bo‘lмаган holatlarda rivojlanadi va yog‘ochni chiritadi.

Qumursqalar - yog‘ochni buzuvchilari hisoblanadi. Ular ham quruq, ham ho‘l yog‘ochni buzilishiga, chirishiga olib kelishi mumkin.

CHirishdan yog‘och konstruksiyalarini himoya qilishning ikki xil usuli mavjud: konstruktiv himoya usuli; kimyoviy himoya usuli. CHirishdan himoya qilishning konstruktiv usulida konstruksiyaning ekspluatatsiya qilinishi uchun muhit yaratiladi va u holatda konstruksiyaning namligi chirish sharoitiga namlikdan oshib ketmaydi. YOpiq binolarda, atmosferadan tushadigan yog‘ingarchiliklarni tom yopmadan o‘tib ketmasligi, tomda nishablik bo‘lishi, ichki suv chiqib ketish yo‘llari bo‘lishi ta’minlanadi. YOg‘och konstruksiyalarini kapilyar namlikdan himoya qilish uchun, ularni beton va g‘isht devorlardan bitum qatlamlı gidroizolyasiya bilan ajratiladi. Xona ichidagi yog‘och konstruksiyalari va boshqa yog‘och lakk-buyoqlari bilan himoya qilinadi. YOg‘och konstruksiyalarida hosil bo‘ladigan kondensatsiya namligidan himoya qilish muhim ahamiyatga egadir. Bu holatda konstruksiyaga suv bug‘lari kirmasligi uchun, xona tomondan bug‘saqlagich qo‘yiladi. Asosiy yuk ko‘taruvchi konstruksiyalarni loyihalashda chok bo‘lmasligi va yoriq joylar bo‘lmasligiga erishish lozim, chunki bu joylarda sovuq havoning turib qolishi va u erda suv hosil bo‘lishi - chirish jarayonini keltirib chiqarishi mumkin.

Agar konstruksiyani ekspluatatsiya qilish jarayonida uning namlanishi aniq bo‘lsa, u holatlarda kimyoviy himoya usulidan foydalaniladi. Masalan ko‘prik, minora va qoziq konstruksiyalarida yog‘och konstruksiya namlanishi mumkin. CHirishdan himoya qilishning kimyoviy usulida konstruksiyaga antiseptika moddasi surtiladi yoki shimdirladi yoki u bilan qoplanadi. Antiseptikalar ikki turga bo‘linadi: suvda eriydigan va suvda erimaydigan-moyli. Suvda eriydigan antiseptika - ftorli va kremniy ftorli natriydir. Uning rangi va hidi yo‘q. Uni yopiq turdagilardan ishlatiladi va u odamlar uchun zaharli emasdir. Ba’zi turdagilardan suvda eriydigan zaharli antiseptikalar ham mavjud. Ularning ayrimlari odamlar uchun ham zaharlidir. Moyli antiseptika - suvda erimaydi, har xil zamburug‘ va bakteriyalar uchun zaharlidir, kuchli yoqimsiz xidga ega bo‘lib, odamlar sog‘ligi uchun ham zararlidir. Bu turdagilardan antiseptika moddalari ochiq turdagilardan inshootlar konstruksiyalarini himoyalashda, odam kam bo‘ladigan joylarda, er va suv ostidagi konstruksiyalarni chirishdan himoya qilishda ishlatiladi.

YOg‘och konstruksiyalarini yonishdan himoya qilishning ikki usuli mavjud bo‘lib, ular konstruktiv va kimyoviy. YOg‘och yonuvchan qurilish materiali hisoblanadi. Uning olovbardoshlik chegarasi nisbatan kichikdir. Olovbardoshlik chegarasi - vaqt birliklarida o‘lchanadi. Yirik ko‘ndalang kesimli yog‘och konstruksiyalari katta olovbardoshlilik chegarasiga egadir. Masalan, $17 \times 17 \text{ sm}$ ko‘ndalang kesimli qirrali yog‘och to‘sins - brus 10 MPa kuchlanish bilan yuklangan holatda 40 minut olovbardoshlikka egadir.

YOg‘och konstruksiyasini yonishdan konstruktiv himoya qilish usulida - konstruksiya yuqori haroratlari jihozlardan uzoqroqqa qo‘yiladi. YOg‘ohning yonishiga qulay harorat bo‘lishiga yo‘l qo‘yilmaydi. Hatto oddiy suvoq ham olovbardoshlilik chegarasini ortishiga sabab bo‘ladi.

Himoya qilishning kimyoviy usulida - antipiren moddasi qo‘llaniladi. YOg‘ohni yonishi uchun ikki narsa bo‘lishi kerak: harorat va yana qislorod. Antipiren harorat ko‘tarilganda shimdirligan yog‘och tarkibidan chiqib yog‘och element sirtida plynoka

hosil qiladi va bu bilan konstruksiyani qisloroddan izolyasiyalaydi, natijada yonish jarayoni to‘xtaydi. Zarur bo‘lgan holatlarda antipirenni antiseptika bilan birligida va bir vaqtda yog‘och konstruksiya elementlariga shimdiriladi

Yog‘och konstruksiyalarining afzalligi va kamchiliklari

Yog‘och konstruksiyalarining afzalliklariga:

- mustahkamlik darajasi yuqori, ya’ni kam uglerodli po‘latning mutaqkamligiga yaqin, shuning uchun yog‘och konstruksiyalari engil bo‘ladi;
- kimyoviy muhitga chidamliligi (agressiv muxitlarda yog‘och -metall va temir-beton konstruksiyalardan chidamliroq hisoblanadi);
- issiqlik o‘tkazunchanligining pastligi (shuning uchun uni bir vaqtning o‘zida ham ajratuvchi, ham yuk ko‘taruvchi devorlarga ashyo sifatida ishlatish mumkin);
- xomashyo bazasining doimiy mavjudligi va unga ishlov berishning oddiyligi;
- qurilishni yilning barcha fasllarida bajarish imkoniyatining mavjudligi va x.k kiradi.

Kamchiliklari:

- gigroskopik ko‘rsatkichining kattaligi va natijada uning kengayishi;
- yorilishi va tob tashlashi; tarkibining tuzilishi har xilligi (anizatropiya);
- tuzilishida mustahkamligiga salbiy ta’sir etuvchi ko‘plab tabiiy nuksnlarning mavjudligi;
- chirish ehtimolligining mavjudligi; olovbardoshligining juda pastligi va x.k dan iborat.

Yog‘och konstruksiyalarining qo‘llanilish sohalari, turli konstruktiv variantlarni takgqoslash natijasida ikdisodiy samaradorligidan kelib chikan xolda belgilanadi. Ular etarli darajada engil, temir-beton konstruksiyadan deyarli 5 marta engil bo‘lib ularni tashish va montaj kilish ishlari bir muncha osondir.

MA’RUZA № 20

ANTIPIRENLAR HAQIDA MA’LUMOT. ULARNING AFZALLIKLARI VA KAMCHILIKLARI.

Кўпина наслга мансуб дараҳт (ёғоч) ёйилиш маҳсулотларининг алангаланиш ҳарорати $270\text{-}300$ $^{\circ}\text{C}$ оралиғида, ўз- ўзидан алангаланиш ҳарорати эса $330\text{-}470$ $^{\circ}\text{C}$ оралиғида бўлади.

Ёғоч конструкцияларни ёнишдан ҳимоялаш, уларни антипиренлар билан сингдириш, оловдан ҳимоя қопламаларни қўллаш, сувоқ ва сиртни қоплаш эвазига таъминланади.

Антипиренларнинг оловга чидамли самараси бу, уларнинг целлюлоза билан кимёвий таъсири, бунинг оқибатида ёнишнинг асосий алангаланиш фазасида ишлатилган материалдан чиқаётган иссиқлик микдори камайишидир. Бунга, иссиқлик энергиясини асосий қисмини аккумуляция қиласидиган қийин ёнадиган кўмирни чиқиши, сақични чиқиши йўлларини камайиши ва газ тузилишдаги маҳсулотларни чиқиши тезлигини пасайиши сабаб бўлади.

Охирги вақтларда ёғочни сингдириш учун қуйидагилар қўлланмоқда: фосфорнокислий аммонийнинг иккиласми аралашмаси $(\text{NH}_4)_2\text{HPO}_4$ ёки бирламчи аралашмаси $(\text{NH}_4)\text{H}_2\text{PO}_4$, сернокислий аммоний $(\text{NH}_4)_2\text{SO}_4$, бура $\text{NaB}_4\text{O}_7 \cdot 10\text{H}_2\text{O}$.

Бу моддалар сувда яхши эрийди (10 $^{\circ}\text{C}$ ҳароратда эриши тахминан 40%), улар ногигроскопик (ҳаво намлиги нисбатида 80% дан кам), ёнмайдиган ва учмайдиган ҳисобланади. Бир вақтнинг ўзида оловдан ҳимоя ва антисептик хусусиятларга эга бўлган аралашмаларни олиш учун, бу аралашмаларга фторлинатрий қўшилади.

Антипиренларни камчиликлари, томчили-суюқ нам таъсири остида, ишлов берилган материалдан тузни ишқорланишидир. Бу ҳолатни олди олинмаса, яъни тузни ишқорланишини олди олинмаса, оловдан ҳимоялаш хусусияти вақт ўтиши билан пасаяди.

Тузларни ишқорланишини олдини олиш учун намдан ҳимоялаш қопламалари қўлланилади. Сувдан ҳимоялаш ва атмосферага чидамлиликни ошириш учун ёғли бўёқлар самарали ҳисобланади.

Антипиренлар билан чуқур шимдириш ва уни сиртга суртиш усувлари мавжуд. Шимдирилаётган элементнинг 1 m^3 га 75 кг дан кам бўлмаган микдорда тузларни ютилиши усули билан қўлланиладиган чуқур шимдириш, ёғочни қийин ёнувчи материалга айлантиради. Элементларни чуқур шимдириш маҳсус автоклаваларда босим остида ва иссиқ-совуқ ванналар усули билан амалга оширилади. Ёғочни шимдириш жараёнининг давомийлиги қуйидаги жадвалда кўрсатилган.

ёғочнинг насли	жараён давомийлиги, соат	босим баландлиги, МПа
қайрағоч, қайнин, қорақайнин	2-6	0,8-1
қайрағоч, кедр	8-12	1-1,2
шумтол	10-12	1,2-1,5
эман	15-20	1,5-1,6

Ёғочга оловдан ҳимоя таркиби билан юзаки ишлов беришга, антипиренлар билан юзаки ишлов бериш, бўёқлаш ва суртиш киради. Оловдан ҳимоя таркиблари ёғочга қандай ишлов беришдан қатъий назар уч гуруҳга бўлинади: атмосферага чидамли; намга чидамли; намга чидамсиз. Атмосферага чидамли таркибларга атмосфера таъсирига учрайдиган бино ва қурилмаларнинг ташки қисмини қоплаш учун ишлатиладиганлари киради. Намга чидамли таркиблар билан ҳаво намлиги 61-75 % бўлган ёпиқ хоналарда эксплуатация учун мўлжалланган бинонинг қисмларига ишлов берилади (чордоксиз қоплама, ёпиқ омбор ва бошқ.). Намга чидамсиз таркиблар ҳаво намлигини 60 % бўлган, намланишдан ҳимояланган ёпиқ хоналардаги конструкцияларга ишлов бериш учун мўлжалланган. Заводларда амалга ошириладиган ёғоч элементларга оловдан ҳимоя таркиблари билан ишлов бериш атмосферага чидамли ва намга чидамли таркиблар билан амалга оширилиши керак, чунки элементларни монтаж қилишда, сақлашда ва ташишда улар намланиши мумкин. Юзаки ишлов бериш чўтка ёки краскопульт ёрдамида бажарилади.

Юзаки ишлов беришни барча усуслари, ёғочни ёнадиган гуруҳдан қийин ёнадиган гуруҳга ўтказиш учун етарли эмас. Юзаки оловдан ҳимоя қилиш воситалари ёғочни ёнишини фақатгина бир неча минутга олдини олади, ҳамда қисман иссиқлик таъсир этганда ёғоч конструкциялар бўйлаб олов тарқалишини олдини олади. Ёғочга юзаки ишлов бериш, кўп ҳолларда ёнғинни содир бўлишини олдини оладиган жиддий профилактик тадбир ҳисобланади. Ёғочни юзаки ҳимоя қилиш усуслари фуқароларни хавфсиз эвакуация қилишда катта аҳамиятга эга.

Ёғоч конструкцияларга антипиренлар билан юзаки ишлов бериш, курук тузни 1 м² ишлов бериладиган юзага 100 гр дан кам бўлмаган микдорда сарф қилинса, самарали ҳисобланади.

Ёғоч конструкцияни ёнишдан ҳимоялашда энг самарали восита, **бу сувоқ ва сиртни қоплаш ҳисобланади.**

Сувоқ ва сиртни қоплашнинг афзаллиги, ёғочни ўз ўзидан алангаланиш ҳароратигача қизишини секинлаштиришни таъминлаб берадиган термик қаршилигидир. Шу нуқтаи назардан, юқори термик қаршиликка қодир бўлган сувоқ ва сиртни қоплашни қўллаш мақсадга мувофиқ бўлади.

Конструкцияни оловга бардошлиқ чегарасини аниқлаш борасида ўтказилган тажрибалар шуни тасдиқламоқдаки, ҳўл сувоқнинг ҳимоялаш самараси 15-20 минут вақти билан ўлчанади ва бу унинг қалинлиги, тури ва суртилиш усулига боғлиқ.

Сувоқ қилинган ёғоч конструкция қуйидаги олов тарқалиш чегарасига эга: горизонтал конструкциялар учун 20 см дан кам эмас, вертикал конструкциялар учун 40 см дан кам эмас. Бу эса сувалган ёғоч биноларни бир қатор ижобий ҳолатлар билан таъминлайди.

Сиртни қоплаш материаллари гипс сувоқ, асбестцемент листлар, гишт ва бошқалар киради. Курук гипс сувоқ оловга чидамлилик бўйича ҳўл сувоққа қараганда кам самаралироқ. Курук гипс сувоқнинг оловга чидамлилик самараси 10 минут вақти билан ўлчанади, бу вақт ўтиши билан ҳимоялананаётган конструкциялар ёнади.

Девор сиртини қоплаш учун икки хилдаги асбестцемент листлар қўлланилади: профилланган ярим тўлқинли ва тўлқинли, ҳамда оддий-текис ва безакли (декоратив).

Асбестцемент листлар ёнмайдиган ҳисоблансада, лекин оловдан ҳимоя қилиш самараси цемент ёки оҳак сувоқса қараганда пастроқ. Бу 6 мм қалинликдаги асбестцемент листларнинг термик қаршилиги, хўл сувоқнига қараганда пастлиги билан изоҳланади. Бундан ташқари, асбестцемент листлар юқори ҳароратда бузилади ва бу листларнинг алоҳида бўлаклари айтарли масофага учиши мумкин.

Ёнгиндан ҳимоя воситалари сифатида сувоқ ва сиртни қоплаш, лойиҳалаш меъёрларига асосан ёғоч биноларда зарур. Бундай бинолар, бир ва икки қаватли курилишларда ёки ўрмонга бой худудлардаги фуқаролар яшаш уйларини куришда қўлланилади. Сувоқ ва сиртни қоплаш қишлоқдаги саноат ва мол фермалари биноларида қўлланилади. Баъзи ўрмонсиз худудларда, девор каркасини тўлдириш сифатида қамиш, пичан ва бошқа ёнувчи материаллардан фойдаланилади. Бундай деворларни оловдан ҳимоя қилишни энг ишончли воситаси, бу уларни яхшилаб сувоқ қилиш ва ҳаво йигиладиган қатламларни йўқотишдир. Шу билан бир қаторда шуни назарда тутиш керакки, сувоқ қилинган тақдирда ҳам, бино айтарли даражада ёнгиндан хавфли ҳисобланади. Вақт ўтиши билан сувоқ ўзини сифатини ва бутунлигини йўқота бошлайди, бу эса ёнғинни ҳосил бўлиши ва уни тарқалиб кетишига олиб келиши мумкин.

MA’RUZA № 21

PORTLASH HODISASI VA UNING UMUMIY TAVSIFI

Reja

1. Portlash hodisasi
2. Umumiy tasnifi

Yonish va portlashga moyillik darajasini aniqlashdan maqsad ularda sodir bulajak Yong'in va portlashlar oqibatida yuzaga keluvchi buzilishlarni va odamlarga xavfli va dahshatli ta'sirini oldini olishdan iborat. Bino va inshootlarni Yonish va portlashga moyilligi, ularning qanday ashYolardan qurilganligiga va ularda mavjud ishlab chiqarish jarayonida ishlatiladigan Yoki saqlanadigan xomashYolarning Yonuvchanlik xususiyatlari bilan belgilanadi.

Yong‘inlarni o‘chirishda quyidagi kuchlar va vositalardan foydalaniladi:

- Yong‘in xavfsizligi boshqarmalari va uning quyi tizimlari, Yong‘in xavfsizligi o‘quv markazlari, Ichki ishlar vazirligi tasarrufidagi ta’lim muassasalarining shaxsiy tarkiblari;
- idoraviy va ko‘ngilli Yong‘indan saqlash xizmati bo‘linmalar;
- harbiy bo‘linmalarning shaxsiy tarkiblari;

- tegishli mahalliy davlat hokimiyati organlarining farmoyishlariga asosan tashkilotlarning texnik vositalari;
- suv sepish va Yong‘inni o‘chirishga moslashtirilgan texnikalar;

Yong‘in o‘chirish avtomobilari asosiy, maxsus va yordamchi avtomobilarga bo‘linadi. Asosiy Yong‘in o‘chirish avtomobillariga Yong‘in joyiga Yong‘in o‘chiruvchi moddalarni (suv, ko‘pik, kukun, gaz va boshqalar) uzatuvchi avtomobillar kiradi. Asosiy Yong‘in o‘chirish avtomobilari umumiyligida qo‘llaniladigan (aholi punktlarida sodir bo‘lgan Yong‘inlarni bartaraf etish uchun) va maqsadli qo‘llaniladigan (neft omborlari, kimyo sanoati, aeroport va boshqa joylarda sodir bo‘lgan yong‘inlarni bartaraf etish uchun) avtomobil turlariga bo‘linadi. Maxsus yong‘in o‘chirish avtomobillariga Yong‘inda maxsus ishlarni bajarishga mo‘ljallangan avtomobillar, ya’ni shaxsiy tarkibni yuqoriga ko‘tarish, aloqa va Yoritishni ta’minalash, qurilmalarni ochish, ajratish, tutunga qarshi kurash, mol-mulkarni himoya qilish, kuchlar va vositalarni boshqarish hamda Yong‘inni o‘chirish vaqtida foydalilaniladigan boshqa texnikalar kiradi. YOrdamchi Yong‘in o‘chirish avtomobillariga Yonilg‘i quyish, texnik xizmat ko‘rsatish, suv tashish uchun mo‘ljallangan avtomobillar, yuk tashish avtomobillari, avtobuslar, traktorlar hamda Yong‘in o‘chirish qismlari hisobiga kiritilgan Yordamchi ish bajaruvchi boshqa avtomobillar kiradi. YOng‘inni o‘chirish vaqtida aloqa radiotarmoq, telefon, ovoz kuchaytirgich moslamasi, so‘zlashish qurilmasi, karnay va boshqalar orqali ta’milanadi. YOng‘inni o‘chirishda Yoritish ishlari Yong‘in o‘chirish avtomobillarida olib borilgan moslama va qurilmalar Yordamida ta’milanadi.

YOng‘in sodir bo‘lganligi to‘g‘risida xabar olingach, davlat Yong‘in xavfsizligi xizmati bo‘linmalari darhol Yong‘in joyiga jo‘nab ketishi shart.

YOng‘indan saqlash xizmati bo‘linmalari chaqirilgan joyga qisqa vaqtda kelishlari kerak. YOng‘in joyiga borila Yotganda Yong‘in o‘chirish ekipaji komandiri Markaziy dispatcherlik xizmati (bundan keyingi o‘rinlarda MDX deb yuritiladi) Yoki qismi dispatcherlik xizmati (bundan keyingi o‘rinlarda QDX deb yuritiladi) bilan muntazam aloqada bo‘lishi shart.

- YOng‘inni o‘chirish
- YOng‘in vaqtida quyidagi holatlar bo‘lishi mumkin:
 - odamlarning ko‘pligi, Yordamga muhtojligi;
 - binolar qurilishining murakkabligi;
 - tik va qiya Yo‘nalishlarda texnologik qurilmalar, Yonuvchi materiallar, ayvonlar, tuyruklar, derazalar, bo‘shliqlar va ventelyasiya tizmalari orqali olovning tarqalishi;
 - haroratning tez ko‘tarilishi va issiq havo oqimlarining ochiq joylarga o‘tishi;
 - - modda va materiallarning issiqlik ta’sirida gaz-bug‘ havo aralashmasini hosil qilishi;
 - - tutun, zaharli gazlarning ajralishi va ularning tez tarqalishi;
 - - elektr kuchlanishi ostidagi asboblarning mavjudligi;
 - - bosim ostida turgan idish va asbob sig‘imlarining portlashi;
 - - bino, qurilma va texnologik uskunalarining buzilishi hamda qulashi;
 - - bino ichida ko‘p miqdorda ilmiy, moddiy va boshqa qimmatbaho boyliklarning mavjudligi.

- YOng‘inni quyidagi usullar orqali o‘chirish mumkin:
- - kuch va vositalarni hal qiluvchi Yo‘nalishga kiritish;
- - Yong‘in o‘chirish vositalarini uzlusiz ta’minlash;
- - Yonayotgan materiallar ustiga sovituvchi Yong‘in o‘chirish vositalarini uzatish;
- - Yong‘in maydonida Yoki uning atrofida Yonmaydigan gaz Yoki bug‘ aralashmalarini hosil qilish va Yong‘in jarayonini kimyoviy to‘xtatish;
- - Yong‘inni o‘chirish vositalari Yordamida Yonayotgan material atrofida Yoki Yong‘in maydonida va havo orasida himoya qatlaminini hosil qilish.
- YOng‘inda odamlarga xavf solishini, portlash xavfini, olovning tez tarqalishini hamda Yong‘in o‘chirishni ta’minlaydigan harakat hal qiluvchi Yo‘nalish hisoblanadi.Kuch va vositalar hal qiluvchi Yo‘nalishga kiritilgandan so‘ng boshqa Yo‘nalishlarga joylashtiriladi. YOng‘inda harakatlarning hal qiluvchi Yo‘nalishini ta’minlash uchun quyidagi ishlar amalga oshiriladi:
 - Yong‘in insonlar haYotiga xavf salsa va ularni qutqarishga dastaklarni berish zarurati bo‘lsa, kuch va vositalar qutqaruvi ishlarini bajarish uchun joylashtiriladi;
 - portlash xavfi tug‘ilganda, Yong‘in o‘chirish ekipajlarining harakati qaerda portlash xavfining oldini olishni ta’minlasa, kuch va vositalar o‘sha erga joylashtiriladi va kiritiladi;
 - binoning bir qismi alanga bilan qoplangan bo‘lib, olov uning boshqa qismlariga Yoki qo‘sni binolarga tarqalaYotgan bo‘lsa, kuch va vositalar Shu tomoniga joylashtiriladi hamda olovning tarqalishi ko‘p zarar keltiradigan tomoniga kiritiladi;
 - yakka bino alanga bilan qoplanib, qo‘sni binolarga tarqalish xavfi bo‘lmasa, asosiy kuch va vositalar Yong‘inning eng jadal sur’atlar bilan Yonayotgan joyiga kiritiladi;
 - bino alanga bilan o‘ralib Yonayotgan joy muhim ahamiyatga ega bo‘lmasa va yaqin turgan binoga o‘tish ehtimoli bo‘lsa, kuch va vositalar ushbu bino tomonidan kiritiladi.

Yonayotgan xonada va uning Yonidagi xonalarda tutun, gaz bo‘lgan taqdirda Yong‘in o‘chirish bilan birgalikda ushbu xonalardan gaz va tutunni chiqarib yuborish chorralari ham ko‘riladi. Bunda tutunlarni tortish uchun maxsus tutun tortuvchi va shamollatuvchi qurilmalar, ventelyator va brezent qopchiqlardan foydalaniladi. SHaxsiy tarkib egallab turgan Yong‘in o‘chirish uchastkasidan (bundan keyingi o‘rinlarda YOO‘U deb yuritiladi) faqat Yong‘inni o‘chirish rahbari Yoki YOO‘U boshlig‘ini ruxsati bilan YOO‘Udan ketishi mumkin.YOng‘inni bartaraf etish uchun birinchi navbatda ichki Yong‘in o‘chirish jo‘mraklari, o‘rnatilgan Yong‘in o‘chirish qurilmalaridan foydalaniladi.

Nafas olishga yaroqsiz muhitda Yong‘in o‘chirish ishlari himoyalovchi gazniqoblarda o‘tkaziladi, tutun tortgichlar va Yoritish vositalaridan foydalaniladi hamda ko‘pik Yoki sachratma suv berish Yo‘li bilan yuqori haroratni pasaytirish chorralari ko‘riladi.Er osti inshootlarida Yong‘in o‘chirish vaqtida nasos-eng tarmoqlarini bir maromda ishlashi uchun nasos bosimi inshootning chuqurligiga mos ravishda pasaytiriladi.Zaxira Yong‘in o‘chirish englari birinchi navbatda hal qiluvchi Yo‘nalishda ishlaYotgan dastaklarga tortiladi. YOng‘inni o‘chirish vaqtida qurilish inshootlari (ustunlar, tirgovuchlar, to‘sqliar) holati kuzatiladi va ular yuqori harorat

ta'siridan himoya qilinadi. Yonayotgan tom va uning tagida shaxsiy tarkibning to'planishiga Yo'l qo'yilmaydi. Zaruriyat tug'ilganda, elektr va gaz tarmoqlarini uzib qo'yish choralari ko'rildi. YOng'inni o'chirish vaqtida binolarning bo'shliqlari, shamollatish, axlat tashlash va boshqa tuynuklari tekshiriladi. Kuchaygan Yong'inni o'chirishga «A» dastagi orqali suv beriladi, so'ngra uni lafet dastakka almashtiriladi, Yong'in bartaraf etish oxirida esa yanada kichikroq dastakka almashtiriladi.

Bino inshooti bo'shliqlarida va shamollatish tuynuklaridagi Yong'lnlarga «B» dastagi va ko'pik dastaklari orqali suv va ko'pik beriladi. Birinchi etib kelgan Yong'in o'chirish avtomobili orqali Yong'in joyiga yaqin o'rnatilib hal qiluvchi Yo'nalishga suv beradi, keyingi kelgan Yong'in o'chirish avtomobili esa yaqindagi suv manbaiga o'rnatilib undan asosiy eng Yo'llari tortiladi.

Birinchi avtomobilda suv tugagach, suv berila Yotgan dastak suv manbaiga o'rnatilgan ikkinchi avtomobildan tortilgan asosiy eng Yo'lidi suv ayirgichga ulanadi. Suvni bir-biriga oshirib berish holatida, kerakli Yong'in o'chirish avtomobillarining soni, asosiy eng Yo'llarini o'tkazish usullari aniqlanadi. Quvvati kuchli nasosga ega bo'lган Yong'in o'chirish avtomobillari suv manbaiga o'rnatiladi va undan Yong'in joyiga asosiy eng Yo'li tortiladi. Yonayotgan xonani ko'pik bilan to'ldirishda Yong'inni o'chirish rahbari quyidagilarni aniqlaydi:

- ko'pik to'ldiriladigan xonaning hajmini;
- ko'pik oqishga xalaqit beruvchi to'siqli qurilmalarni;
- kerakli miqdordagi ko'pik hosil qiluvchi modda, ko'pik dastaklari va ularni o'rnatish joyini;
- ko'pikning belgilangan Yo'nalishda harakatlanishiga sharoit yaratish uchun tutun tortish moslamalarini joylashish joyini.
- Ortiqcha suv quymaslik uchun quyidagilar zarur:
- ko'pik, kukun, aralashmali suvlar va jo'mrakli dastaklarning ishlatalishi;
- suv berishni o'z vaqtida tugatish Yoki dastaklarni tashqariga olib chiqish.

MA'RUZA № 22

PORTLAB YONISH VA YONG'IN XAVFI BO'YICHA XONALARНИNG TOIFALARGA BO'LНИШИ

Reja

- 1 Bino ichidagi portlash sabablari
- 2 Bino ichidagi portlash oqibatlari

Bino va inshootlarni Yonish va portlashga moyillik darajasini aniqlashdan maqsad ularda sodir bulajak Yong'in va portlashlar oqibatida yuzaga keluvchi buzilishlarni va odamlarga xavfli va dahshatli ta'sirini oldini olishdan iborat. Bino va inshootlarni Yonish va portlashga moyilligi, ularning qanday ashYolardan qurilganligiga va ularda mavjud ishlab chiqarish jarayonida ishlataladigan Yoki saqlanadigan xomashYolarning Yonuvchanlik xususiyatlari bilan belgilanadi.

Umum ittifoq texnologik loyihalash me'Yori (ONTP 24-86. 1.2.3) va qurilish qoidalari va me'Yorlari (KMK 2. 01.02-85) ga binoan sanoat korxonalarini va omborlari Yonish va portlash xavfi bo'yicha 5-ta toifalarga bo'linadi, jumladan **A**, **B**, **V**, **G** va **D**. Bularning **A** va **B** toifalari Yonish va portlashga moyil. **V** va **G** toifalari bo'lsa faqat Yonishga xavfli deb hisoblanadi. **D** toifasida esa na Yonish va na portlash xavfi mavjud emas.

Bino va inshootlarni bunday guruhanishi, ularda ishlataladigan Yoki saqlanadigan engil Yonuvchi gazsimon va suyuq moddalarning bug'lari havo bilan aralashganda, portlovchi gazli muxitni hosil qiluvchi agregat holati va ularning alanganish harorati (Ta)- ga binoan amalga oshirilgan.

A-toifaga Yonish va portlash xavfi mavjud bo'lgan, chaqnab Yonish harorati 28°S dan past bo'lgan, Yonuvchi gaz va engil alanganuvchi suyuqlik bug'lari havodagi kislorod bilan Yoki suv bilan birikishi natijasida, portlashga moyil xavfli bosimi 5 kPa dan oshiq bo'lgan, gazsimon aralashmalar hosil bo'ladigan, korxonalar kiradi. Bu guruhga kiruvchi kimyo sanoatining atseton, oltingugurt, karbon, efir, superfosfat va boshqa moddalarni ishlab chiqaruvchi korxonalarini misol qilib ko'rsatish mumkin.

B-toifaga ham Yonish va portlash xavfi bo'lgan, chaqnab Yonish harorati 28°S dan yuqori bo'lgan , engil alanganuvchi suyuqlik bug'lari, Yonuvchi chang va gazlar havodagi kislorod bilan suv bilan qo'shilganda xavfli, portlovchi aralashma hosil qiluvchi miqdorda bo'lib, ular Yonganda xonadagi xavfli bosim 5 kPa dan yuqori bo'ladi. Bunga ammiak ishlab chiqarish sanoatini misol qilib ko'rsatish mumkin.

V-toifaga faqat Yonuvchi, ya'ni **A** va **B** toifalarga kirmaydigan sanoat korxonalarini, jumladan chaqnab Yonish harorati 120°S dan yuqori bo'lgan, Yonuvchi qattiq jismlarni ishlab chiqarish va qayta ishlov berish hamda harxil Yoqilg'i moddalarni ishlataladigan sanoat korxonalarini kiradi. Bunga misol qilib, Yog'ochni qayta ishlovchi mebelsozlik sanoati, qozg'oz, kardon, to'l qog'oz ishlab chiqaruvchi korxonalarini ko'rsatish mumkin.

G-toifaga, Yonmaydigan modda va ashYolarning qaynoq, cho'g'langan Yoki eritilgan holatida ishlataladigan korxonalar kiradi. Bunga metallurgiya sanoati korxonalarini, issqlik ishlab chiqaruvchi markazlar va bug'xonalar misol bo'laoladilar.

D-toifaga, Yonmaydigan modda va ashYolarni sovuq holatda ishlataladigan va saqlanadigan sanoat va qishloq xo'jaligi korxonalar kiradi. Masalan, toshni maydalash, keramika va cement zavodlari Shular jumlasidandir.

Bino va inshootlarni Yong'in va portlash xavfi bo'yicha guruhanishi, ulardagi barcha xonalarning Yonish va portlashga moyillik toifasi aniqlangandan so'ng belgilanadi. Agar binoda **A** toifaga taalluqli xona bo'lsayu, uning maydoni binodagi barcha xonalarning umumiyligi maydonidan 5% dan kam bo'lmasa Yoki sathi 200 m² dan ko'p bo'lsa, bu holda bino **A** toifaga kiradi. Binoda harxil toifaga taalluqli xonalar mavjud bo'lsayu, **A** va **B** toifadgi xonalarning yig'indi maydoni, qolgan barcha xonalar umumiyligi maydonining 5% dan kam bo'lmasa Yoki sathi 200 m² dan ziYod bo'lsa, bu bino **B** toifaga mansub bo'ladi.

Ishlab chiqarish jarayonidagi Yong'in xavfini tahlil qilish.

Ishlab chiqarishda Yong'inni kelib chiqishiga, ko'pincha Yong'in Yoki elektr xavfsizligi qoidalarini qo'pol ravishda buzilishi, elektr tarmoqlarini yaxshi himoyalanmaganligi, Yonuvchi moddalarning saqlash qoidalarini buzilishi hamda olovga nisbatan ehtiYotsizlik qilish kabilar sabab bo'ladi. Ba'zan Yong'inni Yoki portlashni kelib chiqishiga, inshootni loyihalash vaqtida bo'lajak sanoat korxonasini Yonish va portlash xavfi bo'yicha noto'g'ri toifalanishi, ya'ni unda ishlatiladigan xomashYoning Yonish va portlash xususiyatlari aniq xisobga olinmaganligi ham sabab bo'ladi.

Ishlab chiqarish jarayonida Yong'in xavfsizligini to'la ta'minlashda korxonalarini Yong'in xavfi bo'yicha toifalanishi kifoya qilmaydi. Buning uchun ishlab chiqarishda Yong'in va portlashni keltirib chiqaruvchi xavfli omillarni mukammal o'rganib chiqish lozim bo'ladi. Demak ishlab chiqarish tartiboti jarayonida Yonish va portlash xavfi mavjudligini quyidagi tartibda aniqlash mumkin:

1.Korxonada ishlatiladigan Yonuvchi va portlovchi moddalarning turlari va ularning miqdori aniqlanadi;

2.Ishlab chiqarish tartiboti va unda ishlatiladigan Yonuvchi moddalarning ishlatilish tartibi aniqlanadi;

3.Korxonadagi texnologik uskunalardan Yonuvchi moddalarning oqib chiqishini mavjud sabablari va hajmi aniqlanadi;

4.YOndiruvchi va portlovchi manba'larni kelib chiqish sabablari aniqlanadi;

5.Sodir bo'lishi mumkin bo'lgan Yong'in sabablarini va uning ehtimoliy Yo'nalishini, binoning loyihalanish uslubiga va Yonishga moyil bo'lgan pardozlov ashYolarining joylanishiga qarab aniqlanadi va hokazolar.

Texnologik jaraYonlarni Yonish va portlash xavfini tahlil qilishda, odatda texnologik jaraYonda qo'llaniladigan tartibot uslubi va ishlab chiqarishni me'Yoriy rejalar, hamda ishlatiladigan Yonuvchi moddalarning kimyoviy xossalari haqidagi ma'lumotlar atroflicha keng o'rgaaniladi.

Texnologik tartibot uslubi va undagi me'Yoriy qoidalarga binoan qaysi idish Yoki aparatlarda qanday va qancha Yonuvchi gaz, suyuqlik Yoki boshqa moddalar borligi hamda ular qanday bosim ostida va haroratda ishlashi mumkinligi haqida aniq ko'rsatmalar ifodali tarzda jaraYonni boshqaruv pultida baYon etilgan bo'lishi shart.

Texnologik jaraYonda ishlatiladigan gazlar havo bilan Yoki kislород bilan birikmagan holda ishlatiladi. Gazlar aparadagi jumraklardan Yoki texnik nosozliklar orqali chiqayotganda, havo bilan birikishi mumkin. Bunday holatlarda Yonuvchi gazning havo bilan aralashmasi tarkibidagi miqdori uning quyi Yonish chegara miqdoridan kam, Yoki yuqori Yonish chegarasidan baland bo'lishi shart. YA'ni bu ikki chegara orasida bo'lishi o'ta xavfli hisoblanadi.

YOnuvchi suyuq modda solinadigan idishlar xavfsizlik qoidasiga binoan oxirigacha to'lg'azilmaydi, ya'ni idishlarni shifti bilan suyuqlik satxi orasida keyinchalik gaz bug'lari bilan to'yinadigan havo bo'shlig'i mavjud bo'ladi. Idishning tepe qismida hosil bo'ladigan portlovchi muhitning yuzaga kelishi, suyuqlik bug'lari bilan to'yingan havo aralashmasidagi Yonuvchi bug'ning miqdoriga va idishdagi suyuqlikning haroratiga ham bog'liq bo'ladi, ya'ni suyuqliknii harorati uning quyi va yuqori Yonish harorati chegaralari oralig'ida bo'lsa, xavfli muxit portlashga moyil bo'ladi.

Ishlab chiqarishda sodir bo'ladigan bunday sharoitlarda alangalanib Yoki portlab Yonishga quyidagi manba'lар sabab bo'lishi mumkin: Yonib turgan olov, cho'g'lanib qizib turgan Yonuvchi buyum, mexanik harakat Yoki elektr tarmog'ining qizishi natijasida hosil bo'ladigan uchqunlar Yoki moddalarning o'zaro kimyoviy birikishi va boshqalar.

MA'RUZA № 23

PORTLASH XAVFI MAVJUD BO'LGAN INSHOOTLARNI HIMOYALASH

Reja:

1. Portlash xavfi mavjud bo'lgan inshootlarni himoyalash.
2. Binolarda portlashga qarshi himoya vositalarini loyihalash.
3. Binolarni loyihalash va konstruktiv echim qabul qilishda yong'in xavfsizligini ta'minlash

Bino va inshootlarda portlash hodisalari ko'proq quyidagi sabablarga ko'ra sodir bo'ladi:


- yong'in xavfsizligi qoida va me'yordi talablarini qo'pol ravishda buzilishi;
- issiqlik uzatish, shamollatish tizimlarini va elektr dastgohlarini noto'g'ri o'rnatish;
- buzuq holdagi texnologik va elektr uskunalarini ishlatalish;
- yonuvchi va portlovchi moddalarni omborlarda saqlash qoidalarni buzilishi;
- elektrstatik va atmosfera elektr zaryadlaridan himoyalanish qoidalarni buzilishi;
- yong'in darakchilari va avtomatik o't o'chirish tizimining yo'qligi yoki buzuqligi;
- portlashi mumkin bo'lgan manba'lar (bug' qozonlari, ekonomayzerlar, nasos agregatlari, kompressorlar, elevatorlar, gaz balonlarini sinovdan o'tkazish va to'ldirish xonalari) ustidan nazorat qoidalariiga to'liq rioxalari qilmaslik;
- yong'in xavfsizligi bo'yicha malakali nazoratni yo'qligi va hokazolar.

Havo bilan aralashmagan yonuvchi gaz va bug'larni maxsus kran orqali uncha katta bo'lмаган teshikdan oqizib, so'ng gugurt chaqib yoqilsa, mash'ala bo'lib osuda yonaboshlaydi. Bunday yonishlarni shisha idishlarni tayyorlash zavodlarida, g'isht, keramika va chinni pishirish zavodlarining pechlarida sun'iy va tabiiy gazlarni yonishi misolida ko'rish mumkin. Cement zavodlarining aylanma pechlarida ham ko'mir kukunini yoqilishi shu taqlitda amalga oshiriladi. Ammo bu gazlar ba'zi nosozlik sabablariga ko'ra, havo bilan aralashib ketish hollari mavjud bo'lib, aralashma xavfli nisbat darajasiga etgan bo'lsa, katta kuch bilan portlash sodir bo'lishi mumkin.

Neftni qayta ishslash, mashinasozlik va kimyo sanoatlarini tez sur'atlar bilan rivojlanishi, yonuvchi gazlar va changlarni hamda engil alanganuvchi suyuqliklarni ishlab chiqaruvchi va ularni qayta ishlovchi korxonalarini ko'payib ketishiga olib keladi. YOnuvchi moddalarni bug' va changlari xonadagi havo bilan aralashib ketsa,

portlash xavfini chaqiruvchi gazli havo aralashmasini hosil qiladi. Bunday aralashmalarning portlashi oqibatida bino va inshootlar vayronaga aylanishi va odamlarni qurbon bo'lishiga sabab bo'ladi. Agar yonish oqibatida portlash jarayoni biror yopiq hajmda sodir bo'lsa, yonuvchi moddaning harorat ta'sirida kengayishi evaziga, uning devorlariga bosim kuchi tez ortib boradi va butun hajm bo'yicha teng quvvatli quporuvchi, ta'sir kuchiga ega bo'ladi.

CHizma 15. Portlash vaqtida hamma tomoni yopiq xonaning devorlariga ta'sir etayotgan bosimni o'zgarish tasnifi berilgan. Agar yopiq hajmning devorlari etarli darajada mustahkam bo'lsa, portlashgacha o'tgan vaqt davomida bosim R ni o'zgarishi egri chiziq 1 bilan ifodalanadi.



1-rasm. Portlash jarayonida xonadagi bosimni o'zgarishi.


Bu holda bosim ko'tarilishi oqibatida t_p vaqt o'tgandan keyin portlash sodir bo'ladi va xonaning barcha devorlari va tomi otilib ketib, shikastlanadi. Egri chiziq 2 - qurilmada ochiq tuynuk bo'lganda bosimni o'zgarishini ifodalaydi. Bunda tuynukni satxi qancha katta, bosimni asosiy qurilmalarga ta'sir euvchi ko'poruvchi kuchi shuncha bo'lsa kichik bo'ladi. Agar EOK qurilmalar o'rnatilgan bo'lsa idishdagi bosim oldin egri chiziq 1 bo'yicha o'zgarib boradi. Bosim R darajasiga etganda omonat o'rnatilgan EOK qurilmasi otilib ketadi va devorda ochiq tuynuk

hosil bo'lganligi tufayli idishdagi bosim egri chiziq 3-ga binoan o'zgaraboshlaydi.

Bunda portlashdan keyin ham bosimni biroz ko'tarilishi, ulardagi inersiya kuchining ta'siridandir. Chunki EOK qurilmalarini tuynukdan ma'lum masofaga uloqtirib tashlash uchun yana qo'shimcha bosim va birnecha soniya $\Delta\tau$ vaqt kerak bo'ladi. Uloqtirib tashlanayotgan EOK qurilmasi qancha og'ir va katta bo'lsa, uni engish uchun shuncha uzoq vaqt va qo'shimcha bosim talab etiladi.

Agar EOK qurilmalari juda engil bo'lib, inersiya kuchi bosim kuchiga qarshilik ko'rsata olmaydigan darajada kuchsiz bo'lsa, portlashdan keyingi bosimning kuchi egri chiziq -4 ga binoan o'zgarishi mumkin.

EOK qurilmalarni portlash jarayonida bosimni ko'tarilishiga ta'sir etishi ularni og'irligi va sirtini kattaligi tufayli yuzaga keladigan inersiya kuchiga bevosita bog'liq bo'ladi.



2-rasm. EOK qurilmasi o'rnatilgan xona devorlariga bosim ta'siri
8

9.10-rasmida EOK qurilmalar o'rnatilgan xonaning devorlariga oqibatida hosil bo'lgan R(τ) portlash bosim kuchi ta'siridan engil qurilma- larni otilib ketayotgan jarayoni aks ettirilgan. Agar devorlari portlash jarayoni-dagi ichki bosimga chidamli bo'lgan, germetik mustahkam qilib tayyorlangan yopiq idishda portlash sodir bo'lsa, undagi maksimal bosim R_p q $\gamma P_o \epsilon$ ga teng bo'ladi.

Binolarda portlashga qarshi himoya vositalarini loyihalash.

Portlashga moyil xonalari mavjud bo'lgan sanoat korxonalarini loyihalashda, ularni portlashdan va butunlay buzilib ketishdan asrab qolish uchun xizmat qiladigan chora-tadbirlar ishlab chiqiladi va tadbiq etiladi. Bunday tadbirlarni asosiy vazifasi sanoat korxonasining portlash xavfsizligini ta'minlash bo'lib, portlashga sabab bo'luvchi omillarni bartaraf etishga qaratilgan bo'ladi. Bu kabi xavfsizlik muammolari ishlab chiqorish tartibotini yaratish yoki tanlash jarayonida mukammal echilishi kerak. Ya'ni ishlab chiqorishda shunday texnologik tizimni tanlash lozim bo'ladiki, uni ishlatish jarayonida dastgoh va uskunalardan portlovchi gazhavo aralashmasini hosil bo'lishiga etarli bo'lgan yonuvchi gaz va suyuqliklarni oqib chiqishiga va chiqqan taqdirda ham portlaydigan miqdorgacha yig'ilib qolmasligini ta'minlayoladigan bo'lishi kerak. Agar barcha tadbirlarni bajarganda ham, portlash xavfi to'liq bartaraf etilmaydigan bo'lsa, bu holda bino va inshootlarni loyihalashda maxsus konstruktiv echimlar vositasi bilan ularni portlash oqibatidagi buzilish darajasini kamaytirish choralari qo'llaniladi.

GOST 12.1.010-76 raqamli «Portlash xavfsizligi» davlat me'zoni talablari bo'yicha ishlab chiqorish jarayonlari shunday takomillashgan bo'lishi lozimki, yil davomida ularda sodir bo'lishi mumkin bo'lgan portlash ehtimoli $1/10^6$ dan oshmasligi kerak. Ammo harqancha texnologik ogohlantirishlar va texnik-tashkiliy tadbirlarni qullanishiga qaramay, ba'zan talofatli portlashlar sodir bo'lib turadi.

Bino va inshootlarni yonish va portlash xavfi bo'yicha A va B toifasiga kiruvchi sanoat korxonalarida, avariya holatida yonuvchi gaz yoki changlarni havo bilan xavfli aralashmasi hosil bo'lishi sababli yong'in yoki portlash sodir bo'lishi mumkin. Bunday hollarda bino va inshootlarni butunlay buzilib ketishdan saqlash maqsadida, KMK 2.09.02-85 «Ishlab chiqorish binolari» loyihalash me'yori talablariga binoan, ularda portlash paytida hosil bo'ladigan bosimni ta'sir kuchini kamaytiruvchi, maxsus «engil otilib ketuvchi (EOK)» - binoning yuk ko'taruvchi asosiy qismlarini saqlab qolish uchun xizmat qiladigan qurilmalar rejalashtiriladi. Engil otilib ketuvchi (EOK) qurilmalarga qo'yiladigan asosiy talab, xonadagi xavfli gazhavo aralashmasi bosimini portlash vaqtida, binoning asosiy yuk ko'taruvchi qismlarini buzilib ketmasligini ta'minlay oladigan darajada chegaralashdan iborat.

EOK qurilmalari oldin aytganimizdek tashqi devorlarda yoki tomda o'rnatiladi. Devorda o'rnatiladigan qurilmalar tomdagisiga nisbatan 30-50% ga samaraliroq va tiklash jarayonida kam xarjliroq xisoblanadi.

EOK qurilmalarni hisoblash va loyihalashda ularni massasini va mustahkamligini shunday tanlash kerakki, portlash vaqtida devor-larga tushadigan bosim (R_p), ruxsat etilgan bosim (R_{rux}) dan ortiq bo'lmasin, ya'ni

$$R_p < R_{rux}.$$

Bunday qurilmalar, bino va inshootlarni tomyopg'ich qismida yoki tashqi devorida o'rnatiladi. Ularning umumiy maydoni, **A** toifadagi korxonalar uchun portlash xavfi mavjud bo'lgan xonalarning har 1 m^3 hajmiga **0,05** m^2 dan va **B** toifadagi korxonalar uchun esa har 1 m^3 hajmiga **0,03** m^2 dan kam bo'lмаган miqdorda loyihalashtiriladi. Engil otilib ketuvchi qurilmalarga deraza, eshik, darvoza, asbestsement fanerdan, alyumin va po'lat tunukalar bilan qoplanib, ichiga engil isitgich polimerlar bilan to'ldirilgan panellar va shunga o'xshash engil qurilmalar misol bo'laoladi. Bunday qurilmalarning engil otilib ketishi uchun ruxsat etilgan og'irligi 120 kg/m^2 dan oshmasligi kerak. Derazalarning engil otilib ketuvchi qurilmalarga aylanishi uchun ulardagi oynalarning qalinligi 3, 4 va 5 mm bo'lganda, sirti mutanosib holda 0,8; 1,0 va $1,5\text{ m}^2$ dan kam bo'lmasligi lozim. Tomyopg'ich sirtida o'rnatilgan EOK qurilmasining umumiy maydoni aniqlangandan keyin, uni har biri 180 m^2 dan oshmagan, alohida to'rtburchaklarga bo'lingan holda joylashtirilgan bo'lishi kerak. Bu qurilmalarning og'irligidan hosil bo'ladigan bosim $0,7\text{ kPa}$ (70 kgs/m^2) dan ko'p bo'lmasligi kerak.

A va B toifadagi bir qavatli binolarni tomida o'rnatilgan EOK qurilmalari, ishlab chiqorish tartiboti talablarini buzmagan va atrof-muhitni hisobga olgan holda tashqi devorga yaqin joylashtirilishi va ko'pqavatli binolarda oxirgi qavatda yoki tashqi devorda o'rnatilishi lozim. Bunday xonalarni erto'la va er osti qavatlarida joylashtirilishi ruxsat etilmaydi.

Binolarni loyihalash va konstruktiv echim qabul qilishda yong'in xavfsizligini ta'minlash

Imorat va inshootlarni loyihalashda, qurilishda va ulardan foydalanishda binoning olovbardoshligi, yong'indan saqlanish va kam talofatlanish kabi talablarni qondirishga doir turli tadbirlar ko'llaniladi.

Loyihalashda imoratni o'rnini tanlashda, qo'shni imoratlarga nisbatan kamxavotir, yong'inga bardosh asosni, poydevorni, ko'tarish konstruk-siyalarni, qavatlar orasidagi yopmalarni, ustypmani, devorlarni va boshqa konstruksiya va uskunalarni alohida talablar asosida tanlanadi.

Qurilish jarayonida loyiha talablarini bajarish, imoratlarda ko'zda tutilgan yong'in xavfsizlidan kelib chiqadigan qo'shimcha zinalar, koridorlar va cherdaklar og'ishsiz amalga oshirilishi shart. Keltirilgan 9.3- jadvalda qurilish materiallarining olovbardoshlikdagi eng kichik chegarasi (s) va olov tarqalishining eng yuqori chegarasi (sm) keltirilgan.

3 -jadval

Olov bardoshli k darajasn	Devorlar	ustunlar	Zinalar maydonchasi kosourlari va zina qadamlari	Ustyopia ko'taruvchi konstruksiyalar	Ustyopma elementlari
---------------------------------	----------	----------	---	--	-------------------------

		Ko' taruv chi va zina konstruk- siva lari o' z o' zini ko' taruvc hi	Tashqarndagi o'z-o'zi ko'taruvchi	ichkaridagi o'z-o'zni ko' taruvcchi				Plitalar	Balkalar fermalar ramalar arkalar
1	2	3 25/0	4	5	6	7	8	9	10
			1.25/0	0.5/0	0.5/0	2.5/0	1/0	1/0	0.5/0 0.5/0
II	2/0	1/0	0.25/0	0.25/0	2/0	1/0	0.75/0	0.25/0	0.25/0
III	2/0	1/0	0.25/0; 0,5/40	0,25/40	2/0	1/0	0.75/25	CHebara lanmaydi	
IIIa	1/0	0,5/0	0,25/40	0.25/40	0,25/0	1/0	0,25/0	0,25/25 0,25/0	
IIIb	1/40	0.5/40	0,25/0; 0.5/40	0,25/40	1/40	0,75/0	0,75/25	0,25/0; 0,75 0,5/25(40)	
IV	0,5/40	0,25/40	0,25/40	0,25/40	0,5/40	0,25/25	0,25/25	CHebara lanmaydi	
IVa	0,5/40	0,25/40	0.25/ chebara lanmaydi	0,25/40	0,25/40	0,25/0	0,25/0	0,25/(0)	
									CHebara lanmaydi

Loyihalashda qabul qilingan qurilish materiallari, konstruksiyalar imoratning olovbardoshlik kategoryasi asosida tanlanadi. Imoratning olovbardoshligiga doir xarakteristikalarini va xususiyatlari 9.4- jadvalda keltirilgan. Binoning olovbardoshlik darajasi konstruksiyalarni eng kichik olovbardoshlik chegarasi asosida belgilanadi. Misol, agar konstruksiyalardan birining olovbardoshligi 0,25 soat bo'lsa, faqat temir konstruksiyalar qo'llash, tashqaridagi devorlarida alyuminlar asosida tayyorlangan materiallardan foydalanish mumkin. Agar 11-darajali sanoat imorati loyhalansa, u holda qo'llaniladigan ustunning olovbardoshligi 0,75 s dan kam bo'lmasligi kerak

Qurilish materiallari yonish darajasi bo'yicha 3-guruxga bo'linadi: yonmaydigan, yonishi murakkab va yonadigan. Masalan shipga qo'llaniladigan konstruksiya yonmaydigan, osma shiplar esa qiyin yonadigan va ba'zida yonishi mumkin bo'lgan materiallardan bo'lishlari mumkin. Stropilalarda, devorlarda, pollarda, tomlarda qo'llaniladigan materiallar ham yonishi mumkin bo'lgan materiallardan qilinishi mumkin. Albatta, stropila kabi ma'suliyatli konstruksiyalarni olovga bardoshligini ta'minlaydigan tadbirlar qo'llanilishgi shart.

4-jadval

Olov bardoshli k darajasi	Binoning konstruktiv xarakteristikalarini
I	Tabiiy yoki sun'iy toshli maternallardan, beton yoki temirbetondan foydalanib tayyorlangan tunikasimon va plitali yonmaidigan materiallardan qurilgan ko'tarish va to'sish konstruksiyali binolar
II	Oldingideq bino yompalarida himoyalangan metall

	konstruksiyalardan foydalanish mumkin.
III	Tabiiy yoki sun'iy toshli materiallardan, beton yoki temirbetondan qurilgan ko'tarish va to'sish konstruksiyali binolar. YOpilmalarda suvoq yoki qiyin yonuvchi tunikasimon, xamda plitali materiallar bilan himoyalangan yog'och konstruksiyalardan foydalanish mumkin. YOpilma elementlariga olovbardoshlik chegaralari va olov tarqalish chegaralari bo'yicha talablar qo'yilmaydi, shu bilan birga yog'ochli ustyopma elementlari olovga qarshi ishlov beriladi.
IPa	Sinchli (Karkasli) konstruktiv sxemali binolar. Sinch elemetlari himoyalanmagan po'lat konstruksiyalardir. To'suvchi konstruksiyalar -profillangan po'lat listlardan yoki boshqa qiyin yonadigan himoyali yonmaydigan materiallardan iboratdir.
IPb	Asosan karkas konstruktivsxemali bir qavatli binolar. Karkas elementlari - olov tarqalish chegarasi talablarini bajaradigan olovbardoshlikga qarshi ishlov berilgan butun yoki kleylangan yog'ochlardan iboratdir. To'suvchi konstruksiyalar - yog'och yoki uning asosidagi panellar yoki ularning yig'malaridan bajariladi. YOG'OCH va yonuvchi materiallardan iborat to'suvchi konstruksiyalar, olov tarqalish chegaralari talablariga javob beradigan olovga qarshi himoya ishlovlari berilishi zarur.
IV	Olovga va yuqori haroratlarga qarshi suvoq yoki boshqa list yoki plitali materiallar bilan ximoyalangan butun yoki kleylangan va boshqa yonuvchi yoki qiyin yonuvchi materiallardan iborat ko'tarish va to'sish konstruksiyali binolar. YOpilma elementlariga olovbardoshlik chegaralari va olov tarqalish chegaralari bo'yicha talablar qo'yilmaydi, shu bilan birga yog'ochli ustyopma elementlariga olovga qarshi ishlov beriladi.
IVa	Asosan karkas konstruktiv sxemali birqavatli binolar. Karkas elementlari - ximoyalanmagan po'lat konstruksiyalardan iborat. To'suvchi konstruksiyyalar - profillangan po'lat listlardan yoki boshqa qiyin yonadigan ximoyali yonmaydigan materiallardan iboratdir.
V	Olovbardoshlik va olov tarqalish chegaralari bo'yicha talablar qo'yilmagan ko'taruvchi va to'suvchi konstruksiyali binolar.

Asosiy, yong'inga qarshi to'siq turlari va ularning eng kichik olovbardoshlik chegaralari 9.5- jadvada keltirilgan.

YOning'inga qarshi to'siq turlari va olovbardoshlik chegaralari
9.5- jadval

YOnringa kartin tusnklar	YOning'inga qarshi tusiq turlari yoki ularning elementlari	YOning'inga charshi Tusitslarnnng eng kichik Olovbardoshlik chegaralari va ularning
--------------------------	--	---

		elementlari soat
YOn‘inga qarshi devorlar	1 2	.
YOnringa qarshi tusiklar (peregordki)	1 2 1	2,5 0,75 0,75
YOn‘inga qarshi yopmalar	2 3	0,25 2,51 0,75
YOn‘inga qarshi eshnk va derazalar	1 2 3	1,2 0,6 0,25
YOn‘inga qarshi darvozalar, lyuklar, klapanlar	1 2	1,2 0,6
Tambur-shlyuzlar		0,75
SHlyuz elementlari:	1	0,75
yong‘inga qarshi tusiqlar	3	0,6
yong‘inga qarshi yopmalar	2	-
yong‘inga qarshi eshiklar	1	
YOn‘inga qarshi zonalar		0,75
YOn‘inga qarshi zona elementlari:	2	0,25
zona xonalarini ajratuvchi	2	2,5
yong‘inga qarshi devorlar	-	0,75
zona ichkarisidagi yong‘inga qarshi to‘sqliar kolonnalar	3	0,75 0,75
yong‘inga qarshi yopmalar		-
yopmalar elementlari	2	
tashqi devorlar		0,76
YOn‘inga qarshi zonalar	-	0,76
YOn‘inga qarshi zonalar elementlari:	-	DG5
yopmalar elementlari	-	0,75
tashqi devorlar	-	chegaralanmaydi
kolonnalar grebni diafragmalar		

Loyihalashda nafaqat konstruksiyalarni balki elektr tarmoqlari, kabellar, issiq vasov u suv uskunalarini, hamda kuchsiz tokli apparatlar tarmog‘ini olovbardoshligi ta’milnadi.

Demak imoratlarni olovbardoshligi asosan loyihalash jarayonida va qurilish hamda foydalanish davrida ta’milnadi va saqlanadi.

SANOAT KORXONALARINI LOYIHALASH VA QURISHDA YONG'INGA QARSHI KURASH TADBIRLARI

- 1 Korxonalarda va boshqa ob'ektlarda Yong'in xavfsizligini tashkillashtirish tartibi
- 2 Korxonalarda va boshqa ob'ektlarda Yong'in xavfsizligini me'yoriy asoslari, hujjatlar tizimi.

Korxonani loyixalashda, qurilishida, texnologik jaroyn amalga oshirilishida e'tiborga olinadigan Yong'in xavfsizligi chora tadbirlari kelajakda Yong'inni oldini olish va undan ogoxlanitirishda muxim xisoblanadi. Yong'in xavfsizligi qoida talablarini buzilishi, texnologik jaroynni rejimga to'g'ri kelmasligi, elektrotexnik uskuna asboblarni nosozligi, foydalanish qoidasini buzilishi sanoat korxonalarida Yong'in, portlash bo'lishiga sabab bo'ladi.

Yong'in, Yonish asosan texnika xavfsizligi koidalarini buzilishi, korxona va tsex ma'muriyati tomonidan kamchiliklarni yo'l qo'yilishi bilan bog'langan. Ishlab chiqarish korxonalarida mavjud bo'lgan sabablar-beriladigan Yoki kuyiladigan komponentlar tarkibini, tezligini o'zgarishi, aralashtirishni Yo'qligi, uskunaga beg'ona moddani tushib qolishi, xomashy tarkibini o'zgarishi, gaz, bug'larni Yo'qotish usulini buzilishi va boshqa xolatlar avariyyaga, portlashga olib keladi.

Sanoat korxonalarida Yong'in, portlash bilan bog'likgan avariya 20% ni tashkil etadi. Korxonalarda Yong'insiz portlash sodir bo'lishi noorganiq moddalar ishtirokida 15%ni, Yonuvchi gazlar bilan 15% ni, karbonvodorodlar va uni birikmalari ishtirokida 32,5 %, boshqa moddalar ishtirokida 7,5% ni tashkil etadi. Korxonalarda Yong'in, portlash xavfliligi kayta ishlanadigan moddalar miqdori va fizik-kimyoviy xossalariiga, xususiyatlariga, uskuna va jixozlar ish rejimiga, alanga manbai borligi va o'tni tez tarqalashiga bog'lik.

Texnologik jaroynlarni Yong'in xavfsizligini ta'minlashda quyidagi umumiy tadbirlar amalga oshiriladi:

Xavfli texnologik usullarni xavfsiz turiga almashtirish,

Uskuna-moslamalarni tusiklangan xolatda joylashtirish,

Korxona binolaridagi qo'llanadigan Yonuvchi va portlashga xavfli moddalarning miqdorini kamaytirish,

Uskuna, gaz quvurlarida, havo almashtirish tizimida Yonuvchi moddalarning portlashga xavfli kontsentratsiya xosil bo'lishiga Yo'l qo'ymaslik,

Yonuvchi aralashmalarga ingibitorlar, inert moddalar kushishi,

Yong'in alangalanadigan moddalar saqlashda, ular bilan ishlashda inert muxit qo'llash,

Ishlab chiqarishni avtomtalashtirish, mexanizatsiyalash, uzlusizligini ta'minlash,

Texnologik uskuna va kommunikatsiyalarni germetikligini ta'minlash va jaroynda vakuum qo'llash,

Belgilangan texnologik rejimni aniq bajarish, standartlarga amal qilish,

Texnologik uskunalarni ta'mirlash, tuzatishdan sung va ishga tushirishdan avval suv bugi Yoki inert gaz bilan ishlash,

Xavfli joylarda o't manbaini paydo bo'lishiga Yo'l qo'ymaslik,

Yong'in va portlashni tarqalishiga Yo'l qo'ymaslik,

Suyuqliklarni to‘liq to‘qilmasligi, gazlarni chiqarilmamasligi, Yonuvchi gaz bug‘larni xajmdan-idishdan bushatilmamasligi, uskuna va quvurlarni germetik-butun bo‘lmasligi, xavfli maxsulotlar qoldig‘i bo‘lishi Yonadigan aralashmalarni xosil bo‘lishiga olib keladi. O‘tga xavfli engil uchuvchan suyuqliklarni kamroq xavfli, qaynash xarorati 110 °C dan yuqori bo‘lgan suyuqliklarga (amilatsetat, etileng‘likol, xlorbenzol,ksilol, amil spiriti) bilan almashtirish yong‘in xavfsizligini ta’minlashda samarali usullardan xisoblanadi. O‘tni tarqalishiga yo‘l qo‘ymaslik uchun suyuqlik xarakatlanadigan kuvurlarda qarshi klapanlar, turli filtrlar-o‘tni to‘sqliqichlar, gidravlik zatvorlar urnatiladi. Gaz quvurlarida bo‘linadigan membranalar, zatvorlar, changli havo yullarida esa uzib kuyadigan maxsus moslama shiberlar o‘rnataladi.

Bino va inshootlarni yong‘in va portlash xavfi bo‘yicha guruhlanishi, ulardagi barcha xonalarning yonish va portlashga moyillik toifasi aniqlangandan so‘ng belgilanadi. Agar binoda **A** toifaga taalluqli xona bo‘lsayu, uning maydoni binodagi barcha xonalarning umumiyligi maydonidan 5% dan kam bo‘lmasa Yoki sathi 200 m² dan ko‘p bo‘lsa, bu holda bino **A** toifaga kiradi. Binoda har xil toifaga taalluqli xonalar mavjud bo‘lsayu, **A** va **B** toifadgi xonalarning yig‘indi maydoni, qolgan barcha xonalar umumiyligi maydonining 5% dan kam bo‘lmasa yoki sathi 200 m² dan ziyod bo‘lsa, bu bino **B** toifaga mansub bo‘ladi.

Ishlab chiqarishda yong‘inni kelib chiqishiga, ko‘pincha yong‘in yoki elektr xavfsizligi qoidalarini qo‘pol ravishda buzilishi, elektr tarmoqlarini yaxshi himoyalanmaganligi, Yonuvchi moddalarning saqlash qoidalarini buzilishi hamda olovga nisbatan ehtiYotsizlik qilish kabilar sabab bo‘ladi. . Ba’zan yong‘inni yoki portlashni kelib chiqishiga, inshootni loyihalash vaqtida bo‘lajak sanoat korxonasini yonish va portlash xavfi bo‘yicha noto‘g’ri toifalanishi, ya’ni unda ishlatiladigan xomashyoning yonish va portlash xususiyatlari aniq xisobga olinmaganligi ham sabab bo‘ladi. Ishlab chiqarish jarayonida yong‘in xavfsizligini to‘la ta’minlashda korxonalarni yong‘in xavfi bo‘yicha toifalanishi kifoya qilmaydi. Buning uchun ishlab chiqarishda yong‘in va portlashni keltirib chiqaruvchi xavfli omillarni mukammal o‘rganib chiqish lozim bo‘ladi.

Texnologik jarayonlarni yonish va portlash xavfini tahlil qilishda, odatda texnologik jarayonda qo’llaniladigan tartibot uslubi va ishlab chiqarishni me’yoriy rejalar, hamda ishlatiladigan yonuvchi moddalarning kimyoviy xossalari haqidagi ma’lumotlar atroflicha keng o’rgaaniladi.

Demak ishlab chiqarish tartiboti jarayonida yonish va portlash xavfi mavjudligini quyidagi tartibda aniqlash mumkin:

1.Korxonada ishlatiladigan yonuvchi va portlovchi moddalarning turlari va ularning miqdori aniqlanadi;

2.Ishlab chiqarish tartiboti va unda ishlatiladigan yonuvchi moddalarning ishlatilish tartibi aniqlanadi;

3.Korxonadagi texnologik uskunalaridan yonuvchi moddalarning oqib chiqishini mavjud sabablari va hajmi aniqlanadi;

4.Yondiruvchi va portlovchi manba’larni kelib chiqish sabablari aniqlanadi;

5.Sodir bo‘lishi mumkin bo‘lgan Yong‘in sababbrini va uning ehtimoliy Yo’nalishini, binoning loyihalanish uslubiga va Yonishga moyil bo‘lgan pardozlov ashYolarining joylanishiga qarab aniqlanadi va hokazolar. Yong‘inni davom etish

muddati ushbu - ifodada ko'rsatilganidek sodda tuyulgani bilan, uni echishda ma'lum qiyinchiliklar mavjud, chunki harqanday moddaning Yonish tezligi o'zgarmas emas va u Yonish muhitini kislorod bilan ta'minlanganligiga, moddaning strukturaviy tuzilishiga hamda joylanish sharoitiga ham bog'liq bo'ladi. Yong'inni uzluksizligiga bevosita ta'sir ko'rsatadigan yana bir asosiy omil bunda hisobga olinmagan, u ham bo'lsa undagi haroratning o'zgarishidir. Chizma 6 da berilgan teng hajmdagi turli xil moddiy ashYolar ning, masalan Yogoch (3) bilan paxta (2) ni Yonish jarayonini kuzatsak, Yog'ochning Yonishdagi eng yuqori harorati 900 S ga teng bo'lib, tajribaning 40 daqiqasiga to'g'ri kelsa, paxtaniki bo'lsa 500 S dan oshmaydi va 10 – chi daqiqasida sodir bo'ladi. Bundan ko'riniib turibtiki, turli xildagi Yonuvchi ashYolarning Yonish jarayoni turlicha vaqt davomida kechadi, binobarin ularning inshoot qurilmalariga ta'sir etish darajasi ham har xil bo'ladi.

MA'RUZA № 25

SANOAT KORXONASI HUDUDINI ZONALARGA AJRATISH

Korxonalarini loyihalash va qurish jarayonida yong'inga qarshi chora-tadbirlar belgilanadi. Bu chora-tadbirlar sanoat korxonasi bosh rejasiga kiritiladi. Ularning eng muhimlaridan biri sanoat korxonasi majmualarini va binolarini bajariladigan ishi va yong'inga xavflilagini hisobga olgan holda joylashtirishdir. Bunda o'ta yong'inga xavfli majmualarni, albatta, hududning shamol yo'naliishiga qarama-qarshi tomonida joylashtirish taisiya etiladi..

Sanoat korxonalarini zonalashtirishda korxona joylashgan joyning baland-pastligi, shamolning asosiy yunalishi va kuchi hisobga olinadi. Yengil alanganuvchi suyuqliklarni hududning quyiroy qismlariga joylashtirish tavsiya etiladi. Aks holda yong'in sodir bo'lgan taqdirda yengil alanganuvchi suyuqlik past tomonga oqib, alanganing umuman hamma maydonlariga tarqalib ketishi xavfi tug'iladi. Sanoat korxonalarini isitish vositalari, qozon qurilmalari, odatda ochiq alanga bilan ishlataladi va ulardan chiqish mumkin bo'lgan uchqunlar yong'in xavfini tug'diruvchi asosiy vositalardan biri hisoblanadi. Shuning uchun ham bunday vositalar shamol yo'naliishiga qarama-qarshi tomonda yengil alanganuvchi suyuq-liklar, suyultirilgan va siqlgan gazlarning o'rmini hisobga olgani holda joylashtiriladi.

Yong'in xavfsizligini ta'minlashda zavod hududidagi avtomobils harakatlanish yo'llarini to'g'ri ta'mirlash katta ahamiyatga ega. Chunki yong'in vaqtida o't o'chirish mashinasi hech qanday to'siqsiz istalgan joygacha bora olishi muhimdir. Shuningdek, korxona hududidagi yong'inga qarshi deponi joylashtirish ham ahamiyatlidir.

Sanoat korxonasining bir tomonidan kirish yo'li, albatta, umumiyl foydalanish uchun mo'ljallangan ko'chaga chiqadigan bo'lishi kerak. **Yong'inga qarshi oraliqlar.** Yong'in bo'lgan taqdirda alanga bir binodan ikkinchi binoga o'tib ketmasligini ta'minlash maqsadida yong'inga qarshi oraliqlar tashkil qilinadi. Bunday oraliqlar belgilanganda asosan yonma-yon joylashishi mumkin bo'lgan binolarning yong'inga xavflilik darajasi, toifasi, konstruksiyalaring o'tga chidamliligi,

alangalanish may-doni, yong'inga qarshi to'siqlarning mavjudligi, binoning tuzilishi, ob-havo sharoitlari va boshqalar hisobga olinadi.

Yong'inga qarshi oraliqlar tashkil qilishda binolarning o'tga chidamlilik darajasini hisobga olish juda muhimdir.

Sanoat korxonalari asosiy binolari yordamchi xonalari, ombor qurilishlari orasidagi normalashtirilgan oraliqlarning binolarning o'tga chidamlilik darajasiga nisbati quyidagi 3-jalvalda keltirilgan.

3-jadval

Bir binoning o'tga chidamlilik darjasи	O'tga chidamlilik darjasи asosida binolar o'rtasidagi yong'inga qarshi oraliq, m		
	I va II	III	IV va V
I va II	9	9	12
III	9	12	15
IV va V	12	15	18

Shuningdek, G va D toifadagi sanoat korxonalari, ularning o'tga chidamlilik darjasи I va II bo'lsa va tomi yonmaydigan materiallar bilan yopilgan, shuningdek, tashqi devorlari yong'inga qarshi to'siq sifatida qurilgan bo'lsa, yong'inga qarshi oraliq belgilan-masligi mumkin.

Yong'inga qarshi to'siq. Sanoat korxonalarini loyihalash-qurish jarayonida yong'inga qarshi tashkiliy ishlar amalga oshiriladi. Bu tashkiliy ishlar qatoriga yong'inga qarshi to'siqlarni ko'rsatish mumkin. Bularga yong'inga qarshi devor, eshik darvoza, lyuk tambur-shlyuzlar va derazalar kiradi.

Yong'inga qarshi to'siq vositalari yonmaydigan materiallardan tayyorlangan bo'lishi va quyidagicha o'tga chidamlilik chegarasiga ega bo'lishi kerak (soatlarda).

Yong'inga qarshi asosiy devor-2,5 soat. Yong'inga qarshi devorlarda bo'lgan eshik, deraza va darvozalar-1,2 soat. Asosiy bo'limgan devor-0,75 soat. Asosiy bo'limgan devordagi eshik, derazalar, shuningdek, tambur, shlyuzlar 0,6 soat. Bu yerda shuni ta'kidlash kerakki, tosh va boshqa tabiiy minerallardan qilingan devorlar o'tga chidamlilik chegarasi bo'yicha qo'yilgan yuqoridaq talablarni bajaradi. Agar devorlar mabodo sinchli bo'lsa, uning asosiga ishlatilgan sinchning va orasiga urilgan devorlarning o'tga chidamlilik chegarasi hisobga olinadi.

MA'RUZA № 26

YONGINGA QARSHI ISHLATILADIGAN TEXNIK QURILMALAR

Reja

1 Birlamchi o't o'chirish vositalari

2 Birlamchi o't o'chirish ularning turlari

O'tni o'chirish deganda, Yonish uchun zarur bo'lган uchta omilning birini bartaraf etish Yo'lida qilinadigan harakat tuShuniladi. YA'ni Yonishni to'xtatish uchun quyidagi harakatlarni bajarish kerak bo'ladi:

- Yong'in hududiga kislorodni kirish Yo'lini to'sish Yoki Yonuvchi moddani miqdorini kamaytirish, ya'ni to'siq qo'yish;

- Yonuvchi manba' hududini Yoki Yonayotgan moddaning haroratini issiqlikni yutadigan, ammo o'zi Yonmaydigan sovutgich moddalar Yordamida keskin pasaytirish, demak sovutish;

-Yonuvchi suyuq moddalarni o'tda Yonmaydigan moddalar (gaz Yoki suv) bilan suyultirish.

AmaliYotda Yong'inni o'chirishda bu usullarning dastlabki ikkitasi, ya'ni o'tni o'chiruvchi moddalar Yordamida ihotalab qo'yish va sovutish usullari ko'proq qo'llaniladi.

O'tni o'chirish uchun ishlatiladigan, olovda Yonmaydigan turli xildagi moddalar, jumladan suv, inert gazlardan karbon ikki oksidi, azot, argon, suv bug'lari, kimyoviy ko'piklar, geterogen kukunlar, galogen karbovodorod sovutgichlari va ularni uzatib beruvchi uskunalar va boshqalar o't o'chirish vositalari bo'lib xizmat qiladi. Bugungi kunda o't o'chirish vositasi sifatida Yong'inni o'chirishda eng ko'p ishlatiladigan suv hisoblanadi. Suvdag'i o'tni o'chirish xususiyatlari, uni yuqori darajadagi issiqlikni yutuvchanligi (issiqlikni yutish qobiliyati 2260 kDj/kg), yuqori haroratga chidamliligi va bug'langanda hajmini 1700 marotaba ko'payib ketishi bilan belgilanadi. Suv o't o'chirishda eng qo'lay vositalardan xisoblanadi, chunki unda birvaqtin o'zida 3 ta xislat, ya'ni sovutish, suyultirish va ihotalash xususiyatlari mavjud.

Suv oqimini katta bosim ostida kuchaytirib beraoladigan 28-50 mm diametrli brandsboy lafet uskunalar Yoki diametri 13-25 mm bo'lган dastakli o't o'chirish vositalari Yordamida yaxlit Yoki maxsus purkagich uskunalar Yordamida suv bug'lari oqimi shaklida purkab uzatilishi mumkin. Suvni bu boradagi kamchiligiga, uning Yonuvchi sirtga Yopishmasligi va oquvchanlik xususiyatlarini ko'rsatish mumkin. Buning oqibatida suv ko'p miqdorda sarflanadi va atrofdagi buyum va jihozlar yaroqsiz holga kelib qoladi. Bundan tashqari Shuni ham nazarda tutish lozimki, hamma Yong'nlarda ham o't o'chirish vositasi sifatida suvni ishlatish mumkin bo'lavermaydi. CHunonchi, metal va uning gidridlari, metaloidlar va karbidlarni hamda elektr dastgohlari Yonganda ularni suv bilan o'chirish ma'n etiladi. CHunki bunday Yong'inni o'chirish jarayonida noxush oqibatlar yuzaga kelishi, ya'ni Yong'inni kuchayib ketishi Yoki elektr ta'siridan fojia yuz berishi mumkin.

YOn'inni o'chirishda suv va ko'pik moddalarini ishlatish mumkin bo'lмаган holatlarda o't o'chirish vositasi sifatida Yonmaydigan gazlardan keng foydalaniladi. Bunday gazlarga azot, karbon ikki oksidi, argon, brometil, xlorbrommetan va boshqalar misol bo'ladi. Bu gazlar havodagi kislorodni Yonishga Yordam beraolmaydigan darajagacha suyultirish Yoki uni Yonuvchi muhitdan (Yopiq hajmda) siqib chiqarish maqsadida ishlatiladi. Masalan, Shu maqsadda eng ko'p ishlatiladigan karbonat angidridi (SO_2) havodan 1,5 barobar og'ir bo'lганligi sababli, pol sathidagi

Yonuvchi hajmni sovutish bilan birga unga keladigan kislorod Yo'lini to'sish evaziga, Yong'inni tez o'chirish imkonini beradi. 1litr suyuq karbonat angidridi, balondan ochiq havoga chiqarilganda uning hajmi 506 litrga ko'payadi. Bu degani Yopiq hajmdagi Yonuvchi manba'ga, tashqaridan kislorodni kirib kelishiga mutlaqo imkon qolmaydi demakdir. Odatda, SO₂ suyuq Yoki gaz holatida 2 litrdan to 80 litrlik hajmdagi harxil po'lat balonlarda, 3430 kPa bosimda saqlanadi. Karbonat angidridi to'lg'azilgan gaz balonlarini xavfsizlik holati ular saqlana Yotgan muhitning haroratiga bog'liq bo'ladi. Muhitning harorati ko'tarilgan sari, balondagi suyuq karbonat angidridi gaz holatiga aylanaboshlaydi, natijada balondagi bosim ko'tarilib portlash xavfi yuzaga keladi. Bunday xavfni oldini olish uchun barcha o't o'chirgichlarning balonlari suyuq gaz bilan faqat 75% hajmida to'lg'aziladi va ularning hammasi himoya pardalari (membranalar) bilan ta'minlangan bo'ladi.

Birlamchi o't o'chirgich vositalari ichida eng ko'p ishlatiladigan vosita, bu qo'lda ishlatiladigan o't o'chirgichlardir. Yong'inni dastlabki davrida bunday o't o'chirgich vositalarni ahamiyati juda katta. Birlamchi o't o'chirgich vositalarini o'z joyida tezkorlik bilan ishlatabilish har bir zi Yolining fuqarolik burchidir

Qo'lda ishlatiladigan birlamchi o't o'chirgich vositalari kimyoviy ko'pikli, gazli va kukunli turlarga bo'linadi va ularni og'irligi 20 kg dan oshmasligi kerak. O't o'chiruvchi vosita sifatida karbon ikki oksidi (suyuq holatda), tarkibida brom aralashgan aerozollar va poroshoklar ishlatiladi.

Kukunli o't o'chirgich OPS-10 vositasining ish uslubi maxsus balonchadagi siqilgan havo Yordamida o't o'chirgich korpusida joylashgan kukunni puflab chiqarishga asoslangandir. Bunday o't o'chirgich vositalari ishqorli metallar ishtirokida sodir bo'lgan Yong'inlarni, Shuningdek avtomobil motori va elektr tarmog'iga ulangan holda Yonayotgan dastgochlarni o'chirishda qo'llaniladi va bitta OPS-10 Yordamida 0,25 m² yuzadagi Yong'inni o'chirish mumkin. Uning ishlash muddati 45-80 soniyaga etadi. Bu toifadagi o't o'chirgichlarda ishlatiladigan kukun namunalari natriy gidrokarbonat, alyuminiy va magniy moddalari aralashmasidan tarkib topgan bo'lib, olovni o'chirish uchun kukunni Yonayotgan yuzaga purkash kifoya qiladi.

Kimyoviy ko'pikli o't o'chirgichlar, Yong'in kuchayadigan va portlash xavfi mavjud bo'lgan joylardagi Yong'inlar hamda qimmat baho buyumlar, avtomashinalar, kutubxonalar, arxivlar va elektr dastgohlari joylashgan muhitdagi Yong'inlardan tashqari, Yonuvchi qattiq va suyuq mahsulotlarning barcha turlarini o'chirish uchun mo'ljallangan. CHunki ko'pikni tarkibida emiruvchi xususiyatga ega bo'lgan kislota va ishqor moddalari bor, ular qimmatli buyumlarni yaroqsiz holga keltirib qo'yadi.

Bugungi kunda xalq xo'jaligida keng qo'llaniladigan birlamchi o't o'chirgichlardan kimyoviy ko'pikli OXP-10 va havoli ko'pikda ishlaydigan OVP-10 rusumli vositalar hisoblanadi. OXP-10 o't o'chirgichni ko'pik hosil qiluvchi mahsulot (400 g natriy bikarbonat va 50 g solodok ekstrakti aralashmasi) bilan to'ldirishda, ishqor moddasi 30°S gacha isitilgan 7,5 litr hajmdagi suvda eritilib, sovugandan keyin o't o'chirgichni temir korpusiga quyiladi. Javhar qismiga esa, oltingugurt javhari va temir oksidi aralashmasini, harorati 80-100°S gacha qaynatilgan 450 ml hajmdagi suvda eritiladi. Eritmani 18°S gacha sovutilgandan so'ng maxsus polietilen Yoki shisha stakanga quyilib, o't o'chirgich korpusining qopqog'iga burab o'rnatiladi.

MA'RUZA № 27

YONGINNI O'CHIRISH TAKTIKASI. YONG'INGA QARSHI SUV TA'MINOTI

Odatda o't o'chirish uchun ishlataladigan suv katta bosim ostida kuchli oqimi sifatida alangalana Yotgan joyga yuboriladi. Buning uchun etarli bo'lган bosimni shahar sharoitlarida umumiy shahar vodoprovod tarmoqlari orqali amalga oshiriladi. Yoki bo'lmasa ba'zi bir erlarda mahsus tayYorlangan hovuz va idishlardan foydalanish mumkin. Sanoat korxonalarida ko'pincha Yong'in o'chirish uchun vodoprovod sistemalarini shahar sharoitlarida ayrim o'tkazish maqsadga muvofiq emas. Shuning uchun ichimlik suvlari vodoprovodlaridan sanoat maqsadlari va o't o'chirish maqsadlarida foydalanish qabul qilinadi.

Past bosimga mo'ljallangan vodoprovod sistemasidagi suv bosimi, hisoblangan miqdordagi suvni er yuzasidan kamida 10 m uzoqlikka otishi kerak.

YUqori bosimga mo'ljallangan vodoprovod sistemasida esa hisoblangan miqdordagi suvni stvollar Yordamida binoning eng yuqori nuqtasidan kamida 10m uzoqlikka otib berishi kerak. Bunday vazifalarni bajarish uchun vodoprovod baklarini etarli darajadagi balandlikka o'rnatish bilan Yoki ayrim hollarda nasoslar Yordamida amalga oshiriladi.

Ishlab chiqarish korxonalarida o't o'chirish uchun kerak bo'ladigan suvning miqdori ishlab chiqarish korxonasining Yong'in kategoriyasi va bu binoning o'tga chidamlilik darajasiga va uning umumiy hajmiga qarab belgilanadi.

Ishlab chiqarish korxonalarida Yong'in o'chirish uchun suvning miqdori 10 l/s dan 40 l/s belgilanadi.

Yong'inga qarshi suv ta'minoti bilan butun ishlab chiqarish korxonalari va aholisi 50 kishi bo'lган aholi punktlari ta'minlanishi lozim. Suv manbalari tabiiy (hovuzlar, ariqlar, darYolar va boshqa) va sun'iy bo'lishi mumkin.

Bitta tashqi Yong'inni o'chirishga suv sarfi ishlab chiqarish kategoriyasi, bino va inshootlarning olovga chidamlilik darjasasi va bino hajmiga bog'liq ravishda me'Yorlangan, (17 -jadval):

1-jadval

Ishlab chiqarish kategoriyalari	Binolarning olovga chidamlilik darjasasi	Bino hajmiga bog'liq ravishda suv sarfi (l/sek)				
		3000 m ³	3000... 5000 m ³	5000... 20000 m ³	20000... 50000 m ³	50000... 200000 m ³
G, D	I va II	5	5	10	10	15
A, B, V	I va II	10	10	15	20	30
G, D	III	10	10	15	25	
V	III	10	15	20	30	
G, D	I V va V	10	15	20	30	
V	I V va V	15	20	20	40	

Tashqi va ichki Yong'inni o'chirishga suv sarfi (m³/soat) quyidagi ifoda bo'yicha hisoblanadi:

$$Q_y = 3,6gT_{\dot{e}}n_{\dot{e}}$$

bu erda g - tashqi va ichki Yong'in o'chirishga solishtirma suv sarfi (yuqoridagi jadvaldan olinadi);

$T_{\dot{e}}$ - Yong'inning davom eti vaqtin, 3 soatga teng deb olinadi, Yoki maxsus formulalardan aniqlanadi;

$n_{\dot{e}}$ - bir vaqtda sodir bo'luvchi Yong'inlarning soni, 1...3 teng deb olinadi.

YOng'inga qarshi suv havuzlarining hajmi 50 m^3 kam bo'lmasligi kerak. Agar aholi soni 5000 odamdan ortiq bo'lsa 2 ta 50 m^3 hajmlik havuz qilinishi kerak. Ularning chuqurligi 4 metrdan kam bo'lmasligi, qish paytida esa ustini berkitib qo'yildigan qurilmasi bo'lishi kerak.

Hovuzdagi suv hajmi zahirasi, m^3 :

$$W_{\dot{e}} = Q_{\dot{e}} \sum Q_T + 0,5Q_X$$

bu erda Q_T - texnologik maqsadlarga suv sarfi, m^3/soat ;

Q_X - xo'jalik maqsadlariga suv sarfi, m^3/soat .

Agar vodoprovod sistemasidan Yong'inni o'chirish uchun suv olishi texnik tomonidan mumkin bo'lmasa (masalan ichimlik suvni ingichka vodoprovod quvurlari orqali keltirila Yotgan bo'lsa) unda sanoat korxonalarini territoriyasida suv saqlovchi qurilmalar tashqil qilinadi. Bundan suv saqlovchi qurilmalarning hajmi Yong'in vaqtida undan olinadigan suvning maksimal miqdori 3 soatga etadigan bo'lishi kerak. YOng'inga qarshi qurilgan vodoprovod sistemalari aylanma vodoprovod sistemasiga suv ikkita truboprovod bilan umumiy sistemaga ulanadi. YOng'inga qarshi gidrantlar sanoat korxonasi maydonida bir-biridan 100 m dan ortiq bo'limgan masofada joylashtirildi va ular bino devoriga va ko'chlar kesishgan joylarga 5 m dan yaqin bo'lmasligi kerak. YOng'inga qarshi vodoprovod har qanday sanoat korxonasida o'rnatilishi shart. Ba'zi bir I va II darajadagi o'tga chidamli konstruksiyalardan qurilgan binolarda G va D kategoriyasidagi sanoat korxonalari bundan mustasno. YOng'inga qarshi vodoprovodlar binolar ichida sanoat maqsadlarida qurilgan vodoprovolar bilan birlashtirilishi mumkin. YOng'inni ichkari tomonidan o'chirishga mo'ljallangan vodoprovodlarning suv miqdori ikki joydan kuchli oqim sifatida suv berilganda, har biri 2, 5 l/s suv miqdorini ta'minlay olishi kerak.

Bunda suvning bosimi suvni kamida 6m masofaga etkazib berishi kerak. YOng'in o'chirish englari yumshoq to'qima materiallardan ishlangan bo'ladi va 51 va 66 mm diametr bo'yicha tayyorlanadi. Ularning uzunligi 10 va 20 m. Bino ichkarisida o'rnatilgan Yong'inga qarshi gidrantlar oralig'i 10 Yoki 20 m li englar Yordamida Yong'inni o'chirish uchun kuchli suv oqimi binoning eng baland va eng uzoq nuqtasini ikkala gidrant orqali suv purkash imkoniyatini beradigan qilib o'rnatiladi. Ichkarida o'rnatilgan Yong'in kranlarining balandligi pol yuzasidan 1, 35 m balandlikda o'rnatiladi.

Korxonalarda Yonginga karshi samari kurashish maksadida ut uchirish vodoprovodlari mayjud buladi. Bu vodoprovod kupinchha xujalik va ishlab chikarish vodoprovodi bilan birgalikda kullaniladi. Bu vodoprovod kuvurlariga suv kul, darYo, kanal, suv ombori, ateziyan kuduklari, shaxar vodoprovod tizimi va boshka manbalardan olishini mumkin. Ut uchirish uchun muljalangan suv ta'minoti manbaning turiga va ximoyalanuvchi ob'ektning xarakteriga karab vodoprovod

kurilmalarining soni belgilanadi. Odatda ochik manbalardan buladigan suv ta'minoti murakkab xisoblanadi. Bu sxema uz tarkibida suv chikarish inshooti, dastlabki suv kutargich nasoslari, suv tozalash kurilmalari, toza suv saklash xavzalari, suvni ikkinchi kayta kutarish nasosi stansiyasi, suv bosimi xosil kiladigan minora (suv minorasi), kuvurlar va ut uchirish grantlari kabi kupgina kurilmalarni uz ichiga oladi. Kupgina tukimachilik korxonalarida utga karshi suv ta'minoti korxona xovlisiga kurilgan suv xovuzlaridan olinadi. Suv xovuzlarining xajmi ut uchirishning mexanik vositalarini 3 soat davomida tinimsiz ta'minlab turishga muljallanadi. Ular korxona xududdida Shunday joylashtirish tiriladiki, suv nasoslар ishlatilganda ut uchirish ichaklari uzunligi 150 m dan, avtonasoslар ishlatilganda esa 200 metrdan ortib ketmasligi kerak. Ma'lumki, suv korxona vodoprovodi tarmogi bir xilda sarf bulmaydi, suv bilan ta'minlash nasoslari esa ma'lum xajmda suv berib turadi. Korxona vodoprovod sistemasida suv sarfini rostlash uchun, xamda baland-pastligi jixatdan xar xil bulgan nuktalarda bosimini rostlab turish uchun suv minoralari kurredi. Vodoprovod sistemasida suv sarfikam bulganda kela Yotgan ortikcha suv Shu suv minorasiga tushadi va aksincha suv sarfi ortikcha bulganda Shu minoradagi zaxira suvdan ishlatiladi.

Minoraning ishidagi suv un minutlik uzlusiz ishlatishga etadigan buladi. Xujalik extiYojlari uchun sutkali suv sarfining 20 foiz mikdorida, nasoslarni avtomatik ravishda yurgizlaganda esa 5 foiz mikdorida suv zaxirasi olinadi. Xozirgi payta bakdagи suvning satxi pasayishi bilan nasoslari avtomatik ravishda yurgizib yuborish uskunalari kullaniladi. Bunday xollarda suv minorasidagi suv xajmi 5 minutlik uzlusiz sarflashga xisoblanadi.

Suv minorasining balandligi odatda kuyidagi formula buyicha xisoblanadi:

$$N_m = N_{eb} + \sum h_c + (L_a + L_b), \text{ m} \quad (9.1)$$

Bu erda N_{eb} - suvning vodoprovod sistemasidagi minimal erkin bosimi, m;

$\sum h_c$ - suv minorasidan uchastkaning oxirgacha bosimning pasayishi, m;

$L_a + L_b$ - suv minorasi joylashgan va uchastka oxiridagi er yuzasining balandlik belgisi, m.

U t u c h i r i s h n i n g t a s h k i v o d o p r o v o d s i s t e m a s i. Ishlab chikarish korxonasi xududida, xom ashYo va tayYor maxsulot omborlari Yonginni uchirish maksadda doimo kerakli bosim ostida etarli mikdorda suv bilan ta'minlanishi kerak. Bu maksadda korxona xududida ut uchirish grantlari bilan ta'minlangan vodoprovod sistemasi utkaziladi. Paxta tolasi omborlarini tashki tomonidan uchirish uchun muljallangan gidrantlar orkali yuboriladigan suv, kichik omborlar uchun - 10 l/s; urta va katta omborlar uchun - 20 l/s va bulardan tashkari omborlar uchun - 30 l/s mikdorida xisoblanadi. Texnik- iktisodiy samaradorligi buyicha ut uchirish vodoprovodlari ikki xil - past va yukori bosimli buladi. Tukimachilik korxonalarida ishlab chikarish va xujalik-maishiy vodoprovod bilan umumlashtirilgan past bosimli vodoprovod xamda yukori bosimli vodoprovod urnatilgan. Past bosimli vodoprovod sistemasida, suv bosimi ichak uchidan ya'ni stvoldan chika Yotgan suv okimi 10 m yukorigacha kutarila olishi kerak. Bunday vodoprovodda Yongin paytida suv bosimini oshirish uchun motopompa Yoki avtonasos ishlatiladi Yuqori bosimli vodoprovod

sistemasida esa suv bosimi stsionar nasoslar orkali xosil kilinadi. Nasoslar odatda ikkitadan urnatiladi, biri ish nasosi, ikkinchisi zaxira nasosi. Bunda yana elektr nasoslaridan tashkari ish unumidorligi 1200 l/min bulgan statsionar suvnasoslar xam nazarda tutilishi kerak. Bu nasoslar Yoki motopompa fakatgina Yongin paytida ishlatiladi. Boshka paytda past bosimli vodoprovod sistemasidek ishlay beradi. Bu yukori bosimli vodoprovoda suv bosimi ob'ektdagi eng yukori binodan 10 metr balandlikka uzlusiz suv okimini uzatib bera olishi kerak. Shu bilan birga berila Yotgan suv sprisk diametri 19 mm, ichakning uzunligi 100 m gacha, suv okimining sarfi 5 l/s bulgandagi xolat xisoblanadi.

Shu shartlarda gidrantlardagi (36-rasm) kerakli suv bosimi (m) kuyidagi formula buyicha xisoblanadi:

$$h_{gidr} = h_{spr} + H_{shl} + H + t \quad (9.2)$$

Bu erda: h_{gidr} - spriskdagi bosim, m;

h_{shl} - shlangdagi suv bosimining kamayishi, m;

N - gidrant va stendrdagi suv bosimining kamayishi, m;

t - korxona binosining eng baland nuktasining balandligi, m.

Ut uchirish maksadida kullaniladigan vodoprovod sistemasi boshi berk Yoki xalkali bulishi mumkin. Korxona xududining xoxlagan eriga suvni olib borishda eng ishonchlisi xalkali sistemadir.

Yongin paytida vodoprovoddan suvni olishda unga butun uzunligi buyicha gidrant urnatiladi. Gidrantlar odatda chorraxalarga yakin erlarga, binolarning kulaganda “bosib kolish” mintakasidan uzokrok yullar buylab, ularning chetidan 2,5 m dan uzok bulmagan masofada utkaziladi. Binolardan esa N/2+3m masofada utgani ma’kul (N-binoning balandligi, m). Ular odatda bir-biridan 100 m gacha bulgan masofada urnatiladi. Korxona xududining xar bimr nuktasi ikkita gidrantdan beriladigan suv bilan ta’milanishi kerak. Bunda past bosimli vodoprovoddagi gidrantlarning ta’sir doirasi 150 m, yukori bosimli vodoprovoddagi gidrantlarning ta’sir doirasi 120 m kilib olinadi.

Gidrantlar ikki xil, ya’ni er osti va er usti gidrantlari bulishi mumkin. Rasmda kursatilgandek, er osti gidrantlari chuyan kopkok bilan Yopiladigan kuduqlar ichiga urnatiladi. Bularni ishga tushirish biroz murakkabroq, korongida xamda er yuzi kor bilan koplagan vaktlarda topish kiyinrokdir; afzalligi esa kishda kuvurladagi suv muzlab kolmaydi.

Er usti gidrantlarida suv muzlab kolishi mumkin, lekin afzal tomoni Shundaki, ular xar doim yakkol kurinib turadi va tez ishga tushirib yuborish mumkin. Tukimachilik korxonalarida er osti gidrantlari kullaniladi.

U t u c h i r i s h n i n g i ch k i v o d o p r o v o d s i s t e m a s i . Sanoat korxonalarida ichki vodoprovod jumlari ishlab chikarish sexlarida, zinapoya kataklarida, evakuatsiya kilish eshklari Yonida, maishiy binolar koridorlarida urnatiladi. Jumraklar devor Yoki ustunlarga (kolonna), erdan 1,35 m balandlikka urnatilib, Yogochedan yasalgan oynabandlangan va kizil rangda “PK” (pojarniy kran) deb Yozib kuyilgan javon ichiga urnatilgan buladi. Javoning ichiga doira shaklida urab kuyilgan uzunligi 10 Yoki 20 m li ichak va spriskining diametri 13 Yoki 16 mm bulgan stvol joylashtiriladi. Odatda bir sexda diametrleri bir xil bulgan stvollar

kullaniladi. Vodoprovod jumragining diametri 51 Yoki 61 mm bulishi va uning uchida shlang bilan tez va zinch tutashtirish imkonini beradigan GR kallagi buladi. SHlang bilan stvol xam Shunday kallak bilan tutashtiriladi. Jumraklar orasidagi masofa Shunday tanlanadiki, binoning Shu kavatidagi xar bir nukta ikki jumrak okimidan chikaYotgan suv bilan ximoyalangan bulishi kerak. Bundagi suv sarfi bino uchun ikkita jumrak baravar ishlaganda xar bir jumrakka 2,5 l/s mikdoridagi suv sarfi xisobidan olinadi. Korxona buyicha Yongin paytida buladigan suv sarfi binoni tashkaridan uchirish (gidrantlar), ichkaridan uchirish (ichki vodoprovod jumraklari), avtomatik ravishda utni uchirish (sprinkler va drencher) va boshka suv Yordamida ut uchirish vositalari orkali buladigan suv sarfi yigindisidan iborat. Umumlashtirilgan vodoprovod sistemalarida bu suv sarfiga yana xujalik maishiy xamda ishlab chikarish zarurtlari uchun ishlatiladigan suv sarfi xam kushiladi. Ichki vodoprovod tarmogining suvni pastdan va yukoridan tarkatish turlari mavjud. YUkoridan tarkatish turida magistral kuvurlar yukorigi texnik kavatda Yoki fermalar orasidagi bushilikda joylashtiriladi. Suvni pastdan yukoriga tarkatish turi ekspluatatsiyada ishonchi va keng tarkalgandir.

IV- SEMESTR

MA’RUZA № 1

YONG‘IN XAVFSIZLIGINI TA’MINLASH XIZMATI.

Reja:

1. DYoXX (Davlat Yong‘in xavfsizligi xizmati)
2. Yong‘in xavfsizligi otryadlari va qismlari

O‘zR IIVning 22 sentyabr 1993 yildagi 344-son buyrug‘i bilan tasdiqlangan «O‘zRda DYoNning ish faoliyatini tashkillashtirish to‘g‘risidagi qo‘llanmasi»ga asosan Davlat Yong‘in xavfsizligi xizmatida uch turdag'i rejalar tuziladi: yarim yillik, chorak va oylik.

Yarim yillik ish rejalar O‘zbekiston Respublikasi IIV YOXBB tomonidan tuziladi va unda xalq xo‘jaligining tarmoqlari va aholi punktlarida Yong‘in xavfsizligini ta’minlashga qaratilgan kompleks tekshirishlar va boshqa tadbirlar rejalahtiriladi.

Hududiy viloyat IIB Yong‘in xavfsizligi boshqarmalarida yarim yillik ish rejalar ishlab chiqiladi. Tuman IIB Yong‘in xavfsizligi bo‘limlari (bo‘linmalari), birikmalar va qismlarda esa chorakka mo‘ljallangan ish rejalar tuziladi. Tuman IIB YOXBlarida Yong‘inlarning oldini olish bo‘yicha inspektorlar oylik rejalar tuzishadi.

DYOXX boshqarmalari ish rejalarini tuzishni joriy yilning 10 dekabriga qadar tugatishlari kerak. Rejaga perspektiv rejadagi tadbirlar, Shuningdek, Yong‘inlar bilan bog‘liq bo‘lgan tezkor holatning tahlili natijasini hisobga olgan holda IIVning yuqori tashkilotlari tomonidan qo‘yilgan vazifalarni echishga qaratilgan tadbirlar kiritiladi.

Bo‘ysundirilgan bo‘linmalar rejadagi tadbirlarni so‘zsiz bajarishlari uchun reja nusxalarga ko‘paytiriladi va ularga bajarish uchun jo‘natiladi.

Yarim yillik va chorakka mo‘ljallangan tarmoq rejalarini ikkita asosiy bo‘limlardan iborat: rejalarashtirilgan davr ichida echilishi kerak bo‘lgan vazifalar; xalq xo‘jaligi maskanlarining Yong‘in xavfsizligini ta’minlash yuzasidan va Yong‘inlarning o‘chirishni tashkil qilishni yaxshilash bo‘yicha qilinishi kerak bo‘lgan konkret tadbirlar. Rejaning kirish qismida oldindan turgan asosiy vazifalar bilan bir qatorda respublika, viloyat, shahar Yoki tumanda Yong‘inlar bilan bog‘liq bo‘lgan tezkor holatning qisqacha tahlili ham keltiriladi. Joriy tavsifga ega bo‘lgan tadbirlar tarkib jihatdan Yong‘in xavfsizligi xizmatining asosiy Yo‘nalishlariga qarab bo‘linadi.

Mahalliy DYON idoralarining ish rejalarida shahar Yoki tumandagi davlat hokimiyati organlariga xalq xo‘jaligi maskanlarining Yong‘in xavfsizligi holati to‘g‘risida ma‘lumotlar berish masalalari ham o‘z o‘rinlarini topmog‘i kerak. Ish rejalariga Yong‘in xavfsizligiga qaratilgan ishlarni tekshirish tadbirlari va ularning sifatini hamda ta’sirchanligini oshirish masalalari ham kiritiladi. Chorakka mo‘ljallangan ish rejalarida Yong‘in xavfsizligi xizmatining shahar va tumandagi sog‘liqni saqlash, xalq ta’limi, savdo va boshqa sohalari muassasalari bilan hamkorlikda o‘tkaziladigan tadbirlar ham ko‘rsatiladi.

Mahalliy DYON bo‘linmalarining chorakka mo‘ljallangan ish rejalariga Yong‘inlarning profilaktika qilishdan tashqari yana quyidagi uchta bo‘lim kiritiladi: shahar Yoki tuman miqYosida bajarilishi maqsadga muvofiq bo‘lgan tashkiliy tadbirlar; xizmatni, tayYorgarlikni va Yong‘in o‘chirishni yaxshilashga qaratilgan tadbirlar; xo‘jalik-moliya faoliyatiga bog‘liq masalalar. Har bir tadbirning bajarilishi muddatlari va ularning bajarilishiga javobgar shaxslar ham ko‘rsatiladi.

Ish rejalarining bajarilishini nazorat qilish – har bir DYON apparatining birikma va qismlar boshliqlarining majburiyatlari hisoblanib, ularning bajarayotganligidan har kuni xabardor bo‘lib turishlari lozim.

Yarim yillik rejalar YOXBlarida tuziladi. Yarim yillik rejalariga ko‘pincha ma‘lum tashkiliy tadbirlar (tezkor vaziyatni tahlili asosida), yuqori tashkilotlar qarorlari, mavsumiy voqealarni oldindan ko‘rishlar asos bo‘ladi va bu reja bo‘lingan holda chorak va oylik rejalariga kiritiladi.

Reja qanday bo‘lmisin uni tuzishda quyidagi bosqichlardan o‘tiladi: ma‘lumotni yig‘ish va uni tahlil qilish; muammoli vaziyatni aniqlash va maqsadni shakllantirish; tanlash ro‘yxatini tuzish va undan xulosa qilish; reja variantlari ichidan eng yaxshisini tanlash va uni amalga oshirish.

Reja ko‘pincha jamoa ijodining mahsuli bo‘ladi. Uni ishlab chiqishni har xil bosqichlarida ko‘p xodimlar qatnashadilar. Misol uchun YOXBning yarim yillik ish rejasini tuzishda har bir xodim o‘z taklifini beradi, boshqarma rahbariyati esa ularni umumlashtirib avval hammasini, undan keyin rejaning oxirgi variantini tuzadi.

DYOXX (Davlat Yong‘in xavfsizligi xizmati) - O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «O‘zbekiston Respublikasida Yong‘in xavfsizligi tizimini takomillashtirish tadbirlari to‘g‘risida»gi Qaroriga asosan (2001 yil 25 iyunda 267-44-sonli Qaror bilan tasdiqlangan) u Ichki ishlar Vazirligi YOng‘indan saqlash bo‘linmalari bazasida tashkil etildi. U quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar Vazirligi YOng‘in xavfsizligi bosh boshqarmasi;
- Qoraqalpog‘iston Respublikasi Ichki ishlar Vazirligi, Toshkent shahar Ichki ishlar bosh boshqarmasi va viloyatlar Ichki ishlar boshqarmalari Yong‘in xavfsizligi boshqarmalari;
- O‘zbekiston Respublikasi IIV tumanlar (shaharlar) Ichki ishlar bo‘limlarining Yong‘in xavfsizligi bo‘limlari (bo‘linmalari);
- YOng‘in xavfsizligi otryadlari va qismlari (YOXO, YOXQ);
- Harbiylashtirilgan va kasbiylashgan Yong‘in xavfsizligi xizmatlari Yoki qismlari (HYOXX, KYOXX Yoki HYOXQ va KYOHQ).

Yong‘in – moddiy zarar etkazadigan, maxsus o‘choqdan tashqaridagi nazorat qilib bo‘lmaydigan Yonish.

YOng‘in xavfsizligi – ob‘ektning Yong‘in chiqish ehtimoli istisno bo‘lgan holati, agar Yong‘in chiqadigan bo‘lsa, unda Yong‘indagi xavfli faktorlarning odamlarga ta’sirining oldi olingan hamda moddiy boyliklarning himoyasi ta’minlangan bo‘ladi.

Yong‘in xavfsizligi qoidalari, qurilish me’Yor qoidalari Yoki shahar me’Yor qoidalari - Yong‘in xavfsizligi qoidalari respublikaga, shahar Yoki tarmoqqa oid bo‘lishi mumkin. Bu qoidalalar manfaatdor vazirliliklar tomonidan O‘zR IIV YOXBB ishtirokida ishlab chiqiladi va O‘zR IIV Yoki tarmoqqa oid vazirliliklar tomonidan tasdiqlanadi. Tarmoqqa oid qoidalalar va boshqa me’Yoriy hujjatlar O‘zR IIV YOXBB tomonidan tasdiqlanishi ham mumkin.

MA’RUZA № 2

YONG‘INDAN SAQLASH XIZMATI, UNING TURLARI, ASOSIY VAZIFALARI.

Reja:

1. Yong‘indan saqlash xizmatining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:
2. Davlat Yong‘in nazorati

Yong‘indan saqlash xizmatining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat: yong‘inlar profilaktikasini o‘tkazish va yong‘in xavfsizligi talablariga rioya qilinishi ustidan nazoratni amalga oshirish; yong‘inlarni o‘chirish, yong‘in zonasida qolgan odamlarni hamda yuridik va jismoniy shaxslarning mol-mulkini qutqarish.

YOng‘indan saqlash xizmati kuchlari va vositalarining Yong‘inlar profilaktikasi hamda Yong‘inlarni o‘chirish bilan bog‘liq →bo‘lmaidan ishlarni bajarishga jalb qilinishiga, agar qonun hujjatlarida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa, yo‘l qo‘yilmaydi.

YOng‘indan saqlash xizmati davlat, idoraviy va ko‘ngilli Yong‘indan saqlash xizmatlariga bo‘linadi.

Davlat yong‘indan saqlash xizmati yong‘indan saqlash xizmatining asosiy turidir va u Davlat Yong‘in xavfsizligi xizmati tomonidan amalga oshiriladi. Davlat yong‘in xavfsizligi xizmatining bo‘linmalari tumanlar, shaharlar va boshqaholi punktlarida, o‘ta muhim davlat ahamiyatiga molik Yoki Yong‘in va portlash xavfi yuqori bo‘lgan ob‘ektlarda belgilangan tartibda tashkil etiladi.

Davlat Yong‘in xavfsizligi xizmatining tuzilishi, vazifalari, funksiyalari, tashkil etilishi va faoliyat yuritish tartibi qonun hujjatlarida belgilanadi.

Davlat Yong‘in xavfsizligi xizmatining shaxsiy tarkibi tegishli shtat lavozimlarida turgan:

safdarlar, serjantlar va ofitserlar tarkibidan bo‘lgan shaxslarni (xodimlarni); maxsus unvonga ega bo‘lmagan shaxslarni (xizmatchilarni) o‘z ichiga oladi. Davlat Yong‘in xavfsizligi xizmatining xodimlariga nisbatan ichki ishlar organlarida xizmatni o‘tashni tartibga soluvchi nizomlar amal qiladi. Davlat Yong‘in xavfsizligi xizmatining xizmatchilariga nisbatan mehnat to‘g‘risidagi qonun hujjatlarida belgilangan qoidalar amal qiladi. Davlat Yong‘in xavfsizligi xizmatining shaxsiy tarkibi belgilangan namunadagi xizmat kiyimiga va farqlash belgilariga ega bo‘ladi.

Davlat Yong‘in xavfsizligi xizmati shaxsiy tarkibining haYoti va sog‘lig‘i davlat himoyasidadir hamda belgilangan tartibda davlat tomonidan majburiy sug‘urta qilinishi lozim.

Idoraviy Yong‘indan saqlash xizmati vakolatli organlarda va tashkilotlarda ularga qarashli ob‘ektlarning Yong‘in xavfsizligini ta‘minlash uchun tashkil etiladi. Idoraviy Yong‘indan saqlash xizmati boshqaruv organlari va bo‘linmalarining faoliyatini tashkil etish, Shuningdek shaxsiy tarkibning xizmatni o‘tash tartibi tegishli vakolatli organlar va tashkilotlar tomonidan Davlat Yong‘in xavfsizligi xizmati bilan kelishilgan holda belgilanadi.

Ko‘ngilli Yong‘indan saqlash xizmati fuqarolar va jamoat -birlashmalarining tashkilotlarda, aholi punktlari va boshqa hududlarda Yong‘in xavfsizligi chora-tadbirlarini ta‘minlashda, Yong‘inlarni o‘chirishda ishtirop etishining shaklidir. Ko‘ngilli Yong‘indan saqlash xizmati bo‘linmalari drujinalar va (Yoki) komandalar tarzida tashkil etiladi hamda tegishli ma’muriy-hududiy birlikning Yong‘in xavfsizligini ta‘minlash tizimiga kiradi. Ko‘ngilli Yong‘indan saqlash xizmati bo‘linmalarini tashkil etish va ularning faoliyat yuritish tartibi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

Idoraviy va ko‘ngilli Yong‘indan saqlash xizmati bo‘linmalari hisobga olish ro‘yxatidan o‘tkazilishi kerak. Idoraviy va ko‘ngilli Yong‘indan saqlash xizmati bo‘linmalarini hisobga olish ro‘yxatidan o‘tkazishni amalga oshirish tartibi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

Davlat yong‘in nazorati

Davlat Yong‘in nazorati vakolatli organlar, tashkilotlar, ularning mansabdor shaxslari, Shuningdek fuqarolar tomonidan Yong‘in xavfsizligi talablariga rioya qilinishini tekshirish va tekshiruv natijalari bo‘yicha chora-tadbirlar ko‘rish maqsadida amalga oshiriladigan nazoratdir. Davlat Yong‘in nazorati O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining davlat Yong‘in nazorati organlari bo‘lgan tegishli bo‘linmalari tomonidan amalga oshiriladi. O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligining, O‘zbekiston Respublikasi Milliy xavfsizlik xizmatining ob‘ektlarida, o‘rmon xo‘jaligi hududlarida, kon qazilmalari va shaxta inshootlarida, portlovchi materiallar ishlab chiqarilaYotganda, tashilaYotganda, saqlanaYotganda, ulardan

foydalanila Yotganda va ular utilizatsiya qilina Yotganda, sanoat uchun mo‘ljallangan – portlovchi materiallardan foydalangan holda portlatish ishlarini olib boruvchi tashkilotlarda, havo, suv, temir Yo‘l, avtomobil transporti hamda elektr transportidan foydalanila Yotganda davlat Yong‘in nazoratini amalga oshirish tartibi Davlat yong‘in xavfsizligi xizmati va tegishli – vakolatlari – organlar o‘rtasidagi kelishuvlar bilan belgilanadi. O‘zbekiston Respublikasining chet davlatlardagi diplomatik va boshqa vakolatxonalarida Yong‘in xavfsizligi talablariga rioya qilinishi ustidan davlat Yong‘in nazorati O‘zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi.

O‘zbekiston Respublikasida akkreditatsiya qilingan diplomatik va boshqa chet el vakolatxonali egallab turgan ob’ektlarda Yong‘in xavfsizligi talablariga rioya qilinishi ustidan –davlat Yong‘in nazorati ushbu muassasalar rasmiy vakilining O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi orqali qilgan Yozma murojaati asosida davlat Yong‘in nazorati organlari tomonidan amalga oshiriladi. Davlat Yong‘in nazorati organlari va mansabdor shaxslarining ro‘yxati, vazifalari, huquq va majburiyatları O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadigan Davlat Yong‘in nazorati to‘g‘risidagi nizom bilan belgilanadi. Idoraviy yong‘in nazorati idoraviy Yong‘indan saqlash xizmati, Shuningdek qonun hujjatlarida vakolat berilgan mansabdor shaxslar tomonidan idoralarga qarashli tashkilotlarning Yong‘in xavfsizligi talablariga rioya qilishini tekshirish va tekshiruv natijalari bo‘yicha chora-tadbirlar ko‘rish maqsadida amalga –oshiriladigan nazoratdir. Idoraviy Yong‘in nazorati vakolatli organlar tomonidan qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi. Idoralarga qarashli tashkilotlarda Yong‘in xavfsizligi talablari Yong‘in kelib chiqishiga va odamlarning xavfsizligiga tahdid soladigan tarzda buzilganligi aniqlangan taqdirda, idoraviy Yong‘indan saqlash xizmati alohida ishlab chiqarishning, ishlab chiqarish uchastkasining, agregatning ishini, binodan, inshootdan, xonadan foydalanishni, ayrim turdag'i ishlarni bajarishni to‘liq Yoki qisman to‘xtatib qo‘yish huquqiga ega.

Davlat Yong‘in xavfsizligi xizmati boshqaruv organlari hamda bo‘linmalarining, bundan tashkilotlar bilan tuziladigan –shartnomalar asosida tashkil etiladigan bo‘linmalar mustasno, moliyaviy va moddiy-texnika ta’mnoti O‘zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti mablag‘lari va qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan amalga oshiriladi.

Davlat Yong‘in xavfsizligi xizmatining tashkilotlar bilan tuzilgan shartnomalar asosida tashkil etilgan bo‘linmalarining ta’mnoti mazkur tashkilotlar mablag‘lari hisobidan amalga oshiriladi. Idoraviy va ko‘ngilli Yong‘indan saqlash xizmatining moliyaviy hamda moddiy-texnika ta’mnoti, Shuningdek shaxsiy tarkibning ijtimoiy kafolatlari va kompensatsiyalarini moliyaviy ta’minalash ularning muassisulari tomonidan o‘z mablag‘lari hisobidan amalga oshiriladi.

Yong‘in xavfsizligi to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini buzganlikda aybdor shaxslar belgilangan tartibda javobgar bo‘ladi.

MA’RUZA № 3

DAVLAT YONG‘INDAN SAQLASH XIZMATI.

Reja:

3. Davlat yong‘in nazorati organlarining turlari
4. DYON organlarining mansabdar shaxslari
5. DYON organlarining mansabdar shaxslariga berilgan huquqlar

Tayanch so‘z va iboralar: Davlat yong‘in nazorati, yong‘in xavfsizligi boshqarmasi, yong‘in-texnika komissiyalari, qonunlar, kasaba uyushmasi, tarmoq maskanlar, yong‘in xavfi, ob’ekt, yong‘in, halokat, avariya, avariya holatlari

Davlat yong‘in nazorati (DYON) quyidagilarga bo‘linadi:

Markaziy davlat yong‘in nazorati – O‘zbekiston Respublikasi IIV ning Yong‘in xavfsizligi Bosh Boshqarmasi.

Hududiy davlat yong‘in nazorati – Qoraqalpog‘iston Respublikasi IIV, viloyatlar, Toshkent shahar IIB – IIBBlarning Yong‘in xavfsizligi boshqarmalari, O‘zbekiston Respublikasi IIV axloq tuzatish ishlari bo‘yicha boshqarmasi yong‘in nazorati inspeksiyasi; transport, temir yo‘l vositalari ichki ishlar boshqarmasi yong‘in nazorati inspeksiyasi, hamda O‘zbekiston Respublikasi IIV Yong‘in xavfsizligi Bosh boshqarmasiga bevosita bo‘ysundirilgan bo‘limlar.

Mahalliy davlat yong‘in nazorati – shahar, aholi turar joylar va noxiyalar markazidagi, halq xo‘jaligi korxonalarida joylashgan harbiylashtirilgan, umumiyo‘t o‘chirish qism va otryadlari, shahar, tuman, shaharlardagi tumanlar ichki ishlar boshqarma va bo‘limlarining davlat yong‘in nazorat bo‘linmalari.

Markaziy va hududiy yong‘in nazorati ish faoliyatida iloji boricha mahalliy yong‘in nazoratining ishini kaytarmaslikka, mayda ishlar bilan shug‘ullanmaslikka qaratishlari, mahalliy yong‘in nazoratining mas’uliyatini va mustaqilligini ko‘tarishlari lozim.

Mahalliy DYON ish faoliyatini tashkiliy – metodik rahbarligini yaxshilash, ularning kasb darajasini ko‘tarish bilan bir qatorda, Qoraqalpog‘iston Respublikasi IIV, viloyat IIB va Toshkent shahri, IIBBlari Yong‘in xavfsizligi boshqarmasi Respublika halq xo‘jaligi maskanlari, shaharlar va boshqa aholi turar joylarida yong‘in xavfsizligini mustahkamlash tashkiliy masalalarini hal etishga katta e’tibor bermoq kerak.

DYON organlarining mansabdar shaxslari

O‘zbekiston Respublikasi IIV yongindan muhofaza qilish boshqarmasining boshligi lavozimiga ko‘ra bir vaqtning o‘zida O‘zbekiston Respublikasining yong‘in nazorati bo‘yicha Bosh davlat inspektori hisoblanadi, uning o‘rinbosarlari esa - O‘zbekiston Respublikasining yong‘in nazorati bo‘yicha Bosh davlat inspektorining o‘rinbosarlari hisoblanadilar.

O‘zbekiston Respublikasi IIV yong‘indan muhofaza qilish boshqarmasi bo‘limlarining boshliqlari va ularning o‘rinbosarlari O‘zbekiston Respublikasining yong‘in nazorati bo‘yicha Bosh davlat inspektorining katta yordamchilari hisoblanadilar.

O‘zbekiston Respublikasi IIV yong‘indan muhofaza qilish boshqarmasi tarkibiy bo‘linmalarining bosh mutaxassislari, bosh muhandislari, muhandislari, katta

inspektorlari, inspektorlari va xodimlari O‘zbekiston Respublikasining yong‘in nazorati bo‘yicha Bosh davlat inspektorining yordamchilari hisoblanadilar.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi IIV, viloyatlar va Toshkent shahar ichki ishlar boshqarmalari yong‘indan muhofaza qilish boshqarmalari va bo‘limlarining hamda O‘zbekiston Respublikasi IIV yong‘indan muhofaza qilish boshqarmasiga bevosita bo‘ysunuvchi yongindan muhofaza qilish bo‘limlarining boshliqlari, lavozimiga ko‘ra, bir vaqtning o‘zida Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar, shaharlar va obyektlarning yong‘in nazorati bo‘yicha Bosh davlat inspektorlari hisoblanadilar, ularning o‘rinbosarlari esa – Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahri va obyektlarning yong‘in nazorati bo‘yicha bosh davlat inspektorlarining o‘rinbosarlari hisoblanadilar.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi IIV, viloyatlar, Toshkent shahar ichki ishlar boshqarmalari yong‘indan muhofaza qilish boshqarma va bo‘limlari boshliklari va ularning o‘rinbosarlari bir vaqtning o‘zida lavozimlariga ko‘ra, Qoraqalpog‘iston Respublikasi , viloyatlar va Toshkent shahrining yong‘in nazorati bo‘yicha bosh davlat inspektorlarining katta yordamchilari hisoblanadilar.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi IIV, viloyatlar, Toshkent shahar ichki ishlar boshqarmalari yongindan muhofaza qilish boshqarma va bo‘limlari tarkibiy bo‘linmalarining bosh mutaxassislari, katta muhandislari, katta inspektorlari, muhandislari, inspektorlari va xodimlari, shaharlar, boshqa aholi punktlari va halq xo‘jaligi obyektlarini muhofaza qilish bo‘yicha harbiylashtirilgan yong‘indan muhofaza qilish otryadlari va qismlarining boshliqlari va ularning o‘rinbosarlari, O‘zbekiston Respublikasi IIV axloq tuzatish ishlari boshqarmasi, transport ichki ishlar boshqarmalari, bo‘limlarining shaharlar, tumanlar, shaharlardagi tumanlar ichki ishlar bo‘limlari Davlat yong‘in nazorati bo‘linmalari, inspeksiyalarining boshliqlari – o‘zları xizmat ko‘rsatayotgan shaharlar, tumanlar va obyektlarning yong‘in nazorati bo‘yicha katta davlat inspektorlari hisoblanadilar.

Harbiylashtirilgan yong‘indan muhofaza qilish otryadlari va qismlarining, o‘zbekiston respublikasi axloq tuzatish ishlari boshqarmasining, transport ichki ishlar boshqarmasi va bo‘limlarining shaharlar, tumanlar, shaharlardagi tumanlar ichki ishlar bo‘limlari davlat yong‘in nazorati bo‘linmalari va inspeksiyalarining katta muhandislari, katta inspektorlari, muhandislari va inspektorlari, shaharlar, boshqa aholi punktlari va halq xo‘jaligi obyektlarini muhofaza qilish bo‘yicha yong‘indan muhofaza qilish otryadlari va qismlarining boshliqlari – o‘zları xizmat ko‘rsatayotgan shaharlar, tumanlar va obyektlarning yong‘in nazorati bo‘yicha davlat inspektorlari hisoblanadilar.

DYON organlarining mansabдор shaxslariga berilgan huquqlar

Tezlikda bartaraf etilmasligi yong‘in kelib chiqishiga, yoyilishiga yoki yong‘inni o‘chirishni qiyinlashtirishga olib kelishi mumkin bo‘lgan yong‘in xavfsizligi qoidalari buzilishi aniqlangan xollarda O‘zbekiston Respublikasining yong‘in nazorati bo‘yicha Bosh davlat inspektori, uning o‘rinbosarlari, Qoraqalpog‘iston Respublikasi , viloyatlar, Toshkent shahrining yong‘in nazorati bo‘yicha bosh davlat inspektorlari va ularning o‘rinbosarlari korxonalarning ayrim ishlab chiqarishlarning ishini qisman yoki butunlay to‘xtatib qo‘yish, binolar, inshootlardan foydalanishni taqiqlash; xatti harakatlarni to‘xtatib qo‘yish yoki ishlarni bajarishga berilgan ruxsatlarni bekor qilish;

yong‘in chiqarish xavfi bo‘lgan moddalar, materiallar va buyumlarni tayyorlashni, ishlab chiqarishni va ulardan foydalanishni taqiqlash, yong‘in nazorati bo‘yicha qolgan davlat inspektorlari esa – agar bu umuman korxonaning ishdan to‘xtashiga olib kelmasa alohida binodan foydalanishni taqiqlash, ishlab chiqarish uchastkasi yoki agregat ishini to‘xtatib qo‘yish huquqiga egadirlar.

Qaysi idoraga qarashligidan va mulkchilik shaklidan qat’i nazar, vazirliklar, idoralar, konsernlar, uyushmalar, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, qo‘shma korxonalar, xorijiy firmalar va turar joylarda O‘zbekiston Respublikasi qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyat organlarining yong‘in xavfsizligi masalalari bo‘yicha amaldagi qonunlari, qarorlari, qonun hujjatlari, farmoyishlarining qanday bajarilayotganligini nazorat qilishni amalga oshirish.

Davlat tashkilotlarida istalgan vaqtida, xo‘jalik yurituvchi subyektlarda tekshirish huquqini beruvchi hujjat asosida ma’muriyat vakillari bilan birgalikda, turar joylarda esa uy egasi, kvartirani ijaraga olgan shaxsning roziligi bilan kunduz kuni yong‘inga qarshi talablar va andazalar, meyorlar va qoidalarning bajarilishini tekshirish.

O‘zbekiston Respublikasida akkreditasiya qilingan diplomatik va boshqa xorijiy vakolatxonalar egalab turgan binolar va imoratlarda yong‘in xavfsizligini ta’minlashni nazorat qilish yong‘in nazorati organlari tomonidan faqat shu muassasalarning rasmiy vakillarining iltimosi hamda yozma ruxsatnomasi asosida o‘tkaziladi.

Yong‘in xavfsizligi qoidalari, andazalar, texnik shartlar va ish tartiblari buzilganligi aniqlangan hollarda, obyekt (korxona, muassasa, inshoot, bino va boshqalar)ni qurishda, qayta qurishdan loyihamda yoki loyihalash meyorlarida nazarda tutilgan yong‘inga qarshi talablar bajarilmagan taqdirda korxonalar, muassasalar, tashkilotlarning rahbarlariga, boshqa mansabdor shaxslarga hamda fuqarolarga aniqlangan buzilishlarni bartaraf etish va yong‘inlarning oldini olish bo‘yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish to‘g‘risida yozma ko‘rsatmalar berish.

Tezlikda bartaraf etilmasligi yong‘in kelib chiqishiga, yoyilishiga yoki yong‘inni o‘chirishni qiyinlashtirishga olib kelishi mumkin bo‘lgan yong‘in xavfsizligi qoidalari buzilishi aniqlangan hollarda alohida binodan foydalanishni taqiqlash, ishlab chiqarish uchastkasi yoki agregat ishini to‘xtatib qo‘yish huquqiga egadirlar.

Yong‘in nazorati xizmatining yozma ko‘rsatmalarini va qarorlari mansabdor shaxslar va fuqarolar tomonidan bajarilishi majburiydir. Bu qaror va yozma ko‘rsatmalar o‘z vakolati doirasida ularni chiqargan yong‘in nazorati bo‘yicha inspektori yoki yong‘in nazoratining yuqori organi yoxud sud tomonidan o‘zgartirilishi yoki bekor qilinishi mumkin.

Vazirliklar, idoralar, konsernlar, uyushmalar, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, qo‘shma korxonalar va xorijiy firmalardan yong‘in xavfsizligi holatini tavsiflovchi zarur materiallarni, yong‘inlar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni, yong‘in chiqarishi mumkin bo‘lgan materiallar va mahsulotlar haqidagi texnik hujjatlarni talab qilib olish.

Vazirliklar, idoralar, konsernlar, uyushmalar, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, qo‘shma korxonalar va xorijiy firmalar tomonidan yong‘in xavfsizligi holatiga baho berish bo‘yicha ekspertizalar o‘tkazilishini, yong‘inlarning sabablarini aniqlash, texnologiyalar, foydalilaniladigan va ishlab chiqarilanadigan asbob-uskunalar, buyumlar, moddalar va materiallarning tez yonib ketishiga, ularning meyorlar, qoidalar, andazalar va texnik shartlarga muvofiqligini aniqlash bo‘yicha nazorat sinovlari

o‘tkazilishini tayinlash. Atrof-muhitni yong‘in xavfini tekshirib nazorat qilish; yong‘indan himoyalovchi tizimlarni va vositalarni tekshirish; mahsulotlarni va xizmat ko‘rsatish ishlarini yong‘in xavfsizligini sertifikatlashtirish hamda yong‘in xavfsizligini ta’minlovchi uskunalarni va mahsulotlarni yong‘in xavfini sertifikatlashni tashkillashtirish.

Korxonalar, tashkilotlar va muassasalarning mansabdor shaxslariga va ayrim xodimlariga, shuningdek yong‘in xavfsizligi qoidalarini, andazalar talablari va meyorlarini buzishda aybdor bo‘lgan yoki ularni bajarmagan fuqarolarga O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq ma’muriy jazolar berish.

Vazirliklar, idoralar, korxonalar, muassasalar, tashkilotlarning rahbarlariga andozalar, yong‘in xavfsizligi meyorlari va qoidalarini muntazam ravishda buzuvchi yoki yong‘in nazorati organlarining yozma ko‘rsatmalarini bajarmayotgan shaxslarni belgilangan tartibda egalab turgan lavozimlaridan bo‘satish to‘g‘risida taqdimnomalar kiritish.

Davlat yong‘in nazorati organlari nomidan ma’muriy huquqbazarliklar to‘g‘risidagi ishlarni ko‘rib chiqish va ma’muriy jazo qo‘llashga Davlat yong‘in nazorati organining quyidagi mansabdor shaxslari haqlidirlar:

O‘zbekiston Respublikasining yong‘in nazorati bo‘yicha Bosh davlat inspektori va uning o‘rnbosarlari:

– fuqarolarga eng kam ish haqining 5 baravarigacha, mansabdor shaxslarga esa 10 baravarigacha miqdorda;

Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahar, obyektlar yong‘in nazorati Bosh davlat inspektorlari va O‘zbekiston Respublikasi yong‘in nazorati bo‘yicha Bosh davlat inspektorining katta yordamchiları:

– fuqarolarga eng kam ish haqining 4 baravarigacha, mansabdor shaxslarga esa 8 baravarigacha miqdorda;

O‘zbekiston Respublikasining yong‘in nazorati bo‘yicha Bosh davlat inspektorining yordamchiları:

- fuqarolarga eng kam ish haqining 3 baravarigacha, mansabdor shaxslarga esa 5 baravarigacha miqdorda;

Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahri yong‘in nazorati bo‘yicha Bosh davlat inspektorining katta yordamchiları:

- fuqarolarga eng kam ish haqining 2 baravarigacha, mansabdor shaxslarga esa 3 baravarigacha miqdorda;

Xizmat ko‘rsatilayotgan shaharlar, tumanlar va obyektlarning yong‘in nazorati bo‘yicha davlat katta inspektorlari:

- fuqarolarga eng kam ish haqining 1 baravarigacha, mansabdor shaxslarga esa 2 baravarigacha miqdorda;

Xizmat ko‘rsatilayotgan shaharlar, tumanlar va obyektlarning yong‘in nazorati bo‘yicha davlat inspektorlari:

- fuqarolarga eng kam ish haqining 1/2 baravarigacha, mansabdor shaxslarga esa 1 baravarigacha miqdorda;

Ma’muriy jazo choralarini qo‘llash uchun asos ma’muriy huquqbazarlik holatini aniqlanishi, muayyan shaxs tomonidan qoidalarni buzilishi bo‘ladi. bunday holatda

ma'muriy huquqbazarlik sodir etilganligi to'g'risida bayonnomma tuzish vakolatiga ega bo'lgan mansabdor shaxs tomonidan bayonnomma tuziladi.

MA'RUZA № 4

KORXONALARDA YONG'INDAN SAQLASH XIZMATINI TASHKIL QILISH.

Reja.

1. Yong'inga qarshi kurash xizmatini tashkil qilish
2. Yong'in xavfsizligini ta'minlashni tashkil etish
3. Yong'in xavfsizligi chora-tadbirlarini ishlab chiqish va amalga oshirish

Yong'inga qarshi kurash xizmatini tashkil qilish. Ishlab chiqarish korxonalarida Yong'inga qarshi kurash ishlarini Shu korxonalarining Yong'inga xavflik darajasiga qarab, korxona ma'muriyati belgilaydi. Agar ishlab chiqarish korxonasi Yong'inga xavfli bo'lsa, unda Yong'inga qarshi kurash bo'limi tashkil qilinadi. Bunday bo'lim o'zining maxsus Yong'inga qarshi kurash komandalarini tashkil qiladi. Agar ishlab chiqarish korxonasining Yong'inga xavflik darjasini past bo'lsa, unda Yong'indan muhofaza qilish ishlarining asosiy Yo'naliishi Yong'in chiqib ketmasligini va chiqqan taqdirda ham kattalashib ketmasligini ta'minlashga qaratilgan ehtiYot chora-tadbirlari hisoblanadi.

Hozirgi vaqtida davlat Yong'inga qarshi kurash nazoratini Ichki ishlar vazirligining Yong'indan muhofaza qilish bosh boshqarmasi amalga oshiradi. Uning asosiy vazifasi ishlab chiqarish korxonalarida Yong'in va portlashga olib keladigan sabablarni Yo'qotishga qaratilgan tashkiliy va texnik chora-tadbirlarni ishlab chiqish va ularni amalga oshirishdan iborat. Bu ishlarни Yong'inga qarshi kurash inspektorlari amalga oshiradi. Ular xohlangan vaqtida sanoat korxonalarini, omborlarni bino va qurilmalarni ko'zdan kechirishi, xohlangan sanoat korxonasi yoki ayrim shaxslardan Yong'in xavfsizligiga taalluqli xujjatlar va ma'lumotlarni talab qilishi, binolarning Yong'in bo'lgan taqdirda uni tezda bartaraf qilish imkoniyatlarini beradigan Yong'inga qarshi kurashning birlamchi vositalarining tayYorligini va Shuningdek majburiy qarorlar, qoida va me'Yorlar bajarilaYotganligini tekshirishi mumkin.

Davlat Yong'inga qarshi kurash nazorati organlari Yong'in xavfsizligi qoida, me'Yor va talablarini bajarmagan va Shuningdek Yong'inga qarshi kurashning birlamchi vositalari ham Yong'inga qarshi kurashda kerak bo'ladigan asbob-anjomlarni noto'g'ri saqlagani va boshqa maqsadlarda foydalangani uchun ishlab chiqarish korxonasi rahbar xodimlariga, sex boshliqlari va boshqa javobgar shaxslarga jarima solish huquqiga ega.

Yong'in xavfsizligini ta'minlashni tashkil etish. Yong'in xavfsizligini ta'minlash tashkilotlarning mansabdor shaxslari va boshqa xodimlari, Shuningdek yakka tartibdagi tadbirkorlar faoliyatining tarkibiy qismidir. YOng'in xavfsizligini ta'minlashga doir talablar mansab Yo'riqnomalarida va boshqa Yo'riqnomalarda, zarur hollarda esa tegishli shartnomalarda aks ettirilishi kerak. Tashkilotlarning

Yong‘in xavfsizligini ta’minlash, agar tegishli shartnomada boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa, mazkur tashkilotlarning rahbarlari va ular vakolat bergen shaxslar zimmasiga yuklatiladi. Yong‘in xavfsizligini ta’minlashga doir vazifalarning vakolatli shaxslar zimmasiga yuklatilishi rahbarlarning zimmasidan mas’uliyatni soqit qilmaydi. Xususiy va davlat uy-joy fondlarining turarjoylari va boshqa binolarida Yong‘in xavfsizligini ta’minlash, agar bu mulkiy ijara (arenda) shartnomasida ko‘rsatilgan bo‘lsa, mulkdorlar Yoki ijaraga (arendaga) oluvchilar zimmasiga yuklatiladi. Aholi punktlarini rivojlantirish va ularda imorat qurishni rejalashtirish, binolar va inshootlarni loyihalashtirish, qurish, kengaytirish, rekonstruksiya qilish hamda texnik jihatdan qayta jihozlash chog‘ida Yong‘in xavfsizligini ta’minlash –tegishinchha shaharsozlik faoliyati sohasidagi maxsus vakolatli davlat organi, buyurtmachilar, imorat quruvchilar, loyiha va –qurilish tashkilotlari zimmasiga yuklatiladi.

Yong‘in xavfsizligi sohasida normativ jihatdan tartibga solish Yong‘in xavfsizligi sohasida normativ jihatdan tartibga solish ijro etilishi shart bo‘lgan Yong‘in xavfsizligi talablarining vakolatli organlar tomonidan normativ-huquqiy hujatlarda, Shuningdek normativ hujatlarda belgilanishidir. Vakolatli organlar tomonidan tasdiqlanadigan Yong‘in xavfsizligi talablarini o‘z ichiga olgan normativ-huquqiy hujatlar, Shuningdek normativ hujatlar Davlat Yong‘in xavfsizligi xizmati bilan kelishib olinishi kerak.

Yong‘in xavfsizligi chora-tadbirlarini ishlab chiqish va amalga oshirish. Yong‘in xavfsizligi chora-tadbirlari yong‘in xavfsizligini - ta’minlashga, Shu jumladan yong‘in xavfsizligi talablarini bajarishga doir harakatlardir. Yong‘in xavfsizligi chora-tadbirlari yong‘in xavfsizligi to‘g‘risidagi qonun hujatlariga, yong‘in xavfsizligi sohasidagi normativ hujatlarga muvofiq, Shuningdek yong‘inlarga qarshi kurashish tajribasi, moddalar, materiallar, texnologik jarayonlar, buyumlar, konstruksiyalar, asbob-uskunalar, binolar va inshootlarning Yong‘in xavfliligiga baho berish asosida ishlab chiqiladi. Moddalar, materiallar, buyumlar, konstruksiyalar va asbob-uskunalarni ishlab chiqaruvchilar (etkazib beruvchilar) mazkur moddalar, materiallar, buyumlar, konstruksiyalar va asbob-uskunalarning Yong‘in xavfliligi ko‘rsatkichlarini, Shuningdek ulardan foydalanishda qo‘llaniladigan Yong‘in xavfsizligi chora-tadbirlarini tegishli texnik hujatlarda ko‘rsatishi kerak. Tashkilotlar, binolar, inshootlar va boshqa ob‘ektlar uchun Yong‘in xavfsizligi chora-tadbirlarini ishlab chiqishda va amalga oshirishda, Shu jumladan ular loyihalashtirilayotganda yong‘inlar chog‘ida odamlarning evakuatsiya qilinishini hamda yuridik va jismoniy shaxslarning mol-mulki saqlab qolinishini ta’minlovchi echimlar nazardautilishikerak. Aholi punktlari va boshqa hududlar uchun Yong‘in xavfsizligi chora-tadbirlari tegishli mahalliy davlat hokimiysi organlari tomonidan ishlab chiqiladi hamda amalga oshiriladi. Yong‘inlarni o‘chirish odamlarning haYotini asrab qolish hamda sog‘lig‘ini saqlash, yuridik va jismoniy shaxslarning mol-mulkini, atrof tabiiy muhitni asrash hamda Yong‘inlarni bartaraf etish harakatlaridan iboratdir. YOng‘indan saqlash xizmati bo‘linmalari tomonidan

Yong‘inlarning o‘chirilishini tashkil etish tartibini Davlat Yong‘in xavfsizligi xizmati belgilaydi. Davlat Yong‘in xavfsizligi xizmati boshqaruv organlari va bo‘linmalarining Yong‘indan saqlash xizmatining boshqa turlari, vakolatlari organlar, avariya-ta’mirlash xizmatlari va o‘zga xizmatlar bilan Yong‘inlarning o‘chirilishini tashkil etishni ta’minlashga doir hamkorligi keliShuvar bilan tartibga solinadi.

Davlat Yong‘in xavfsizligi xizmati bo‘linmalarining kuchlari va vositalarini favqulodda vaziyatlar oqibatlarini bartaraf etishga jalb qilish tartibi favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish to‘g‘risidagi qonun hujjatlari bilan belgilanadi. Yong‘inlarni o‘chirish uchun Yong‘indan saqlash xizmati bo‘linmalarining kuchlari va vositalarini jalb qilishning mintaqalararo hamda mahalliy darajalardagi rejalari mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan tasdiqlanadi. Yong‘inlar to‘g‘risidagi xabarlarni qabul qilish uchun, aholi -punktlarining telefon tarmoqlarida yagona raqam 101 o‘rnataladi. Yong‘in kelib chiqqanligi to‘g‘risidagi xabarni olgach, Davlat Yong‘in xavfsizligi xizmati bo‘linmalari Yong‘in joyiga darhol jo‘nab ketishi shart. Zarur hollarda, Yong‘inlarni o‘chirish chog‘ida Yong‘in kuchayishining (tarqalishining) hamda Yong‘in bilan bog‘liq bo‘lgan, odamlarga, yuridik va jismoniy shaxslarning mol-mulkiga, atrof tabiiy muhitga tahdid soluvchi xavfli omillarning oldini olish uchun: Yong‘inlar tarqalgan (tarqalish ehtimoli bo‘lgan) va xavfkeltirib chiqaradigan joylarga kirib borishga doir; Yong‘inlarning kuchayishiga (tarqalishiga) to‘sinqlik qiladigan va ularni bartaraf etishni ta’minlaydigan sharoitlarni yaratishga doir; tashkilotlar va fuqarolarda mavjud bo‘lgan aloqa, transport vositalaridan, asbob-uskunalardan, yong‘inni o‘chirish vositalari va olovni o‘chirish moddalaridan keyinchalik o‘rni belgilangan tartibda qoplanishi sharti bilan foydalanishga doir; tegishli xizmatlarni jalb etgan holda jamoat tartibini -ta’minlash, yong‘inlar o‘chirilayotgan joylarni qo‘riqlash (Shu jumladan Yong‘inlarning kelib chiqish va kuchayish (tarqalish) sabablarini, sharoitlarini tekshirish chog‘ida), yo‘l harakatini tartibga solish, evakuatsiya qilish va yong‘in kelib chiqqan joyda boshqa tadbirlarni amalga oshirishga doir harakatlar bajariladi. YOng‘indan saqlash xizmati bo‘linmalari yong‘inlarni o‘chirish, yong‘inlar va avariyalarning kelib chiqishi hamda kuchayishining (tarqalishining) oldini olish bilan bog‘liq zarur ishlarni amalga oshirishda Yong‘inni o‘chirish maqsadi uchun tabiiy va sun‘iy suv manbalaridan suv bilan bepul ta’minlanadi. Asosli tavakkalchilik doirasida harakat qilgan Davlat yong‘in xavfsizligi xizmatining shaxsiy tarkibi va Yong‘inni o‘chirishda qatnashgan boshqa ishtirokchilar etkazilgan zararning o‘rnini qoplashdan ozod qilinadi.

Yong‘inni o‘chirishni boshkarish va rahbarlik qilish

Yong‘inni o‘chirishga rahbarlik qilish yong‘in joyiga etib kelgan yong‘indan saqlash xizmatining katta tezkor mansabdor shaxsi (bundan buyon matnda yong‘inni o‘chirish rahbari deb yuritiladi) tomonidan amalga oshiriladi, u Yong‘inni o‘chirish harakatlarini bajarishda ishtirok etayotgan yong‘indan saqlash xizmatining shaxsiy tarkibini, Shuningdek Yong‘inni o‘chirishga jalb etilgan kuchlar va vositalarni yakkaboshchilik prinsipi asosidaboshqaradi. yong‘inni o‘chirish rahbari vazifalarning bajarilishi, -yong‘inni o‘chirish harakatlarini bajarishda ishtirok etayotgan yong‘indan saqlash xizmati shaxsiy tarkibining hamda yong‘inni o‘chirishga jalb etilgan kuchlar va vositalarning xavfsizligi uchun javob beradi.

Yong‘inni o‘chirish rahbari yong‘inni o‘chirish harakatlari amalga oshirilayotgan hudud chegaralarini, mazkur harakatlarni bajarishning tartibini va o‘ziga xos jihatlarini belgilaydi, Shuningdek yong‘in chog‘ida odamlarni, yuridik va jismoniy shaxslarning mol-mulkini qutqarish bo‘yicha qarorlar qabul qiladi. Zarur hollarda, yong‘inni o‘chirish rahbari boshqa qarorlar, Shu jumladan Yong‘inni o‘chirish harakatlari amalga oshirilayotgan hududdagi yuridik va jismoniy shaxslarning huquqlarini cheklaydigan qarorlar qabul qilishga haqli. Yong‘inni o‘chirish rahbarining ko‘rsatmalari yong‘inni o‘chirish harakatlari amalga oshirilayotgan hududdagi barcha tashkilotlar va fuqarolarning ijro etishi uchun majburiydir. Yong‘in o‘chirila Yotganda yong‘inni o‘chirish rahbarining harakatlariga aralashishga yoki uning farmoyishlarini bekor qilishga hech kim haqli emas.

Yong‘in xavfsizligi sohasida ishlarni bajarish va xizmatlar ko‘rsatish

Yong‘in xavfsizligi sohasidagi ishlar va xizmatlar yong‘in -xavfsizligi talablarini amalga oshirish, Shuningdek yong‘inlar profilaktikasini ta’minlash va Yong‘inlarni o‘chirish maqsadida bajariladi hamda ko‘rsatiladi. Yong‘in xavfsizligi sohasidagi ishlar va xizmatlar jumlasiga quyidagilar kiradi:

- yong‘inxavfsizligi sohasi mutaxassislarini tayyorlash, qayta tayyorlash, ularning malakasini oshirish;
- aholiga yong‘in xavfsizligi chora-tadbirlarini qo‘llashni o‘rgatish;
- yong‘inga qarshi targ‘ibot ishlarini amalga oshirish;
- ilmiy-texnik maslahatlar berish vaekspertizalar o‘tkazish;
- tashkilotlarni, aholi punktlari vaboshqa hududlarni yong‘inlardan muhofaza qilish;
- Yong‘in-texnik mahsulotini ishlab chiqarish, sinovdan o‘tkazish, xarid qilish vaetkazib berish;
- moddalar, materiallar, buyumlar, konstruksiyalar vaasbob- uskunalarni yong‘inxavfsizligi jihatidan sinovdan o‘tkazish;
- loyiha, tadqiqotishlarini bajarish;
- olovdan himoya qilish vapest-mo‘rikon ishlarini bajarish;
- Yong‘inga qarshi himoya tizimlari vavositalarini montaj qilish, ularga texnik xizmat ko‘rsatish hamda ularni ta’mirlash;
- Yong‘inga qarshi aslaha-anjomlarni, yong‘inni o‘chirishning birlamchi vositalarini ta’mirlash vaularga xizmat ko‘rsatish, olovni o‘chirish moddalarining sifatini tiklash.

Yong‘in xavfsizligi sohasidagi ishlar va xizmatlar jumlasiga qonun hujjatlariga muvofiq boshqa ishlar va xizmatlar ham kiritilishi mumkin.

MA’RUZA № 5

KO‘NGILLI O‘T O‘CHRVUCHILAR VA YOSH O‘T O‘CHRVUCHILAR DRUJINALARNI TASHKIL QILISH

Reja

1. Ko‘ngilli o‘t o‘chrvuchilar va yosh o‘t o‘chrvuchilar drujinalarni tashkil qilish

2. Ko‘ngilli o‘t o‘chiruvchilar drujinasining vazifalari
3. Yosh o‘t o‘chiruvchilar drujinalari to‘g‘risida NIZOM

Tayanch so‘z va iboralar: yong‘in-texnika komissiyalari, qonunlar, kasaba uyushmasi, tarmoq maskanlar, brigada, yong‘in xavfi, ob‘ekt, yong‘in-taktik mashqi, shaxsiy tarkib, drujinalar, ob‘ekt.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan 2013 yil 28 martda “Ko‘ngilli o‘t o‘chiruvchilar drujinalari, yosh o‘t o‘chiruvchilar drujinalari, o‘t o‘chirish-texnika komissiyalari to‘g‘risidagi nizomlarni tasdiqlash” to‘g‘risida qaror qabul qilingan.

I.Umumiy qoidalar

1. Yong‘inlarning oldini olish va o‘chirish ishlarini tashkil etish uchun, mulkchilik shakllaridan qat‘i nazar, sanoat korxonalari, muassasalar, tashkilotlar va boshqa ob‘ektlarda ishchilar, muhandis-texnik xodimlar va xizmatchilardan iborat ko‘ngilli o‘t o‘chiruvchilar drujinalari tashkil etiladi.

2. Ob‘ektlarda, idoraga qarashli yong‘indan saqlash xizmati borligidan qat‘i nazar, ko‘ngilli o‘t o‘chiruvchilar drujinalari tuziladi.

3. Ko‘ngilli o‘t o‘chiruvchilar drujinalari faoliyatini nazorat qilish va muvofiqlashtirish davlat yong‘in nazorati organlariga, ular ishchilar va xizmatchilar orasida ommaviy tushuntirish ishlarini olib borganlarida esa korxonalar, muassasalar va tashkilotlar rahbarlari zimmasiga yuklanadi.

4. Ko‘ngilli o‘t o‘chiruvchilar drujinalari 15 nafardan ortiq doimiy ishlovchisi bo‘lgan ob‘ektda tashkil etiladi.

5. Ko‘ngilli o‘t o‘chiruvchilar drujinalari ob‘ektning kattaligi, tuzilmasi va mahalliy o‘ziga xos xususiyatlariga qarab umum-ob‘ektga yoki sex bo‘yicha (ob‘ektda bir nechta) bo‘lishi mumkin.

6. Umumob‘ekt o‘t o‘chirish drujinasi, zarur bo‘lgan hollarda, ob‘ektning sexlarida, omborxonalarida va boshqa bo‘linmalarida bo‘limlarga ajratiladi, ular ish smenalarining soniga qarab tashkil etiladi.

7. Sex ko‘ngilli o‘t o‘chiruvchilar drujinalari ham ishchi smenalarining soniga qarab bo‘lim (jangovar guruh)larga bo‘linadi.

8. Umumob‘ekt (ob‘ekt) ko‘ngilli o‘t o‘chiruvchilar drujinasi boshlig‘i ko‘ngilli o‘t o‘chiruvchilar drujinalari a‘zolarining umumiy yig‘ilishida ochiq ovoz berish yo‘li bilan saylanadi, davlat yong‘in nazoratining mahalliy organlari bilan kelishib olinadi va ob‘ekt (korxona) rahbarining buyrug‘i bilan tasdiqlanadi.

9. Ko‘ngilli o‘t o‘chiruvchilar drujinalari boshliqlari, ularning o‘rinbosarlari va bo‘linma (jangovar guruh)larning boshliqlari ko‘p hollarda ob‘ekt (sex) rahbari tomonidan sex ma’muriyati xodimlaridan tayinlanadilar.

II. Ko‘ngilli o‘t o‘chiruvchilar drujinasining vazifalari

10. Ko‘ngilli o‘t o‘chiruvchilar drujinasiga quyidagilar yuklanadi:

a) ob‘ektda yong‘inga qarshi tartib-qoidalarning qanday bajarilayotganini va unga qanday rioya etilayotganini nazorat qilishni amalga oshirish;

b) ishchilar va xizmatchilar o‘rtasida ob‘ektda yong‘inga qarshi tartib-qoidalarga rioya qilish bo‘yicha tushuntirish ishlari olib borish;

v) o‘t o‘chirish texnikasining, o‘t o‘chirish dastlabki vositalarining soz va jangovar holatdaligini nazorat qilish;

g) yong‘in chiqqan hollarda o‘t o‘chirish komandasini chaqirish va odamlarni xavfli joydan ko‘chirish hamda ob‘ektdagi mavjud o‘t o‘chirish vositalari bilan yong‘inni o‘chirishga oid shoshilinch choralar ko‘rish;

d) zarur bo‘lgan hollarda ko‘ngilli o‘t o‘chiruvchilar drujinasini a’zolarining o‘t o‘chiruvchi mashinalarda, motopompalarda va o‘t o‘chirishning boshqa ko‘chma va turg‘un vositalarining jangovar guruuhlaridagi ishlarda qatnashish, shuningdek, o‘ta zarur hollarda, sexlar va boshqa ob‘ektlarda navbatchilikda turish;

e) ob‘ektning yong‘in-texnika komissiyasi va yong‘inlarni aniqlash, oldini olish hamda o‘t o‘chirishning yangi usullarini joriy etuvchi davlat yong‘in nazoratining mahalliy organlari bilan o‘zaro birgalikda harakat qilish.

III. Ko‘ngilli o‘t o‘chiruvchilar drujinasini tashkil etish va uning ish tartibi

11. Ko‘ngilli o‘t o‘chiruvchilar drujinasining soni ob‘ekt (sex) rahbari tomonidan belgilanadi, lekin u 4 kishidan kam bo‘lmasligi kerak.

12. Ko‘ngilli o‘t o‘chiruvchilar drujinalari ixtiyoriylik asosida ob‘ekt (sex) ishchilarini va xizmatchilaridan tashkil etiladi.

Ko‘ngilli o‘t o‘chirish drujinasini a’zoligiga 18 yoshga to‘lgan shaxslar qabul qilinadi.

Ko‘ngilli o‘t o‘chirish drujinasiga kiruvchi barcha shaxslar ob‘ekt rahbari nomiga yozma holda ariza berishlari lozim.

Ko‘ngilli o‘t o‘chiruvchilar drujinasini tarkibiga qabul qilish va ushbu tarkibdagi keyingi o‘zgartirishlar ob‘ekt (sex) bo‘yicha buyruq bilan e‘lon qilinadi,

13. Quyidagi hollarda ko‘ngilli o‘t o‘chiruvchilar drujinasini a’zoligidan chiqarish amalga oshiriladi:

a) yong‘inga qarshi tartib-qoidani buzganlik uchun;

b) o‘ziga yuklatilgan vazifalarni vijdonan bajarmaganlik uchun;

v) drujina boshlig‘ining qonuniy talablarini bajarmaganlik uchun;

g) ob‘ekt rahbariga o‘z xohishiga ko‘ra ishdan bo‘shash haqida ariza berish yo‘li bilan.

14. Yong‘in chiqqan hollarda ko‘ngilli o‘t o‘chiruvchilar drujinasini a’zolarining harakatlari to‘g‘risidagi jangovar guruh tabeli sexning ko‘rinadigan joyiga osib qo‘yiladi.

Har bir ko‘ngilli o‘t o‘chiruvchi drujina va bo‘limga yong‘in chiqish hollari yoki avariya holati uchun jangovar guruh tabeli ishlab chiqiladi.

15. Ko‘ngilli o‘t o‘chiruvchilar drujinasini a’zolari bilan o‘quv mashg‘ulotlari ob‘ekt (sex) rahbari tomonidan tasdiqlangan jadvalga ko‘ra, ishdan bo‘sh vaqtarda, oyiga ko‘pi bilan 4 soat o‘tkaziladi.

16. Ko‘ngilli o‘t o‘chiruvchilar drujinasini a’zolarini ishdan tashqari vaqtida yong‘in soqchiligi bo‘yicha navbatchilikka jalb qilish tartibi ob‘ekt rahbari va davlat yong‘in nazoratining mahalliy organlari tomonidan belgilanadi.

IV. Ko‘ngilli o‘t o‘chiruvchilar drujinasini boshlig‘i va uning o‘rinbosarlarining vazifalari

17. Ko‘ngilli o‘t o‘chiruvchilar drujinalarining boshlig‘i:

- a) ob'ekt (sex)dagi yong'inga qarshi tartib-qoidalarga qanday rioya etilayotganini nazorat qilishni amalga oshirishga;
- b) ob'ekt (sex)dagi mavjud barcha dastlabki o't o'chirish vositalarining ishga tayyorligini muntazam ravishda tekshirib borish va ulardan boshqa maqsadlarda foydalanishga yo'l qo'ymaslikka;
- v) ishchilar va xizmatchilar o'rtasida yong'in xavfsizligi chora-tadbirlari to'g'risida tushuntirish ishlarini olib borishga;
- g) ko'ngilli o't o'chiruvchilar drujinasi shaxsiy tarkibi bilan mashg'ulotlar o'tkazishga (ayrim hollarda mashg'ulot o'tkazish uchun ob'ektning idoraga qarashli yong'in soqchiligi jalb qilinishi mumkin);
- d) ko'ngilli o't o'chiruvchilar drujinasi bo'linmalari boshliqlari ishiga rahbarlik qilishga va sex jangovar guruhalining ishga tayyorligini tekshirishga;
- e) ob'ekt (sex)da o't o'chirish qismlari etib kelgunga qadar yong'inni o'chirishga rahbarlik qilishga;
- j) ob'ekt (sex) rahbariyatini yong'inga qarshi tartib-qoidalalar buzilgani to'g'risida xabardor qilishga;
- z) yong'in nazorati davlat inspektorlari ko'rsatmasiga ko'ra davlat yong'in nazorati yozma topshiriqlarining bajarilishini nazorat qilishga;
- i) avariya holatlari ro'y berganda ko'ngilli o't o'chiruvchilar drujinasi a'zolarining navbatchiligini tashkil etish va portlash yoki yong'in chiqish xavfi bartaraf etilgunga qadar shaxsan rahbarlik qilishga majburdir,

18. Ob'ekt (sex)da ko'ngilli o't o'chiruvchilar drujinasining boshlig'i bo'limgan vaqtarda drujina boshlig'ining o'rribosarlari o'z ish smenalarida uning barcha vazifalarini bajaradilar.

V. Ko'ngilli o't o'chiruvchilar drujinasi boshlig'i va uning o'rribosalarining huquqlari

- 19. Ko'ngilli o't o'chiruvchilar drujinasi boshlig'i quyidagi huquqlarga egadir:
- a) ob'ekt rahbaridan o'ziga yuklangan vazifalarni bajarmagan shaxslarni ko'ngilli o't o'chiruvchilar drujinasi a'zoligidan ozod etish to'g'risida iltimos qilish;
- b) yong'in xavfsizligi qoidalari buzilganligi to'g'risida bayonnomma tuzish va uni chora ko'rish uchun davlat yong'in nazorati organlariga albatta berish;
- v) ob'ekt (sex)da yong'inga qarshi tartib-qoidalarni yaxshilash yuzasidan og'zaki yoki yozma shaklda tavsiyalar berish;
- g) portlash yoki yong'in chiqishiga sabab bo'luvchi yong'in xavfi bo'lgan ishlarni va boshqa ishlarni, ular ob'ekt ma'muriyati yoki davlat yong'in nazoratining mahalliy organlari tomonidan ko'rib chiqilgunga qadar, o'tkazishni taqiqlash.

VI. Ko'ngilli o't o'chiruvchilar drujinasi bo'linmasi boshlig'ining majburiyatları

20, Ko'ngilli o't o'chiruvchilar drujinasi bo'linmasi (jangovar guruhi)ning boshlig'i:

- a) yong'inga qarshi tartib-qoidaga rioya qilinishini va sexda hamda o'z smenasida o't o'chirish vositalarining doim tayyor bo'lishini kuzatib turishga;
- b) smena ishni tugatishi bilan sexning yong'inga qarshi holatini tekshirish, aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish chora-tadbirlarini ko'rish va ko'ngilli o't o'chiruvchilar drujinasi bo'limi (sexlar bir qancha smenalarda ishlaganda)ning ishga kirishuvchi boshlig'iga sex o't o'chirish vositalarini topshirishga;

- v) ishga kirishishda ko‘ngilli o‘t o‘chiruvchilar drujinasi bo‘linmasi a’zolarining borligini jangovar guruh tabeli bo‘yicha tekshirishga;
- g) mashg‘ulotlarga ko‘ngilli o‘t o‘chiruvchilar drujinasi a’zolarining to‘liq kelishini ta’minalashga;
- d) bo‘limdagi ko‘ngilli o‘t o‘chirish drujinasi a’zolarining o‘zlariga yuklangan vazifalarni bilishlarini tekshirish;
- e) sexda yong‘in chiqqanda, o‘t o‘chirish sexlari va ko‘ngilli o‘t o‘chiruvchilar drujinasi boshlig‘i kelgunga qadar, yong‘inni o‘chirishga rahbarlik qilishga;
- j) ko‘ngilli o‘t o‘chiruvchilar drujinasiga yangi kirganlarga yong‘in xavfsizligi qoidalari bo‘yicha ko‘rsatmalar berishga majburdir.

VII. Ko‘ngilli o‘t o‘chiruvchilar drujinasi a’zolarining majburiyatları

21. Ko‘ngilli o‘t o‘chiruvchilar drujinasi a’zolari:
- a) sexdag'i va ish o‘rnidagi yong‘inga qarshi tartib-qoidalarni bilishlari, unga rioya etishlari va buni boshqalardan ham talab qilishlari;
 - b) jangovar guruh bo‘yicha o‘z vazifalarini bilishlari va yong‘in chiqqan hollarda uni o‘chirishda faol qatnashishlari;
 - v) sexda mavjud bo‘lgan o‘t o‘chirish texnikasi va dastlabki o‘t o‘chirish vositalarining ishga tayyorligini kuzatib borishlari va barcha aniqlangan nosozliklar to‘g‘risida ko‘ngilli o‘t o‘chiruvchilar drujinasi bo‘linmasi boshlig‘iga axborot berishlari;
 - g) yong‘inga qarshi kamchiliklarni bartaraf etish uchun chora-tadbirlar ko‘rishlari;
 - d) drujina a’zolariga yuklangan majburiyatlarni, drujina (bo‘linma) boshlig‘ining farmoyishlarini bajarishlari, jadvalda nazarda tutilgan mashg‘ulotlarga qatnashishlari va o‘zlarining yong‘in-texnikaga oid bilimlarini oshirishlari kerak.

VIII. Ko‘ngilli o‘t o‘chiruvchilar drujinasini mablag‘ bilan ta’minalash

22. Ko‘ngilli o‘t o‘chiruvchilar drujinalarini mablag‘ bilan ta’minalashga doir barcha xarajatlar ular tashkil etiladigan ob‘ektlar hisobidan amalga oshiriladi.

23. O‘t o‘chirish avtomobilari va motopompalardagi jangovar guruhlar tarkibiga kiruvchi ko‘ngilli o‘t o‘chiruvchilar drujinalari a’zolari korxonalar, muassasalar va tashkilotlar hisobidan maxsus kiyim-boshlar to‘plami (brezent kurtkalar, shimplar va qo‘lqoplar, paxtalik nimchalar va shimplar) hamda charm yoki kirza etiklari bilan, harbiylashtirilgan o‘t o‘chiruvchilar qismlari uchun belgilangan muddatga, ta’minalanadilar.

24. Ko‘ngilli o‘t o‘chiruvchilar drujinalari a’zolarining ish vaqtida yong‘inni o‘chirish yoki avariyanı bartaraf etishda qatnashgan paytdagi mehnatiga haq to‘lash mehnat qonunchiligi normalariga muvofiq ishlab chiqarishdagi o‘rtacha oylik ish haqi hisobidan amalga oshiriladi.

25. Korxonalar, muassasalar va tashkilotlar hisobiga ko‘ngilli o‘t o‘chiruvchilar drujinalarining butun shaxsiy tarkibi yong‘in yoki avariyanı bartaraf etish ishlari natijasida sodir bo‘lgan o‘lim yoki shikastlanish hollari uchun har bir drujina a’zosiga 50 (ellik)ta eng kam oylik ish haqi miqdorida sug‘urta qilinadi, bunda jabrlanuvchiga etkazilgan zarar O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1994 yil 1 fevraldagi 48-son qarorida nazarda tutilgan miqdorlarda qoplanadi.

26. Ko‘ngilli o‘t o‘chiruvchilar drujinasining eng faol a’zolari davlat yong‘in nazorati hududiy va mahalliy organlarining iltimosiga binoan korxona tomonidan mukofotlanishlari mumkin.

Vazirlar Mahkamasining
1995 yil 29 iyundagi 243-son qaroriga
2-ILOVA

MA’RUZA № 6
YONG’INGA QARSHI YO’RIQNOMA.

Yong`in xalq xo`jaligiga moddiy zarar keltiradi. Bir necha minut yoki soat ichida juda katta miqdordagi xalq boyliklari yonib, kulga aylanadi. Yong`in vaqtida ajralib chiqadigan tutun, karbonat angidrid va boshqa zararli hid hamda gazlar atmosferaga ko`tarilib, havoning tarkibini buzadi. Bundan tashqari, kishilarning jarohatlanishiga, hatto o`limiga sabab bo`ladi. Bularning hammasi, yong`inga qarshi kurash tadbirlari va ishlarning xavfsiz bajarish usullarini mehnat muhofazasi bilan birgalikda o`rganishni taqozo qiladi.

Hozirgi paytda respublikamiz to`qimachilik korxonalarida yong`in havfini kamaytirish borasida bir qator ishlar amalga oshirilgan. Xususan, korxonalarda yong`in chiqish xavfi kamaytirilgan va butunlay xavfsiy ishlaydigan elektr uskunalari ishlatilmoqda. O‘t o‘chirishning mexanizatsiyalashgan va avtomatlashgan tizimlari tobora kengroq qo`llanilmoqda.

Lekin yong`in chiqishining oldini olish va o‘t o‘chirishda asosiy ma’suliyat kishilar zimmasiga tushishini hamda ularning yong`inni o‘chirish texnikasining barcha talablarini to`liq bajarilishiga bog`liq ekanligini unutmaslik kerak. To`qimachilik korxonalarida bu tadbirlar tartibli ravishda, yong`in texnikasi haqidagi nizom, yong`in xavfsizligi qoidalari, yo`riqnomasi va boshqa hujjatlar asosida olib borilishi shart.

Respublikamizning har bir fuqarosi jamoat va davlat mulkini ko‘z qorachig`iday saqlashi, asrab avaylashi, uni boyitish haqida qayg`urishi va o‘t o‘chirish tadbirlari keng jamoatchilikka suyangan holda, sexlardagi har bir ishchining ishtirokida olib boriladi. Yong`in muhofazasini tashkil qilish kasbiy va ixtiyoriy turlarga bo`linadi.

Kasbiy yong`in muhofazasi o‘z navbatida, harbiylashtirilgan (yirik shahar va muhim obektlarga xizmat ko`rsatadi), harbiylashtirilmagan (tuman markazlari va

yirik sanoat obektlariga xizmat ko`rsatadi va tarmoq (ayrim birlashma va korxonalarga xizmat ko`rsatadi) turlariga bo`linadi. Yirik sanoat korxonalarida kasbiy yong`in qismlari tashkil qilinadi. QM va Q 11-8980 «Sanoat korxonalarining bosh rejalar» ga asosan ishlab chiqarishning yong`in xavfi bo`yicha A, B va V toifalari uchun (to`qimachilik korxonalarini V toifasiga mansub) kasbiy yong`in qismlarining xizmat ko`rsatish radiusi 2 km. dan oshmasligi kerak. Bu qismlar odatda korxona hududidan tashqariga joylashtiriladi.

Yong`in xavfi kam bo`lgan hamda kichikroq korxona muassasalarda yong`in muhofazasi va obektni qo`riqlash xizmati birgalikda qo`shib olib boriladi. To`qimachilik korxonalarida yong`in muhofazasini tashkil qilish va yong`in chiqishini ogohlantirish o`t o`chirish texnikasini hamda quollarini aloqa va o`chirish vositalarini jangovar holatda saqlash, yong`in chiqqan taqdirda ularni o`chirishda faol qatnashish, xalq mulkini asrab-avaylab saqlash borasida targ`ibot va tashviqot ishlarini olib borishni taqozo qiladi.

Korxona, muassasa va tashkilotlarda yong`in xavfsizligini ta'minlash ishini tashkil qilish. Ishchilar, xizmatchilar va muxandis-texnik xodimlarning ko`pchiligi jalg etilgandagina korxona, muassasa hamda tashkilotlarda yong`inga qarshi muvaffaqiyatli kurash olib borish mumkin. Buning uchun har bir ob'ektda yong`in texnik komissiyasi tuziladi. Komissiyaga bosh muhandis, texnik rahbar yoki rahbarning birinchi o`rnbosari boshchilik qiladi, ularning vazifasi quyidagilardan iborat:

- yong`inni oldini olish qoidalarining buzilishlarini va yong`in chiqishiga olib keluvchi kamchiliklarni aniqlash, ularni bartaraf etish tadbiralarini ishlab chiqish;
- ob'ektiv yong`inning oldini olish tartibini ishlab chiqish va ularni o`tkazishda qatnashish;
- ishchi xizmatchilar va muhandis-texnik xodimlar o`rtasida yong`inning oldini olish tartibi hamda qoidalari bo`yicha ommaviy tushuntirish ishini olib borish.

Bu vazifalarni bajarish uchun yong`in texnik-komissiyasi ishlab chiqarish xonalari, elektr jihozlari, shamollatish, isitish tizimlari va shu kabilarni ko`zdan kechirib, qoida buzilishlarini aniqlaydi hamda ularni bartaraf etish muddatlarini belgilaydi;

ishlovchilar o`rtasida yong`inning oldini olish mavzularida suhbatlar, lektsiyalar o`tkazadi; ratsionalizatorlar hamda ixtirochilar uchun mavzular ishlab chiqishda qatnashadi; sexlar, bo`limlar, omborxonalar, laboratoriylar va hokazolarning yong`inga qarshi holatini tekshirishga keng jamoatchilikni jaib etadi.

Ipakchilik sanoati korxonalaridagi yong`in muhofazasiga quyidagi vazifalar yuklatiladi:

- har kun iyong`inning oldini olishni amalga oshirish;
- yong`in chiqishiga yo`l qo`ymaydigan tadbirlarni ishlab chiqish;
- ishchi-xizmatchilar, muhandis-texnik xodimlarga yong`inga qarshi kurash yuzasidan yo`l-yo`riqlar berish va ular bilan mashg`ulotlar o`tkazish;
- Hamma o`t o`chirish tizimlari va qurilmalari hamda yong`in, aloqa va signalizatsiya vositalarining holatini nazorat qilish;
- qo`riqlanayotgan ob'ektdagi yonayotgan narsalar va yong`inni o`chirish.

Ishlab chiqarishda yuz beradigan yong`inlarning kelib chiqish sabablarini ikki turga bo`lish mumkin.

1. Ishlab chiqarish texnologik jarayonidan alanga manbaini chiqarib tashlab bo`lmaydigan va sexlarda yonuvchi yoki portlovchi moddalar yig`ilib qolgan holat. Masalan, pardozlash fabrikasida matoning tukini kuydirish jarayoni yuqori haroratda olib boriladi, ya'ni kuydiruvchi yuza cho`g`lanib turganda 100 mG`min tezlikda mato o`tkaziladi. Mashinaning harakat qismlaridan birortasi to`xtab qolsa yoki mato ozgina bo`lsa-da, to`planib qolsa, darhol alangalanib yong`in chiqishi mumkin.

2. Ishlab chiqarish texnologik jarayonidan yonuvchi yoki portlovchi moddalarni chiqarib tashlab bo`lmaydigan va alanga manbaini qo`llashga yo`l qo`yilgan holat. Masalan, xomashyo va tayyor mahsulot omborlarida, titish-savash sexlarida paxta va matolar ko`p miqdorda to`planishi tabiiy. Lekin bu xonalarda ma'lum ehtiyyot choralar ko`rilmasdan ochiq alanga manbai ishlatilsa yong`in chiqishi mumkin.

To`qimachilik korxonalari uchun xarakterli bo`lgan yong`inlarning sabablarini quyidagicha tasniflash mumkin:

- texnologik jarayonning buzilishi;
- mashina va apparatlardan texnik foydalanish qoidalariga rioya etilmasa;

- xomashyo va tayyor mahsulotlarni saqlash qoidalarining buzilishi;
- mashina va apparatlarning aspiratsiya hamda changli havoni tozalash tizimlarining qoniqarsiz ishlashi;
- elektr uskunalarining noto`g`ri o`rmatilganligi va noto`g`ri ishlatalishi;
- ishlab chiqarish sexlarida va korxona hududida o`tirgan changlarni tozalash ishlari qoniqarsiz tashkil etilishi;
- ishlab chiqarish sexlarida va korxona hovililarida alanga bilan bog`liq ishlarni noto`g`ri olib borish;
- o`t o`chirish va xabar berish vositalarining texnik jihatdan qoniqarsizligi;
- korxona ishchi va xizmatchilarining hamda ko`ngilli o`t o`chirish komandalarining tayyorligi qoniqarsiz ekanligi.

Korxonalarning yong`in xavfi bo`yicha tasnifi ularni loyihalash, rekonstruktsiya va ekspulatatsiya qilish jarayonarida katta ahamiyat kasb etadi. Shuningdek o`tga chidamlilik darajasi qavatlar soni, binolar orasidagi masofalarni to`g`ri tanlash muhim rol o`ynaydi. Korxonaning yong`in xavfi bo`yicha toifasi, binosining o`tga chidamlilik darajasi va hajmiga qarab ichki hamda tashqi o`t o`chirish vodoprovod tizimiga kerakli suvning sarfini, isitish tizimi, ventilyatsiya va havoni mo`tadillash, suv ta'minoti, yoritish, elektruskunalari va o`t o`chirish vositalari turlarini tanlash mumkin.

Yonish jarayoni to`xtashi uchun oksidlanish-tiklanish ekzotermik zanjir reaktsiyasi tuzilishi kerak. Bu reaktsiyada to`xtashning fizik hamda kimyoviy usullari qo`llaniladi. Fizik usullari: alangani yonuvchi modda yuzasidan uzib tashlash, yonuvchi modda yuzasi haroratini alanganish haroratidan pasaytirish, oksidlovchi modda (kislород) konsentratsiyasini kamaytirish (ko`pincha yonmaydigan gazlar kontsentratsiyasini oshirish hisobiga) va yonuvchi modda bilan oksidlovchini bir-biridan ihotalash. Kimyoviy usullar yonish reaktsiyasini tormozlash hisobiga amalga oshiriladi.

O`t o`chirish vositalari asosan uch guruhga bo`linadi:

- 1) yonishni tugatish usuli bo`yicha – sotuvchi, aralashtiruvchi ixotalovchi, ingibirlashtiruvchi;

- 2) elektr o`tkazuvchanligi bo`yicha – elektr tokini o`tkazuvchi (suv, bug`, ko`pik), elektr tokini o`tkazmaydigan (gazlar, kukunli birikmalar);
- 3) zaharliligi bo`yich – zaharli (freon, brometil), kam zaharli (karbonat angidrid, azot), zaharsiz (suv, ko`pik, kukunli birikmalar).

Suv o`tni o`chirishda eng keng tarqalgan moddadir. O`zining quyidagi xususiyatlari tufayli o`tni o`chirishda eng afzal hisoblanadi. Issiqlik sig`imi katta, yonayotgan yuzaga tushganda uning isiqligini yutib oladi. Yuqori haroratli yuzalarga tushgan suv tezda bug`lanadi. Bug`lanish natijasida uning hajmi 1700 marta ortadi va vaqtincha yonayotgan yuzani qamrab olib havodagi kislorod miqdorini kamaytiradi. Suvning yuzalarni ho`llash xususiyati yong`inning tarqalmasligida katta rol o`ynaydi. Uning sirt tarangligi kichik ($0,073 \text{ nG`m}$) bo`lganligi uchun yonayotgan moddlarning tirqish va teshiklariga tezda kirib ularni sovitadi.

Karbonat angidrid gazini yong`in chiqqan hududga yo`naltirish u erdag'i havoning tarkibida kislorod miqdorini kamaytirish orqali yong`in o`chiriladi. Agar havodagi kislorod miqdorini 15 % gacha tushirishga erishilsa, yonish susayadi. Korbanat angidrid gazi yong`in o`chog`iga gaz holatida yoki suyultirilgan korbanat angidridi o`t o`chirish holatida berilishi mumkin. Suyultirgan korbanat angidridi o`t o`chirishda u havo bilan reaktsiyaga kirishib -70S haroratli qorsimon modda hosil qiladi, bu yonayotgan buyumlar yusasini yaxshi sovitadi.

Inert gazlardan azot va argon yong`inni o`chirishda ishlataladi. Ular ham karbonat angidrid gazi singari havodagi kislorod miqdorini aralashtirib kamaytiradi va bu yong`inni o`chirishga olib keladi. Bu gazlar karbonat angidrid gazichalik samarali emas.

Tutun gazlarda kislorod havodagidan birmuncha kam bo`lib, taxminan 18-19% ni tashkil qiladi. Bu gazlar oxirigacha yondirilsa, undagi kislorod miqdorini 5-6% gacha tushirish mumkin. Bunday gazlar yong`inni o`chirishda bemalol qo`llanlishi mumkin. O`t o`chirishda samolyotlarning o`z ish muddatini o`tagan reaktiv yuritkichlarini ishlatalish ham yo`lga qo`yilgan. Bular o`t o`chirish mashinalariga o`rnataladi va tutun gazlari suv oqimi bilan birga yong`in yuzalarida yo`naltiriladi.

Ingibatorlar. Galloidlangan uglevodlar yonish reaktsiyasiyasiga kimyoviy susaytirgich orqali ta'sir ko'rsatib yong`inni to`xtatadi. Bular inert gazlarga nisbatan ancha samaralidir. Bu maqsadda bromli etil, bromil etilen, dibromtetraftoretan, freon (114 B2) lar ishlatiladi. Freon suv bug`iga nisbatan 20 marta, uglerod oksidiga nisbatan 12 marta samaraliroqdir. Galloidlangan uglevodlar cho`g`langan paxta xomashyosi va tolasini o`chirishda, ayniqsa, qo'l keladi. Elektr tokini o`tkazmaydi va sovuq havoda muzlab qolmaydi. Ularning qimmatliligi keng qo'llashga imkon bermaydi. Bundan tashqari, qaynash haroratining pastligi (38-980S) va uchuvchanligi ochiq joylardagi yong`inlarni o`chirishda qo'llashga monelik qiladi.

Kukunli birikmalar yonayotgan gazlar, engil alanganuvchan, yonuvchan suyuqliklar, kuchlanish ostida bo`lgan elektr uskunalarini o`chirishda ishlatiladi. Ular arzonligi tufayli tobora ko`proq qo'llanilmoqda. Asosiy qismi natriy karbonatdan iboratdir.

Metalloorganik birikmalarni o`chirishda SI-2 kukuni ishlatiladi. Uning asosiy qismini freon (114 B2) bilan tindirilgan selikogen zarrachalari tashkil etadi. YONG`INGA tushgach kukun zarrachalaridan alangaga kuchli tormozlovchi (ingibitor) sifatida ta'sir qiluvchi freon ajralib chiqadi.

Ko`pik yonayotgan yuzaga tushgach, uni qoplab olib, kislород kirishidan to`sadi va ajralib chiqayotgan suyuqlik yonayotgan yuzani sovutadi. Ko`pik asosan qattiq moddalar va yonuvchan suyuqliklarni o`chirishda ishlatiladi. U paydo bo`lishiga ko`ra ikki xil bo`ladi: ko`pik hosil qiluvchi qorishmani havo oqimi bilan mexanik aralashtiruv orqali olinadigan havo-mexanik va ishqor eritmasi bilan kislotaning aralashishi natijasida paydo bo`ladigan kimyoviy ko`pik.

MA'RUZA № 7

DYOXX, UNING STRUKTURAVIY TUZILISHI, MAJBURIYATLARI VA VAZIFALARI

Reja:

1. Davlat yong`in nazorati.
2. O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining yong`in xavfsizligi sohasidagi vakolatlari
3. Davlat va xo`jalik boshqaruvi organlarining yong`in xavfsizligi sohasidagi vakolatlari.

Davlat yong‘in nazorati

Davlat Yong‘in nazorati vakolatli organlar, tashkilotlar, ularning mansabdor shaxslari, Shuningdek fuqarolar tomonidan Yong‘in xavfsizligi talablariga rioya qilinishini tekshirish va tekshiruv natijalari bo‘yicha chora-tadbirlar ko‘rish maqsadida amalga oshiriladigan nazoratdir. Davlat Yong‘in nazorati O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining davlat Yong‘in nazorati organlari bo‘lgan tegishli bo‘linmalari tomonidan amalga oshiriladi. O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligining, O‘zbekiston Respublikasi Milliy xavfsizlik xizmatining ob’ektlarida, o‘rmon xo‘jaligi hududlarida, kon qazilmalari va shaxta inshootlarida, portlovchi materiallar ishlab chiqarilaYotganda, tashilaYotganda, saqlanaYotganda, ulardan foydalanilaYotganda va ular utilizatsiya qilinaYotganda, sanoat uchun mo‘ljallangan – portlovchi materiallardan foydalangan holda portlatish ishlarini olib boruvchi tashkilotlarda, havo, suv, temir Yo‘l, avtomobil transporti hamda elektr transportidan foydalanilaYotganda davlat Yong‘in nazoratini amalga oshirish tartibi Davlat yong‘in xavfsizligi xizmati va tegishli – vakolatli – organlar o‘rtasidagi kelishuvlar bilan belgilanadi. O‘zbekiston Respublikasining chet davlatlardagi diplomatik va boshqa vakolatxonalarida Yong‘in xavfsizligi talablariga rioya qilishi ustidan davlat Yong‘in nazorati O‘zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi.

O‘zbekiston Respublikasida akkreditatsiya qilingan diplomatik va boshqa chet el vakolatxonali egallab turgan ob’ektlarda Yong‘in xavfsizligi talablariga rioya qilishi ustidan – davlat Yong‘in nazorati ushbu muassasalar rasmiy vakilining O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi orqali qilgan Yozma murojaati asosida davlat Yong‘in nazorati organlari tomonidan amalga oshiriladi. Davlat Yong‘in nazorati organlari va mansabdor shaxslarining ro‘yxati, vazifalari, huquq va majburiyatları O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadigan Davlat Yong‘in nazorati to‘g‘risidagi nizom bilan belgilanadi. Idoraviy yong‘in nazorati idoraviy Yong‘indan saqlash xizmati, Shuningdek qonun hujjatlarida vakolat berilgan mansabdor shaxslar tomonidan idoralarga qarashli tashkilotlarning Yong‘in xavfsizligi talablariga rioya qilishini tekshirish va tekshiruv natijalari bo‘yicha chora-tadbirlar ko‘rish maqsadida amalga – oshiriladigan nazoratdir. Idoraviy Yong‘in nazorati vakolatli organlar tomonidan qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi. Idoralarga qarashli tashkilotlarda Yong‘in xavfsizligi talablari Yong‘in kelib chiqishiga va odamlarning xavfsizligiga tahdid soladigan tarzda buzilganligi aniqlangan taqdirda, idoraviy Yong‘indan saqlash xizmati alohida ishlab chiqarishning, ishlab chiqarish uchastkasining, agregatning ishini, binodan, inshootdan, xonadan foydalanishni, ayrim turdagiligi ishlarni bajarishni to‘liq Yoki qisman to‘xtatib qo‘yish huquqiga ega.

Davlat Yong‘in xavfsizligi xizmati boshqaruv organlari hamda bo‘linmalarining, bundan tashkilotlar bilan tuziladigan – shartnomalar asosida tashkil etiladigan bo‘linmalar mustasno, moliyaviy va moddiy-texnika ta’minoti O‘zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti mablag‘lari va qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan amalga oshiriladi.

Davlat Yong‘in xavfsizligi xizmatining tashkilotlar bilan tuzilgan shartnomalar asosida tashkil etilgan bo‘linmalarining ta’minoti mazkur tashkilotlar mablag‘lari hisobidan amalga oshiriladi. Idoraviy va ko‘ngilli Yong‘indan saqlash xizmatining moliyaviy hamda moddiy-texnika ta’minoti, Shuningdek shaxsiy tarkibning ijtimoiy kafolatlari va kompensatsiyalarini moliyaviy ta’minlash ularning muassislari tomonidan o‘z mablag‘lari hisobidan amalga oshiriladi.

Yong‘in xavfsizligi to‘g‘risidagi qonun hujjalarni buzganlikda aybdor shaxslar belgilangan tartibda javobgar bo‘ladi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining yong‘in xavfsizligi sohasidagi vakolatlari

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi:

- Yong‘inxavfsizligi sohasida yagona davlat siyosati o‘tkazilishini ta’minlaydi;
- Yong‘inxavfsizligi sohasida davlat dasturlarini tasdiqlaydi vaularning amalga oshirilishini nazorat qiladi;
- Davlat vaxo‘jalik boshqaruvi organlarining, mahalliy davlat hokimiyati organlarining yong‘inxavfsizligi sohasidagi faoliyatini muvofiqlashtiradi;
- Yong‘inxavfsizligi sohasida moliyaviy, moddiy-texnika ta’minotini varesurslar bilan ta’minlashni amalga oshiradi;
- davlat ehtiyojlari uchun yong‘in-texnik mahsulotining nomenklaturasini, uni etkazib berish hajmlarini tasdiqlaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qonun hujjalariiga muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

Yong‘in xavfsizligi sohasidagi maxsus vakolatli organning vakolatlari

Yong‘in xavfsizligi sohasidagi maxsus vakolatli organ O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlari vazirligining Davlat yong‘in xavfsizligi xizmatidir. Davlat yong‘in xavfsizligi xizmati:

- yong‘inxavfsizligi to‘g‘risidagi qonun hujjalarning ijrosini ta’minlaydi;
- yong‘inxavfsizligi sohasidagi davlat dasturlarini ishlab chiqadi vaularning amalga oshirilishini tashkil etadi;
- yong‘indan saqlash xizmati bo‘linmalarini yong‘inni o‘chirish -texnikasi vaboshqatexnika vositalari bilan jihozlashsohasida yagona texnika siyosatini amalga oshiradi;
- yong‘inlnarni o‘chirishni, yong‘inzonasida qolgan odamlarni hamda yuridik vajismoniy shaxslarning mol-mulkiniqutqarishniamalga oshiradi;
- barcha turdagilari yong‘indan saqlash xizmati bo‘linmalarining yong‘inlnarni o‘chirishga shayligi holati vayong‘inlar profilaktikasiga doir ishlarning bajarilishi ustidan davlat nazoratini amalga oshiradi;
- yong‘inxavfsizligi sohasidagi normativ-huquqiyhujjalarning loyihalari ishlab chiqilishida ishtirok etadi;

- yong‘inxavfsizligi sohasidagi texnik reglamentlar, standartlar, normalar, qoidalar vaboshqanormativ hujjatlar ishlab chiqilishida ishtirok etadi;
- davlat yong‘innazoratini amalga oshiradi;
- yong‘inxavfsizligi talablaridan asosli ravishda chetga chiqilgan yoki bunday talablar mavjud bo‘Imagan taqdirdabinolar, inshootlarni va boshqa ob’ektlarni qurish, kapital ta’mirlash, rekonstruksiya qilish, kengaytirish vatexnik jihatdan qayta jihozlashga doir loyiha hujjatlarining yong‘in xavfsizligi talablariga rioya qilinishiga taalluqli qismini ko‘rib chiqadi;
- qurilish uchun maydonlar (trassalar) tanlash (ajratish) -komissiyasining, shuningdek qurilishi (rekonstruksiyasi) tugallangan ob’ektlarni foydalanishga qabul qilib olish komissiyalarining ishida ishtirok etadi;
- yong‘inxavfsizligi sohasida yong‘inga qarshi targ‘ibotni, o‘qitishni vaaxborot bilan ta’minalashni amalga oshiradi;
- yong‘in xavfsizligining ilmiy-texnik jihatdan ta’minalishini muvofiqlashtiradi;
- yong‘in xavfsizligi sohasida litsenziyalash va sertifikat-lashtirishni belgilangan tartibda amalga oshiradi;
- yong‘inlar vaularning oqibatlari hisobini yuritadi;
- davlat vaxo‘jalik boshqaruvi organlariga, mahalliy davlat hokimiyati organlari, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, tashkilotlar vafuqarolarga aniqlangan qoidabuzarliklarni bartaraf etish hamda yong‘inlarning oldini olishga doir tadbirlar o‘tkazish to‘g‘risida yozma ko‘rsatmalar beradi.

Davlat yong‘in xavfsizligi xizmati qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

Davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlarining yong‘in xavfsizligi sohasidagi vakolatlari.

Davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari (bundan buyon matnda vakolatli organlar deb yuritiladi) o‘z vakolatlari doirasida:

- yong‘in xavfsizligi to‘g‘risidagi qonun hujjatlarining ijrosini ta’minalaydi;
- yong‘in xavfsizligi sohasidagi davlat dasturlarini ishlab chiqishda ishtirok etadi vaularning amalga oshirilishini tashkil etadi;
- yong‘inxavfsizligi sohasidagi normativ-huquqiyhujjatlarning loyihalari ishlab chiqilishida ishtirok etadi;
- yong‘inxavfsizligi sohasidagi texnik reglamentlar, standartlar, normalar, qoidalar vaboshqanormativ hujjatlar ishlab chiqilishida ishtirok etadi;
- yong‘innazoratini tashkil etadi;
- yong‘inxavfsizligi sohasidagi ilmiy tadqiqotlar vaishlanmalarni muvofiqlashtiradi;

- davlat ehtiyojlari uchun yong‘in-texnik mahsulotining -nomenklaturasini ishlab chiqadi vahajmlarini belgilaydi;
- yong‘inlarni vaularning oqibatlarini hisobga olish tizimini yaratadi;
- aholi punktlarida, o‘ta muhimdavlat, ahamiyatiga molik yoki yong‘invaportlash xavfi yuqori bo‘lgan ob’ektlarda, ijtimoiy-madaniy, sanoat ob’ektlarida hamda boshqa ob’ektlarda, hududlar vakommunikatsiyalarda yong‘inlar o‘chirilishini tashkil etadi.

Vakolatli organlar qonun hujjatlariga muvofiq boshqa -vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

MA’RUZA № 8

Axoli va xududlarni muxofaza qilish rejalari, ularning tuzilishi, unga qoyiladigan talablar

1. Aholi turar joylari hududini loyihalashda Yong’in xavfsizligi.
2. Sanoat korxonalari bosh tarxini loyihalashda
3. Yong’in xavfsizligi.

Aholi turar joylari hududiy bosh tarxini loyihalashda, sanitariya va Yong’in xavfsizligi muammolari, iqtisodiy mutanosiblik bilan birgalikda echilishi lozim, ya’ni odamlarni ijtimoiy turmush sharoitini yaxshilash bilan barobar, birqator quyidagi tadbirlarni bajarilishi shart xisoblanadi, jumladan: aholi turar joylari hududini sanoat korxonalari chegarasidan sanitariya himoya masofasi bilan muhofizalash; turar joy binolari va jamoa binolari o’rtasidagi ruxsat etilgan sanitariya va Yong’in xavfsizligi talablarini bo'yicha minimal himoya masofasini ta'minlash; o’t o’chirish mexanizmlarini o’z vaqtida ishlashligi uchun, suv xavzalariga Yoki gidrant quduqlariga yaqin Yondoshaolishini ta'minlash; Yong’in deposini joylashtirishda ularni o’t o’chirish paytida xarbir bino va inshootga yaqin boraolish imkonini beruvchi Yo’llar bilan ta'minlash va boshqalar.

Qurilish me’Yorlari sanoat korxonalarini aholi yashaydigan hududlarda joylashtirishni ta’qilaydi. Aholi yashaydigan, harqanday qishloq va shahar hududi chegarasida zararli chiqindilar chiqaruvchi Yoki Yonish va portlash xavfi mavjud bo’lgan ishlab chiqarish korxonalarini joylashtirish ma’n etiladi. Sanoat korxonalarining hududiy chegarasidan to turar joy va jamoa binolarigacha bo’lgan oraliq masofani, korxonalarining xavflilik sinfiga binoan sanitariya qoidalari va me’Yorlari belgilaydi.


Ishlab chiqarish bazalari va ularga tegishli omborxonalar, aholi yashaydigan hududdan tashqarida joylashtiriladi. Neft mahsulotlari saqlanadigan bazalar darYo, anhor va zovurlarni hudud chegarasidan chiqish joylaridagi qirg’og’idan ancha past bo’lgan, chuqurliklarda joylashtirish lozim, toki avariya holatida neft mahsulotlari darYo o’zaniga oqib tushmasin.

Zamonaviy shahar va qishloqlardagi aholi yashaydigan mahallayu dahalardagi ko’p qavatli binolarning orasidagi sanitariya oraliq masofalari, Yong’in xavfsizligi

me'Yori talab qiladigan Yong'inga qarshi uzilish masofasidan birnecha marta katta bo'lishi sababli ikkala me'Yor talablarini qondiraoladi.

Turar joy massivlarida bino va inshootlar orasidagi masofa Yong'in xavfsizligi va insolyatsiya talablarini xisobga olgan holda aniqlanadi. Loyihalash jarayonida ikkalasi uchun ham xisoblanadi va ularning eng kattasi qabul qilinadi.

Binolardagi deraza orqali Yoritiladigan xonalarning kuniga 3 soatlik insolyatsiyalanish shartiga binoan, bino va inshootlar orasidagi masofa, deraza qarshisidagi inshootning balandligidan kam bo'lmasligi kerak. Chiz. 13.



Chizma. 13. Binolar orasidagi yong'inga qarshi masofani aniqlash.

Yong'inga qarshi oraliq masofa, yong'in paytida o't o'chirish uskunalarini ishga tushirish imkonini beruvchi vaqt oralig'ida, yonayotgan binodan chiqayotgan issiqlik nurlari ta'sirida atrofdagi binolarda yong'in sodir bo'lmasligini ta'minlayoladigan bo'lishi lozim. Yong'in sharoitida qo'shni binoga uzatilishi mumkin bo'lgan issiqlik miqdorini, issiqlik uzatish qonuniyatiga binoan quyidagi ifoda orqali aniqlanadi

$$Qq C [(T_a/100)^4 - (T_q/100)^4] F_a \mu_a \quad (24)$$

bunda **C**- keltirilgan nurlanish koyfisenti;

T_a- alanganing o'rtacha harorati, °S;

T_q- qo'shni binoning maksimal ruxsat etilgan xarorati, °S;

F_a-alangalana Yotgan sirtning qarama-qarshi bino sirtiga tusha Yotgan aksi, m²;

μ_a- alanga o'lchamlari va harorat tarqatuvchi manba'ning nurlanuvchi sirtga nisbatan o'zaro joylanishidagi burchak koyfisenti.

Formula (24) ni ikkala tomonini F_a ga bo'lsak, quyidagi ifoda orqali nurlanish tezligi g, V/m² ni xisoblash mumkin bo'ladi

$$Gq C [(T_a/100)^4 - (T_q/100)^4] \mu_a \quad (25)$$

Binolar orasidagi yong'inga qarshi oraliq masofa etarli darajada bo'lmasa, xisobiy nurlanish tezligi, g ni ba'zi qurilish ashYolariga tegishli, g_{min} dan oshib ketishi, qo'shni bino sirtidagi qurilmalarni alangalanib ketishiga sabab bo'lishi mumkin.

Yonayotgan inshoot bilan qo'shni bo'lgan binoning Yong'in xavfsizligi formula (25) Yordamida xisoblab topilgan nurlanish tezligi quyidagi tengsizlik, ya'ni $g \leq g_{\min}$ bajarilgandagina ta'minlangan bo'ladi.

YUqoridagi ifoda (24) ni ba'zi matematik shakl o'zgartirishlar natijasida bino va inshootlar orasida Yong'indan xavfsiz bo'lgan masofalarni aniqlash formulasini quyidagi ko'rinishda ifodalash mumkin:

$$R q k \sqrt{F_a} \quad (26)$$

bunda **k-Yong**'in paytida harorat olmashinish sharoitini xisobga oluvchi koyfisent.

Уртача катталиқдаги пахтачилик хужаликларида, одатда 150 m^3 сигимли нефть омборлари курилади. Дизел ёнилгиси, бензин ва козон установкаси ёкилгисини саклаш хамда бериш учун бу омборларда ер усти горизонтал резервуарлари урнатиласди. Таркатиш резервуарлари ер юзасидан

1. 7м чукурликда жойлаштирилади.

Ёнилги таркатиш шахобчасида машина-трактор агрегатларини нефть махсулотлари билан заправка килиш. Ёнилги таркатиш шахобчаси да машина-трактор агрегатларини нефть махсулотлари билан заправка килишни тугри ташкил килиш хам хавфсизлик масалаларини самарали ечишга ёрдам беради.

Трактор ва узи юрар машиналарни ёнилги хамда мойлар билан заправка килиш машиналарга техник хизмат куратиш системасининг ЭНГ муҳим элементларидан биридир. Заправка килиш рационал ташкил килинишида тракторлар ва узи юрар машиналарнинг бекор тухташи ва жойдан жойга кучиш йули кискаради, нефть махсулотлари ифлосланмайди, техник хизмат курсатиш муддатлари кечиктирилмайди.

Машиналар нефть махсулотларини таркатиш жумраклари урнатилган таркатиш енглари ёрдамида ёпик усулда заправка килиниши керак. Заправка килишда турли нефть махсулотларининг аралашшишига йул куймаслик учун нефт махсулотларининг хар кайси тури алохида ускуна билан куйилиши зарур.

Нефт махсулотларини исроф килмаслик учун куйдагиларни бажариш

зарур:

- ёнилги таркатиш шахобчаларидаги заправка килиш ускуналарини доимо тоза ва техник жихатдан тугри саклаш;
- ёнилгининг кувурларнинг уланиш жойларидан, жумраклар тикинидан ва бошка курилмалардан окишига йул куймаслик;
- машиналарни факат ёпик холатда заправка килиш керак;
- трактор ва узи юрар машиналарнинг бакини ёнилги билан заправка килишда уларнинг 90 - 95% хажмини тулдириш керак;
- нефть саклаш резервуарлари факат ок рангда булиши керак;
- пластик мойли идишлар ва бочкаларни бостирма ёки хонада саклаш.

Ёнилги таркатиши шахобчаси да ёнгин ва портлаши хавфини бартараф килишининг асосий тадбирлари.

Нефть махсулотлари билан ишлашда техника ва ёнгин хавфсизлиги коидалари:

Барча нефть махсулотлари ёнгин чикиш ва портлаш жихатидан хавфли булиб, уларнинг бути захарлидир. Этилланган бензинлар организм учун айникса заарлидир, улар нафас олиш органларини, терини, меъда ва ичаклар йулини шикастлайди. Кислоталар, масалан. сульфат кислота ва ишкорлар (каустик) хам захарлидир. Бензол, ацетон, таркибида этиленгликол булган купгина тормоз суюкликлари ва паст хароратда музлайдиган суюкликлар каби органик эритувчилар хам захарлидир. Шунинг учун нефть махсулотлари ёки бошка захарли моддаларни ташиш, саклаш, сифатини текшириш, автотрактор техникасига нефть махсулотлари қуиши, машиналарга техник хизмат курсатиш ва уларни таъмирлаш билан боғлиқ булган ишчилар шахсий хавфсизлик, техник хавфсизлиги хамда ёнгин хавфсизлиги коидаларига риоя килиши ва уларни сузсиз бажариши зарур.

Барча нефть махсулотлари ва органик эритувчиларнинг буглари майлум микдорда хаво билан аралашиб портловчи аралашма хосил киласи. Хоналарда бензин, керосин, дизель ёнилгисининг буглари хажм буйича 1,1 дан 6,0 % гача булганда улар портлаш жихатидан хавфли хисобланади. Бу чегаралар об-хаво шароитига (харорат, босим, хаво намлиги), нефть махсулотлари хили ва аралашма хосил булиш шароитига караб бирмунча узгаради.

Ут олиш хароратига кура нефть махсулотлара икки гурухга: осон алангаланадиган (ут олиш харорати 45 °C дан паст) ва ёнувчи (45 °C дан юкори) хилларга булинади. Бензиннинг барча сорт ва маркалари, шунингдек керосин осон алангаланадиган суюкликлар хисобланади.

Тезюрар ва секинюрар дизеллар ёнилгиси, мазутлар, печка ва козон ёнилгилари, шунингдек енгил мойлар ёнувчи суюкликларга киради.

Дизель ёнилгисининг баъзи сортлари енгил фракцион таркибга эга. Ут олиш харорати 40 °C дан паст булганидан уларни осон алангаланадиган суюкликлар каторига киритиш мумкин. Бундай ёнилгини ташиш, саклаш, ундан фойдаланишнинг барча боскичларида жуда эҳтиёт булиш шарт.

Купгина нефть махсулотларининг, айникса, ёнилгининг диэлектрик хоссалари юкори булади. Шунинг учун улар кувурлардан оқизилганда, автоцистернада ташиганда унинг деворига ишкаланиши натижасида статик электр зарядлари пайдо булади. Улар разрядланганда электр учқун пайдо булиб, нефть махсулотларининг портлаши ва аланталанишига сабаб булиши, хизмат курсатаётган кишиларни шикастлаши мумкин. Бунинг олдини олиш учун барча резервуарлар, автоцистерналар, кабул килиш - таркатиш жойлари, кувурлар, механизациялаштирилган куйиш воситалари ерга уланиши зарур; шунда хосил булган электр заряди ерга утиб кетади.

Хар бир корхона, хужаликда, одатда, меҳнатни хавфсиз ташкил килишга, ишчи хизматчиларнинг шахсий ва техника хавфсизлигини таъминлашга, ёнгинга карши тадбирларга катта эътибор берилади. Техника хавфсизлигига оид инструкцияларни сузсиз бажариш хавфсиз меҳнат шароитини таъминлайди. Ёнилги таркатиш шахобчаси дан фойдаланиш ва нефть махсулотларини ишлатиш билан боғлик булган ишчилар Узбекистон Республикасида ишлаб чиқарилган техника хавфсизлиги инструкцияларига риоя килишлари шарт.

Нефть махсулотларини ишлатиш билан боғлик булган барча шахсларга тегишли хавфсизлик чора тадбирларининг умумий талабларига куйидагиларни киритиш мумкин.

Нефть махсулотларини ташиш, ишлатиш, тракторлар, автомобиллар ва бошка техникига куйиш билан боғлик булган барча кишилар ишга киришдан олдин медицина куригидай утишлари, техник,

шахсий ва ёнгин хавфсизлигига оид инструкцияларни урганиб чикишлари ва уларни уз иш урнида саклашлари керак.

Ишларни махсус кийим - бош, аёк кийими кийиб бажариш зарур. Лозим булса, бошка химоя воситалари (кузойнак, кулкоп, маска ва хоказодан фойдаланиш керак. Нефть махсулотлари буглари ажралиб чикадиган жойларда (масалан, кабул килиш - таркатиш за куйиш агрегатлари, бензин ташувчи машиналар, турли резервуар хамда идишлар якинида) пошинасига пулат нагал кокилган оёк кийимларда ёки пулат тукали кийимларда юриш мумкин эмас. Учкун чикиши, портлаш ёки ёнгин чикишига сабаб булувчи асбоблардан фойдаланиш катъиян ман этилади. Асбоблар рангли металлдан тайёрланган ёки мис билан коплаган булиши зарур. Иш бошлашдан аввал электр ускуналар ва ёритиш тармогининг бенуксонлигига ишонч хосил килиш лозим. Барча задвижкалар, жумраклар бенуксон, осон бураладиган, нефть махсулотлари окмайдиган ёки томчиламайдиган булиши лозим. Тасодифан тукилган ёнилги ва мой устига курук кум, кипик сепилади, сунгра территорииядан чикариб ташланади.

Резервуарларда, идишларда, кувурларда ерга улагич булмаса ёки у нуксонли булса, шунингдек момакалдирок булаётган вактда нефть махсулотларини куйиш ва тукиш ишларини очик усулда бажариш, ишлаётган курилма хамда ускуналарни каровсиз колдириш, электр узатиш линиялари тагида туриш мумкин эмас. Янги хаво киритиб, эскисини суриб оладиган вентиляция булмаса ёки у бузук булса, нефть махсулотлари сакланадиган ёпик хоналарда ишлаш такикланади.

Ишлатилган артиш материаллари ёки мой теккан латталарни яхши бекиладиган махсус металл яшикларга туплаш, кейин эса уларни территорииядан ташкарида атроф-мухитга таъсири кам холатда кайта ишлаш керак.

Юкларни кутариш ва ташишда зарур эхтиёт чораларини куриш лозим. Тулдирилган ёки буш бочкаларни махсус кутаргичлар ёки бошка

кутариш - ташиш механизмлари билан кутариш ва ташиш керак. Агар механизациялаштирилган куйиш воситалари булмаса, нефть махсулотлари солинган бочкаларни думалатишга рухсат этилади, лекин бу ишни камида икки ишчи меҳнат муҳофазаси чора-тадбирига амал килиб бажариши шарт. Массасидан катъий назар, бочкаларни оркалаб ташиш, шунингдек четидан итариб думалатиш мумкин эмас. Тулдирилган бочкаларни автомобиль кузовларида, трактор тележкаларида ташиганда уларнинг бураладиган тикинларини юкорига каратиб бир катор килиб жойлаштириш ва думалаб бир-бирига урилиб кетмаслиги учун яхшилаб махкамлаб қуйиш лозим. Тикинларни болга ёки бошка асбоб билан уриб очиш ва беркитиш катъиян такикланади.

Машиналарга нефть махсулотлари куйишда таркатиш колонкалари ва бошка воситаларнинг бенуксонлигини мунтазам кузатиб туриш лозим. Машиналар бакларига ёнилгини факат ёпик усулда куйиш шарт. Бу максадда челак, чумич, кружка ва бошкалардан фойдалапиш такикланади. Ёнилги куйиладиган жойга машиналар кичик тезликда хайдаб келтирилиши лозим.

Ичида одамлар булган автобус ва юк машиналариға, шунингдек ёнгинге карши жиҳозлари булмаган машиналарга ёнилги қуиши тақиқланади.

Таркибида захарли тетраэтилкургошин булган этилланган бензинлар күп ишлатилади. Этилланган бензинларни ташиш, саклаш ва улардан фойдаланиш, шунингдек ускуналарни таъмирлаш хамда шикастланган жойларини тузатиш билан бөгликтен булган барча ишлар жуда эхтиёткорлик билан бажарилиши зарур. Этилланган бензинлардан ички ёнув двигателларида уз урнида фойдаланиш керак. Улардан деталлар, кийим - бош ва кулни ювиш, кавшарлаш лампалари ва примусларда ёкиш учун, эритувчи ва суюлтиргичлар (резиналар, локлар, буёкларни) сифатида фойдаланиш тавсия этилмайды. Этилланган бензинде ишлайдиган двигателнинг таъминлаш тизимини оғиз билан пуфлаш катыяның ман этилади.

Этилланган бензинни кабул килиб олиш ва таркатишда махсус мослама ва курилмалардан фойдаланилади. Стояклар, колонкалар ва куйиш агрегатларига «Этилланган бензин. Захар» деб ёзилган белги осиб куйилиши керак. Машиналарга этилланган бензин куюётганда шофёр ва заправкачи резина кулкоп кийиб олишлари лозим.

Кийим ёки баданга сачраган этилланган бензинни оддий бензин ёки керосин билан хулланган пахта воситасида кетказиш, сунгра терини иссик сувда совунлаб яхшилаб ювиш, кийимни эса тозалаб ювиш лозим. Двигатель деталларини таъмирлашда ва бошка утириндиарни эҳтиёткорлик билан органик эритувчи ёрдамида кетказиш (уларда захарли кургошин булади) ва шундан кейингина нуксонларни бартараф этишга киришиш даркор.

Этилланган бензин тукилган жойлар хлораминнинг сувдаги 3 % ли эритмаси ёки аталасимон хлорли охак билан (1 кисм курук охакка 2-5 кисм илик сув кушилади) заарасизлантирилади. Этилланган бензин тукилган жойларни курук хлорли охак билан заарасизлантириш такикланади, акс холда ёнгин чикиши мумкин.

Нефть махсулотларини ташиш, саклаш ва улардан фойдаланиш билан борлик булган ишлар ичида энг хавфлиси резервуарлар хамда бошка идишларни тозалаш ва тамирлашдир, чунки бунда хаёт учун хавфли булган мухитда ишлашга ва нефть махсулотлари колдикларини чикариб юборишга тугри келади. Барча бу ишларни камида 3 кишилик бригада резина кулкоп, химоялайдиган жомакоб, никоб кийиб бажариши, улар ишлаётган жойга тоза хаво бериб турилиши шарт. Резервуарни тозалаш ёки таъмирлашдан олдин ундаги ёнилги батамом бушатиб олинади ва унга сув тулдирилади. Кейинчалик нефть махсулотлари сув билан ювиб чикариб ташланади. Сунгра барча люклар, туйнуклар очилади ва резервуарлар яхшилаб шамоллатилади. Агар имкони булса, резервуарни иссик ($70-75^{\circ}\text{C}$) сув билан бутлаш керак. Бу тадбирлар амалга оширилгандан кейингина резервуарни тозалаш ёки таъмирлашга киришилади. Кулни ювмасдан овкатланиш ёки чекиш такикланади.

Нефть махсулотлари билан захарланган кишини аввало тоза хавога олиб чикиш лозим. Агар у кучсиз захарланган булса, врач келгунга кадар уни тинч куйиш ва унга валерианка ичириш керак.

Оғир холларда (нафас олиши кескин камайганда, хушидан кетганида) унга навшадил спирти хидлатиши ва тоза кислороддан нафас олдириш зарур. Нафас олиши кескин сусайиб кетганда ёки тухтаганда тезда сунъий нафас олдириш зарур. Кузнинг шиллик пардалари яллигланганда уни ичимлик соданинг 2 % ли эритмаси ёки тоза сув билан ювиш зарур.

Кишлок ва сув хужалигида жуда куп микдорда бензин ва дизель ёнилгиси ишлатилади. Ишлаб чикарилаётган дизель ёнилгиси енгил фракцион таркибга эга булгани учун ёнгин чикиш хавфини оширади. Шунинг учун факат бензинда ишлайдиган двигателларни ишлатишдагина эмас, балки дизель двигателларини ишлатишда хам (айникса ёпик хоналарда) эҳтиёт булиш зарур. Ёнгиннинг олдини олиш учун хар доим ёнган хавфсизлиги коидаларига риоя килишиш шарт.

Нефть махсулотлари билан ишлайдиган шахслар уз вактида ёнгин хавфсизлигига оид дастлабки (ишга кабул килинаётганда) ва даврий (йилига камида икки марта) инструктаждан утишлари лозим.

ЁнилFi тарқатиши шахобчасида ёнFin содир булиши сабаблари ва уни бартараф этиши тадбирлари

Суюклик сатхи узгарувчан аппаратларга технология талабларига биноан вакти-вакти билан тулдириладиган ёки бушатиладиган енгил алангаланувчи ва ёнувчи суюклики сигимлар киради.

Агар сигимнинг газли фазосида туйинган буглар концентрацияси мавжуд булса ва бу фазо хаво алмашинишидан химояланган булса, у холда ва кейинги узок вакт суюқдик сатхи узгармаганида суюқдик сатхининг юкорига кутарилиши шу буш фазодаги газ холатга таъсир курсатмайди. Бу холда ёнувчи муҳитни, ёнгин таркалишининг харорат чегараси оркали баҳолаш уз кучини сақдаб колади. Лекин суюклик сатхи пасайган вактида аппарат ичига («нафас» олиш мосламаси оркали) хаво киради ва туйинган буглар концентрациясини камайтиради. Агар сигим ичидаги буглар концентрацияси алангаланишнинг юкориги концентрация чегарасидан юкори булса, суюкликининг сатхи пасайиши натижасида сигимнинг буш кисмида ёки хаво кираётган зонасидаги бугли - хаво аралашмаси ёнувчан булади.

Аппаратнинг тухтовсиз цикл буйича ишлаши (тулдирилиши хамда бушатилиши) натижасида ишлаш вактининг куп кисмида буглар концентрацияси туйинган буглар концентрациясига teng булади.

Суюклик сатхи узгарувчан ёпик аппарат ва сигимлар ичида ёнувчи мухит хосил булишига карши куйидаги техник ечимларни кабул килиш мумкин:

- а) сигимлардаги газ фазосини сузиб юрувчи том ва понтон ёрдамида йукотиш;
- б) сигимларнинг газ фазасини ёнмайдиган (инерт) газлар билан тулдириш;
- в) бирданига бушатиладиган сигимлар сонини купайтириш йули билан суюклик сатхини узгариш тезлигини камайтириш;
- г) бушатилаётган аппаратларга хаво киришини чегаралаш максадида синхрон ишловчи сигимлар ва газ фазасини узаро кувур ёрдамида улаш.

Резервуар паркларининг узига хос тавсифлари мавжуд. Шу сабабли резервуар паркларида портлаш ва ёнгин ривожланишининг хам узига хос хусусиятлари юзага келади. Бунда ёнгинларнинг асосий параметрлари узгарувчан булади, нефть махсулотларининг кайнаб ва отилиб чикиши холатлари юзага келади.

Резервуар парклари 2 гурухга булинади:

Биринчиси - нефть-кимёвий хамда нефтни кайта ишлаш корхоналари, парки; нефть хамда нефть махсулотлари базалари. Иккинчи гурух - саноат корхоналарининг резервуар паркларидир.

Резервуарлар турлари ясалыш материалига, жойлашуви, шакли буйича ажратилади. Материал буйича: металл, темир-бетон. Жойлашуви буйича: ер устида, ер остида. Шакли буйича: цилиндрли вертикаль, цилиндрли горизонтал, шарсимон, тугри бурчакли.

62

Резервуарлар гурухли ёки алохига жойлаштирилиши мумкин.

Ёнгинни учирисга керакли сув захираси ер усти резервуарлари учун 6 соатга, ер ости резервуарлари учун 3 соатга етадиган булиши лозим.

Портлаш холда вертикаль металл резервуарда куйидаги холатни кузатиш мумкин:

- том бутунлай бузилади;
- том кисман бузилади;
- том деформацияланади

Портлаш вактида купинча горизонтал цилиндрсимон, сферик шаклдаги резервуарларнинг туби емирилади, натижада майдоннинг маълум кисмига суюклик тукилиб бошка резеруварлар хамда иншоотларга хам хавф тугдиради.

Резервуар хамда ундаги ускуналарнинг ёнгин чикишидан кейинги холати булинмаларнинг жанговар харакатини ва ёнгин учирис усусларини белгилайди.

Резервуар парклардаги ёнгиннинг асосий параметрлари куйидагилар: ёнгин майдони, аланганинг баландлиги, иссиклик окими зичлиги, ёниш тезлиги, суюкликтин кизиш тезлиги.

Ёнгинни муваффакиятли учирис учун резервуар паркларда ва гарнизондаги ёнгин хавфсизлик кисмларида куйидаги тадбирлар утказилади:

- корхона хамда гарнizonларда зарур купик хосил килувчи моддалар микдори захирасини яратиш, нефть омборида моддаларни меъёрий захирасини сакдаш;
- бу воситаларнинг зарур микдорини ёнгин жойига зудлик билан туплаш;
- ёнгин хавфсизлик гарнizon бошликлар ва шахсий таркиби тактик таълимини такомиллаштириш;
- ёнгин учирин режасини ишлаб чикиш.

Резервуар паркларда ёнгин учирин техникаси билан ёнгин учиринда куйидагилар кулланилади:

- сув окимини йуналтириш;
- ёнгин учирин кукунлари хамда инерт газлар бериш;
- ёнмайдиган суюкликларни аралаштириш;
- урта хамда паст даражали купик бериш.

Купикли хужумни тайёрлашни киска муддат ичида утказиш зарур, чунки ёниш вактининг ортиши резервуардаги ёкилги кайнаш хамда отилиб чикиш хисобига ёнгиннинг таркалиб кетиш хавфини кучайтиради.

Купикли хужумни утказиш учун куйидагилар зарур:

- купик хосил килувчи воситалар микдорини туплаш;
- купик узатиш схемасини бажариш хамда унинг сувда ишлаш холатини текшириш;

-техник воситалари ишларини таъминлаш учун бошликлар таркибидан жавобгар шахслар хамда жанговар хисобни тайинлаш;

-барча шахсий таркибга купикли хужумни бошлаш хамда тугатиш, кетиш, шунингдек ёкилгини кайнаш ёки отилиб чикиш хавфи хакидаги хабарни маълум килиш тартибларини урнатиш.

Кайнаш холати карши сув окими ва бошка воситалар ёрдамида олдиндан одамларни хамда енгларни химоялаш буйича хавфсизлик чоралари ишлаб чикилган

булиши

лозим.

**Suyultirilgan yuqori bosimdagi gazlar saqlanuvchi ballonlarni
ishlatishda yong‘in xavfsizligi talablari**

Reja:

1. Суюлтирилган газларни сақлашда сифим идишларни портлаш хавфини олдини олиш.
2. Bosim ostida ishlovchi idishlarning saklovchi qurilmalari

Суюлтирилган газларни сақлашда сифим идишларни портлаши хавфини олдини олиши.

1. Сифим – идишларни ишлатиш, суюлтирилган нефтли газларни сақлаш ва ташишда хавфсизлик қоидалариға мувофиқ амалга оширилиши шарт.

2. Ҳарорат 15°C ва ундан юқори ҳолатдаги маҳсулотлар билан сифим – идишни тўлдиришнинг максимал катталиги 83% дан ошмаслиги шарт. Маҳсулотларнинг 15°C дан паст бўлган ҳароратида, максимал тўлдириш катталиги қўйидаги хисоб-китобда белгиланади: пропан газ учун- $425 \text{ кг}/\text{м}^3$, бутан гази учун – $486 \text{ кг}/\text{м}^3$.

3. Эркин отилиб тушувчи ҳолатда маҳсулотларни қўйиш ман этилади.

4. Таъмирдан сўнг, биринчи тўлдирилишда ёки аппаратни очган ҳолда кўрикдан ўтказишида, портлаш хавфи юқори аралашмалар хосил бўлишини олдини олувчи чораларни кўриш зарур.

5. Ҳайдаб олинадиган маҳсулот ҳарорати буғлар таранглиси сифим – идиш (ишчи) учун рухсат этилган босимдан ошадиган ҳароратдан юқори бўлмаслиги керак.

6. Намуна олиш, сифим – идишда маҳсулотларнинг максимал босимига хисоб – китоб қилинган намуна олгичларда амалга оширилиши керак.

7. Сифим – идишдан сувларни ташлаш штуцери, музламайдиган клапан билан жиҳозланган бўлиши шарт.

8. Сифим – идишларда маҳсулотларни 45°C дан юқори ҳолатда қиздириш мумкин бўлган жойларда, сифим – идишни қизиб кетишини олдини олиш учун чоралар кўрилган бўлиши шарт.

Bosim ostida ishlovchi idishlarning saklovchi qurilmalari

Bosim ostida ishlovchi idishlarning bosimi yo’l ko’yilishi mumkin bo’lgan chegaradan ortib ketmasligini ta’minlash uchun xar xil saklovchi kurilmalardan foydalilanadi. Bularga texnologik kuvirlarga o’rnatilgan va bosim ma’lum darajadan ortib ketganda o’z-o’zidan berkilib kolishni ta’minlaydigan klapanlar, saklovchi kurilmalar, bosimni mutadillashtirish vositalari va teskari klapanlar kiradi.

Maxsus saklovchi kurilmalar katoriga sitilib yoki ko’chib ketishi natijasida favkulodda xolatni bartaraf kilsada, lekin o’zi xam ishdan chikkanligi sababli ishlatishga yaroksiz xolga keladi.

Xar xil bosim ostida ishlaydigan idishlarning xavfsizligini ta'minlashda ishlatiladigan saklovchi kurilmalar u erdag'i sharoitni xisobga olgan xolda va deyarli xar kanday nokulay xolatlarda xam xavfsizlikni ta'minlaydigan tartibda tanlab olinadi. Saklovchi kurilmaga ko'yiladigan asosiy talablardan biri bu kurilmaning berkitilgan xolatida zich berkitilganligini va ochilgan vaktda kisilgan moddaning chikarib yuborishiga bo'ladigan karshilikning iloji boricha kam bo'lishi talab etiladi. Shuning uchun xam bosim ostida ishlaydigan kozonlarga o'rnatilgan ta'minot jo'mraklari ochilganda undan chikadigan gaz yoki suyuklik tekis okim sifatida va chikish joyida bosim kuchini yo'kotgan xolda chikishini ta'minlaydi. Agar bunday talab bajarilmaganda ta'minot jo'mrakning yoki boshka saklovchi kurilmaning ishchi yuzalarida ma'lum mikdorda emirilish yuz berishi uning zichligini ta'minlashda ma'lum kiyinchiliklar tugdirishi mumkin. Bundan tashkari bunday emirilishlar ta'miot kranlaridagi okimni muvofiklashtirish jarayonini kiyinlashtiradi va bu okimni boshkarish imkoniyatini yo'kotadi.

Gosgortexnadzor ishlab chikkan koidalarga asosan xar bir bosim ostida ishlaydigan idish yoki suv isitish, bug xosil kilish kozonlari albatta saklovchi kurilmalar, manometrlar (bitta ishchi manometr va bitta nazorat manometri), suv xajmini ko'rsatuvchi asbob, ta'minot jo'mragi va teskari klapan (bular kozonni suv bilan ta'minlash joyiga o'rnatiladi), shuningdek suvni to'kish jo'mraklari o'rnatilgan bo'ladi.

Bug xosil kiluvchi kozonlar va xavo yiguvchi idishlar (resiverlar) da o'rnatilgan saklovchi kurilmalar ularda yigilgan bug va xavoning bosimi belgilangan mikdodan oshib ketgan takdirda odam ishtirokisiz ochilib, ortikcha bosimni chikaarib yuborish bilan umumi bosim ma'lum chegarada bo'lishini ta'minlab turadi.

Saklovchi kurilma ochishi zarur bo'lган teshikning ko'ndalang kesimi bug kozonida xosil bo'lган ortikcha bosimni chikarib yuborish imkoniyatini berishi kerak.

Saklovchi kurilmalar tuzilishi bo'yicha richagli va prujinali, yopik yoki ochik, bittali yoki juft, ochilishi baland va past turlarga bo'linadi.

MA'RUZA № 16

Bosim ostidagi idishlarning texnik holatini tekshirish va ulardan xavfsiz foydalanish.

Reja:

1. Bosim ostida ishlaydigan idishlarni ishlatishda xavfsizlikni ta'minlash.
2. Jixoz va qurilmalarni zich yopilganligi.
3. Bosim ostida ishlaydigan idishlarga ko'yiladigan asosiy talablar

Bosim ostida ishlaydigan idishlarni ishlatishda xavfsizlikni ta'minlash.
Jixoz va qurilmalarni zich yopilganligi. Xavfsizlikni ta'minlash vositalari va asosiy shartlari

Suyuqlik va gazlarning har xil qurilmalar va idishlar, truboprovodlar ulangan qismlari orqali sizib chiqmasligini ta'minalash zich yopilganlik deb ataladi.

Zich yopilganlik asosi qurilma ichidagi maxsulot tashki muxitdan butunlay ajratilgan xolatda bo'ladi. Bunday xolat xar kanday gaz va suyuklik bilan ishlaganda zarurat xisoblanadi. Shuningdek bu xolat xavosiz muxitda xam ko'llaniladi. Zich yopilganlik asosida suyultirilgan gazlar saklovchi idishlar, bug xosil kilish kozonlari, sikilgan xavoni ba'zi bir sanoat maksadlarida foydalananish uchun yiguvchi xajmlar (resiverlar) va boshkalarni misol tarikasida ko'rsatish mumkin.

Zich yopilgan bunday idish va kurilmalardagi gaz va suyukliklar katta bosim ostida, yukori xaroratda yoki juda past, xattoki absolyut xaroratga yakin va undan past bo'lган xaroratga ega bo'lishi mumkin. Shuningdek bu xolat kattik xavosizlantirilgan bo'ladi.

Birmuncha xolatlarda zich yopilganlik xolatining buzilib ketishi fakatgina texnik nuktai nazaridangina nomakbul bo'lmasdan balki xavfli vaziyatlar vijudga keltirib, sanoat korxonasi uskunalari va u erda ishlayotganlar uchun xavfli bo'lishi mumkin.

Bunday xolatning vujudga kelishiga zich yopilgan idishda saklanayotgan gaz u erdan sizib chiqishi natijasida, agar u erda asetilen gazi saklanayotgan bo'lsa, unda ajralib chikkan gaz xavo bilanaralashib engilgina uchkundan alangalanib ketishi yoki portlashi mumkin. Agar yonayotgan gaz uzok vakt sezilmasa, unda idishning kizib ketishi natijasida undagi asetilen o'z - o'zidan yonib ketishi va bu portlashga olib kelishi mumkin.

Agar zich yopilganligi buzilib 15 mm ga yakin teshik xosil bo'lsa, bosimi 20 MPa ga teng bo'lган idishdan otilib chikayotgan okim xosil kilgan reaktiv kuch 3,5 kN ni tashkil kiladi va bu kuch 70 kg ogirlikdagi balonga 5,9 m/s boshlangich tezlanish berishi mumkin. Bu tezlanish balonni bir necha metr masofaga siljishiga olib keladi.

Ma'lumki, xamma suyuklik va gazlar bir joydan ikkinchi joyga quvirlar orkali yuboriladi. GOST 14202 - 69 ga asosan kuvarlar orkali yuborilayotgan moddalarga karab, turli ranglar bilan ajratib ko'yiladi.

1. Suv - yashil
2. Bug - kizil
3. Xavo - ko'k
4. Yonadigan va yonmaydigan gazlar - sarik
5. Kislotalar - to'k sarik
7. Ishkorlar - binafsha rang
8. Yonadigan va yonmaydigan suyukliklar - jigarrang
9. Boshka moddalar - kulrang

Kuvarlardagi xavfni anik ko'rsatish maksadida ularga ogoxlantiruvchi rangli xalkalar tushiriladi. Masalan kizil rangdagi xalka kuvar orkali yonginga, portlashga xavfli engil alangalanuvchi modda, yashil rangdagisi - xavfsiz inert modda, sarik - zaxarlimodda. Bundan tashkari sarik xalka boshka turdag'i xavf xolatlariga xam ko'yilishi mumkin: masalan kuchli xavosizlantirilgan, yukori bosim, radioaktiv moddalar va boshkalar.

DST 949 - 73 ga asosan sanoat korxonalari uchun kerak bo'ladigan gazlarni suyultirilgan va yukori bosimdagи xolatida saklash imkoniyatini beradigan ballonlarni kam xajmli - 0,4 - 12 l, o'rtacha 20 - 50 l va katta xajmlilari 80 - 500 l kilib belgilangan. Ballonlarning kam va o'rtacha xajmlari, agar ularning ishchi bosimlari 10, 15 va 20 MPa atrofida bo'lsa, uglerodli po'latdan, yukori bosimdagilari esa sifatli nikel, xrom va boshka metallar ko'shilgan po'latdan tayyorlanadi.

Ballonlarga to'ldirilgan gazlarni bir birlaridan farklash uchun ularni ma'lum ranglar bilan bo'yaladi. Shuningdek kerakli belgilar ko'yilib, gazning nomi yozib ko'yilishi mumkin. Bundan tashkari ballon bo'gzining tekis kismiga tayyorlangan zavodning tovar belgisi, tayyorlangan oyi va yili, sinalgan vakti va Gosgortexnadzor koidalariga asosan keyingi sinash davri yozib ko'yiladi.

Ballonlarning (maxsus idish) rangining farqlanishlari

Gaz	Ballon rangi	Yozuv matni	Yozuv rangi	Chiziqlari rangi
Azot	Qora	Azot	Sariq	Jigar rang
Ammiak	Sariq	Ammiak	Qora	-
Texnik argon	Qora	Texnik argon	Ko'k	Ko'k
Asetilen	Oq	Asetilen	Qizil	-
Butan	Qizil	Butan	Oq	-
Vodorod	To'q ko'k	Vodorod	Qizil	-
Havo	Qora	Siqilgan havo	Oq	-
Kislород	Havorang	Kislород	Qora	-
Karbonat kislota	Qora	Karbonat kislota	Sariq	-
Xlor	Himoya rangida	-	-	Ko'k
Boshqa yonuvchan gazlar	Qizil	Gaz nomi	Oq	-
Boshqa yonmaydigan gazlar	Qora	Gaz nomi	Sariq	-

Germetik yopiladigan qurilmalardan tashqari avtoklavlar¹, kompressorlar², qozonlar kabilardan foydalaniadi.

¹ **Avtoklavlar** – germetik qurilmalar xisoblanib, turlim xildagi kimyoviy va issiqqlikdagi jarayonlarni bosim ostida amalga oshirishga mo'ljallangan.

² **Kompressorlar** – ustroystva dlya polucheniya sjatogo vozduxa davleniem svishe $3 \cdot 10^5$ Pa dan ortiq bosimdagи siqilgan havoni olish uchun qo'llaniladigan maxsus qurilmalar xisoblanadi.

Ballonlar to'ldirish joylarida ularning ichki bosimi 0,05 MPa dan kam bo'lmasligi kerak. Chunki koldik gaz ballondagi kanday gaz borligini aniklash imkonini beradi. Agar balloon asetilen uchun mo'ljallangan bo'lsa, unda koldik gaz 0,65 MPa dan kam va 0,10 MPa dan ortik bo'lmasligi kerak. Ma'lum mikdordagi gazning bo'lishi unda kanday gaz borligini aniklashdan tashkari idishning zinchilikini kafolatlaydi va shuningdek idishga tashki xavoning kirib, xavfli vaziyat vijudga keltirmasligini ta'minlaydi.

Suyultirilgan va yukori bosim ostida sikilgan gazlarni saklash idishlari xilma - xil tuzilishga va xajmga ega bo'ladi. Ularning asosan bir erga o'rnatilgan va xarakatlantirib yurgizish uchun mo'ljallangan turlari bo'ladi.

Bosim ostida ishlaydigan idishlarga bug xosil kilish va suv isitish kozonlari, kompressorlar, xamma turdag'i gaz ballonlari, bug o'tkazgichlar va yukori bosimli gazlarni o'tkazuvchi kuvirlar kiradi.

Sanoat korxonalarida ishlatiladigan katta bosimdag'i idishlarning zinchilikini yopilganligining buzilishi natijasida fizik va kimyoviy portlash xavfi vijudga keladi.

Masalan oddiy xavo bosimida suv 100 °S da kaynaydi. Agar biz shu suvni berk kzonda kizdirsa unda uni bosib turgan par xisobiga kaynash to'xtab koladi. Endi suvni kaynashi uchun ko'shimcha issiklik berilishi kerak. Suv $6 \cdot 10^5$ Pa bosim ostida $169 \text{ } ^\circ\text{S}$, $8 \cdot 10^5$ Pa da $171 \text{ } ^\circ\text{S}$, $12 \cdot 10^5$ Pa da $180 \text{ } ^\circ\text{S}$ da kaynaydi.

Agar $180 \text{ } ^\circ\text{S}$ xaroratda kaynayotgan suv bugini sarflab borsak, unda suv to $100 \text{ } ^\circ\text{S}$ ga etkuncha buglanish davom etadi. Agar biz bug sarfini oshirsak, ya'ni kozondagi bosimni kanchalik tezlik bilan kamaytirsak buglanish shunchalik tezlashadi.

Demak xar kanday bug xosil kiluvchi yoki suv isitish kozonlarida $100 \text{ } ^\circ\text{S}$ dan ortik xarorat ostida bo'lgan suv o'zida katta energiyani mujassamlagan bo'ladi va biz suv buglanganda suvga nisbatan 1700 marta ortik xajmni egallashini xisobga olsak, bu energiyani nazorat ostidan chikarish kanday okibatlarga olib kelishi anik. Shuning uchun katta xaroratga ega bo'lgan kozonda zinchilik yopilganlikning kichik mikdordagi teshigi orkali nixoyatda katta kuch bilan bug otilib chikishiga olib keladi. Bu o'z navbatida reaktiv kuch xosil kiladi va kurilmaning butunlay buzilib ketishiga olib keladi. Demak kurilmaga xavf tugdiruvchi kuch bu suv yuzasidagi bug emas, balki uning ostidagi $100 \text{ } ^\circ\text{S}$ dan ortik kizdirilgan suvda mujassamlangan kuvvat xisoblanadi.

60 kg isitilgan suv yuzasidagi bugning bosimi $5 \cdot 10^5$ Pa bo'lsa, unda 1 kg porox portlagandagicha energiya jamlangan xisoblanadi.

Xavo kompressorlari, shuningdek xavo tarkibidan moysimon moddalar tushishi natijasida bu moddalarning parchalanishi va xavo tarkibidagi kislorod bilan birikib, portlovchi aralashma xosil kilishi mumkin. Buunday moylarning parchalanishiga va xavfli birikmalar xosil kilishiga kompressor ishlagan vaktda xavoning sikilishi natijasida katta mikdorda ajralib chikadigan issiklik sababchi bo'ladi.

Gazlarning sikilish xolati kuyidagi konuniyat asosida boradi:

$$P \cdot V = \text{const}$$

Ya`ni xavo xajm darajasini kisib kancha kiskartirsak xavo bosimi shuncha darajaga ortadi.

Shunday kilib porshenli kompressor va xavo yigish kurilmalarini ishlatish vaktida paydo bo`lishi mumkin bo`lgan portlashlar asosan kuyidagi sabablarga ko`ra ro`y beradi: kompressor porshen_8 devorlari va boshka xavo yo'llarining kizib ketishi; moylovchi yoglarning buglanib yonib ketishidan portlashga yo'l ko`yilishi mumkin bo`lgan mikdordan ortik bosimdagi xavo yigish; changlangan va ifloslangan xavoni so'rishda yonuvchi gazlar aralashmasining o'tib ketishi; xavfsizlik jixozlarining ishlamasligi.

Ballonlar eskirib zanglagan joylarining bo`lishi xam portlash sababchisi bo`lib xizmat kiladi. Shuning uchun kislород balloonlari to`ldirishdan oldin maxsus suyukliklar bilan yuvib yuboriladi (dixloretan, trixloretan).

Ballonlarning portlashi yanglishib bir gaz o`rniga boshka gazni to`ldirishda xam ro`y berishi mumkin. Shuning uchun xam gaz balloonlari anik ranglar bilan belgilab ko`yilgan bo`ladi. Masalan kislород balloni xavo rangga bo`yalib "kislород" deb yozilgan yozuv kora rangda bo`ladi. Asetilen balloni ok rangga bo`yalib, yozuvi kizil bo`ladi va x. k.

Bosim ostida ishlaydigan idishlarga ko`yiladigan asosiy talablar

Bosim ostida ishlaydigan idishlardan foydalanganda ularning xavfsizliklarini ta`minlashga karatilgan chora - tadbirlarni ko`llash maksadga muvofikdir. Bosim ostida ishlatiladigan idishlar fakatgina ballonlardangina iborat bo`lmasdan, ularning nixoyatda yirik va katta xajmli turlari xam xilma - xil bo`lib, ularni bir joyga mukim o`rnatib, foydalaniladi. Bunday mukim o`rnatilgan idishlar portlaganda juda katta baxtsizliklar, binolarning vayron bo`lishi, kishilarning jaroxatlanishi mumkin. Shuning uchun xam bosim ostida ishlatiladigan idishlarning xajmi kanday bo`lishidan kat`iy nazar ularning tuzilishi pishik bo`lishi, ishlatganda xavfsizlikni ta`minlashi va uning xolatini tekshirib turish imkoniyatini berishi kerak. Shuningdek ularni ta`mirlash, xavo yordamida yoki suyukliklar bilan yuvib tozalash imkoniyati mavjud bo`lishi kerak. Issik gazlar bilan kizishi mumkin bo`lgan idishlarning tashki devorlari maxsus sovitish tizimiga ega bo`lishi va yo'l ko`yilishi mumkin bo`lgan xaroratdan oshib ketmasligini ta`minlashi kerak.

Mukim o`rnatilgan bosim ostida ishlatiladigan idishlar elektr tizimlari bilan jixozlangan bo`lsa, unda ular va ularning erga ulash kurilmalari PUE talablariga javob berishi shart.

Bunday idishlarni tayyorlashda va ishlatishda Gosgortexnadzor tomonidan ishlab chikilgan maxsus chegaralovchi koidalarga amal kilinishi xavfsizlikning asosi xisoblanadi. Bu koidalalar kuyidagi portlash xavfi bilan belgilanadigan bosim ostida ishlatiladigan idishlar va kurilmalar uchun ta`sis kilingan:

1) 70 kPa (0,7 ati) dan ortik bosim ostida ishlatiladigan idishlar va zinch yopiladigan kurilmalar;

2) 50 °S xaroratda 70 kPa dan ortik bosimga ega bo`lgan yoki shunday bosim yordamida bo`shatilishi zarur bo`lgan suyultirilgan gaz bilan to`dirilgan bochka va sisternalar;

- 3) 70 kPa dan ortik ishchi bosimga ega bo'lgan kisilgan, suyultirilgan va eritmalar tarkibidan ajralib chikayotgan gazlar saklanadigan ballonlar;
- 4) Yukori xaroratda issik suv yoki bug tayyorlash uchun ishlatiladigan kozonlar (bosim kanday bo'lishidan kat'iy nazar);
- 5) Sikilgan gaz tayyorlash kompressorlari;
- 6) O'yuvchi bo'limgan, zaxarsiz va portlashga xavfi bo'limgan moddalarning tashki yuzasi 200 °S, keltirilgan xajmi (V, l) ni bosimga ko'paytmasi 1000 l . MPa dan ortik bo'limgan bosim ostida ishlaydigan idishlarning yukorida ko'rsatilgan xaroratda R x V ko'rsatgichi 50 l x MPa dan ortik bo'lgan idishlar O'zbekiston Respublikasi Gosgortexnadzori organlari tomonidan ro'yxatga olinadi.

Idishlar ko'rinishi fayzli, ishlatishga kulay va mustaxkam, xavfsizligi to'la ta'minlangan bo'lishi, ochib tozalash va ta'mirlash imkoniyatini berishi kerak. Mukim o'rnatilgan idishlar "Elektr kurilmalarini o'rnatish koidalari" asosida erga ulangan bo'lishi kerak.

MA'RUZA № 17

GAZSIMON MODDALARNING YONISH VA PORTLASH XUSUSIYATLARI

Reja:

1. Gazsimon moddalarning Yonish va portlash xususiyatlari.
2. Moddalarning Yonish va portlash xususiyatlari
3. Gaz va tutunga qarshi karatilgan xavfsizlik texnikasi talablari

Har qanday gazsimon moddaning Yong'inga va portlashga xavfliligi alanganish chegaralari, Yonish harorati hamda alanganing o'rtacha tarqalish tezligi bilan belgilanadi. Gazning havo bilan aralashib Yonishi har qanday holatda ham amalga oshavermaydi,balki ma'lum chegaradagi aralashma hosil bo'lgandagina Yonish ro'y beradi. Shuning uchun ham aralashmalarining alanganish chegaralari quyi va yuqori chegaralar sifatida belgilanadi. Quyi chegara deganda gazning eng kam miqdori alanga hosil qiladigan holat tuShuniladi va mana Shu chegara sanoat korxonaning Yong'inga hamda portlashga xavflilik darajasini belgilovchi omil hisoblanadi.

Havoning gaz bilan aralashmasi, yonish uchun etarli miqdorda yig'ilgan bo'lsa,ma'lum sharoitda qizdirilganda alangananib ketadi, mana Shu harorat **Yonish harorati** deb ataladi.Bu harorat Yonuvchi aralashma holati va boshqa omillar ta'sirida juda yuqorilashib ketishi mumkin (450°Sdan 2000°Sgacha). Ko'pgina gaz aralashmalarining Yonish tezligi - ularning miqdori va gazning xususiyatiga bog'liq. Gazlarning Yonish tezligi 0,3-0,8 m/sek. bo'ladi. Bundan vodorod bilan atsetilen gazi mustasno, ularning Yonish tezligi 2,76 m/sek. va 5,6 m/sek.ni tashkil qiladi. Yonishning tez ketishi **portlash** deyiladi.Yonish qancha qisqa muddatda amalga oshsa, portlash kuchi Shuncha katta bo'ladi. Havoning gaz bilan aralashmasi, Yonish uchun etarli miqdorda yig'ilgan bo'lsa, ma'lum haroratgacha qizdirilganda alangananib ketadi, mana Shu harorat Yonish harorati deb ataladi. Bu harorat Yonuvchi aralashma holati va boshqa omillar

ta'sirida juda katta diapazonni tashqil qilishi mumkin. YOnuvchi aralashma Yonayotgan vaqtida alangina tarqalish tezligi aniqlanadi. Bunda Yonayotgan zonaga o'tish tezligi ma'lum yuzadagi Yonuvchi aralashma ma'lum vaqt birligida Yonib, tutash zonaga o'tishi belgilanadi. Ko'pgina gazlarning aralashmalarining Yonish tezligi ularning aralashmalarining miqdoriga va gazning xususiyatiga bog'liq bo'ladi. Gazlarning Yonish tezligi asosan 0,3 ... 0,8 m/s ni tashqil qiladi. Bundan vodorod bilan atsetilen gazi mustasno bo'lib ularning Yonish tezligi 2,76 va 1, 56 m/s ni tashkil qiladi. Alanganing normal tarqalish tezligi gazlardagi fizik-kimyoviy xususiyat bo'lib, ma'lum o'zgarmas miqdor sifatida belgilanadi, chunki bu tezlikning nihoyatda ortib ketishi portlashni belgilovchi omil hisoblanadi. Yonishning tez kechishi portlash deyiladi. Yonish qancha qisqa muddatda amalga oshsa, portlash kuchi Shuncha katta bo'ladi. Suyuqliklarda Yonish faqat uning gazsimon (ya'ni bug'ga aylangan) fazasida bo'ladi. Bug'ga aylanish jarayoni va tezligi suyuqlikning fizik va ximiyaviy xususiyatlariga bog'liq bo'ladi. Shuningdek bug'ga aylanish jarayoni tashqi muhit haroratiga ham bog'liq bo'ladi. Ma'lum harorat va bosimdagи suyuqlik pari hosil bo'ladi. Bular miqdori harorat o'zgarmagan holatda ortib Yoki kamayib ketmaydi. Bu miqdordagi parni to'yingan par deb ataladi. To'yingan parlardan parcha aylana Yotgan molekulalar soni suyuqlikka aylana Yotgan molekulalar soniga tneq bo'lganligidan uning miqdori havo muhitida birxil saqlanib turadi. Bunday holatdagi suyuqlikning havo muhitiga nisbatan zichligini miqdoriy bosim deb yuritiladi. YA'ni agar havo tarkibidagi to'yingan par miqdori 20% ni tashkil qilsa, unda bu aralashmaning miqdoriy bosimi 0,20 R_o deb qabul qilinadi. Bunda R_o-atmosfera bosimi.

Agar to'yingan parning miqdoriy bosimi ma'lum bo'lsa, ayna Shu haroratdagi havo muhitidagi zichligini aniqlash mumkin.

$$C_k = \frac{P_k}{P_o} \cdot 100 \%$$

Bunda R_k - to'yingan par bosimi; R_o - atmosfera bosimi.

Odatda to'yinganparning bosimi ma'lum haroratlar bo'yicha harxil suyuqliklar uchun ma'lumotnomalarda beriladi. Havo muhitida parlarning, Shuningdek gazlarning Yonishi, ma'lum diapazon zichlikdagina ro'y berishi mumkin. Havodagi Yonuvchi par va gazning miqdori, umuman to'yingan holatdagi miqdordan ko'p bo'lishi mumkin emas, Shuning uchun bu moddaning Yonish chegarasini faqat harorat bilangina belgilash mumkin va bu miqdor Yonuvchi moddaning alanganishining yuqori chegarasi deb yuritiladi. Ammo suyuqlik va gazlarning havo muhitidagi zichligi to'inish nuqtasidan past bo'lgan hollarda ham ma'lum haroratda alanganish hodisasi ro'y berishi mumkin. Shuning uchun ham har xil Yonuvchi moddalar uchun zichlikning alanganish chegarasini Yonuvchi modda minimal miqdorda bo'lgan holat uchun ham alanganish harorat aniqlanadi va bu miqdor modda alanganishining quyi chegarasi deb yuritiladi. Demak har qanday Yonuvchi suyuqlikning Yonish protsessi bo'lishi uchun suyuqlik ma'lum haroratgacha qizdirilishi (bu haroratda albatta alanganishning quyi chegarasidan kam bo'lmasligi kerak) va bu vaqtida suyuqlikdan ajralib chiqsa Yotgan parlar miqdori alangani davom ettira oladigan miqdorda bo'lishi kerak. Suyuqliklarning ana

Shu xususiyatlari asosida suyuqliklar uchun chaqnash va alanganish tuShunchalari kiritiladi.

Suyuqliklar gazsimon muhitda Yonib, bug‘ga aylanish jarayoni tezligi suyuqlikning fizik va kimyoviy xususiyatlariga bog‘liq bo‘ladi. Shuningdek, bug‘ga aylanish jarayoni tashqi muhit haroratiga ham bog‘liq. Ma’lum harorat va bosimdagi suyuqlik yuzasida suyuqlik bug‘i hosil bo‘ladi. Bu bug‘ miqdori harorat o‘zgarmagan holatda ortib Yoki kamayib ketmaydi. Uni to‘yingan bug‘ deb ataladi. To‘yingan bug‘ga aylanaYotgan molekulalar soni suyuqlikka aylanaYotgan molekulalar soniga teng bo‘lganligidan uning miqdori havo muhitiga bir xil saqlanib turadi. Bunday holatdagi suyuqlikning havo muhitiga nisbatan zichligini miqdor bosimi deb yuritiladi. YA’ni, bug‘ning havo tarkibidagi to‘yingan miqdori 20% ni tashkil qilsa, unda bu aralashmaning miqdoriy bosimi 0,20 R deb qabul qilinadi.Bunda, R- atmosfera bosimi. Agar to‘yingan bug‘ning miqdor bosimi ma’lum bo‘lsa,Shu haroratda havo muhitidagi zichligini aniqlash mumkin. Gazlarning Yonishi, ma’lum havo muhitida ro‘y berishi mumkin. Havoda Yonuvchi gazning hajmi, umuman to‘yingan holatdagi hajmdan ko‘p bo‘lishi mumkin emas, Shuning uchun moddaning Yonish chegarasini faqat harorat bilangina belgilash mumkin va bu hajm Yonuvchi moddaning yuqori chegarasi deb yuritiladi. Suyuqlik va gazlarning havo muhitidagi zichligi to‘yinish nuqtasidan past bo‘lgan hollarda ham ma’lum haroratda alanganish hodisasi ro‘y berishi mumkin. Shuning uchun har xil Yonuvchi moddalar eng kam miqdori uchun ham alanganish harorati aniklanadi.Demak, har qanday Yonuvchi suyuqlikning Yonishi uchun u ma’lum haroratgacha qizdirilishi va bu vaqtda suyuqlikdan ajralib chiqayotgan bug‘ miqdori alangani davom ettira oladigan miqdorda bo‘lishi kerak.Suyukliklarning ana Shu xususiyatlari asosida ularning chaqnash va alanganishi o‘rganiladi.CHaqnash harorati deb, uncha yuqori bo‘lmagan haroratdagi suyuqlik yuzasida bug‘larning havo bilan aralashmasi hosil bo‘lib, aralashma tashqaridan qizdirilsa, Yonib ketishi mumkin bo‘lgan haroratga aytildi.

Mana shu xossaga asoslangan holda suyuqliklar ikki turkumga bo‘linadi:

1.Agar suyuqlikning chaqnash harorati 45°S.ga teng Yoki kichik bo‘lsa, engil alanganuvchi suyuqlik deb ataladi. Engil alanganuvchi suyuqliklarga benzin, spirt va boshqa moddalar misol bo‘ladi.

2.CHaqnash harorati 45°S.dan yuqori suyuqliklar Yonuvchi suyuqliklar deb ataladi.

Alanganish harorati deb suyuqlikning minimal haroratdagi chaqnashida suyuqliqdan ma’lum darajada bug‘lar ajralib chiqishi natijasida alanganish davom etadigan holatga aytildi. Engil alanganuvchi suyuqliklar uchun bu harorat chaqnash haroratidan 1-5°S yuqoriq bo‘ladi, Yonuvchi suyuqliklar uchun esa 30-35°S.ga borishi mumkin.

Chaqnash harorati deb, uncha katta bo‘lmagan haroratdagi suyuqlik yuzasida suyuqlik parlarining havo bilan aralashmasi hosil bo‘ladi va bu aralashmaga tashqaridan qizdirish berilsa, yonib ketishiga aytildi. Bunda muqim Yonish jarayoni davom etmasligi mumkin. Agar yonib ketgan suyuqlik parlarining ajratgan issiqlikligi suyuqlikning Yonish uchun ajralishi kerak

bo‘lgan par miqdori uchun etarli bo‘lsa, yonish davom etadi, aksincha yonish davom etmaydi. Mana Shu hossaga asoslangan holda suyuqliklar ikki turkumga bo‘linadi:

1) Agar suyuqlikning chaqnish harorati 61 °S ga teng Yoki kichik bo‘lsa, bunday suyuqliklar **engil alanganuvchi suyuqliklar (EAS)** deb ataladi. Ularga spirtlar, atseton, benzin va boshqa suyuqliklar kiradi.

2) Agar suyuqlikning chaqnash harorati 61 °S dan katta bo‘lsa, bunday suyuqliklar **Yonuvchi suyuqliklar (YOS)** deb ataladi. Ularga Yog‘lar, mazut, glitserin va boshqalar kiradi.

Alangalanish harorati deb suyuqlikning minimal haroratdagi chaqnash hodisasi suyuqlikdan etarli darajada parlar ajralib chiqishini ta’minlashi natijasida alangalanish davom etadigan holatiga aytildi. Engil alanganuvchi suyuqliklar uchun bu harorat chaqnash haroratidan 1-5 °S yuqoriroq bo‘ladi, Yonuvchi suyuqliklar uchun esa 30-35 °S ga borishi mumkin. Gazlar va suyuqlik parlarining havo bilan aralashmasi portlash xususiyatiga ega. Portlash ma’lum sharoit bo‘lganda amalga oshadi. YA’ni portlash bo‘lishi uchun aralashmadagi Yonuvchi gaz yoki parning miqdori, aniq protsent miqdorni tashqil qilishi kerak. Buni grafik bilan ifodalash mumkin, agar portlovchi modda miqdori A ga etsa portlash boshlanadi va portlash V gacha davom etadi. Eng kuchli portlash modda miqdori S bo‘lganda bo‘ladi. Shuni ham aytib o‘tish kerakki portlash bo‘lishi uchun berk xona Yoki idish bo‘lishi kerak.

Portlash buyicha xavfli xonalarning guruxlari

V-1 bunga fakat avariya xolatidagina emas, balki oddiy ish sharoitida xam Yonuvchi gaz Yoki buglarning xavo bilan Yoki boshka oksidlovchilar bilan kushilganda aralashma xosil kiladigan xonalar mansubdir. Masalan, engil alanganuvchi va Yonuvchi suyuklarni ochik idishlarda saklash, bir idishdan boshka idishga Yoki apparatlarga kuyish ishlari bajarila Yotgan va boshka xonalar.

V-1a-bunga oddiy foydalanish sharoitida Yonuvchi gaz Yoki buglarning xavo bilan Yoki boshka oksidlovchilar bilan aralashmasi portlamaydigan, balki fakatgina avariya Yoki buzilgan xoldagina portlash mavjud buladigan xonalar mansubdir.

V-16-yukoridagi V-1a klassiga mansub, lekin kuyidagi xususiyatlardan biri mavjud bulgan xonalar: Yonuvchi gazlarning pastki portlash chegarasi baland (15 foiz va undan ortik) va yul kuysa buladigan konsentratsiyalarda utkir xildi; avariya xolatlarida xonalarda umumiyl portlash konsentratsiyasi tuplamaydi, balki maxalliy portlash konsentratsiyasigina tuplanishi mumkin; engil alanganuvchi Yonuvchi gazlar va Yonuvchi suyukliklar kam mikdorda saklanuvchi xonalar va ular bilan ishlash, xavo suruvchi shkaflarda Yoki suruvchi zontlar ostida olib boriluvchi xonalar kiradi.

V-1g-avariya Yoki buzilish orkali tarkibida portlash xavfi vujudga keladigan gazlar, buglar va engil alanganlanuvchi suyukliklar mavjud bulgan tashki (xonalarda tashkarida urnatilgan) kurilmalar.

V-II-fakatgina avariya xolatida emas, balki me’Yoriy kiska ish maromida xam xavo va boshka oksidlovchi moddalar bilan portlash xavfi mavjud

aralashmalar xosilkila oladigan, uchib yuruvchi chang va tolalar ajralib chikadigan xonalar.

V-IIa - yukoridagi V-II klassiga xos, lekin normal ekspluatatsiya sharoitida xavfli xolat vujudga keltirmaydigan, fakatgina avariya Yoki buzilgandagina xavfli xolat vujudga keltirishi mumkin bulgan xonalar. Tuqimachilik korxonalarining asosiy sexlarida tolali maxsuloti ishlatilishi va ulardan ajralib chikkan changning portlash xusussiyati yukligi va ular fakat Yonishi mumkinligi tadkikotlardan ma'lum. Shuning uchun tukimachilik korxonalarining asosiy sexlarini Yongin xavfi buyicha toifalanishi bilish katta axamiyatga ega.

Yongin xavfi buyicha xonalarning toifalanish.

P-1 - chaknash xarorati 45°S dan yukori bulgan Yonuvchi suyukliklar ishlatiladigan Yoki saqlanadigan xonalar. Bu erda paydo buladigan xavf, chang Yoki tolaning fizik xossalariга binoan, Yoki ish sharoitida ular konsentratsiyasining portlash xavfi tugdirish darajasida etarli bulmasligi Yongin (portlash bilan emas) bilan chegaralanadi.

P-IIa - yukoridagi P-II klassiga xos xususiyatlardan mustasno bulgan kattik Yoki tolali Yonuvchi moddalar saqlanadigan Yoki ishlatilagandan ishlab chikarish va ombor xonalarini.

P-III; - buglarning chaknash xarorati 45°S dan yukori bulgan Yonuvchi suyukliklar xamda Yonuvchi kattik moddalar ishlatiladigan Yoki saqlanadigan tashki uskunalar.

Qattiq moddalarning yonish va Yong'inga xavflilik xususiyatlari

Elektr qurilmalariga qo'yiladigan xavfsizlik talablari

Tashkilotlarda elektr qurilmalarini o'rnatish va ulardan foydalanishda Iste'molchilarining elektr qurilmalaridan texnik foydalanish qoidalari (ro'yxat raqami 1383, 2004 yil 9 iyul) (O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2004 y., 27-son, 317-modda) va Iste'molchilarining elektr qurilmalaridan foydalanishda texnika xavfsizligi qoidalari (ro'yxat raqami 1400, 2004 yil 20 avgust) (O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2004 y., 33-son, 379-modda) va mazkur Qoidalalar talablariga rioya etilishi kerak.

Elektrotexnik qurilmalar bilan ishlaydigan barcha xodimlardan mazkur Qoidalarni mukammal bilishlari va ularga qat'iy rioya etishlari talab etilishi kerak. Mazkur Qoidalarga asosan har bir tashkilotlarda elektr xavfsizligi bo'yicha IV va V guruhga ega bo'lgan muhandis-texnik xodimlardan alohida buyruq bilan elektr xo'jalik bo'yicha mas'ul shaxs tayinlanishi lozim. U tashkilotda elektr xo'jaligining umumiy holati bo'yicha javobgar hisoblanadi. Tashkilotda bosh energetik lavozimi bo'lgan taqdirda, elektr xo'jalik bo'yicha javobgarlik uning zimmasiga yuklatiladi. Elektr xo'jalik bo'yicha javobgar shaxs bo'lмаган ташкілотларда elektr asbob-uskunalaridan foydalanish man etiladi. Shtatlar jadvalida elektrik lavozimi mavjud bo'lмаган ташкілотларда elektr jihozlaridan foydalanish ixtisoslashgan ташкілотларга shartnoma asosida topshirish Yoki boshqa ташкілотлarda ishlovchi elektrikni o'rindoshlik asosida ishga qabul qilish orqali amalga oshiriladi. Tashkilotlarda elektr xo'jaligi bo'yicha javobgar shaxs quyidagilarni ta'minlashi shart:

- elektr qurilmalarning ishonchli, tejamlı va xavfsiz ishlashini;
 - elektr qurilma, apparatura va tarmoqlarda rejaviy ta'mirlash ishlari va profilaktik sinovlar belgilangan muddatlarda o'tkazilishini tashkil etishni;
- elektr energiya sarfining hisobini olib borishni;
- himoya vositalari va Yong'inga qarshi jihozlar mavjudligi va ularning o'z vaqtida sinovdan o'tkazib turilishini.

Tashkilot elektriklari elektr kuchlanish ostida bo'lgan asbob-uskuna, jihoz va kabellar bilan ishlaganda elektr tokidan jarohat olishdan muhofaza qiluvchi asosiy (izolyasiya qiluvchi shtangalar, izolyasiya qiluvchi dastali qisqichlar, dielektrik qo'lqop va etiklar, dielektrik g'ilofli asbob-uskunalar) va qo'shimcha saqlagichlar (izolyasiya qiluvchi tagliklar, rezina gilamchalar) hamda himoya vositalari bilan ta'minlanishlari shart.

Tashkilot elektr xo'jaligida yuqori elektr kuchlanish ostida bo'lgan qurilmalar, kabellar bilan ishlashda saqlagichlarsiz ishlash qat'ian man etiladi. Elektr kuchlanish ta'sirida bo'lgan elektrotexnika qurilmalarining izolyasiya qilinmagan qismlariga xodimlarning tasodifan tegib ketishi holatlarining oldini olish maqsadida qurilmalarni to'siqlar bilan to'sib qo'yish talab qilinadi. Asbob-uskunalar elektr tarmog'ida izolyasiyaning buzilishi oqibatida elektr tokining asbob-uskuna metall qobig'iga o'tishi bilan bog'liq bo'lgan elektrdan shikastlanishlarning oldini olish uchun elektr qurilmalar erlangan Yoki nollangan bo'lishi shart. Ko'chma Yoritish asbob-uskunalari 36 V elektr toki manbaidan ishlaydigan bo'lishi zarur.

MA'RUZA № 24

ISITGICH USKUNALARINI ISHLATISHDA YONG'IN XAVFSIZLIGI.

Reja:

1. Isitgich uskunalarini ishlatishda yong'in xavfsizligi.
2. Буғ ва сув қозонларидан фойдаланишда хавфсизлик тадбирлари


Иситиши зонада нормал ишлаш шароитини таминлаш учун ҳаво ҳароратини сақлаб туришга мўлжаллангандир. Иситиши маҳаллий ва марказий кўринишларда бўлади. Ишлаб чиқариш шароитида маҳаллий истишдан ҳаракатдаги машиналарнинг кабиналарида ва асосий ишлаб чиқариш биносидан узоқда жойлашган умумий майдони 500 m^2 дан кўп бўлмаган хоналарни истишда фойдаланилади. Қолган ҳолатларда марказий иситишдан фойдаланилади.

Иситишда иссиқлик манбаи сифатида сув, буғ ва ҳаводан фойдаланилади. Сув ва пар маҳсус қозонхоналарда иситиб хоналарда ўрнатилган иситиши мосламаларига қувур орқали узатиласди. Хоналарга узатиладиган иссиқ ҳаво кўп ҳолда калориферларда, сув, буғлари эса электр ёрдамида иситилади. Шунга мос равищда иситиши сув, буғ, ҳаво билан ва комбинациялашган иситишларга бўлинади. Сув ёки буғ билан иситишда иситиши мосламалари сифатида радиаторлар ёки қовурғали қувурлардан фойдаланилади.

Ҳаво билан иситиши системаси марказий ва маҳаллий турларга бўлинади. Ҳаво билан иситиши марказий системаси ҳайдаш ускуналари билан жиҳозланган бўлади. Бундай иситиши системаларида калориферлар иситиладиган хоналардан ташқарида ўрнатилади. Агар хонадаги маълум бир зонани иситиши талаб этилса, унда маҳаллий ҳаво билан иситиши агрегатлари ўрнатилади (1.-расм).

Меҳнат муҳофазаси нуқтаи назаридан қараганда иситиши системалари ишлаб чиқариш бинолари ва иш жойларининг ҳавоси ҳароратини бутун иситиши мавсуми давомида бир хил бўлишини таминлаши, ёнгин ва портлашга хавфсиз бўлиши, шамоллатиш системалари билан боғлиқ ҳамда фойдаланишда қулай бўлиши зарур.

Асосий ва ремонт-тиклаш ишларини бажариш учун узоқ, вақт ёки доимий равищда (2 соатдан ортиқ) одамлар ишлайдиган ҳар қандай бино ва иншоатларда иситиши амалга оширилиши керак.



1.-расм. Ҳаво билан иситиши агрегатининг схемаси: 1-шамоллаткич; 2-сувли радиатор; 3-темир ёпгичлар.

Паст босимли сув билан иситиши системаларида сувнинг ҳарорати иситиши мосламаларига кириш вақтида $85\text{...}95^\circ\text{C}$, улардан кайтиб чиқишида эса $65\text{-}70^\circ\text{C}$ атрофида бўлади.

Юқори босимли сув билан иситиш системаси сувни механик айланишини юзага келтирувчи ёпиқ системадан ташкил топган бўлади. Юқори босимли иситиш системалари иситиш жиҳозларида ҳарорат $120\text{--}135^{\circ}\text{C}$ гача етади.

Буғ билан иситиш системалари ҳам ўз навбатида паст босимли (70 кПа гача) ва юқори босимли (70 к Па дан юқори) бўлади.

Ҳаво билан иситиш системаларида совуқ ҳаво сўрувчи шамоллаткичлар ёрдамида калориферларнинг тентларига узатилади ва юқори ҳароратли тентлар орасидан ўтиши вақтида исиган ҳаво хонага йўналтирилади.

Буг ва сув қозонларидан фойдаланишида ҳавфсизлик тадбирлари.

Ишлаб чиқаришда биноларни иситиш ва айрим технологик жараёнларн амалга ошириш мақсадида буғ ва қайноқ сувдан кенг фойдаланилади. Шунинг учун турли хил қувватдаги буғ ва сув қайнатиш қозонлари ишлатилади. Бундай қурилмалардан ҳавфсизлик қоидаларига тўлиқ риоя қилинмай фойдаланилган вақтда авария ёки портлаш содир бўлиши мумкин. Бундай ҳавфлар асосан қуйидаги сабаблар натижасида юзага келади: сақлаш ва ўлчаш-текшириш қурилмаларининг носозлиги оқибатида, босимнинг ошиб кетиши, ўз вақтида техник қаровдан ва синовдан ўтқазилмаслик, қурилмаларини ишлаши вақтида назоратнинг йўқлиги, қозонда ва сув сатҳининг камайиши, қозон тубида ва деворларида қасмоқларнинг тўпланиб қолиши, қозон деворларини занглаши ва ҳоказолар.

Ишлаб чиқариш бинолари ичига ўрнатилган қозонлар ($t-100)\Delta V < 100$ шартга жавоб бериши зарур. Ахоли яшаш биноларига бириккан ёки яқин бўлган ишлаб чиқариш биноларида эса, қозонхоналар капитал девор билан ажратилиб ($t-100) < 5$ шартга жавоб бериши лозим. Бу ерда t -иши босимидағи туйинган буғ ҳарорати, ${}^{\circ}\text{C}$; ΔV -қозондаги буғ ҳажми, m^3 .

Буғ ҳаволарининг поли бетондан бўлиши керак, фақатгина вақтинча фойдаланиладиган буғ қозонларида пол тупроқли бўлиши мумкин.

Қаттиқ ёнилғилар буғ хоналардан алоҳида, ёнмайдиган деворлар билан ажратилган хоналарда сақланиши, суюқ ёқилғилар эса буғхоналардан ташқарида сақланиши ва уларнинг заҳира ҳажми суткалик сарфдан ошмаслиги зарур.

Барча буғ қозонлари маҳсус сақлаш клапанлари билан жиҳозланиши шарт. Бу клапанлар паст босимли қозонларда ишчи босимдан $0,01$ МПа ошганда, юқори босимли қозонларда эса босим ишчи босимидан $3\text{...}10\%$ ошганда автоматик тарзда ишга тушиши керак.

Барча буғ қозонлари маълум муддатда босим остида ва гидравлик синовдан ўтказилиб турилиши шарт. Синовлар қуйидаги ҳолларда ва вақтларда ўтказилади:

-қайта ўрнатилган ёки бошқа жойга кўчирилган ҳамда пайвандлаш, қувурларни алмаштириш ёки айрим элементларни алмаштириш билан таъмирланган барча қозонларда ички текширув ва гидравлик синов ўтказилади. Синаш босими завод паспортида кўрсатилган босим остида,

лекин, иш босимидаң камида 1,5 баробар күп ва 200 кПа дан кам бўлмаган миқдорда танланади;

-қозонлар тозалангандан ва таъмирлангандан кейин ишчи босимда, 1йилда камида бир марта ички текширув ва гидравлик синовдан ўтказилади;

-фойдаланишдаги қозонлар синаш босимида ҳар 6 йилда бир марта гидравлик синовдан ўтказилади;

Текшириш ва синашни ушбу қозондан фойдаланишда жавобгар шахс ўтказади. Синов текшириш вақти ҳамда унинг натижалари қозон паспортига ёзиб қўйилади.

Юқори босимда ишловчи буғ қозонларини давлат техник назорат инспектори, қозонни фойдаланишдаги жавобгар шахс билан биргаликда ўтказади. Бундай қозонлар қўйидаги вақтларда синовдан ўтказилади:

-қозонлар биринчи марта ва қайта ўрнатилганда;

-даврий – 4 йилда бир марта ички текширув ва 8 йилда бир марта гидравлик синов ўтказилади.

Буғ қозонларидан фойдаланиш ўта хавфли ишлар категориясиға кирганлиги сабабли, унда ишлашга 18 ёшга тўлган, тиббий кўриқдан ўтган, маҳсус дастур асосида ўқиб, имтиҳон топширган, гувоҳномага эга шахсларга рухсат этилади. Ишга рухсат этиладиган дастур асосида йўриқномалар ўтиш, уларнинг билимларини синаб кўриш ва қайта синаш ишларини маъмурият бажаради. Хавфсизлик техника бўйича қайта синов камида бир марта ўтказилади.

MA’RUZA № 25
ELEKTR VA GAZ PAYVANDLASH ISHLARIDA YONG’IN
XAVFSIZLIGINI TA’MINLASH

МА’RUZA № 26

YONG’INGA QARSHI TO’SIQ ISHLARINI TASHKIL QILISH

Ёнинга қарши тўсиқлар деганда - ёнғинларнинг тарқалишини маълум бир кўрсатилган вақтга чеклайдиган ҳамда меъёрий талабларга жавоб берувчи барча конструктив ёки ҳажмий режалаштириш ечимларини тушунамиз. Уларнинг асосий вазифаси хоналардаги ёнгинни бошқа хоналарига тарқалишини олдини олиш. Ёнғинларни чеклаш мақсадида биноларга ёнинга қарши тўсиқларни қуидаги турларини ўрнатиш кўзда тутилади:

- умумий;
- маҳаллий.

Умумий тўсиқлар – биноларнинг хоналардаги ёнгинни хоналардан-хоналарга, қаватлардан қаватларга тарқалишини чеклашга мўлжалланган (масалан, ёнинга қарши девор, тўсиқлар, ораёпмалар, бинолар орасидаги масофалар ва бошқалар);

Маҳаллий тўсиқлар - ёнгин конструкция ёки уларнинг бўшликлари, тўкилган суюқликларнинг юзаси орқали тарқайдиган ёнгинни чеклашга мўлжалланган (масалан, бортиклар, дренажлар, диафрагмалар, тўсиқлар ва х.к.).

Кўпинча ёнинга қарши тўсиқлар уларда турли тешик ва тирқишилар мавжуд бўлгани сабабли ўз вазифасини бажара олмайди. Талаб этилган ҳимоя бўлмаса, ёниш маҳсулотлари, қатор ҳолларда эса аланга ҳам қўшни хоналарга тарқалади.

Ёнгин сифатсиз терилган девор орасидаги тирқишилар, бўйлама ва кўндаланг деворлар орасидаги тўлдирилмаган чоклар, осма панеллар бўйлама ва кўндаланг чоклари орқали тарқалган ҳоллар бизларга маълум. Кўпинча ёнгин қурилиш конструкциялари (тўсин, пардевор ва бошқалар) ёриқлари, деворлар ёриқларидан тарқалади. Ёнинга қарши девор ва бостирмаларни кесиб ўтган ҳаво ўтказгич, вал, конвейер, кабел ва бошқа муҳандислик тармоқлари ёнгин тарқалиб кетиши сабабчиси бўлган ҳоллар ҳам кам эмас.

Меъёрий талабларга кўра, ёнинга қарши ташқи деворлардаги тешиклар майдони умумий майдоннинг 25% дан ортмаслиги ва ўтга чидамлилиги чегараси 1,2 соатдан кам бўлмаслиги керак.

Ёнинга қарши девор. Ёнинга қарши девор биноларни ҳажми бўйича хона ва бўлинмаларга бўлиб турувчи конструкция. Ёнинга қарши девор - пойдевор (фундамент) ёки пойдевор балкасининг устига жойлашган бўлиб, бинонинг баландлиги бўйича бинонинг конструкцияларни баландлиги бўйича кесиб ўтади. Ёнгин бўлмаларининг майдони меъёрий хужжатларга асосан аниқланади.

Тўсиқлар. Тўсиқ ёнинга қарши тўсиқларнинг бир тури ҳисобланиб, улар ишлаб чиқариш соҳаларида кенг қўлланилади. Уларнинг асосий вазифаси ишлаб чиқариш корхоналаридағи технологик жараённинг ёнгин хавфлилигига ва ҳар хил функционал вазифасига қараб биноларнинг хоналарини бўлинмаларга бўлиш. Бўлинмаларга бўлишнинг асосий

мақсади, қўшни хоналарга заҳарли ва газ-буғли портлаш хавфи бўлган ёки чанг хаволи аралашманинг тарқалишини чеклаш.

15. Ёнғинга қарши тўсиқлардаги эшик ўринларини ҳимоя қилиш.

/14; 15;20/

Ёнғинга қарши тўсиқлар эшик ўринларини ҳимоя қилишига мўлжалланган ёнғинга қарши эшикларнинг турлари. Ёнғин шароитида бир қаватли темир эшикнинг ҳолати. Иссикликдан изоляция қилинмаган темир эшиклар ишлатиладиган вазиятлар. Ўтга чидамлилик талаб этилган чегарасини таъминлай оладиган эшиклар тузилишига қўйиладиган талаблар. Ёнғинга қарши тўсиқ сифатида ёғоч эшиклардан фойдаланиши.

Ёнғинга қарши эшиклар ёнғинга қарши деворлар ёки бошқа ёнғиндан сақлайдиган тик тўсиқлар эшик ўринини ҳимоя қилишга мўлжалланган.

Ёнғинга қарши эшиклар тури ва уларнинг ўтга чидамлилиги минимал чегарасини ШНҚ 2.01.02-04 «Бинолар ва иншоотларнинг ёнғин хавфсизлиги» 2 жадвалига мувофиқ қабул қилиш керак.

Ёнғинга қарши тўсиқлар	Ёнғинга қарши тўсиқлар ва тўсиқ қисмларининг турлари	Ёнғинга қарши тўсиқ-лар ва тўсиқ қисмла-рининг оловга бардошлилик чегараси, с
Ёнғинга қарши эшик	1 2 3	1,2 0,6 0,25

Эшиклар бинони бўлмаларга ажратадиган ёнғинга қарши деворларда, турли даражада ёнғинга хавфли бўлган ва турли вазифаларни бажарадиган ишлаб чиқариш ҳамда функционал жараёнларни бир-биридан ажратиб турадиган пардеворларда ўрнатилади. Бир бинода турли жараёнлар тўплангани сабабли ёнғинга қарши пардеворлар вазифаси, демак, эшик-деразалар ўринини ҳимоя қилиш масаласи ҳам катта аҳамиятга эга бўлади

Портлаш ва ёнғиндан хавфли ишлаб чиқариш корхоналарида зина катакларини ҳимоялаш учун алоҳида аҳамият берилади. Амал қилаётган ёнғинга қарши меъёрларга мувофиқ, зина катагидан А ва Б тоифаларига оид ишлаб чиқариш хоналарига кириш жойларида ёнғинга қарши эшиклар билан ҳимояланган бўлиши керак. Ёнғинга қарши эшиклар оммавий равища ишлатилиши сабабли уларнинг турли тоифалари ишлаб чиқилган.

МА’RUZA № 28

YONG‘IN –PORTLASH XAVFI MAVJUD OBYEKTLARDAGI AVARIYALAR

Ҳозирги замон фан ва техникасининг ривожланиш бўсағасидаги иқтисод бир неча факторларга боғлиқ. Ушбу факторлардан бири ҳалқ хўжалиги масканларини талаб даражасида бўлиши, уларни ёнгин хавфсизлиги ҳолатини таъминланганлигига эътибор қаратишидир. Негаки, ушбу масканларда содир бўлган ёнгин нафақат катта микдордаги моддий заарга, балки, инсонларни бевақт ҳалок бўлишига олиб келиши мумкин.

Содир бўлиши мумкин бўлган ёнгин ёки портлаш ҳолати ва бунинг оқибатида келтириладиган катта микдордаги моддий заарларни олдини олишга қаратилган тадбирлардан бири, ёнгинларни олдини олиш масалаларини асосли ҳолда меъёрлашдир.

Ёнгин хавфсизлиги талабларини тизимлаштириш учун:

1. Ошиқча моддий маблағ талаб қилувчи талаблар қўймаслик ва бунда аниқ ҳолатни тўғри баҳолаш;

2. Доимий изланувчанликда бўлиш, яъни ёнгин хавфсизлигини таъминлаш одамларни ҳалок бўлишини, моддий заарни камайтириш ва фавқулодда ҳолатларни олдини олиш борасида технологик ҳолатларни ва услубларини такомиллаштириш.

Ишлаб чиқариш масканларининг ёнгин хавфсизлигини таъминлаш борасидаги илғор тажрибаларни қўллаш – энг долзарб ва бир жиҳатдан энг қийин муаммолардан биридир, қайсики бу ўз ўрнида технологик жараёнларни ёнгин хавфсизлигини баҳолаш билан боғлиқдир.

Услубий баҳолаш ҳолатларидан бири хона ва биноларни портлаб-ёниш ва ёнгин хавфи бўйича тоифалаш ёки баҳолаш услуби, технологик жараёнларни лойиҳалаштириш умумиттифоқ меъёрий хужжатида (ОНТП 24-86) белгиланган бўлиб, у «Хона ва биноларни портлаб-ёниш ва ёнгин хавфи бўйича тоифалаш» деб номланади.

Хона ва биноларни портлаб-ёниш ва ёнгин хавфи бўйича тоифасини аниқлашда қуидагиларга: Ёнувчи ва портловчи маҳсулотларни агрегат ҳолатига;

Маҳсулотларни ёниш ва портлаш бўйича хусусиятларга (портлашдаги юқори босими P_{max} , иссиқлик таъсирида ёниши Q_h , чақнаш ҳарорати T_{chak} , ўз-ўзидан ёниш ҳарорати $T_{uz.al.}$ ва x.k.);

Технологик жараённинг олиб борилиши шароитига;

Технологик қурилмаларнинг герметизация ҳолати бузилган ҳолларида портлаш хавфи бўлган концентрацияларни назорат қилувчи ва химояловчи техник воситаларни мавжудлигига;

Портловчи концентрация зonasини пайдо бўлиши учун аниқ шароитнинг яратилишига;

Ёндирувчи манбанинг пайдо бўлиши эҳтимолига;

Бир жойда тўпланган ёнувчи аралашманинг ёниши натижасида ҳосил бўладиган портлашдаги ошиқча босимига;

7. Бино конструкцияларини портлашдаги ошиқча босим таъсирига чидамлилигига эътибор бериш керак.

ОНТП 24-86 га асосан ишлаб чиқариш хоналари портлаб-ёниш ва ёнгин хавфи бўйича беш тоифага бўлинади, булар А, Б, В, Г, Д.

«А» тоифадаги хона (портлаб-ёниш хавфи)

Ёнувчи газлар ва чақнаш ҳарорати 28°C гача бўлган енгил алангаланувчи суюқликлар шундай микдорда бўладики, хонадаги ҳаво билан ёнувчан муҳит ҳосил

қилиб, шу ҳосил бўлган аралашма алангаланганда содир бўладиган портлашнинг ортиқча босими 5 кПа дан ошади.

Сув, ҳаводаги кислород билан ёки ўзаро таъсир қилиб ёниши ва портлаши натижасида ортиқча босим 5 кПа. дан ортиқ бўладиган материал ва моддалар ишлатиладиган хоналар.

«Б» тоифадаги хона (портлаб-ёниш ҳавфи)

Ёнувчи чанг, толалар ва чақнаш ҳарорати 28°C дан юқори бўлган енгил алангаланувчи ва ёнувчи суюқликлар шундай миқдорда бўладики, хонадаги ҳаво билан ёнувчан муҳит ҳосил қилиб, шу ҳосил бўлган аралашма алангаланганда содир бўладиган портлашнинг ортиқча босими 5 кПа.дан ошади.

«В» тоифадаги хона (ёнғин ҳавфи)

Ёнувчи ва қийин ёнувчи суюқликлар, қаттиқ ёнувчи ва қийин ёнувчи модда ва материаллар (шу жумладан чанг ва толалар), сув, ҳаводаги кислород билан ёки ўзаро таъсир қилиши натижасида фақат ёниши мумкин бўлган модда ва материаллар ишлатиладиган хоналар, қачонки шу модда ва материаллар мавжуд бўлган ёки ишлатиладиган хонлар «А» ва «Б» тоифасига кирмаслиги шарти билан.

«Г» тоифадаги хона

Ёнмайдиган модда ва материаллар иссиқ, қизиган ёки эриган ҳолатда, ишлов бериш жараёнида нур иссиқлиги, учқун ва аланга ажралиб чиқиши кузатилади; шунингдек, ёнувчи газ, суюқлик ва қаттиқ моддалар фақат ёқилғи сифатида ишлатиладиган хоналар.

«Д» тоифадаги хона

Ёнмайдиган модда ва материалларнинг совук ҳолатда бўлиши. «Д» тоифасидаги хоналарга мойлаш, совитиш ва гидросистемаларида ишлатиладиган ёнувчи суюқликнинг миқдори 60 кг. ва босими 0,2 мПа.дан ортиқ бўлмаган жиҳозлар, жиҳозларга уланган электр кабеллари ва алоҳида мебел жиҳози ўрнатилган иш жойларини киритиш мумкин.

МА'RUZA № 29

Paxta xomashyosini saqlash jarayonining yong'in xavfsizligi. Paxta xomashyosini saqlash maydonlariga bo'lgan talablar

Пахтани қайта ишлаш корхоналарида содир бўлган ёнғинларнинг таҳлили, ёнғинлар кўп ҳолларда пахта хомашёси сақланадиган жойларда содир бўлишини кўрсатади.

Пахта тайёрлаш пунктларида ва пахтани қайта ишлаш корхоналарида пахта хомашёси очик майдонларда бунтларда, бостирмалар остида ва омборларда сақланади.

Пахтани қайта ишлаш ва пахта тайёрлаш пунктларида пахта бунтларини тайёрлаш учун ХПП русумли пахта юклагичлардан, ТЛХ-18, ТЛХ-15, ТХГ, ПТХ-20 русумли транспортёrlар ва КЛП-650 лентали конвейерлардан фойдаланилади.

Бунтларни бузиш ёки очик омборлардаги пахта ғарамларидан пахтани олиб пневматик қувурлар орқали қуритиш ва тозалаш-қуритиш цехларига юбориш учун РБ, РП, РБХ-20 русумидаги ўзи юраги пахта бунтини бузгичлардан фойдаланилади.

ҚМҚ 2.10.01-96 «Қишлоқ хўжалиги корхоналарининг бош тарҳлари»нинг 3.19-банди бўйича пахта хомашёсини очик майдонларда

сақлаётган бунтлар ва бунт гурухлари орасидаги ёнғинга қарши оралиқ масофа 3.1 жадвал бўйича белгиланади.

1.жадвал

№	Ёнғинга қарши оралиқ масофа номи	Ёнғинга қарши оралиқ
1.	Бунтнинг бўйи тарафдан	30 метр
2.	Бунтнинг эни тарафдан	20 метр
3.	Бунтнинг бўйи ва эни тарафдан	30 метр
4.	Бунт гурухлари ораси	30 метр

Изоҳ: Бунтнинг ўлчами 25×14 бўлганда гуруҳдаги бунтлар сони 4 тадан, 22×11 бўлганда 6 тадан ошмаслиги лозим.

Пахта хомашёси уюмларидан бунтларгача бўлган ёнғиндан сақлаш масофаси 20 метрдан кам бўлмаслиги керак

3.20 банди бўйича пахта хомашёси сақланаётган бунтлардан бино ва иншоотларга қадар бўлган масофа 3.2. жадвал бўйича белгиланади.

2. жадвал

№	Ёнғинга қарши оралиқ масофа номи	Ёнғинга қарши оралиқ
1.	I-II даражадаги бино ва иншоотларидан	30 метр
2.	III даражадаги бино ва иншоотларидан	40 метр
3.	IV-V даражадаги бино ва иншоотларидан	50 метр
4.	Электр ёриш таянчларидан	Таянч баландлигини камида 1.5 баробари
5.	Енгил алангаланувчи ва ёнувчи суюқликлар сақлаш омборларидан	50 метр
6.	Ташкиллаштирилган темир йўлдан	50 метр
7.	Заводнинг ички темир йўлидан	30 метр
8.	Автомобил йўлларидан	10 метр

Пахтани қайта ишлаш корхоналари ва пахта тайёрлаш пунктлари худудидаги ёпиқ омборлардан қозонхонанинг ўчок бўлимигача бўлган оралиқ масофа 20 метрдан кам бўлмаслиги керак.

Пахта толасини сақлаш жараёнининг ёнғин хавфсизлиги

Пахта толасининг тузилиши алоҳида хусусияти ва уларнинг ёнғин хавфи пахтани сақлаш жойларда ёнғин хавфсизлиги талабларига қатъий риоя қилинишини талаб қилинади.

Пахтани қайта ишлаш корхоналарида пахта толалари ёпиқ бинолар; бостирмалар, очик-майдонларда тахланган ҳолатда (штабелларда) сақланади.

Пахта толаси сақланадиган ёпиқ бинолар, бостирмалар ёнувчан ва қийин ёнувчан материаллардан қурилган бўлиши мумкин.

Ёпиқ омборларнинг пахта толаси сақланадиган бўлим майдони олов бардошлиқ даражасига қараб қабул қилинади:

- I ва II олов бардошлиқ даражасида бўлган омбор биноси учун – 3000 м^2 ;
- III-IIIБ олов бардошлиқ даражасида бўлган омбор биноси учун – 2000 м^2 .

I-II олов бардошлиқ даражасида бўлган омборларда омборлар сони чегараланмайди, III-IIIБ олов бардошлиқ даражасида бўлган омборларда улар сони 4 дан ортмаслиги керак.

Корхоналардаги бостириларда сақланадиган пахта толасидан, ортиш платформалардан ва очиқ майдондаги пахта толаси сақланаётган штабеллардан бино ва иншоотларига қадар бўлган ёнгинга қарши масофа ҚМҚ 2.10.01-96 нинг **3.21-банди** 3.3-жадвали бўйича қуидагича белгиланади.

Барча ёнгинга чидамлик даражадаги ёпиқ турдаги омборлар ва бостирилар, очиқ майдонда тахланган пахта штабеллари тагидаги асослари ёнмайдиган материалдан тайёрланиши шарт.

Очиқ майдонларда пахта хомашёсини сақлаш жойларининг асосини баландлиги ер сатҳидан 20 см дан кам бўлмаслиги керак.

Очиқ майдондаги оғирлиги 300 тоннагача бўлган пахта хомашёси сақланадиган штабелларнинг ўлчами узунасига 22 метр, кенглиги 11 метр ва баландлиги 8 метргача бўлиши лозим ($25\times14\times8$).

Пахта толалари факат той ҳолатида сақланади, очилиб кетган тойлар (уринган тойлар) алоҳида штабелларга жойлаштирилиши лозим.

Ёпиқ турдаги омборларда пахта толалари ёнмайдиган материалдан тайёрланган таглик устига жойлаштирилади, бунда ўртадан узунасига 2 метр кенгликда йўлак қолдирилади, ва ҳар бир эшик қархисида ҳам худуди шундай кенгликдаги кўндаланг йўлаклар қолдирилиши керак. Пахта толаси тахланганда унинг юкориги қисмидан омбор томидаги ёнувчан конструкцияларигача бўлган масофа 1 метрдан кам бўлмаслиги зарур.

Пахта толалари сақланадиган бостирма полининг майдони 300 дан 600 м^2 гача бўлса, бунда кенглиги 2 метрдан кам бўлмаган битта кўндаланг йўлак қолдирилади. Агар майдон юзаси 1200 м^2 гача бўлса 3 та йўлақ, 1800 м^2 гача бўлса оралиғи бир хил бўлган 4 та йўлақ қолдирилади. Бостириларда сақланадиган пахта толасининг юкори қисмидан томнинг ёнувчи конструкциялари ўртасидаги оралик 1 метрдан кам бўлмаслиги керак.

МА’RUZA № 30
**Bino va inshootlarni paxtani qayta ishlash zavodlari maydonida
joylashtirishga qo‘yiladigan yong‘in xavfsizligi talablari.**

Пахтани қайта ишлаш корхоналарида юқори ёнғин хавфини туғдирувчи ёнувчан материалларнинг (пахта, момик ва чанг, ёқилғи билан ишлайдиган иссиқлик агрегатлари) таснифини, шунингдек қайта ишлаш вақтидаги ёнғиннинг содир бўлишига сабаб бўлувчи манбалари мавжуд.

Пахтани қайта ишлаш корхоналарида ёнғиннинг чиқиш сабаблари:

- электр қурилмаларни йиғища ва фойдаланишда ёнғин хавфсизлиги қоидаларининг бузилиши;

- кичик механизация воситаларининг носозлиги;

- пахтани қуритиш жараёнини бузилиши;

- ёнғинга эҳтиётсизлик билан муносабатда бўлиши;

- автотрактор техникаси тутун қувуридан чиқувчи учқун ва ҳоказолар.

Пахта - толали ёнувчан модда, қўйидаги асосий ёнғин хавфи ҳарорат кўрсаткичлари билан таърифланади:

- аланталаниш ҳарорати - 210°C ;

- ўз-ўзидан аланталаниш ҳарорати - $470-431^{\circ}\text{C}$;

- ўзи ёниш вақтидаги чўғлаш ҳарорати - 207°C .

Турли ёғлар шимдирилган пахта ўзи ёниб кетиш юқори мойиликка эга.

Тойлар туркуми орасида ЁҚ оралиқлар катталиги 30 м га тенг бўлиши керак.

Тойларнинг ён томонлари орасида ЁҚ оралиқлар катталиги 20 м га тенг бўлиши керак.

Пахта хом ашёси тойлар сақлашга майдонча $25 \times 14\text{m}$ катталиги бўлгандан тойлар сони гуруҳда кўпи билан 4 той бўлиши керак.

Пахта хом ашёси тойлар сақлашга майдонча $22 \times 11\text{m}$ катталиги бўлгандан тойлар сони гуруҳда кўпи билан 6 той бўлиши керак.

Пахта бунтнинг баландлиги 8 метргача бўлиши керак.

Юқори кучланишли электр линиясидан пахта хирмонига қадар хавфсизлик масофаси таянч баландлигини 1,5 баравар узунликда бўлиши керак.

Корхонанинг ҳаракатдаги ички темир йўлидан пахта сақлаш жойига қадар бўлган хавфсизлик масофаси 30 метр бўлиши керак.

Бунт ва пахта сақланадиган айвонлардан қуритиш – тозалаш цехи (СОЦ)га қадар бўлган хавфсизлик масофаси 30 метр бўлиши керак.

Тайёр маҳсулот омбори майдони 1500 m^2 дан ошмаслиги керак.

3.1.2. Корхона худуди баландлиги камида 2 м ли ёнмайдиган материалдан ясалган девор билан ўралиши керак.

3.1.3. Йўллар ва ўтиш жойлари автотранспорт воситалари ҳаракати учун очиқ бўлиши керак. Автомобил ва тракторларни пахта хирмонидан 100 метрдан кам бўлмаган масофада таъмирлашлари керак.

3.5.5. Корхона худудига шахсий автомобилларнинг кириши тақиқланади.

3.1.6. Корхона ҳудудида вақтингчалик иншоотлар қуриш, тураг-жой бинолари қуриш тақиқланади.

3.1.7. Корхона ҳудудида қуйидаги мақсадлар учун дарвозалар бўлиши керак:

- автотранспорт ва ўт ўчириш машиналари учун;
- темир-йўл вагонлари ўтиши учун;
- одамлар ўтиши учун.

Улар доимо қўриқлаб турилиши ёки қулфлаб қўйилиши керак.

Уларнинг калити эса қоровулхонада сақланиши керак.

3.1.8. Темир йўлнинг кесиб ўтиш жойларига, рельсларнинг юзаси билан баробар қилиб ёғоч тўшама солиш керак. Ўтиш жойларидаги вагонлар ва ҳаракатланувчи қисмларнинг тўхтаб туриши тақиқланади.

3.1.9. Кириш-чиқиши дарвозаларининг эни камида 4,5 м, баландлиги эса 5 м бўлиши керак. Уларнинг тавақалари очик ҳолда ушлаб турадиган мослама билан таъминланиши керак.

3.1.10. Ҳар бир пахта тайёрлаш пункти, пахта тозалаш заводи ва каноп заводи ҳудуди 5 га дан катта бўлса, транспорт учун камида иккита дарвоза билан таъминланади.

3.1.13. Сув ҳавзаларига ёки табиий сув манбаларига бориш учун эни 3,75 м дан кам бўлмаган қаттиқ юзали йўл ва 12x12 м ўлчамли майдон қилинади.

3.1.14. Корхона ҳудудида амалдаги стандартлар талабларига биноан хавфсизлик белгилари, чизиқлар, коммуникация ва биноларга, иншоотларга, пахта ва зигир ғарамларига, сув ҳавзаларига келиш йўллари қулай бўлиши керак ва ҳ.к.

3.2.2. Ишлаб чиқариш чиқиндилари корхона ҳудудидан олиб чиқиб кетгунча маҳсус бункер ёки транспорт воситаларида йиғилиши керак. Уларни ерга тўплаш ва корхона ҳудудида ёки ундан 150 м яқинда ёкиб юбориш тақиқланади.

3.2.3. Барча бино ва иншоотларга келиш йўллари очик бўлиши керак. Бинолар орасидаги ёнғинга қарши оралиқларга хом ашё, тайёр маҳсулот, материал ва бошқа нарсаларни таҳлаб қўйиш, автотранспорт, трактор, комбайн ва бошқа қишлоқ-хўжалик техника воситаларини жойлаштириш мумкин эмас.

3.2.4. Ёз ойларида бу оралиқдаги ўтларни вақти-вақти билан ўриб туриш керак. Лекин ўрилган ўтларни у ерда қуритиш ва тўплаб қўйиш тақиқланади.

3.2.5. Йўлларни созлаш ишлари факат корхона раҳбарининг рухсати билан ёнғин хавфсизлиги бошлиғи огоҳлантирилган ҳолда олиб борилади.

3.2.6. Корхона ҳудудида қурилиш материалларини, маҳсулот, деталлар, машина механизмлари ва ш.к. ларни бетартиб сақлаш тақиқланади.

3.2.7. Корхона ҳудудида носоз локомотив (тепловоз, мотовоз)лардан фойдаланиш тақиқланади.

3.3.8. Ўтни тўсувчи деворлар ва шиплар аланганинг тарқалишига тўскенилик қилувчи мосламалар (ёнғинга қарши эшик, шибер, заслонка, тутунга қарши мослама) билан таъминланиши керак.

МА’RUZA № 31
**Tekstil ishlab chiqarishda qo’llaniladigan modda va materiallarning
yong‘in xavfi**

Табиий тола – бу энг кенг тарқалган табиий ҳолдаги ўсимлик толаси. У пахтани қайта ишлаш корхоналарида пахта толасидан олинади. Пахта толаси чигитдан маҳсус технология орқали ажратиб олингандан сўнг ташишни енгиллаштириш учун оғирлиги 160-220 кг бўлган кип усулида прессланади.

Етилган пахта толаси юпқа целлюлоза деворли каналчали қувурчалар кўринишига эга бўлади. Каналларда қуриб қолган протоплазма қолдиқлари ва ҳаво бўлади. Тола ташқариси юпқа қатламдан иборат бўлиб, унинг таркибига ўсимлик, жонивор мойлари ва мум киради. Бу моддалар толанинг ҳўлланишини қийинлаштиради.

Пахта толаси кимёвий-таркибиغا кўра қуидаги моддалардан ташкил топган: целлюлоза- 94,5 %, оқсил- 1,2 %, мумсимон моддалар – 0,3-0,6 %, пектинлар – 1,2 %, чиқинди (ис, куя)-1,14 % ва бошқа моддалар-1,36 %.

Пахта, ёнувчи толасимон енгил алангаланувчи материал (модда), ёндириш манбаидан узоқ вақт чўғланиб ёниш хоссасига эга ва бунда ёниш натижасида ҳосил бўлган газсимон моддаларни ўзига ютади. Алангаланиш ҳарорати- 210°C ; ўз-ўзидан ёниш ҳарорати- 407°C ; ўз-ўзидан қизиш ҳарорати- 60°C ; пахта чангининг ҳаводаги миқдори $44\text{-}90 \text{ г}/\text{м}^3$ бўлганда портловчан муҳит; чанг миқдори $395 \text{ г}/\text{м}^3$ бўлганда портлаш натижасида ҳосил бўладиган максимал босим 630 кПа teng бўлади; босим ошишининг тезлиги $12,9\text{-}17,5 \text{ МПа}/\text{с}$; минимал ёндириш энергияси 25 мДж . Пахта азот ва сульфат кислотаси ҳамда оксидловчилар билан таъсирлашганда ўз-ўзидан ёнишга лаёқатлидир. Пахтага теккан ўсимлик ёғлари енгил оксидланади ва унинг ўз-ўзидан алангаланишига олиб келади.

Тўзитилган пахта чиқиндининг ёниб тугаш тезлиги тажриба йўли билан аниқланган. Чиқиндининг энг катта ёниб тугаш тезлиги биринчи 5 дақиқада бўлиб, бу тезлик $30 \text{ кг}/(\text{м}^2*\text{соат})$ етган. 5 дақиқадан сўнг чиқиндини ёниб тугаш тезлиги бир текисда камайиб борган ва 20 дақиқанинг сўнгида ўртача ҳисобда тезлик $10 \text{ кг}/(\text{м}^2*\text{соат})$ га teng бўлган. Тажриба шуни кўрсатди, ёниш маҳсулотларини чиқариб юбориш учун шахта кесишимасининг ўсиши чиқиндининг ёниб тугаш тезлигини ортиб боришига олиб келади. Тажриба давомида ўртача ёниб тугаш тезлиги $15 \text{ кг}/(\text{м}^2*\text{соат})$ га teng бўлган. Ёниш маҳсулотининг концентрацияси хонадаги газ алмашинувига боғлиқ. Ортиқча ҳаво коэффициенти 9,6 бўлганда тажрибанинг бошланғич 2-дақиқасидан сўнг шахтадаги газларнинг концентрацияси: азот $78,9 \text{ %}$, кислород 19 % , карбонат ангидрид $1,7 \text{ %}$, углерод оксида $0,4 \text{ %}$ ташкил қилган. Омборхоналардаги прессланиб той пахта (кип) ҳолатига келтирилган ва штабел усулида тахланган пахталар ёнганда 5-7 дақиқа ичидаги олов биринчи бўлиб штабелларни устки юза қисмини қамраб олади, сўнг аста секинлик билан ички қисмига кириб боради. Бунинг натижасида тўлиқ ёниш юз бермаганлиги туфайли катта миқдорда заҳарли тутун ажраб чиқади. Той пахта (кип) тўлиқ ёнмаслиги ҳавони кирмаганлиги туфайли содир бўлади ва бундай ҳолатда ёниш бир

неча соатлаб, ҳатто суткалаб давом этиши мумкин. Ёниб бўлган пахтадан кул ранг сочилиб кетувчи кул қолади. Қуида пахтани ёнғин хавфи бўйича кўрсаткичлари келтирилган.

Ёниш ҳарорати, $^{\circ}\text{C}$	210
Чўғланиш ҳарорати, $^{\circ}\text{C}$	205
ўз-ўзидан ёниш ҳарорати, $^{\circ}\text{C}$	407

Пахта толаси алиф ёки ўсимлик ёғи билан шимдирилса, азот ёки сульфат кислотаси таъсирида ўз-ўзидан ёнади. Толадаги алиф ёки ўсимлик ёғи ўз-ўзидан ёниш ҳолатини тезлаштирганлиги билан ёнғин хавфига эга. Алиф шимдирилган пахтани бир неча соатдан сўнг ёниб кетган ҳолатлари маълум, мисол учун 200 грамм олиф ёғи шимдирилган ва $150 \times 105 \times 105$ ҳажмга эга қисман сиқилган пахта, 40°C ҳароратда 9 соатдан сўнг ёниш юз берган.

Зифир поя (лён) толаси. Уни зифир пояларидан олинади. Зифир пояси цилиндр шаклидаги узун поядан иборат бўлиб, унда турли мақсадда ишлатиладиган кичик тўпламдаги тўқималар концентрация ҳолатида жойлаштирилган. Қуритилган зифир поясида ёғочга 70-75 % ва узун толали зифирпоя тўпламига 25-30 % тўғри келади. Пўстлоқ қатламининг тўпламидан техник зифир поя толаси олинади. Техник зифир поя толанинг кимёвий таркиби қуидагилардан иборат: целлюлоза - 80 %, ўсимлик мўми ва ёғ - 2,5 %, лигнин - 2 %, зола - 0,7 %, азотли пектин моддалар ва бошқа аралашмалар - 6,6 %.

Зифир поя толаси кичик энергияли ёндириш манбасидан ҳам осон ёна олади. Смоленск ёнғин техник станциясининг маълумотига кўра, зифир поя толасининг юзаси бўйлаб ёнғин тарқалиш тезлиги, вертикал ҳолатда $0,15$ м/с, горизонтал ҳолатда $0,09$ м/с (2 м/с шамол тезлигида) ташкил қиласди. Тўзиган зифир поя толасининг ёниб тугаш тезлиги - $0,47$ кг/ $(\text{м}^2 \cdot \text{дақиқа})$. Толани ёниши давомида унинг ҳарорати 1160°C га қадар кўтарилади, максимал иссиқлик нурланиши эса $4-6$ ккал/ $(\text{см}^2 \cdot \text{дақиқа})$ тенг.

Каноп толаси канопни бирламчи қайта ишлаш орқали олинади. Каноп узунлиги ва техник хусусиятига кўра арқонли, ипли ҳамда тола қалинлигига қараб яна бир неча турга бўлинади. Каноп толасида 74 % дан 77 % гача целлюлоза мавжуд. Ёнғин хавфи бўйича зифир поя пахта толасига яқин.

Ҳиндистон канопи (джут) тара маҳсулотларини тайёрлашда ишлатилади. Ҳиндистон канопи учқунда осон ёна олади. 107°C ҳарорат остидаги иссиқлик таъсирида ёна олиш ва кимёвий ўз-ўзидан ёниш хусусиятига эга (яъни ўсимлик ёғи шимдирилган катта микдордаги ва нам ҳолатдаги каноп иссиқ жойда сақланса). Ҳиндистон канопида ёғ кичик тезлик билан ишқорланади, негаки, каноп кичик юза улушига эга. Каноп микробиологик ўз-ўзидан ёниш хусусиятига эга.

Сунъий кимёвий тола. Сунъий толаларга вискоз, ацетат, триацетат, полиноз, мис-аммиакли ва бошқалар киради. Вискоз толасини ишлаб чиқариш учун ёғочдан олинадиган табиий целлюлоза қўлланилади. 1 м^3

ёғочдан 140 кг қадар вискоз толаси олинади. Уни ип (жгут) ва штапел толаси кўринишида олинади. Штапел толасини пахта, жун, лавсан, капрон ва бошқа толалар билан аралашган ҳолда қайта ишлаб чиқарилади.

Вискоз толаси ёндирилган қофоз исини берувчи ҳид тарқатиб жуда катта тезлик билан ёнади. $175\text{-}180^{\circ}\text{C}$ ҳароратда вискоз толаси эрий бошлайди, 235°C ҳароратда эса ёниб кетади. Кичик энергияли ёндириш манбасидан ҳам ёна олади. Вискоз толаси кимёвий ёки микробиологик ўз-ўзидан ёниш хусусиятига эга эмас. Ёнаётган тола сочма сув билан яхши ўчирилади.

Ацетат толаси. Толани ишлаб чиқариш учун биринчи хомашё сифатида ацетилцеллюлоза ишлатилади. Ацетилцеллюлозани олиш учун ёғоч целянозасига уксус кислотаси (эритувчи сифатида) ва олтингугурт кислотаси (катализатор) иштирокидаги уксус ангириди билан ишлов берилади. Ацетилцеллюлоза органик эритувчиларда эрийди. Ацетат толасидан олинган ип жуда ингичка бўлиб, юқори сифатли газлама ва трикотаж маҳсулотларини ишлаб чиқариш учун ишлатилади. Ацетат ип ва ацетат штапелли толалар вискоз толасидан сифати билан фарқ қиласи. Ацетат толаси тез ёнади ва толанинг охирги учида ўралиб олган қаттиқ тўқ-қўнғир рангли шарча ҳосил қиласи. Олов олингандан сўнг ёниш тўхтатилади. Ёниш маҳсулотлари уксус кислотасининг исини билдирувчи ҳид тарқатади.

Ацетат толаси 320°C ҳароратда ёнади, ўз-ўзидан ёниш эса 445°C ҳароратда юз беради. Ацетат толаси кимёвий ўз-ўзидан ёнишга мойил эмас. Тола микроорганизм ва плесенига юқори даражада чидамлик, лекин органик эритувчиларга, ацетон ва мураккаб эфирларга чидамсиз, яъни тола кучли ҳолда ишиб кетади ва эрийди, перхлорэтиленда эса қисман шикастланади ҳам. Тола 10 % ли қуруқ натрий таъсирида сарғиш тус олиб чангланади ва эрийди. Толанинг гидроскоплиги 6-8 %, ўчириш воситаси сифатида сочма сув қўлланилади.

Сунъий толаларни оддий органик бирикмаларни кимёвий синтез қилиш йўли билан олинади. Сунъий толани олиш учун бирламчи хомашё сифатида ацетилен, бензол, винилацетат, стирол, этилен, этиленгликоль ва бошқалар ишлатилади.

Хозирги кунда сунъий полiamидли толалар капрон, анид, эзант; полиэфирли-лавсан; поливанилли-хлорин, виннон, саран; полиакрилонитирлли – нитрон толалар кенг миқёсда ишлаб чиқилмоқда.

Полиамидли тола. Бу толани ишлаб чиқариш учун фенолни мураккаб кимёвий қайта ишлаш йўли билан олинадиган поламидли смола қўлланилади. Полиамидли смолалар бир-биридан унчалик фарқ қилмайди. Мисол учун: анид смоласи кимёвий тузилишга кўра капрон смоласидан фарқ қилмайди, лекин капронга нисбатан 40°C юқори ҳароратда эрийди. Текстил хусусияти бўйича капрон толаси анид толаси билан бир хил, эзант толаси эса капронга нисбатан юқори ёруғликка чидамлилиги ва эгилувчанлиги (эластичность) билан фарқ қиласи.

Капрон ва эгилувчан толани ишлаб чиқариш учун полимеризацияция қилингандан, поликапролактам ҳосил қилувчи капралактам қўлланилади.

Эриган қориshmадан охирги вазиятда капрон толаси олинади. Анид толаси гексамитлендиамина ва адипин кислотасидан олинади. Энант толаси эса бошланғич моддалар этилен, түрт хлорли углерод ва порфор ЧХЗ-57 бўлган аминоэнаннт кислотасидан олинади.

Полиамид толасидан устки трикотаж, қўйлак, плаш ва бошқа маҳсулотларини ишлаб чиқаришда фойдаланилади. Штапелли полиамил толаси жун, пахта, вискоз ипи ва бошқа толалар билан биргалиқда қайта ишлайди. Иссиқлик таъсирида куйиб, қотиб қоладиган цеплюзали толаларга нисбатан полиамид толаси эрийди. 140°C ҳароратда толанинг мустаҳкамлиги 60-70 % камаяди. Капрон $214\text{-}218^{\circ}\text{C}$, анид $250\text{-}255^{\circ}\text{C}$, энант $223\text{-}230^{\circ}\text{C}$ ҳароратда эрийди. Толалар ҳидсиз, яна қайта ип олиш имкони бўлган юмшоқ шариклар ҳосил қилиш билан эрийди. Бу материаллар эриган ҳолатида жадаллик билан ёнади.

Капрон 395°C ҳароратда, анид 355°C , энант 415°C ҳароратда ёнади. Ёнаётган полиамид толалари сочма сув билан яхши ўчирилади.

Тола чиқиндиларининг ёнгин хавфи

Барча толали маҳсулотларни қайта ишлаш жараёнида ахлат чиқади (чиқинди) ва улар бир неча гурухга бўлинади: калавали, майший пахта (вата) ли, қайтарма ва ҳ.к. қолдиқлар.

Калавали чиқиндилар маълум захира хомашё сифатида фойдаланилади. Шунинг учун ип-калава ишлаб чиқариш корхоналарида уларни тўлиқ хомашёга қўшимча ёки нави паст ашё сифатида қўлланилади. Чиқиндиларни қайта ишлаш учун чиқинди тозаловчи, титувчи ва бошқа машиналардан фойдаланилади.

Майший пахта чиқиндилари турли навдаги пахталар олишда қўлланилади. Турли чиқиндиларни эса той ҳолатида пресслаб хўжалик эҳтиёжлар учун юборилади.

Калава ишлаб чиқариш машиналарида тозаловчида ип узилганида ўралиб қолган ҳалқа кўринишидаги чиқиндилар ҳосил бўлади. Ҳалқаларни ипни ажратиб оловчи ва титув машиналарида қайта ишловдан ўтгандан сўнг қолдиқлар билан қўшиб аралаштирилади ва той (кип) ларга прессланади.

Барча чиқиндилар ва шу билан бир қаторда қайтарма қолдиқлар ҳам цехлардаги чиқинди бўлимига келиб тушади ҳамда навларга ажратилади. Чиқинди бўлимида қайта ишлаш ва пресслаш жиҳозлари ўрнатилган бўлиб, чиқиндилар 120-130 кг оғирликдаги тойларга жойлаштирилади.

Кўпинча ишлаб чиқариш чиқиндилари ўз таркибига кўра тўрли кўриниш ва келиб чиқишдаги толалардан иборат бўлади. Шунинг учун ишлаб чиқариш чиқиндиларининг ёнгин хавфи улар таркибида қандай компонентлар мавжудлиги ва улар аралашмада қанча фоизлиги билан белгиланди.

Чиқиндилар ёнишининг биринчи 2-4 дақиқаларида ҳароратни бирдан кўтарилиши кузатилади. Тажрибалар натижасида уларнинг ўртача ёниш тезлиги $7,1 \text{ кг}/(\text{м}^2*\text{соат})$ эканлиги аниқланган. Иссиқлик ажраб чиқиши 3500 ккал/кг teng. Алангани толали материаллар юзаси бўйлаб ўртача тарқалиш тезлиги 0,015 м/сек.

МА’RUZA № 32
Yog‘och, plastmassalarga mexanik ishlov berish jarayonlarining
yong‘in xavfi. Xavfsizlik choralarini.

Ёғочни қайта ишлаш корхоналарида мебел жиҳозлари, ёғоч қириндили плиталар, фанералар, дурадгорлик маҳсулотлари (дераза, ром, эшик ва х.з.) уйларнинг йигма қисмлари ва бошқа турли маҳсулотлари ишлаб чиқарилади. Ёғочнинг қайта ишлаш технологияси қуидаги жараёнларга бўлинади: корхонага келган тўсинли ёғочларни арралаш ва уларни қуритиш камераларида қуритиш, бошланғич яrim тайёр маҳсулотларни тайёрлаш ва жиҳозларнинг каркас асосларини йифиш, маҳсулотга сўнгги ишлов ва бўёқ бериш. Айтиб ўтилган технологик жараёнлардан ташқари ёғочни қайта ишлаш корхоналари қуидаги асосий цехларни (бўлим) ўз ичига олади: тайёрлов, қуритиш, дурадгорлик, ишлов ва бўёқ бериш, ёғоч тараларни йифиш, елимлаш ва тайёр маҳсулотлар омборлари. Бундан ташқари, елим тайёрлаш, механик таъмирлаш, ускуна-жиҳоз тайёрлаш ҳамда турли ишларни бажарувчи ёрдамчи хоналардан иборат.

Ёғочни қайта ишлаш корхоналарида асосан ёғочни[|] механик қайта ишлаш жараёнлари олиб борилади, яъни арралаш, рандалаш, тешиш, пардозлаш, штамповка, бостириш ва бошқалар.

Корхоналарда ёғоч маҳсулотларига механик ишлов бериш давомида кўп миқдорда ёнувчи чанг, қиринди ва бошқа чиқинди маҳсулотлари ажralиб чиқади ва улар агрегатлар, жиҳозларга ҳамда бино конструкцияларига тўпланиб ўтириб қолади. Айниқса ишлов беришда агрегатлардан чиқаётган ёғоч чанги ҳаво билан араласиб портлаши мумкин бўлган муҳит ҳосил қиласи.

Маҳсулотларни бир бирига ёпиштириш учун сунъий сақичдан олинадиган ва таркибида енгил аллангаланувчан эритувчи бўлган елимлар (фенолформалдегидли, эпоксидли, карбадимли ва х.к.) қўпроқ қўлланилади, бу эса ўз ўрнида елим қайнатиш ва елим тайёрлаш участкалари бўлган ёғочни қайта ишлаш корхоналаридаги цехларни ёнғин хавфини орттиради.

Ёғочни қайта ишлаш цехларида ёндириш манбалари бўлиб қуидагилар хизмат қилиши мумкин: машина ва ускуналарнинг тез айланувчи қисмларини яхши мойланмаганлиги сабабли ишқаланишдан ҳосил бўлувчи иссиқлик; ҳаракатдаги ва ҳаракатсиз механизмлардан бузилиши натижасида пайдо бўлган учқунлар, очиқ олов (елимларни эритишида, пайвандлаш ва бошқа очиқ олов билан боғлиқ ишлар), ёғочларга ишлов беришда содир бўладиган учқунлар (мих, темир парчалари ва х.к.) ҳамда металлни металлга ёки бетон, тош жисмларга урилиши натижасида ҳосил бўладиган учқунлар. Лак-бўёқларни қуритиш, бўёқ бериш ва ҳаво алмашинуви қувурларида қолган қолдиқларни, ёки

мойланган ёғоч маҳсулотларини ўз-ўзидан ёниб кетиши, электр станок ва двигателларни кабел, симларини химоя қобиғини шикастланиши натижасида содир бўлувчи қисқа туташувлар, статик электр токлари, яшин ва бошқалар.

Ёнгин хавфсизлигини таъминлашнинг асосий вазифаси ёнувчи муҳитни ҳосил бўлишини, ёндириш манбаларини ва ёнгин тарқалиши мумкин бўлган йўлларни олдини олиш ҳамда камайтиришга қаратилган.

Ёғоч чиқиндиларининг тўпланиб қолишини олдини олиш учун технологик ускуна ва агрегатларда тўпланган чанг, қиринди ва ҳ.к.лардан сменада камида бир маротаба, курилиш конструкциялари икки ҳафтада бир маротаба тозаланади. Булар қўл ёрдамида ҳамда механизация, яъни ҳаво ёрдамида сўриш мосламалари (пневмотранспорт, пылесос) орқали тозаланади.

Ишлаб бўлинган ёки емирилган ишлов бериш (шлифовка) қофози белгиланган вактда алмаштирилади. Ишлов бериш ускуналарини шлифовка қофозлари билан тўқнашадиган устки қисми учкун чиқмайдиган маҳсулотдан тайёрланади.

Агрегат ва ускуналарнинг айланиш қисмларидаги подшипникларнинг қизиб кетишини назорат қилиш учун термопара ёки қаршилик термометрлардан фойдаланилади, баъзи ҳолатларда уларнинг устки қисмига иссиқликка қарши бўёқ (термокраска) қўлланилади. Умуман олганда, подшипникларни марказлаштирилган тарзда мойлаб туриш мақсадга мувофиқдир. Ҳар бир ускуна ишончли ўчириб ёкиш мосламалари билан жиҳозланади.

Ишлов бериш цехларида (бўлим) лак-бўёқ бериш, эритувчи маҳсулотлар, ёнувчи чанг ажralиб чиқувчи, яъни портлаб-ёниш хавфи бўйича «А» ва «Б» тоифаларига кирувчи хоналар бинонинг ташқи девор тарафига ва кўп қаватли биноларда юқори қаватларга жойлаштирилади ҳамда енгил очиб ташловчи конструкциялар билан жиҳозланади.

Чанг тортиш тизимининг қувурлари ва вентиляторлари чанг тўпланиш ҳолатига қараб ёки бир ойда камида бир маротаба тозаланади. Бунинг учун қувурларда махсус туйнук ёки очиб йиғиладиган мосламалар ўрнатилади.

Содир бўлган ёнгиннинг тарқалишини олдини олиш мақсадида қувурлар, вентиляция каналлари, циклонлар ёнмайдиган материаллардан тайёрланади, бундан ташқари иссиқлик сезувчи мосламалар (енгил эрувчи ва енгил ёнувчи мосламалар ҳ.к.) билан жиҳозланган тўсиқлар ўрнатилади

Агар ишлаб чиқариш корхоналарини лойиҳалаш ва қуришда унда бажариладиган ишларнинг маъносидан келиб чиқадиган талаблардан ташқари унга техник мустаҳкамлик, санитар-гигиеник ва иқтисодий талаблардан ташқари унга ёнгин хавфи ва ёнфинга қарши турла олиш талаблари ҳам қўйилади.

ҚМҚ II-2-80 га асосан ҳамма қурилиш конструкциялари ёниши бўйича уч группага бўлинади.

Ёнмайдиган конструкциялар-буларга катта ҳарорат таъсирида, ёки алланга таъсирида ёниб кулга ёки кўмирга айланмайдиган қурилиш конструкциялари киради (масалан, металл конструкциялар ва минерал материаллар).

Кийин ёнадиган конструкциялар-бунга катта ҳарорат ёки кучли алланга доимий таъсир этган тақдирда тутаб ёнадиган, алланга таъсири йўқолиши билан ўчадиган қурилиш конструкциялари киради, (ўтга қарши воситалар билан ишлов берилган ёғоч конструкциялар ва саноат чиқиндилардан тайёрланган ярим органик ва ярим минерал моддалардан тайёрланган конструкциялар).

Ёнадиган конструкциялар - буларга алланга ёки катта ҳарорат ёндирувчи восита бўлиб, кейин аллангани олиб кетилгандан кейин ҳам ёнишда давом этадиган саноат конструкциялари киради (ёғоч материаллар, қурилишда ишлатиладиган турли-туман пластмасса материаллари).

Бино қурилишида ишлатиладиган қурилиш конструкцияларнинг ёнфинга чидамлигини ёки ёниши уларнинг қандай материалдан тайёрланганлигига тўғридан-тўғри боғлиқ бўлади.

Аммо баъзи бир ҳоллардан конструкцияларнинг ўтга чидамлигига унинг таркибига кирадиган материалларнинг ўтга чидамлигига нисбатан кўпроқ бўлиши мумкин. (Масалан иссиқ сақловчи изоляция воситаларини метал тунука билан қоплаб унинг ўтга чидамлигини ошириш мумкин).

Ёнгин шароитида қурилиш конструкцияларига катта ҳарорат таъсиридан ташқари бошқа кучлар ҳам таъсир кўрсатади. Масалан конструкциянинг ўз оғирлиги, у кўтариб турган умумий оғирликдан ташқари яна қўшимча статик ва динамик кучлар таъсир кўрсатиши мумкин, бу сочилаётган сувнинг оғирлиги, йиқилаётган ва босим тушаётган бино қисмларнинг оғирлиги ва ҳоказо. Шунинг учун ҳам бандай кучлар таъсирида конструкциялар эгилиши, букилиш ва мустаҳкамлигини йўқотиб, ўз кўтариш қобилиятига птур этиши мумкин.

Бундан ташқари ёнгин вақтида қурилиш конструкциялари хавфли даражадаги катта ҳароратда қизиш, эриб ёки куйиб кетиши, шунингдек ёриқлар ҳосил бўлиши мумкин, бу ёриқлар орқали ёнфингнинг қўшни хоналарга тарқалиш хавфи кучайиб кетади. Шунинг учун ҳам саноат конструкцияларининг маълум муддат ўтгач чидаб бериш ҳоллатлари белгиланади ва бу ишлатиш функцияси сифатида ўтга чидамлилик деб юритилади.

Материал ва конструкцияларнинг ўтга чидамлилиги ўтга чидамлилик чегараси билан белгиланади. Ўтга чидамлилик чегараси асосан тажриба йўли билан аниқланади. Тажриба усулини қўлланганда асосан маҳсус стендлардан фойдаланилади. Синалаётган конструкция стендда ўрнатилиб уни маълум вақтгача, ёнгин вақтида ҳосил бўлиши мумкин бўлган ҳароратда қиздирилади. Бу қиздириш давомида қурилиш конструкциясида баъзи бир ўзгаришлар рўй бериши мумкин.

1) Конструкцияда ёрилишлар ва тешиклар ҳосил бўлиши мумкин.

Бу тешик ва ёриқлар орқали алганга ёки ёнгин маҳсулотлари муҳофазаланаётган томонга ўтиб кетиши хавфи туғилади.

2) Қиздирилаётган конструкция юзасининг қарама-қарши томонидаги юзанинг деярли ҳаммаси 160 °C гача қизиса ёки қиздириш бошланган ҳароратга нисбатан баъзи бир нуқталардан 190 °C ҳарорат ҳосил бўлса ва қиздириш бошлангандаги ҳароратдан қатъий назар 220 °C ҳарорат ҳосил бўлса,

3) Конструкция ўз кўтариш қобилиятини йўқотиб бузилиб тушса, унда бу конструкция ўз ўтга чидамлилини даражасига етди деб ҳисобланади.

Ўтга чидамлилик чегараси соатларда белгиланади. Мана шу ўтга чидамлилик чегара соатларнинг катталигига қараб қурилиш конструкцияларнинг ўтга чидамлилик даражаси белгиланади. Бу даражалар рим сонлари кўринишида I, II, III, IV, V деб белгиланади.

I даражадаги ўтга чидамлилика эга бўлган биноларнинг асосий деворлари зинапоя майданлари ва колонналарининг ўтга чидамлилик чегараси 2,5 соатдан кам бўлмаслиги, ташқи девор ва оралиқ деворлар 0,5 соатдан кам бўлмаслиги керак. II даражадаги бинолар эса юқоридаги кўрсаткичлар 2,1 ва 0,25 соатларни ташқил қилиши керак.

V даражадаги бинолар учун эса ўтга чидамлиликнинг минимал миқдори белгиланмайди.

Қурилиш конструкцияларининг ўтга чидамлилик даражасини ошириш имкониятлари мавжуд. Масалан, металл конструкцияларнинг ўтга чидамлилик даражаси ниҳоятда паст бўлиб, тахминан 15-20 минут ичида ўз кўтариш қобилиятини йўқотиб, эгилиб букилиб кетади. Агар бу конструкцияни ўтга чидамли буёқлар билан мойласак унинг ўтга чидамлилиги бирмунча ортиши мумкин. Агар бу конструкцияни алебастр ёки цемент растворлари билан сувасак унинг ўтга чидамлилигини 1 соатга етказишимиш мумкин. Агар металлдан қилинган колонналарни гипс плиталар билан қопласак, агар бу плиталарнинг қалинлигини 6 см дан кам бўлмаса, унда биз бу колонналар ўтга чидамлилик чегарасини 3 соатга етказишимиш мумкин.

Ёғоч конструкцияларнинг ўтга чидамлигини ошириш муҳим аҳамиятга эга, чунки ёғоч конструкцияларни 270-280 °C гача қиздириш бу конструкцияларнинг ёнишини таъминлайди. Агар ёғочдан қилинган конструкциялар яхшилаб сувалса, унда уларнинг ўтга чидамлилиги ортади. Сувоқ қилиши учун асбоцемент ва гипс растворларидан фойдаланиш мумкин. Сувоқнинг қалинлиги 20 мм бўлганда ёғоч конструкциясининг ўтга чидамлилиги 20-25 мин га етиши мумкин.

Ёғоч конструкцияларнинг ўтга чидамлилигини оширишда антипирен деб аталувчи моддаларни ёғоч конструкция устига сепиш ёки шимдириш яхши натижа беради. Антипиринлар химиявий бирикмалар бўлиб, ёғоч таркибиға кириб бориши натижасида унинг ёнишини қийинлаштиради. Агар ёғоч материалига антипирин $75 \text{ кг}/\text{м}^3$ миқдорида шимдирилса, яхши натижага эришилади. Бундай шимдириш, чуқур шимдириш деб аталади ва маҳсус мосламаларда амалга оширилади.

Бундан ташқари антипиринни юзани ишлов бериш йўли билан ҳам шимдириш мумкин. Бунда антипирин тежалади, чунки 1м^2 юзага 100 г антипирин тузи сарфланади. Бундай ишлов беришлар ёғоч конструкциясини бутунлай ёнмайдиган қилолмаса ҳам бирмунча ёнишини қийинлаштириш ҳисобига ўтга чидамлилигини оширади. Бундан ташқари ёғоч конструкцияларини ёнғинга қарши буёқлар билан ишлов бериши ҳам, бирмунча ижобий натижалар беради.

Ишлаб чиқариш корхонаси ҳудудини зоналарга ажратиш

Корхоналарни лойиҳалаш ва қуриш жараёнида ёнғинга қарши чора-тадбирлар белгиланади. Бу чора-тадбирлар ишлаб чиқариш корхонаси бош планига киритилади. Бу чора-тадбирларнинг энг муҳимларидан бири ишлаб чиқариш корхонаси комплексларини ва биноларини бир-бирига бажариладиган иши ва ёнғинга хавфлигини ҳисобга олган ҳолда жойлаштиришдир. Бунда ўта ёнғинга хавфли комплекслар албатта территориянинг шамол йўналишига қарама-қарши томонда жойлаштириш тавсия этилади.

Ишлаб чиқариш корхоналарини зоналаштиришда, корхона жойлашган жойнинг баланд - пасти, шамолнинг асосий йўнилиши ва кучи ҳисобга олинади. Бунда енгил аллангаланувчи суюқликларни жойлаштирганда уларни ҳудуднинг қуйироқ участкаларига жойлаштириш тавсия этилади. Чунки акс ҳолда ёнғин бўлган тақдирда енгил аллангаланувчи суюқлик паст бўлган томонга оқиб, алланганинг умуман ҳамма майдонларга тарқалиб кетиши имкониятини яратади.

Ишлаб чиқариш корхоналарини иситиш воситалари, қозон курилмалари одатда очиқ алланга ёрдамида ишлатилади ва улардан чиқиш мумкин бўлган учқунлар ёнғин хавфини түғдирувчи асосий воситалардан бири ҳисобланади. Шунинг учун ҳам бундай воситалар шамол йўналишига қарам-қарши томонда енгил аллангаланувчи суюқликлар ва суюқтирилган ва сиқилган газларни жойлишини ҳисобга олган ҳолда жойлаштирилади.

Ёнгин хавфсизлигини таъминлашда завод ҳудудидаги автомобил ҳаракатланиш йўлларини тўғри таъминлаш катта аҳамиятга эга. Чунки ёнғин вақтида ўт ўчириш машинаси ҳеч қандай тўсиқсиз исталган жойгача бора олиши муҳимдир. Шунингдек корхона ҳудудидаги ёнғинга қарши депони жойлаштириш ҳам аҳамиятлидир.

Ишлаб чиқариш корхонасининг бир томонидан кириш йўли албатта умумий фойдаланиш учун мўлжалланган кўчага чиқадиган бўлиши керак.

MA’RUZA № 34
YONG’IN PAYTIDA ODAMLARNI BINOLARDAN
EVAKUATSIYA QILISH

Reja:

1. Mazkur bo‘lim talablari odamlarni o‘z vaqtida va uzlusiz evakuatsiya qilishga Yo‘naltirilgan:
2. Evakuatsiya Yo‘llari
3. Zina va zina kataklari buyicha evakuatsiya

Tayanch so‘z va iboralar: evakuatsiya, mexanizmlar, yonish, alangalanish chegaralari, xavflilik darajasi, yonish tezligi, tarqalish tezligi, katta diapazon, kuchlanish, muhofaza qobig‘i, uchqun, shikastlanish, evakuatsiya chiqish yo‘llari.

Kutilmaganda va birdan mavjud bulgan xavfli vaziyatlarda (yongin, portlash, avariya, er kimirlashi) korxonadan barcha ishlovchilarni tezda va xavfsiz evakuatsiya kilish talab kilingan. Bunda odatda, evakuatsiya kilish kiska vakt ichida barcha ishlovchilarni bino Yoki xonadan tashkariga yunaltirish kerak buladi. Tukimachilik korxonalarida mashinalar ancha zich joylashtirish tufayli va texnologik eara Yonning birmuncha mrsakkabligi, ya’ni utimlarning kupligi tufayli evakuatsiya talablari xam uziga xos murakkabliklarga ega. Xavfsiz evakuatsiya kilishda vakt asosiy talablar ana Shundan kelib chikadi. Bu talablar evakuatsiya yulaklarining uzunligi, kengligi, ularning soni, kulayligi, joylashtirilishi va Shunga uxshashlardir. Eng uzok ish joylaridan evakuatsiya eshigigacha bulgan masofa ishlab chikarishning toifasiga, binoning utga chidamlilik darajasiga va uning necha kavatli ekanligiga boglik. Ma’lumki, tukimachilik sanoatining asosiy sexlari “V” toifasiga mansubdir. Shuning uchun bir kavatli binolarda bu masofa 50-100 m, kup kavatli binolarda esa 30-75 ni tashkil etadi. Vestibyul, zinapoyalarning Yoki tashkariga olib sikadigan koridorning xona eshididan uzunligi 25 m dan oshmasligi kerak. Koridorlardan kamida ikkita evakuatsiya chikish yuli bulmogi kerak. Evakuatsiya uchun xizmat kiladigan yulaklar, zinapoya maydonchalarining kengligi xisoblab topiladi, lekin ular bir metrdan, koridorlarning kengligi esa 1,4 m dan kam bulmasligi kerak. Marshlarning eni 1,4 m dan kam bulmasligi kerak. Marshlarning eni 1,05-2,4 m, eshiklarning eni 0,8-2,4 m bulib binodan tashkariga ochilishi kerak. Evakuatsiya zinapoyalari kishilarni xavfsiz evakuatsyai kilinganini, ularning tartibli xarakatini, Yongin vaktida ut uchiruvchi kismlarning erkin xarakat kila olishini ta’minlash kerak. Bu maksadda kurilgan zinapoya kataklari, odatda atrofi Yopik va tabiiy Yoruglik tushadigan kilib xamda yonmaydigan kurilish materiallaridan ishlatilgan xolda kuriladi.

Ishlab chikarish korxonalarining Yordamchi binolari uchun (ma’muriy, konstruktorlik byurosi, maishiy, umumi ovkatlanish, tibbiy punkt va Shunga uxshash) Yonginga karshi talablar SNiP II-92-76 da belgilangandir. Sexlardan evakuatsiya maksadida chikish eshiklari ikkitadan kam bulmasligi kerak. Bitta chikish eshigi fakatgina sexdagi odamlar soni 50 tadan kam bulgan xoldagina bulishi mumkin. Evakuatsiya yulaklari (zinapoya kataklari, yulaklar, lift oldi maydonchalarida pardozlash uchun Yonuvchi materiallar ishlatish takiklanadi).

Mazkur bo‘lim talablari odamlarni o‘z vaqtida va uzlusiz evakuatsiya qilishga Yo‘naltirilgan:

- Yong‘inning xavfli omillari ta’siriga Yo‘liqishi mumkin bo‘lgan odamlarni qutqarishga;
- odamlarni evakuatsiya yo‘llarida yong‘inning xavfli omillari ta’siridan himoyalash;

Odamlarni mustaqil tashkillashtirilgan holda yong‘inni xavfli omillari mavjud xonadan tashqariga chiqish harakati evakuatsiya jarayoni xisoblanadi. Axolining kam harakatlanishi guruxiga kiruvchi odamlarning xizmat ham evakutsiya xisoblanadi. Evakuatsiya - evakuatsiya chiqish yo‘llari orqali amalga oshiriladi.

Odamlarga Yong‘inning xavfli omillari ta’sir etganda Yoki, Shunday ta’sir xavfi bevosita taxlid solganda majburiy harajatlanishi, qutkarishga kiradi. Qutkarish ishlari ham yong‘in o‘chirish bo‘linmalari Yordamida Yoki maxsus o‘rgatilgan xodimlar tomonidan, Shu jumladan, maxsus qutqaruv vositalaridan foydalaniman holda evakuatsiya va avariya chiqishlari orqali mustakil amalga oshiriladi. Odamlarni evakuatsiya yo‘llarida himoya qilish xajmiy-rejaviy, iqtisodiy, konstruktiv, muxandislik-texnik va tashkiliy tadbirlar majmuasi bilan ta’milanadi. Xona miqiyosida evakuatsiya yo‘llari, Shu xonadan evakuatsiya chiqish yo‘llari orqali, ularda yong‘in o‘chirish va tutunga qarshi himoya vositalari hisobga olmagan holda odamlarni bexatar evakuatsiya qilishi ta’minalashi lozim. Xonalar tashqarisida evakuatsiya Yo‘llarini himoyasi odamlarni bexatar evakuatsiya qilish sharoitidan kelib chiqib, evakuatsiya Yo‘liga chiqadigan xonalarning funksional Yong‘in xavfi evakuatsiya kilinuvchilar soni, binoning Yong‘in bardoshlik darajasi va konstruktiv Yong‘in xavflik sinfi, qavatdan va butun binodan evakuatsiya chiqish sonini hisobga olgan holda nazarda tutish kerak. Xonalar va xonalardan tashqaridagi evakuatsiya Yo‘llaridagi konstruksiyalarning yuza qatlamlari uchun qo‘llaniladigan (pardozlov va koplamalar) qurilish ashyolarining Yong‘in xavfi, xona va binoning funksional Yong‘inga xavfi va evakuatsiya Yo‘llarini himoyalash buyicha boshqa tadbirlarni hisobga olgan holda cheklanishi lozim.

Quyidagi talabga mos kelmagan odamlarni qutqarishga mo‘ljallangan tadbirlar va vositalar, hamda chiqishlar, barcha xonalar va binolardan evakuatsiya jarayonini tashkil etishda va loyixalashda e’tiborga olinmaydi.

A va **B** toifadagi **F5** sinfga mansub xonalarni bir vaqtini 50 dan ortiq odam to‘planishi uchun mo‘ljallangan xona ostida, hamda erto‘la va sokolqavatlarda joylashtirishga Yo‘l ko‘yilmaydi.

F1.1, F1.2, va F1.3. sinfga mansub xonalarni erto‘la va sokolqavatlarda joylashtirishga Yo‘l ko‘yilmaydi.

Binolarni tutunga qarshi himoyasi KMK 2.04.05-96 ga binoan bajarilishi lozim. Bunda Yong‘in vaqtida tutungaqarshi himoya vositalari (tutun chiqarishqopqoqlari, tusiqlar havo bosimi xosil qilish va tutun tortish ventilyatorlari) saqlash uchun, avtomat tarzda ishga tushishi kerak. Yong‘inni bildirmoq tartibi xozirgi meyoriy xujjatlar talabparigaqarab bajarmokligi lozim. Yong‘in vaqtida odamlar xavfsizligi taminlash bo‘yicha tadbirlarning samaradorligi xisoblash Yo‘li bilan baxolanishi mumkin.

Evakuatsiya va avariya chiqish yo'llari

Chiqish Yo'llari evakuatsiya yo'li bo'lib xisoblanadi, agar ular olib chiksa:

a) 1 qavat xonasidan tashqariga

- bevosita;
- Yo'lak orqali;
- vestibyul orqali (foye);
- zina katagi orqali;
- Yo'lak va vestibyul (foye) orqali;
- Yo'lak va zina katagi orqali.

b) birinchidan tashqari, istalgan qavatdagi xonasidan:

- bevosita zina katagiga Yoki 3-turdagi zinaga;
- bevosita zina katagiga Yoki 3-turdagi zinaga olib chikuvchi Yo'lakka;
- bevosita zina katagiga Yoki 3-turdagi zinaga chiqishi bo'lgan xol (foye)ga.

v) a) va b) da ko'rsatilgan chiqish Yo'li bilan ta'minlangan, Shu qavatdagi qo'shni xonaga (**A** va **B** toifadagi **F5** sinfiga mansub xonadan tashqari) **A** va **B** toifadagi xonaga chiqish, evakuatsiya xisoblanishiga Yo'l qo'yiladi, agar u yuqorida eslatilgan **A** va **B** toifadagi xonalarga xizmat ko'rsatish uchun mo'ljallangan, doimiy ishchi o'rinalarisiz texnik xonadan olib chiqsa. Erto'la va sokolqavatdan evakuatsiya xisoblanadigan chiqish Yo'llarini, odatda, binoning umumiy zina kataklaridan aloxida, bevosita tashqariga chiqishi nazarda tutilishi lozim.

Yo'l qo'yiladi:

- er to'ladan evakuatsion chiqish Yo'llarini umumiy zina kataklari orqali, tashqariga aloxida chiqishi Yo'li nazarda to'tilishiga, agar zina katagi boshqaqismlardan 1-turdagi Yong'inga qarshi tusiq devor bilan ajratilgan bo'lsa:

- **V, G va D** toifadagi xonalar joylashgan erto'la va sokol qavatlardagi evakuatsiya joylari, **F5** sinfiga mansub binolarning birinchi qavatida joylashgan **G, D** xonalarga va vestibyul orqali nazarda tutilgan bo'lsa va 6.29 talabnomiga rioya qilishi zarur:

- **F2, F3 va F4** sinfiga mansub binolarning er to'la va sokol qavatlarida joylashgan foye, echinish xonalar, chekish xonalar va sanitariya qismlaridan evakuatsiya chiqish joylari, aloxida 2- turdagи zinalar bo'yicha birinchi qavatlagi vestibyul orqali nazarda tutilgan bo'lsa;

-xonalardan evakuatsiya chiqish Yo'llari 2-turdagi zinaga, Yo'lak orqali (foye, vestibyul) bu zinaga olib boruvchi bo'lishi kerak lekin meyoriy xujjalarning talablarida ko'rsatilgan bo'lsa.

- binodan, erto'la va sokol qavatdan bevosita tashqariga chiqish joyini tambur bilan jixozlashgan. Evakuatsiya chiqish Yo'llari bulib xisoblanmaydi, agar ularning bo'shliqlarida suruluvchi va ko'tarilib-tuShuvchi eshiklar va temir Yo'l harakatli tarkibi uchun darvozalar, aylanuvchi eshiklar va turniketlar o'rnatilgan bo'lsa. Temir yo'l harakatli tarkib uchun mo'ljalangan darvozalar o'zidagi ochiluvchi eshiklar evakuatsiya chiqish Yo'llari xisoblanishi mumkin.

Xonalardan, qavatlardan va binolardan evakuatsiya chiqish Yo'llarini soni va umumiy kengligi, ular orqali evakuatsiyaqilinishi extimoli bo'lган odamlarning maksimal soniga va odamlar mavjud bo'lishi mumkin bo'lган

(ishchi joyidan) eng yaqin evakuatsiya chiqish joyigacha bo‘lgan eng uzoq masofaga bog‘liq. Turli funksional yong‘in xavfiga ega va Yong‘inga qarshi to‘sqliar bilan ajratirilgan binoqismlari mustaqil evakuatsiya chiqish Yo‘llari bilan ta’minlanishi shart.

Ikkitadan kam bo‘lman evakuatsiya chiqish Yo‘llari bo‘lishi kerak:

- bir vaqtini uzida 10 dan ortiq odamni bo‘lishi mo‘ljallangan **F1.1.** sinfiga mansub xonalardan, smenada ishlovchilarni eng ko‘p soni 5 kishidan ortiq bo‘lgan **A** va **B** toifadagi **F5** sinfiga mansub, **V** toifadagi xonadan:

- 25 kishidan ko‘p Yoki maydoni 1000 kv m ortiq xonadan;

- bir vaqtini o‘zida 6 tadan 15 odam bo‘lishiga mo‘ljallangan erto‘la va sokol qavatdagi xonalardan bunda ikkitadan bita chiqish 5.20 «d» band talabiga binoan nazarda tutishga Yo‘l qo‘yiladi;

- bir vaqtda 50 dan ortiq odam bo‘lishiga mo‘ljallangan xonalardan;

- jixozlarga xizmat ko‘rsatish uchun mo‘ljallangan **F5** sinfiga mansub xonalardagi ochiq javonlar va maydonchalardan, bunda yarus pol maydoni -100 kv.m. dan ortiq bo‘lganda- **A** va **B** toifadagi xonalar uchun va 400 kv.m. ortiq bo‘lganda –ikkala toifadagi xonalar uchun.

Ikki qavatda joylashgan **F1.3.** sinfiga mansub xonalar (xonodonlar), yuqori qavat 15 m dan baland joylashganda, har birqavatdan evakuatsiya chiqish joyiga ega bo‘lishi lozim. qavatlari kamida ikki evakuatsiya chiqish joylariga ega bo‘lishi kerak:

- **F1.1;F1.2; F2.1;F2.2; F3; F4.** sinfiga mansub binolar;

-qavatdagi kvartiralarumumiyl maydonidan kelib chiqib **F1.3.** sinfiga mansub binolar, seksiya turdagи binolar uchun seksiya qavatida -500 kv.m. dan ortiq bo‘lsa; maydoni kam bo‘lganda (qavatdan bita evakuatsiya chiqish Yo‘li bo‘lganda) 15 metrdan ortiq, balandlikda joylashgan xar bir kvartira 5.20 band bo‘yicha evakuatsiya chiqish joyidan tashqari, avariya xolati chiqish joyiga ega bo‘lishi kerak;

- **A** va **B** toifasi mavjud **F5** sinfiga mansub binolar, bunda ishlovchilar soni eng ko‘p smenada 5 tadan ortiq odamni tashqil kilsa, V toifada 25 ta odamni tashkil qilsa;

Erto‘la va sokolqavatlari maydoni 300 kv. m. dan ortiq bo‘lganda, Yoki bir vaqtini o‘zida 15 tadan ortiq odam mavjud bo‘lishi uchun mo‘ljallanganda 2 tadan kam bo‘lman evakuatsiya chiqish Yo‘llariga ega bo‘lishi kerak.

Balandligi 15 metrdan ortiq bo‘lman **F1.2; F 3 va F 4.3.** sinfiga mansub va maydoni 300 kv.metrdan ortiq bo‘lman, hamda odam soni 20 -ta dan ortiq bo‘lman hamda zina katagiga chiquvchi 2-turdagi eshik bilan (2-chi jadval buyicha) jixozlagan bino qavatlaridan (Yoki qavatning boshqa kismidan Yong‘inga qarishi tusiq bilan ajratilgan qavat qismidan) bita evakuatsiya chiqish Yo‘li o‘rnatishga ruxsat beriladi.

Qo‘llanish:

1.Binoning balandligi yuqori qavatning joylashtirish joyidan balandligi deb, tepadagi texnik qavatning hisobga olmagan holatda hisoblanadi.

2.Qavatning balandligi Yong‘in mashinalar yurgan yuzidan tashqari devordagi derazaning ochiq bo‘lgan xolatdagi chegarasigacha masofasi xisoblanadi.

Qavat ikkitadan kam bo‘lmagan evakuatsiya chiqish joyiga ega bo‘lishi kerak, agar qavatda 2-ta dan kam bo‘lmagan evakuatsiya chiqish Yo‘liga ega bo‘luvchi xona joylashgan bo‘lsa.

Binodan evakuatsiya chiqish joylari va Yo‘llarning soni, binoning istalganqavatidagi evakuatsiya chiqish joylari sonidan kam bo‘lmasligi kerak. Ikki va undan ortiq evakuatsiya chiqish Yo‘llari mavjud bo‘lsa ular tarqatilgan holda joylanishi kerak.

Ikki evakuatsiya chiqish joylari o‘rnatilgan bo‘lsa, u holda ularning har biri xonada, qavatda Yoki binoda mavjud bo‘lgan hamma odamlarni xavfsiz evakuatsiya qilinishini ta’minlash lozim.

Barcha uzoq masofali evakuatsiya chiqish joyilaridan eng kichik «L» uzunligi pastda kursatilgan tenglamalar Yordamida topiladi:

$$L > \sqrt{P(n-1)} \quad \text{binoning xona ichidan}$$

$$L > 0,33 \frac{D}{(n-1)} \quad \text{bino yo‘lakdan}$$

bu erda: **P** – xonaning perimetrii (to‘rtta devorning uzunglingning yig‘indisi);

n - evakuatsiya chiqish joylarning soni;

D – Yo‘lak uzunlini, m.

Ikkitadan ortiq evakuatsiya chiqish joylari mavjud bo‘lsa, xonadagi, qavatdagi Yoki binodagi hamma odamlarni bexatar evakuatsiya qilish ularning har biridan tashqari, hamma evakuatsiya chiqish joylari bilan ta’minlanishi kerak.

Evakuatsiya chiqish joylari balandligi 1.9 m dan, eni esa kam bo‘lmasligi kerak:

- 1.2 m dan – **F1.1** sinfga mansub xonadan evakuatsiya qilinadiganlar soni 15 kishidan ortiq bo‘lganda, boshqa vazifaviy Yong‘inga xavfli xona va binolardan, **F1.3** sinfga mansublari-50 kishidan ortiq bo‘lganda bundan mustasno.

- 0.8m dan – bo‘lgan hamma xollarda.

Zina kataklari tashqi tarafidagi eshiklari va zina kataklaridan vestibyuldan chiquvchi eshiklar eni xisob buyicha, Yoki zinapoya eni 5.29 banda belgilangan zinapoya enidan kam bo‘lmasligi lozim. Barcha xolatlarda ham evakuatsiya chiqish Yo‘llarning eni Shunday bo‘lishi kerakki, ochiq joy Yoki eshik orqali o‘tuvchi evakuatsiya Yo‘lini geometriyasini hisobga olgan holda, odam Yotgan zambilni bemalol olib o‘tish mumkin bo‘lsin. Evakuatsiya chiqish joylaridagi eshiklar va evakuatsiya Yo‘lidagi boshqa eshiklar binodan chiqish Yo‘nalishi bo‘yicha ochilishi lozim.

Eshiklarni ochilish yo‘nalishi meyorlanmaydi:

- a) **F1.3** va **F1.4** sinfga mansub xonalar uchun;
- b) bir vaqtida 15 dan ortiq kishi to‘planmaydigan xonalar uchun, **A** va **B** toifadagi xonalar bundan mustasno;
- v) satxi 200 kv m dan ortiq bo‘lmagan, doimiy ishchi o‘rini bo‘lmagan omborxonalar uchun;
- g) sanitariyaqismlari uchun;
- d) 3-turdagi zina maydonchasiga chiqish uchun;

e) shimoliy qurilish iqlimli mintaqasida joylashgan binolar tashqi eshiklari uchun.

Qavatlar aro Yo'laklardan, xollardan, foyelardan, vestibyullardan va zina kataklaridan evakuatsiya chiqish Yo'llari eshiklari, ularni kalitsiz erkin ochilishiga xalakat beruvchi to'siqlar bo'lmasligi lozim.

Balandligi 15 m. dan ortiq binolarda xonalardan tashqari bu eshiklar ochilmagan yoki qalin oynadan bo'lishi kerak. Zina kataklarida eshiklar o'z-o'zidan yopilishi uchun moslamalar va zichlagichlariga ega bo'lishi shart. Tashqariga yoki xonalarga olib boradigan eshiklar zina kataklar tomonidan o'z-o'zidan yopiladigan va zichlagichlar uchun asboblar bo'lishi shart emas. Umumiy yo'laklarga olib chiquvchi zina kataklari eshiklari, lift xollari eshiklari, doimiy havo bosimi bo'lgan shlyuz-tambur eshiklari o'z o'zidan Yopilishi uchun moslamalar va zichlagichlarga ega bo'lishi lozim, Yong'in vaqtida havo bosimi bo'lgan tambur-shlyuz eshiklari va majburiy tutunga qarshi himoyali xonalar eshiklari, esa ularni o't tushgan vaqtida Yopilishi uchun avtamatikaga ega bo'lishi kerak. Evakuatsiya chiqish joylari, talablarga javob bermaydigan chiqishlarga avariya sifatida qaralishi mumkin va Yong'in vaqtida odamlar xavfsizligini oshirish uchun mo'ljallanishi mumkin.O't tushgan chog'da avariya chiqish joylari evakuatsiya vaqtida hisobga olinmaydi.

Avariya chiqish joylariga kiradi:

a).eshik yoki lyuk ulchamlari va zina bo'lishi «d» band buyicha;
b).ochiq balkonga yoki lodjiyaga eni 1.2 m dan kam bo'limgan, balkon Yonidan, deraza bo'shlig'igacha (oynavand eshik) tuynuksiz pardevorli Yoki oynavand bo'shliqlar orasi eni 1.6m dan kam bo'limgan (lodjiyaga) chiquvchi chiqish joylari;

v).eni 0.6 m dan kam bo'limgan **F1.3.** sinfga mansub binoning tutash bo'limiga ochiq o'tish joyiga Yoki havo mintaqasi orqali tutash Yong'in bo'linmasiga olib chiqish joyi;

g). balkon va lodjiyalarniqavatma-qavat bog'lovchi tashqi zina bilan jixozlangan, balkon va lodjiga chiqish joyi;

d).pol satxi-4,5 metrdan past va + 5.0 m dan baland bo'limgan, o'lchamlari 0,75x1,5m dan kam bo'limgan deraza Yoki eshik orqali, hamda o'lchamlari 0,6x0,8m dan kam bo'limgan lyuk orqali, bunda chiqish xonadagi lyuk-zina orqali, bevosita xonadan tashqariga chiqish joylari; bu zinalarning qiyaligi meYorlanmaydi;

e) o'lchamlari va zinalari I bo'yicha, deraza, eshik Yoki lyuk orqali, Yong'inbardoshliligiI va IIdarajali **SO** va **S1** sinfga mansub bino tomiga chiqish.

Faqat muxandislik tarmoqlari o'tkazish uchun mo'ljallangan texnik qavatlardan, o'lchamlari 0,75x1,5 m dan kam bo'limgan eshiklar orqali, hamda 0,6x0,8m dan kam bo'limgan yuklar orqali evakuatsiya chiqish joylarisiz, avariya chiqish joylari nazarda to'tilishiga Yo'l qo'yiladi. Texnik qavat maydoni 300 m^2 gachabo'lganda bir chiqish joyi mo'ljallanishiga ruxsat etiladi, keyingi har bir, to'la Yoki to'liqsiz 2000 m^2 maydonga, yana kamida bir chiqish joyi ko'zda tutilishi lozim.Texnik qavatlarda evakuatsiya chiqish joyilari 1,8 m

dan kam bo‘lishi mumkin emas.Bu chiqish joylarini texnik erto‘lalarda, binodan chiqish joylaridan aloxida bo‘lishi va bevosita tashqariga olib chiqishi lozim.

MA’RUZA № 35 **MAJBURIY EVAKUATSIYA JARAYONI**

MA’RUZA № 36 **ODAMLAR OQIMINING XARAKAT O’LCHAMHLARI.**

MA’RUZA № 37 **EVAKUATSIYA YO’LLARI VA O’LCHAMHLARI**

Reja:

4. Mazkur bo‘lim talablari odamlarni o‘z vaqtida va uzlusiz evakuatsiya qilishga Yo‘naltirilgan;
5. Evakuatsiya Yo‘llari
6. Zina va zina kataklari buyicha evakuatsiya

Tayanch so’z va iboralar: evakuatsiya, mexanizmlar, yonish, alanganish chegaralari, xavflilik darajasi, yonish tezligi, tarqalish tezligi, katta diapazon, kuchlanish, muhofaza qobig‘i, uchqun, shikastlanish, evakuatsiya chiqish yo‘llari .

Evakuatsiya yo‘llari. Evakuatsiya yo‘llari QMQ-2.01.05-98 talablariga muvofiq yoritilishi kerak.Xonaning eng uzoq nuqtasidan, **F5** sinfga mansub binolar uchun eng uzoqda joylashgan ish o‘rnidan, eng yaqin evakuatsiya chiqish joyigacha Yo‘l qo‘yiladigan evakuatsiya Yo‘li o‘qi bo‘yicha o‘lchanadigan chegaraviy masofa bino va xonaning portlash Yong‘in xavfliligi toifasi vazifaviy Yong‘inga xavfliligi, evakuatsiya qilinadiganlar soni, binoning qurilmaviy Yong‘inga xavfliligi sinfga mansubligi va Yong‘inbardoshlik darajasiga bog‘liq. 2-turdagi zina bo‘yicha evakuatsiya Yo‘lini uzunligini uning uchlangan balandigacha teng qilib olish kerak. Evakuatsiya yo‘llarini 5.9-ni hisobga olgan holda nazarda tutilishi lozim; ular tortlov ekskalatorlar, hamda quyidagi uchastkalarni o‘z ichiga olmasligi kerak;

-lift shaxtalaridan chiqiladigan Yo‘laklar orqali Yoki lift xollari va lift oldidan tamburlar orqali, agar liftlar shaxtalarini to‘sib turuvchi qurilmalari, Yong‘inga qarshi to‘siqlarga qo‘yiladigan talablarga javob bermasa;

-zina kataklari Yo‘lakning bir qismi bo‘lganda, zina kataklaridagi orqali o‘tish joyini va xona orqali, uning ichida 2-chi turdagи zina joylashtirilgan bo‘lsa lekin evakuatsiya jaraYonga ega bo‘lmasa;

- bir joyi bo‘yicha, foydalaniladigan tom Yoki maxsus jixozlangan tom qismi bundan mustasno;

- ikkidan ortiq qavatli yarusli bog‘lovchi hamda erto‘la va poypesh qavatidan olib boruvchi 5.9 da ko‘rsatilgan xolatlar bundan mustasno, 2-turdagi zinalar.

Hamma toifadagi Yong‘inbardoshlik va qurilmaviy Yong‘inga xavflilik sinfiga mansub **V** darajali Yong‘inbardosh binolardan tashqari, binolarda evakuatsiya Yo‘lida quyidagidan, ortiq yuqori Yong‘inga xavfli ashyolar qo‘llanishiga Yo‘l qo‘yilmaydi:

- **G1, V1, D2, T2**- sinfi devorlarini padozlash va vestibyul, zina kataklari, lift xollari osma shiftlarini to‘ldirish uchun;

- **G2, D3, T3** – Yoki **G2, V3, D2, T2** – devorlarni, shiftlarni padozlash va umumiy Yo‘laklar, xollar va foyelar osma shiftlarini to‘ldirish uchun;

- **V 2, RP2, D3, T2** – umumiy Yo‘laklarda, xollarda va foye pollari qoplamasi uchun. Engil alanganadigan suyuqliklar ishlab chiqariladigan, qo‘llanadigan yoki saqlanadigan **A, B** va **V1** toifadagi **F5** sinfga mansub xonalarda pollarni yonmaydagan ashyolardan yoki **G1** Yonuvchanlik guruxidagi ashyolardan tayyorlanishi lozim.

Xonalarda va evakuatsiya yo‘lida osma shiftlar sirti yopmaydigan ashyolardagi tayyorlanishi kerak.

Umumiy yo‘laklarda, 5.9. banda ko‘rsatilangan buyicha, meyorlarda maxsus eslab o‘tilgan xollar bundan mustasno, 2 metrdan past balandlikda devorlar satxida gaz quvirlari va Yonuvchi suyuqliklar quvr o‘tgazgichlari, Shundek briktirma shkaflar, kommunikatsiya va Yong‘in jumraklari uchun shkaflardan tashqari, jixozlar joylashtirishga Yo‘l qo‘yilmaydi. 60 metrdan ortiq uzunlikdagi umumiy Yo‘laklarni 2-turdagi Yong‘inga qarshi uzunligi davlat meyoriy harajatlari bilan aniqlanadigan lekin 60 metrdan oshmaydigan pardevorlar bilan uchastkalarga bo‘linishi lozim Xonalardan Yo‘lak tomonga ochiladigan eshiklar uchun evakuatsiya Yo‘larni eni Yo‘lak eniga karaganda kamaytirish shart:

-eshikning enining yarim yarimiga, eshiklar bir tomonidan joylashtirilgan bo‘lsa;

-eshiklar eni masofiga ega bo‘lsa, eshiklar ikki tomonidan joylashtirilgan bo‘lsa, lekin bu talabnoma har qavatli bo‘lgan Yo‘laklar (xollar) **F 1.3.** sinfdagi binolarda bo‘lganda va har bir xonadan zina katagiga chiqish Yo‘li bo‘lganda bu qoida bo‘lishi shart emas.

Evakuatsiya Yo‘llari ufqiy uchastkalarning sof balandligi 2 metrdan kam bo‘lmasligi lozim, evakuatsiya Yo‘llari ufqiy uchastkalari va panduslar eni kam bo‘lmasligi lozim:

- 1,2 m -**F1** sinfga mansub xonalardan 15 dan ko‘p kishi, boshqa sinfga mansub vazifaviy Yong‘inga xavfli xonalardan 50 dan ortiq kishi evakuatsiya qilishi mumkin bo‘lgan umumiy Yo‘llar uchun;

- 0,7 m -yakka ishchi o‘rinlariga joylari uchun;

-1.0 m -hamma boshqa xollarda.

Istalgan vaziyatda evakuatsiya Yo‘llarini eni, uning geometriyasini hisobga olgan holda, odam Yotgan zambilni bemalol olib o‘tish mumkin bo‘lishi kerak. Evakuatsiya Yo‘lida polda 45 sm dan kam bo‘limgan balandlik o‘zgarishiga, eshik ostonalari bundan mustasno Yo‘l qo‘yilmaydigan. Balandlik o‘zgaradigan joyda 3 ta dan kam bo‘limgan pog‘onali zina Yoki qiyaligi 16 dan ortiq bo‘limgan namdus nazarda tutishi kerak. Zina balandligi 15 sm dan ortiq bo‘lganda to‘tkichli to‘siq ko‘zda tutish lozim. Evakuatsiya Yo‘llarida aylanma

zinalar va qo'shimcha zina oldi pillapoyalari, hamda zina va zina katagida turli endagi va balandlikdagi pog'onalar o'rnatishiga Yo'l qo'yilmaydi.

MA'RUZA № 38 **EVAKUATSIYA VAQTINI ANIQLASH.**

MA'RUZA № 39 **YONG'INNI O'CHIRISH USULLARI, MODDALARI VA VOSITALARI**

Reja

1. Suv bilan o'chirish
2. Bug' yordamida o'chirish
3. Maxsus kimyoviy vositalar yordamida o'chirish

Tayanch so'z va iboralar: yonish, alanganish chegaralari, xavflilik darjası, yonish tezligi, tarqalish tezligi, katta diapazon, uchqun, shikastlanish, kimyoviy vositalar, bug' yordamida o'chirish, o't o'chirish vositalari.

Har qanday yong'inni o'chirganda yong'inning kuchayishiga olib kela Yotgan omillarni va sharoitini aniqlash muhim o'rinni egallaydi. Bunda Yonishning davom etishini to'xtatuvchi sharoit yaratish katta ahamiyatga ega. Yong'inni o'chirganda qattiq jismlar yonganda yong'inning tezligi 4 m/min, suyuqliklar yuzasi bo'yicha esa 30 m/min ekanligini hisobga olish kerak.

Yonishdan hosil bo'lgan mahsulotlar asosan qattiq changsimon moddalar, bug'lar va gazlardan iborat bo'ladi.

Undan hosil bo'ladigan harorat esa, moddaning yonganda issiqlik ajratishi va Yonish tezligi va alanganing tarqalishi, Shuningdek binoning hajmi va havo almashish sharoitlariga bog'liq bo'ladi. Yuqori harorat ta'sirida qizigan tutun, Yonish mahsulotlarini tezlikda tarqalishga yordam beradi, Shuningdek xona tutunga to'ladi va bu o'z navbatida yong'inni o'chirishga halaqit beradi. Yong'in vaqtida ko'p miqdora inert gazlar, yonuvchi gazlar va Shuningdek tutun ajralib chiqadi. Yonuvchi gazlarning asosiy qismi zaharli bo'lib, ularning zararli ta'siri Yonayotgan materiallarning turi va yonishining intensivligiga bog'liq. Zararli ta'sirchan va zaharli gazlar yong'inga qarshi muhofaza qatlamlari yonganda (brom birikmalari va xlor), Yog'och materiallar (SO) polimer qurilish materiallari va boshqa juda ko'p hollarda ajralib chiqadi. To'la Yonib bo'limgan yonish mahsulotlari qizigandan keyin va sof oqimi ta'sirida qaytadan alanga olib ketishi mumkin.

Yong'in (o't) o'chirish vositalari va usullari. O't o'chirish usulari qo'yidagicha bo'lishi mumkin:

1. Yonayotgan zonani ko'p miqdorda issiqlik yutuvchi materiallar Yordamida sovitish.
2. Yonayotgan materiallarni atmosfera havosidan ajratib qo'yish.
3. Yonayotgan zonaga kira Yotgan havo tarkibidagi kislород miqdorini kamaytirish.

4. Mahsus kimyoviy vositalarni qo'llash.

O't o'chirish vositalari sifatida, suv, suv bug'lari, kimyoviy va mexanik ko'piklar, inert va Yonmaydigan gazlar, qattiq, paroshoksimon materiallar va maxsus kimyoviy moddalar va aralashmalardan foydalaniladi.

Suv bilan o'chirish. Suv eng ko'p tarqalgan arzon va Shuning bilan birga hamma bilgan o't o'chirish vositasi bo'lib, uning bilan har qanday katta masshtabdagi va kichik miqdordagi Yong'lnarni o'chirish mumkin (-rasm). Suvning o't o'chirishdagi asosiy xususiyati uning ko'p miqdorda issiqlik yutishiga asoslangan bo'lib, u tushgan Yonayotgan o'choqning haroratini keskin kamaytirib, Yonmaydigan holatga olib keladi. 1 litr suvni 1 °S gacha isitish uchun 4, 2 kDj issiqlik sarflanadi. Demak 1 litr suvni havo harorati 20 °S qaynash haroratigacha chiqarish uchun 335 kDj issiqlik sarflanadi. Uning bug'ga aylanishi uchun esa 2260 kDj issiqlik sarflanadi. Bundan tashqari 1 litr suv 1700 1 parga aylanishini hisobga olsak, unda Yonayotgan zonadan kislородни siqib chiqarishi hisobiga yana alanganing o'chirishini qo'shimcha ta'minlaydi. Suv bilan reaksiyaga kirishishi mumkin bo'lgan moddalarni, masalan ishqoriy er metallar: kaliy, natriylarni suv bilan o'chirib bo'lmaydi. Chunki bu metallar hattoki 0 °S dan past haroratda ham suv bilan reaksiyaga kirishib suv tarkibidan vodorodni siqib chiqaradi, uning havo bilan aralashmasi portlashga xavfli aralashma hosil qiladi. Shuningdek suv bilan, kuchlanish ostida bo'lgan elektr qurilmalarini ham o'chirib bo'lmaydi. Bunda o'chiruvchi haYoti uchun xavfli vaziyat vujudga keladi. Chunki suv elektr tokini yaxshi o'tkazadi. Bundan tashqari Yonayotgan kalsiy karbidni ham suv bilan o'chirib bo'lmaydi, buning natijasida atsetilen ajralib chiqishi portlash xavfini vujudga keltiradi.

Suv bilan o'chirishda suvni kuchli oqim sifatida, purkash Yo'li bilan va mayda zarrachalar sifatida va Shuningdek ko'piklantirilgan holatlarda qo'llanilishi mumkin. Kuchli suv oqimi sifatida Yonayotgan zonaga Yo'naltirilgan suv, birinchidan alangaga zarba beradi, ikkinchidan Yonayotgan yuzani sovutadi. Bu Yo'l bilan alangalana Yotgan Yong'lnarni uzoqdan turib o'chirish imkoniyatini tug'diradi.

Bunday Yong'lnarda yaqin kelish imkoniyati, olov tafti kuchli bo'lganligidan deyarli bo'lmaydi. Kuchli suv oqimi bunday Yong'inga Yo'naltirilganda asosan sovutish hisobiga alanga susayadi va alanga tarmoqlari suv kuchi bilan uzib yuboriladi. Ammo kuchli suv oqimi bilan har qanday Yong'inni ham o'chirish imkoniyati bo'lavermaydi. Masalan bunday usulda engil alanganuvchi suyuqliklarni o'chirishda foydalanish aksincha zararli xulosaga olib keladi. Chunki engil alanganuvchi suyuqliklar kuchli suv oqimi ta'sirida katta maydonalarga tarqaba ketishi va suvdan engil bo'lganligi sababli suv yuzasida o'z Yonishini davom ettirishi Yong'ning katta maydonalarga tarqab ketishiga sababchi bo'ladi. Agar suvni purkash Yo'li bilan ishlatsa, bunda suv zarralarining kattaligi 0, 1 mm dan kichkina bo'lsa, unda suv zarralarining Yonuvchi jismlar bilan tutashish yuzalari katta bo'lganlari sababli Yonayotgan zonadan issiqlikni yutish kattalashadi, Shuningdek suv zarralari kichik hajmiga ega bo'lganligi sababli uning bug'lanishi kuchayadi, bu o'z

navbatida o‘chirishning havoni siqib chiqarish omilini vujudga keltiradi va o‘chirish o‘z-o‘zidan ma’lumki, tezlashadi.

Suv purkash usulida binolarning ichidagi Yong‘inlarni o‘chirish ham yaxshi natija beradi. Bu usul bilan xonadagi haroratni pasaytirish va tutunga qarshi kurashish mumkin. Bu usulni qo‘llashda suvni binoning yuqori qismiga purkash kerak. Purkashni Shunday amalga oshirish kerakki, purkalgan suv iloja boricha ko‘proq Yonish mahsulotlari bilan to‘qnashsin. Purkalgan suv zarrachalari pastga qarab Yo‘naladi, ko‘tarila Yotgan issiqlik bilan to‘qnashib bug‘ga aylanadi va bu bug‘ Yo‘nalishini o‘zgartirib yuqoriga qarab Yo‘naladi, buning natijasida hosil bo‘lgan bug‘ xonaning yuqori tomonini egallaydi va Yonayotgan zonani bosadi. Yirikroq zarrachalar esa qizib, pastga qarab Yo‘nalish davrida Yonishdan hosil bo‘lgan mahsulotlar bilan birikib pastroqqa Yonish o‘chog‘iga Yo‘naladi va bu erda parlanib yana havoning o‘rnini egallaydi. Bu bilan ajrala Yotgan tutuni bosim xonani sovutadi, kislorodli havoning kirish Yo‘lini bosim ortishi hisobiga kamaytiradi. Bu esa Yong‘inni o‘chirish imkoniyatini yaratadi. Suv purkash Yo‘li bilan 120 °S haroratdan yuqori haroratlarda chaqnashi mumkin bo‘lgan Yonuvchi suyuqliklarni o‘chirishda ham foydalanish mumkin.

Bug‘ yordamida o‘chirish. Ba’zi bir ishlab chiqarish korxonalarida juda ko‘p miqdorda bug‘ hosil bo‘lishi mumkin. Bunday korxonalarda Yong‘in chiqqan taqdirda bug‘dan foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Bug‘ bilan o‘chirishning asosiy mohnyati, bug‘ning xonalarga yuborilishi natijasida u, bu xonadagi kislorodga boy havoni siqib chiqarib, uning o‘rnini egallahga asoslangan. Bug‘ning o‘t o‘chirish samaradorligi uning ma’lum bir xonaga yuborilgan miqdoriga bog‘liq bo‘ladi. Bunda bug‘ Yonayotgan xonadagi asosiy bo‘shliqlarning hammasini to‘ldirib, kislorodli havoni butunlay siqib chiqarishi kerak. Bunda hosil bo‘ladigan ortiqcha namlik o‘t o‘chirishning asosiy vositasi bo‘la olmaydi. Bug‘ bilan o‘t o‘chirishning mazmunini quyidagicha tuShuntirish mumkin. Yong‘in bo‘la Yotgan xonaga qisqa muddat ichida (5-10 minut) ko‘p miqdorda to‘lguncha par yuboriladi va parning chiqib ketishi mumkin bo‘lgan tirkishlarni iloji boricha berkitiladi. Bug‘ xonani butunlay qoplab u erdagи kislorodli havoni qisman siqib chiqaradi, qolgan qismida, xonaning Yong‘in hisobiga va yuborilgan par hisobiga +85 °S dan ortiq isib ketganligi sababli kislorod miqdori 31% ga qisqaradi va xonadagi kislorod miqdori 15-16% ga kamayadi. Bu esa yong‘inni davom etishi uchun imkoniyatini yo‘qotadi.

MA’RUZA № 40

YONG‘IN DARAKCHILARI, TURLARI VA ISHLASH PRINSIPLARI.

Reja

- 1 Yong‘in darakchilar
- 2 Yong‘in darakchilar turlari va ishlash prinsiplari
3. Avtomatik o‘t o‘chirish vositalari

Tayanch so‘z va iboralar: yong‘in darakchilar, yonish, alangalanish chegaralari, xavflik darajasi, yonish tezligi, tarqalish tezligi, katta diapazon,

uchqun, shikastlanish, kimyoviy vositalar, bug‘ yordamida o‘chirish, o‘t o‘chirish vositalari, Avtomatik o‘t o‘chirish vositalari

Yong’inni oldini olish va uning dahshatli asoratini kamaytirishda bosh omil sifatida darakchi uskunalar va tezkor aloqa vositalari xizmat qiladi. Yong’inni oldini olish maqsadida, uning kelib chiqish jaraYonlarini nazorat qilishni passiv va aktiv usullarga bo’lish mumkin.

Passiv nazorat usuli, inson tafakkuri va uning intizomiga bog’liq bo’lib, Yong’in o’choqlarini aniqlash va o‘t o‘chiruvchilarni 01 raqamli telefon orqali (shahar sharoitida) va uzlusiz zang urish Yo’li bilan (dala, qishloq sharoitida) Yordamga chaqirishdan iborat bo’ladi.

Afsuski bu usul yong’inni dastlabki 0-5 daqiqa ichida emas, balki o‘chirishni boshlanish vaqtি ancha kechikib qolishiga, ba’zan ochiq havodagi ob’ektlarni butunlay Yonib, katta moddiy zarar keltirish bilan tugashiga sabab bo’lishi mumkin. Aktiv nazorat usuli esa yuqori aniqlik bilan ishlaydigan texnik vositalarni qo’llashga asoslangandir. Bunda Yong’in o’chog’ini aniqlash va o‘t o‘chiruvchi xizmat Yordamini chaqirish, odam omiliga bog’liq bo’lmasdan, avtomatik tezkor tarzda bajariladi. Shu maqsadda, xalq xo’jaligining muhim ob’ektlarida qo’llaniladigan, avtomatik va yarim avtomatik tartibda ishlaydigan o‘t o‘chirish tizimlarida, Yong’in xavfi mavjud bo’lgan joylarda Yong’inni dastlabki belgilarini aniqlab markaziy boshqaruv pultiga belgilangan xabarni etkazib beradigan darakchilar o’rnataladi.

Darakchilar qo’riqlanaYotgan xonalarda o’rnatilgan bo’lishi va qorovulxonada o’rnatilgan qabul punkti bilan aloqa tarmog’i orqali bog’langan bo’lishi kerak. Bunday tizimlarni ishlash qobiliyati doimiy nazorat ostida bo’lib, Yong’inni «kutish» tartibida kechadi va Shu sababdan bu tizimlar o’rnatilgan ob’ektlarda Yong’inni kelib chiqish sabab va oqibatlari tezda bartaraf etilib, bino va inshootlar saqlab qolinadi.

Yong’in darakchilari Yong’in o’chog’ini boshlanish jarayonida aniqlash, uning sodir bo’lgan vaqtি va joyini xabar qilish uchun hamda zarur bo’lganda tutun so’rg’ich Yoki o’tni o‘chiruvchi uskunalarini ishlashini avtomatik tarzda boshqarish uchun xizmat qiladi.

Yong’in darakchilari tizimi asosan Yong’inni dastlabki belgilari bo’lmish tutun, Yorug’lik Yoki u erdagи haroratni elektr xabarlariga aylantira oladigan xabarchi moslamalardan iborat bo’ladi.

Bu xabarchi moslamalar aloqa tarmog’iga ulangan bo’lib, qabul punktiga o’ziga xos tovush Yoki Yorug’lik signallari orqali darak beradi hamda avtomatik o‘t o‘chirish va tutun haydash uskunalarini zudlik bilan ishga tushirishni ta’minlaydi.

Yong’in darakchilari o’zlarining ishlash uslubiga binoan shartli ravishda 4-ta guruhga, ya’ni issiqlik, Yorug’lik, gaz va tutundan ishlaydigan turlarga bo’linadi.

O’zbekistonda ilk bor 1960 yilda haroratni ta’siridan engil erib ketuvchi «Vuda» qorishmasi asosida ishlaydigan, DTL rusumli Yong’in daraklagichlari ishlab chiqarila boshlangan edi DTL bir marta qo’llanishga mo’ljallangan bo’lib, xonaning harorati 72°S dan oshgandan keyin, uning markazida joylashgan,


spiralsimon o'tkazgichni aloqa zanjiriga bog'lab turuvchi, haroratga o'ta sezgir bo'lgan maxsus qorishma erib ketishi oqibatida, zanjir uziladi va nazorat pultiga Yong'in xavfi paydo bo'lganligi haqida xabar beradi. Bitta DTL daraklagichi 15m^2 gacha yuzani qo'riqlashga qodir. DTL darakchilari atroflichcha o'rganilib, kamchiliklarini bartaraf etish maqsadida 1984 yildan boshlab mukammallashtirilgan issiqlik ta'sirida ishlaydigan IP-101, IP-102, IP-103, IP-104 va IP-105 rusumli Yong'in darakchilari ishlab chiqarila boshlandi.

Bularning barchasi qo'riqlana Yotgan muhitning harorati $70-72^\circ\text{S}$ dan ko'tarilgan zahoti Yong'in xavfi paydo bo'lganligi haqida markaziy pultga avtomatik tarzda xabar berish uchun mo'ljallangan. Radioizotopli RID-1 (1.2-rasm) va BLA-1M (1.3-rasm) rusumli avtomatik Yong'in daraklagichlari qo'riqlana Yotgan muhitda Yong'in tufayli hosil bo'ladigan tutunni aniqlash va markaziy boshqaruv pultiga xabar berish uchun mo'ljallangan..

Avtomatik o't o'chirish vositalari

Avtomatik o't o'chirish sistemasiga sprinkler qurilmalari kiradi. Spriklerlar asosan Yong'in xavfi yuqori bo'lgan sanoat korxonalariga o'rnatiladi. Mashinasozlik korxonalari Yong'inga uncha xavfli bo'lmasligi sababli, unga sprinkler qurilmalari o'rnatilmaydi.


Sprinkler qurilmalari o'rnatiladigan xonalarga Yoki sexlarga bosim ostida suv o'tkazuvchi quvurlar o'rnatiladi va bu quvurlarga sprikler boshchalari o'rnatiladi. Mabodo Yong'in sodir bo'lsa issiqlik ta'sirida sprinkler ishga tushadi, ya'ni suv chiqish teshigi ochilib suv sepa boshlaydi. Uning suv chiqarish teshgidan ma'lum masofada o'rnatilgan doira shaklidagi to'siq suvni keng ko'lamda sachrashini ta'minlaydi. Har bir sprinkler boshchasi $6-9\text{ m}^2$ maydonga suv sachratib, o't o'chirishni ta'minlaydi. Bunday qurilmalar o'rnatilgan korxonalarda sodir bo'lgan Yong'inlarning 90% Shu qurilmalar o't o'chirish komandalari kelgunda qadar o'chirishga ulgurgani aniqlangan.




1-rasm. Yong'in to'g'risida avtomatik xabar beruvchi uskunalar (datchiklar) turlari:
a- MDPI-0,28 issiqlik datchiki; b- DSP-0,38 issiqlik datchiki; v-datchik KI-1 (tutunga va temperatura oshishiga ta'sirlanadi); g-datchik SI-1 (alanganing yorug'likiga ta'sirlanadi).

Sprinkler qurilmasining asosiy ishchi qismi sprinkler boshchasi hisoblanadi. Uning bir tomoni rezbali qilib tayyorlangan. Shu tomonini suv o'tkazuvchi quvurga burab o'rnatib qo'yiladi. Uning ikkinchi tomoniga bronzadan qilingan halqa o'rnatilgan. Halqa tutqichi oxiriga deflektor o'rnatilgan. U sprinkler


boshchasi teshigidan chiqadigan suvgaga to'siq vazifasini bajaradi. Suv deflektorga urilib har tomonga Yoyilib sochiladi. Bronza halqa sprinkler boshchasiga yupqa metalldan qilingan diafragmani qisib turadi. Diafragma o'rtasida teshik bo'lib, u shisha klapani bilan berkitilgan. Bu klapanni yupqa plastinka ushlab turadi. Plastinka asosi xalqa bilan engil eruvchan modda Yordamida Yopishtirib qo'yilgan. Engil eruvchan moddaning eruvchanligi sharoitga moslab tanlanishi mumkin. Agar bino ichidagi havo harorati ko'tarilsa, unda engil eruvchan modda erib ketadi va bu diafragma teshigini berkitib turgan shisha klapanning tushib ketishiga sababchi bo'ladi. Shundan keyin sprinkler boshchasi ma'lum maydon bo'ylab suv sepa boshlaydi. Sprinkler sistemasiga keltirilgan suv ma'lum qurilmalar orqali o'tganligi sababli, bu qurilmalar Yong'in chiqqanini bildiruvchi sirena bilan signal beradi. Birlamchi yong'inni o'chirish vositalaridan tashqari korxonalarda statsionar yong'inni o'chirish vositalari quriladi. Ular suvli (drencherli va sprinklerli), aerozolli (galoid uglevodorodli), kukunli, bug'li va boshqa turdagisi bo'lishi mumkin (25 -rasm).



2-rasm. Suvli o't uchirish avtomatik qurilmasi sxemasi.
1-xabar beruvchi, 2-sug'oruvchi (purkovchi)



3-rasm. Suv sochgichlar. a- OVS sprinkleri; b- OVD drencheri;
1-tiqilma, 2,4-richaglar, 3-engil eruvchi qulf, 5-razetka, 6-klapan



4- rasm. Yong'inni o'chirish sprinkler qurilmasi: 1-suv manbasi; 2-nasos; 3-magistral quvur; 4-teskari klapan; 5-suv bosimi idishi; 6-signal qurilmasi; 7-nazorat-signal klapani; 8- suv uzatish quvuri; 9-tarqatuvchi quvuri; 10- sprinkler boshchalari.

Sprinkler qurilmalari bilan bir qatorda drencher qurilmalaridan ham keng foydalaniлади. Drencher qurilmalarining sprinklerden asosiy farqi unda engil eruvchan qulfli qurilma о'rnatilmaydi. Ularni ishlatish asosan suv o'tkazish kranlarini ochish yo'li bilan amalga oshiriladi.

МА'RUZA № 41 DRINCHER QURILMALARINI ISHLASH PRITSEPI

МА'RUZA № 42 INSON NAFAS OLISH ORGANLARINI GAZ VA TUTUNDAN HIMOYA QILISH VOSITALARI

Инсонни нафас олиш органларини тутун ва газдан ҳимоя қилишда бир шахсни ва гурухнинг ҳимоя қилиш воситалари гурухига бўлинади.

Бир шахсни ҳимоя қилиш газниқоблари бир одамнинг нафас олиш органларини ва юз қисмини ҳимоя қилади. Улар тозаловчи (фильтрловчи) ва ҳимояловчиларга бўлинади.

Тозаловчи газниқоблар, тозаловчи моддаларнинг турига, қандай газлардан ҳимоя қилишга қараб ҳар-хил турларга бўлинади. Лекин бу газниқоблар кислород концентрацияси 16% дан кам бўлган мухитда (ёнгинда) ишлатишга яроқсиз.

Ҳимояловчи газниқоблар ҳаволи ва кислородли турларга бўлинади.

Шлангли ҳаво газниқоблар, кўпгина корхона ва қишлоқ хўжаликларида ишлатилиб келингатти. Улар тузилиши ва ишлатилиши бўйича содда, лекин ишлатиш шароити чегараланган, шлангларни шикастланиш мумкин, ҳаракатда қўллар банд бўлиши каби камчиликлари бор.

Юз йилдан бери сиқилган ҳаволи аппарат ишлатиб келингяпти. Улар ишлатишида қулай ва содда. Лекин камчилиги оғирлиги ва ўлчови катта, ҳимоя қилиш вақти кам.

Кислород ҳимоя газниқоби кислород хусусиятига қараб (сиқилган газсифат, суюқ-кимёвий алоқали) ва ҳимоя қилиш вақтига қараб бир неча турга бўлинади.

Бу газниқоблар тузилиши, ишлатишида ва хизмат кўрсатишида бироз мураккаб. Бундан ташқари, уларнинг асосий камчиликлари ҳудудий иқлимнинг (микроиқлим) ҳар-хиллиги туфайли, шахсий таркибни жиддий танловини ва уларни маҳсус тайёрлашни талаб этади.

Гурухни ҳимоя қилиш воситаларига қуйидагилар киради:

- сунъий ҳаво алмашуви;
- мажбурий ҳаво алмашуви (ўрнатилган ва олиб юрувчи);
- олиб юрувчи тутун ютгичлар (прицеп, мотопомпа ва ёнғин ўчириш автомобилларининг базасида).


13. ACB-2 аппаратининг вазифаси нимадан иборат? /1; 2/

Ишиш принципи қандай? ACB-2нинг техник кўрсаткичларига нималар киради?

ACB-2 нинг асосий вазифаси инсоннинг нафас олиш органларини, заҳарли газ ва тутундан ҳимоя қиласди. У асосан 2та ҳаво баллони билан таъминланган бўлиб, тузилиши бўйича жуда содда, лекин бироз оғир.

ACB-2 аппаратининг ишиш принципи .

Ҳаво баллонининг жўмрагини очганда, ҳаво фиксатор орқали редукторга ўтади ва у ерда босим 200 отм. дан 50 отм. га камаяди, сўнгра шланг орқали ўпка автоматига ўтади. Юз ниқобдан нафас олиш натижасида ҳавосизланиш (вакуум) ҳосил бўлади ва ўпка автоматининг клапани очилиб, 30 л/дақ. миқдорида ҳаво ўтади. Нафас чиқарганда, ўпка автоматининг клапани ёпилади ва ҳаво чиқарилган ҳаво, юз ниқобга ўрнатилган, ташқарига чиқиш клапани орқали, ташқарига чиқиб кетади. Ҳаво баллонидаги босим 30-40 отм. га камайганда захира очиш жўмраги, газниқобчига, баллонда ҳаво миқдори камайганлиги тўғрисида хабар беради. Шунда захиранинг очиш жўмрагини ёқиб, хавфсиз жойга чиқиш керак.



1. Баллон сиқилған ҳаво билан.
2. Баллон жүмраги.
3. Манометр.
4. Редуктор.
5. Қисмларни маҳкамлаш коллектори.
6. Штуцер.
7. Захирани очиш жүмраги.
8. Фиксатор.
9. Ёстиқча.
10. Тақиши тасмалари.
11. Шланг.
12. Ўпка автомати.
13. Юз ниқоби.

Баллон жүмраги ва захиранинг очиш жүмраги битта умумий қобиққа бирлаштирилген ва у баллонларнинг учига маҳкам қилиб қўйилган. Қобиқнинг уч штуцери бўлиб, бу ерга: редуктор, манометр, 2та баллон улаш коллектори уланади.

ACB-2 аппаратининг қулайликлари:

- тузилиши содда;
- хизмат кўрсатиш арzonроқ ва қулайроқ;
- нархи бошқа газниқобларга қараганда арzon;
- кимё, нефт ва мой ишлаб чиқариш корхоналарда ишлатиш хавфсиз;
- ACB-2 аппаратининг камчиликлари;
- вазни бошқа газниқобларга қараганда оғир (15 кг);
- химоя қилиш вақти кам (60 мин.);
- химоя қобиғи йўқ.

АСВнинг техник кўрсаткичлари. 2.1-жадвал.

№	Кўрсаткичлар.	Нафас олиш аппаратлари.						Комбина- циялашга н
		Автономли.						
		Украина -2	Влада- 2	СХА -2	Лана- 20	Лана- 30	AB M -3	ШАП -62
1	Ҳимоя қилиш вақти дақ.	60	40	60	55	70	50	25
2	Оғирлиги.	22	15	15	12	16	21	13
3	Баллонлар сони. (дона)	2	2	2	1	1	2	3
4	Баллоннинг сифими. Ишчи босим МПа.(кгс/см ²)	7	3	4	7	7	5	1,3
5	Миқдори	15 150	20 200	20 200	20 200	30 300	15 150	20 200
6	Захира ҳавоси (л). 30 л/дақ. Тезлигига, хавонинг қаршилиги	2100	120 0	160 0	140 0	210 0	150 0	720
7	Па (мм.сув сат.): нафас олганда; нафас чиқарганда.	500 (50) 200 (20)	200 (20) 200 (20)	300 (30) 500 (50)	300 (30) 500 (50)	300 (30) 500 (50)	- (50) - (65)	500 650 - (65)

14. Инсон нафас олиш органларининг газ ва тутундан ҳимоя қилиш воситаларига нималар киради? /1; 2/

Газниқобларнинг қандай турлари бор? Уларнинг вазифаси нимадан иборат?

Инсонни нафас олиш органларини тутун ва газдан ҳимоя қилишда бир шахсни ва гурухнинг ҳимоя қилиш воситалари гурухига бўлинади.

Бир шахсни ҳимоя қилиш газниқблари бир одамнинг нафас олиш органларини ва юз қисмини ҳимоя қиласди. Улар тозаловчи (фильтровчи) ва ҳимояловчиларга бўлинади.

Тозаловчи газниқблар, тозаловчи моддаларнинг турига, қандай газлардан ҳимоя қилишга қараб ҳар-хил турларга бўлинади. Лекин бу газниқблар кислород концентрацияси 16% дан кам бўлган мухитда (ёнгинда) ишлатишга яроқсиз.

Ҳимояловчи газниқблар ҳаволи ва кислородли турларга бўлинади.

Шлангли ҳаво газниқблар, кўпгина корхона ва қишлоқ хўжаликларида ишлатилиб келингати. Улар тузилиши ва ишлатилиши бўйича содда, лекин ишлатиш шароити чегараланган, шлангларни шикастлаш мумкин, ҳаракатда қўллар банд бўлиши каби камчиликлари бор.

Юз йилдан бери сиқилган ҳаволи аппарат ишлатиб келинганды. Улар ишлатишида қулай ва содда. Лекин камчилиги оғирлиги ва ўлчови катта, ҳимоя қилиш вақти кам.

Кислород ҳимоя газниқоби кислород хусусиятига қараб (сиқилган газсифат, суюқ-кимёвий алоқали) ва ҳимоя қилиш вақтига қараб бир неча турға бўлинади.

Бу газниқоблар тузилиши, ишлатишида ва хизмат кўрсатишида бироз мураккаб. Бундан ташқари, уларнинг асосий камчиликлари ҳудудий иқлиминг (микроиқлим) ҳар-хиллиги туфайли, шахсий таркибни жиддий танловини ва уларни маҳсус тайёрлашни талаб этади.

Гурухни ҳимоя қилиш воситаларига қуидагилар киради;

- сунъий ҳаво алмашуви;
- мажбурий ҳаво алмашуви (ўрнатилган ва олиб юрувчи);
- олиб юрувчи тутун ютгичлар (прицеп, мотопомпа ва ёнғин ўчириш автомобилларининг базасида);

15. Сиқилган газ ҳолатидаги кислород билан ишлайдиган газниқобларнинг вазифаси нимадан иборат? /1; 2/

Тузилиши жиҳатидан неча тармоқли бўлади? Кислород етказиб берувчи қисмларга нималар киради? Газниқобларга қандай талаблар қўйилган?

Сиқилган газ ҳолатидаги кислород билан ишлайдиган газниқоблар (КХГ(КИП)) тузилиш жиҳатидан уч тармоқдан иборат:

- 1.Ҳавони бўлиб берувчи. Бунга: нафас олиш шланглари, нам йиғгич, нафас олиш клапанлари, нафас олиш қопи, товуш сигнали, тиклаш қутиси киради;
- 2.Кислород етказиб берувчи. Бунга; кислород баллони, кислород етказиб берувчи механизм, капилляр трубкалар, манометр киради;
- 3.Ёрдамчи. Буларга: газниқоб қобиғи (корпус) қопқоғи билан, бел ва елка тасмалари киради:

Газниқобларга қўйиладиган талаблар.

Кислород ҳимоя газниқоблар (КХГ(КИП)) ёнғин ёки қутқарув олиб борилаётган жойларда инсон нафас олиш органларини, нафас олишга яроқсиз муҳитдан, ҳимоя қилиш учун хизмат қиласди.

Тайинлашидан келиб чиқиб, газниқобларга физиология-гигиеник ва тактик-техник талаблар, газниқоб конструкцияси бутунлай ва алоҳида қисмларга қўйилади.

Газ-тутундан ҳимоячининг оғир шароитида ишлашини инобатга олиб, газниқоблар конструкцияси қуидаги кўрсаткичларни ҳисобга олиш керак:

Нафас олиш ва чиқариш сиғими, л ..	0,3...4
Ўпка нафас сиғими, л ..	6...85
Кислород истеъмол қилиш микдори, л ..	0,25..3,5
Нафас олиш коэффициенти,	.. 0,75..1,21
Нафас олиш тезлиги, дақ.	.. 10..45

Газниқоб орқали олинадиган ҳаво таркибидаги кислород микдори 50% бўлиши керак. Бу таркибининг микдори қисқа муддатга камайиши

мумкин, аммо 25% дан кам бўлмаслиги керак. Карбонат ангидриднинг микдори 0,5% ишнинг охирида 2% гача ошиши мумкин.

Ҳар қандай нафас олиш, ортиқча қаршилик газниқобда ишлаётган одамни тез толиқтириб қўйиши мумкин, шунинг учун қаршилик қўйидаги кўрсаткичдан ошмаслиги керак.

2.2-жадвал. КИПларда нафас олишга қаршилик ўлчови.

Кўрсаткичлар.	Газниқоблар.			
	4 соат иглаш даврида.		2 соат иглаш даврида.	
	Нафас олиш	Нафас чиқариш	Нафас олиш	Нафас чиқариш
Ўрта оғирликда иглашдаги нафас олишга қаршилик Па (мм.сув.сат): -ўртacha; -иш охирида:	250(25) 400(40)	200(20) 300(30)	350(35) 350(35)	300(30) 450(45)

Ушбу газниқобларнинг асосий камчиликларидан бири иш давомида нафас олинувчи ҳавонинг қизиб кетишидир. Ўртacha иссиқлиқда (25°C) газниқобда олинувчи ҳавонинг иш оғирлигига қараб қизиши қўйида кўрсатилган:

Иш оғирлиги даражаси	Ҳарорат, $^{\circ}\text{C}$
- тинч ҳолатда	28,5/30,0
- ўртacha	37,1/40,8
- оғир	41,8/47,6
- жуда оғир ҳолатда	42,6/50

Эслатма: Суратда-ўртacha ҳарорат. Махражда-максимал ҳарорат. Ўртacha ҳароратдан юқорироқ ҳароратлардан иглаш вақтини қисқартиришда қўйидаги жадвалга амал қилиниши керак:

2.3 -жадвал. Газ-тутундан ҳимоячининг юқори ҳароратли мұхитда иглаш вақти.

Атроф-муҳит ҳарорати $^{\circ}\text{C}$	Иглаш вақти, дақ.		
	Ҳавонинг нисбий намлиги, %		
	15-49	50-84	85-100
31	90	90	90
35	90	90	50
40	60	50	25
45	50	40	25
50	45	35	16
55	40	30	10
60	35	20	5
65	30	20	-
70	20	15	-

Газниқобнинг атроф-мухитдан сақлаш хусусиятини асрашда юз ниқобнинг аҳамияти катта. Юз ниқоб нафас олиш организмини ҳар қандай вазиятда, ҳатто ҳушидан кетгандан кейин ҳам атроф-мухитдан ҳимоя қилиши керак.

16. Сиқилган ҳаволи аппаратларнинг вазифаси нимадан иборат? /1; 2/

Уларнинг қандай турлари мавжуд? Ишиш принципи ва техник кўрсаткичлари ҳақида маълумот беринг.

Сиқилган ҳаволи аппарат (СҲА(ACB)), бир шахсни ҳимояловчи газниқоблар турига киради. Туртилиш, урилиш, иссиқлик натижасида кислородли газниқоблар портлаш ёки ёниб кетиш эҳтимолидан холи эмас. Бундан ташқари, КХГ(КИП) совук ҳароратда ишлаш натижасида, кислород таркибидаги намлик музлаши оқибатида клапан ўриндиқларга ёпишиб қолади. Мембрана, юз ниқоб, нафас олиш қопи ва шунга ўхшаш резина қисмларни совук ҳарорат натижасида эгилувчанилиги камаяди ва механизмларнинг ишлаш имконияти камаяди. Бундан ташқари, паст ҳароратда ишлаш жараёнида оҳакли кимёвий ютгичнинг(ОК-Ю) тозалаш хусусияти ёмонлашади ва КХГ(КИП) ни ҳимоя қилиш вақти камаяди.

Юқорида кўрсатилган барча камчиликлар, сиқилган ҳаволи аппаратларда бартараф этилган. Замонавий СҲА(ACB) лар асосан уч турга бўлинади;

- автономли (мустакил);
- шлангли;
- комбинациялашган:

Инсонга ҳавони таъминлаш йўли билан ҳимоя воситалари ўзаро фарқланади.

Автономли аппаратларга ҳаво, шу аппаратда ишловчи, олиб юрувчи ҳаво баллонидан узатилади. Комбинациялашган аппаратларга ҳаво баллондан, шланг орқали юз ниқобга ўтади.

Сиқилган ҳаволи аппарат АСВ-2 нинг вазифаси, тузилиши, ишлаш принципи ва техник кўрсаткичлари.

Ёнғин хавфсизлиги бўлинмаларида кўп йиллардан бери автономли сиқилган аппарат АСВ-2 ишлатиляпти.

АСВ-2 нинг асосий вазифаси инсоннинг нафас олиш органларини, заҳарли газ ва тутундан ҳимоя қиласи. У асосан 2та ҳаво баллони билан таъминланган бўлиб, тузилиши бўйича жуда содда, лекин бироз оғир.

ACB-2 аппаратининг ишиш принципи .

Ҳаво баллонининг жўмрагини очганда, ҳаво фиксатор орқали редукторга ўтади ва у ерда босим 200 атм. дан 50 отм. га камаяди, сўнгра шланг орқали ўпка автоматига ўтади. Юз ниқобдан нафас олиш натижасида ҳавосизланиш (вакуум) ҳосил бўлади ва ўпка автоматининг клапани очилиб, 30 л/дақ. миқдорида ҳаво ўтади. Нафас чиқарганда, ўпка автоматининг клапани ёпилади ва ҳаво чиқарилган ҳаво, юз ниқобга ўрнатилган, ташқарига чиқиши клапани орқали, ташқарига чиқиб кетади.

Ҳаво баллонидаги босим 30-40 атм. га камайганда захира очиш жўмраги, газниқобчига, баллонда ҳаво миқдори камайганлиги тўғрисида хабар беради. Шунда захиранинг очиш жўмрагини ёқиб, хавфсиз жойга чиқиш керак.

MA’RUZA № 43

BIRLAMCHI O’T O’CHIRISH VOSITALARI, ULARNING TURLARI

Reja

1. Birlamchi o’t o’chirish vositalari
2. Birlamchi o’t o’chirish ularning turlari

Tayanch so’z va iboralar: o’t o’chirish vositalari, yonish, alanganish chegaralari, xavflilik darajasi, yonish tezligi, tarqalish tezligi, katta diapazon, uchqun, shikastlanish, kimyoviy vositalar, bug‘ yordamida o’chirish, , avtomatik o’t o’chirish vositalari

O’tni o’chirish deganda, yonish uchun zarur bo’lgan uchta omilning birini bartaraf etish yo’lida qilinadigan harakat tuShuniladi. ya’ni yonishni to’xtatish uchun quyidagi harakatlarni bajarish kerak bo’ladi:

- Yong’in hududiga kislorodni kirish yo’lini to’sish Yoki yonuvchi moddani miqdorini kamaytirish, ya’ni to’siq qoyish;
- Yonuvchi manba’ hududini yoki yonayotgan moddaning haroratini issiqlikni yutadigan, ammo o’zi yonmaydigansovutgich moddalar Yordamida keskin pasaytirish, demak sovutish;
- Yonuvchi suyuq moddalarni o’tda yonmaydigan moddalär (gaz yoki suv) bilan suyultirish.

Amaliyotda yong’inni o’chirishda bu usullarning dastlabki ikkitasi, ya’ni o’tni o’chiruvchi moddalar yordamida ihotalab qoyish va sovutish usullari ko’proq qo’llaniladi.

O’tni o’chirish uchun ishlatiladigan, olovda yonmaydigan turli xildagi moddalar, jumladan suv, inert gazlardan karbon ikki oksidi, azot, argon, suv bug’lari, kimyoviy ko’piklar, geterogen kukunlar, galogen karbovodorod sovutgichlari va ularni uzatib beruvchi uskunalar va boshqalar o’t o’chirish vositalari bo’lib xizmat qiladi. Bugungi kunda o’t o’chirish vositasi sifatida Yong’inni o’chirishda eng ko’p ishlatiladigani suv hisoblanadi. Suvdagagi o’tni o’chirish xususiyatlari, uni yuqori darajadagi issiqlikni yutuvchanligi (issiqlikni yutish qobiliyati 2260 kDj/kg), yuqori haroratga chidamliligi va bug’langanda hajmini 1700 marotaba ko’payib ketishi bilan belgilanadi. Suv o’t o’chirishda eng qo’lay vositalardan xisoblanadi, chunki unda birvaqtin o’zida 3 ta xislat, ya’ni sovutish, suyultirish va ihotalash xususiyatlari mavjud.

Suv oqimini katta bosim ostida kuchaytirib beraoladigan 28-50 mm diametrli brandsboy lafet uskunalar Yoki diametri 13-25 mm bo’lgan dastakli o’t o’chirish vositalari yordamida yaxlit Yoki maxsus purkagich uskunalar Yordamida suv bug’lari oqimi shaklida purkab uzatilishi mumkin. Suvni bu boradagi kamchiligiga, uning yonuvchi sirtga Yopishmasligi va oquvchanlik

xususiyatlarini ko'rsatish mumkin. Buning oqibatida suv ko'p miqdorda sarflanadi va atrofdagi buyum va jihozlar yaroqsiz holga kelib qoladi. Bundan tashqari Shuni ham nazarda tutish lozimki, hamma Yong'inlarda ham o't o'chirish vositasi sifatida suvni ishlatish mumkin bo'lavermaydi. Chunonchi, metal va uning gidridlari, metaloidlar va karbidlarni hamda elektr dastgohlari Yonganda ularni suv bilan o'chirish ma'n etiladi. Chunki bunday Yong'inni o'chirish jarayonida noxush oqibatlar yuzaga kelishi, ya'ni Yong'inni kuchayib ketishi Yoki elektr ta'siridan fofja yuz berishi mumkin.

Yong'inni o'chirishda suv va ko'pik moddalarini ishlatish mumkin bo'limgan holatlarda o't o'chirish vositasi sifatida Yonmaydigan gazlardan keng foydalaniladi. Bunday gazlarga azot, karbon ikki oksidi, argon, brometil, xlorbrommetan va boshqalar misol bo'ladi. Bu gazlar havodagi kislorodni Yonishga Yordam beraolmaydigan darajagacha suyultirish Yoki uni Yonuvchi muhitdan (Yopiq hajmda) siqib chiqarish maqsadida ishlatiladi. Masalan, Shu maqsadda eng ko'p ishlatiladigan karbonat angidridi (SO_2) havodan 1,5 barobar og'ir bo'lganligi sababli, pol sathidagi Yonuvchi hajmni sovutish bilan birga unga keladigan kislorod Yo'lini to'sish evaziga, Yong'inni tez o'chirish imkonini beradi. 1litr suyuq karbonat angidridi, balondan ochiq havoga chiqarilganda uning hajmi 506 litrga ko'payadi. Bu degani Yopiq hajmdagi Yonuvchi manba'ga, tashqaridan kislorodni kirib kelishiga mutlaqo imkon qolmaydi demakdir. Odatda, SO_2 suyuq yoki gaz holatida 2 litrdan to 80 litrlik hajmdagi harxil po'lat balonlarda, 3430 kPa bosimda saqlanadi. Karbonat angidridi to'lg'azilgan gaz balonlarini xavfsizlik holati ular saqlana Yotgan muhitning haroratiga bog'liq bo'ladi. Muhitning harorati ko'tarilgan sari, balondagi suyuq karbonat angidridi gaz holatiga aylanaboshlaydi, natijada balondagi bosim ko'tarilib portlash xavfi yuzaga keladi. Bunday xavfni oldini olish uchun barcha o't o'chirgichlarning balonlari suyuq gaz bilan faqat 75% hajmida to'lg'aziladi va ularning hammasi himoya pardalari (membranalar) bilan ta'minlangan bo'ladi.

Birlamchi o't o'chirgich vositalari ichida eng ko'p ishlatiladigan vosita, bu qo'lida ishlatiladigan o't o'chirgichlardir. Yong'inni dastlabki davrida bunday o't o'chirgich vositalarni ahamiyati juda katta. Birlamchi o't o'chirgich vositalarini o'z joyida tezkorlik bilan ishlatabilish har bir zi Yolining fuqarolik burchidir

Qo'lida ishlatiladigan birlamchi o't o'chirgich vositalari kimyoviy ko'pikli, gazli va kukunli turlarga bo'linadi va ularni og'irligi 20 kg dan oshmasligi kerak. O't o'chiruvchi vosita sifatida karbon ikki oksidi (suyuq holatda), tarkibida brom aralashgan aerozollar va poroshoklar ishlatiladi.

Kukunli o't o'chirgich OPS-10 vositasining ish uslubi maxsus balonchadagi siqilgan havo Yordamida o't o'chirgich korpusida joylashgan kukunni puflab chiqarishga asoslangandir. Bunday o't o'chirgich vositalari ishqorli metallar ishtirokida sodir bo'lgan yong'lnarni, shuningdek avtomobil motori va elektr tarmog'iga ulangan holda Yonayotgan dastgohlarni o'chirishda qo'llaniladi va bitta OPS-10 Yordamida $0,25 \text{ m}^2$ yuzadagi Yong'inni o'chirish mumkin. Uning ishslash muddati 45-80 soniyaga etadi. Bu toifadagi o't o'chirgichlarda ishlatiladigan kukun namunalari natriy gidrokarbonat, alyuminiy

va magniy moddalari aralashmasidan tarkib topgan bo'lib, olovni o'chirish uchun kukunni Yonayotgan yuzaga purkash kifoya qiladi.


Kimyoviy ko'pikli o't o'chirgichlar, yong'in kuchayadigan va portlash xavfi mavjud bo'lgan joylardagi yong'inlar hamda qimmat baho buyumlar, avtomashinalar, kutubxonalar, arxivlar va elektr dastgohlari joylashgan muhitdagi Yong'inlardan tashqari, yonuvchi qattiq va suyuq mahsulotlarning barcha turlarini o'chirish uchun mo'ljallangan. Chunki ko'pikni tarkibida emiruvchi xususiyatga ega bo'lgan kislota va ishqor moddalari bor, ular qimmatli buyumlarni yaroqsiz holga keltirib qoyadi.

Bugungi kunda xalq xo'jaligida keng qo'llaniladigan birlamchi o't o'chirgichlardan kimyoviy ko'pikli OXP-10 va havoli ko'pikda ishlaydigan OVP-10 rusumli vositalar hisoblanadi. OXP-10 o't o'chirgichni ko'pik hosil qiluvchi mahsulot (400 g natriy bikarbonat va 50 g solodok ekstrakti aralashmasi) bilan to'ldirishda, ishqor moddasi 30°S gacha isitilgan 7,5 litr hajmdagi suvda erilib,sovugandan keyin o't o'chirgichni temir korpusiga quyiladi. Javhar qismiga esa, oltingugurt javhari va temir oksidi aralashmasini, harorati $80\text{-}100^{\circ}\text{S}$ gacha qaynatilgan 450 ml hajmdagi suvda eriladi. Eritmani 18°S gacha sovutilgandan so'ng maxsus polietilen Yoki shisha stakanga quyilib, o't o'chirgich korpusining qopqog'iga burab o'rnatiladi.


Ko'pik bilan o'chirish. Ko'pik bu maydalangan sistema bo'lib, bunda gazlar bir-biridan suyuqlikning tarang sirtlari bilan ajratilgan bo'ladi. Ko'pik hosil qilishi uchun gaz zarralarini suv qobig'i bilan o'rash, ya'ni havo zarralarini suvga singdirish kerak. Ishqorlar bilan kislotalar aralashmasining ximiyaviy reaksiyasi, Yoki suv bilan ko'pik hosid qiluvchi modda va havo aralashmasini mexanik aralashtirish asosida ko'pik hosil qiladi. Kimyoviy ko'pik 80% karbonat angidrid gazi, 19 % suv va 0,3 % ko'pik hosil qiluvchi moddadan tashqil topadi. Mexanik ko'piklar esa 90 % havo, 9,6 % suv va 0,44 % ko'pik hosil qiluvchi moddadan iborat bo'ladi. Qattiq moddalar va asosan engil alanganuvchi suyuqliklar Yonib ketganda ko'pik bilan o'chirish yaxshi natija beradi. Chunki engil alanganuvchi suyuqliklar solishtirma og'irligi suvdan engil va ular suv bilan o'chirib bo'lmaydi.

Ko'pik bilan o'chirishning asosiy xususiyati, u engil alanganuvchi suyuqlik yuzasini Yoki qattiq jism yuzasini yupqa ko'pik qavati bilan qoplashi natijasida, Yonayotgan modda bilan havodagi kislorod o'rtasida to'siq hosil qiladi. Bu to'siqning mustahkamligi ko'pikning turganlik hossasiga bog'liq bo'ladi. Chunki ko'pik engil alanganuvchi suyuqlikdan ancha engil bo'lganligi sababli uning yuzasida muhofaza qobig'i tashqil qiladi va bu qobiq suyuqlik parlari hosil bo'lishiga to'sqinlik qiladi va Shuningdek kislorod kirmasligini ta'minlaydi. Agar ko'pikning turg'unligi kam bo'lsa, unda suyuqlik yuzasida uzilish hosil bo'lishi mumkin, ya'ni tarang tortilib turgan parda ochilib ketishi mumkin, bu esa albatta alanganishning qaytadan boshlanishiga sharoit yaratadi. Bundan tashqari ko'pikning issiqlik o'tkazish xususiyati juda past bo'lganligidan, Yonayotgan yuzadan issiqlikni suyuqlik yuzasiga ta'sir etishiga to'siqlik qiladi. Kimyoviy ko'piklar asosan qo'lda ishlatiladigan o't o'chirgichlarda keng qo'llaniladi. Ularning muqim o'rnatiladigan turlari ham bor. Mexanik ko'piklar esa 4-6 ko'pik hosil qiluvchi poroshoklar Yoki

suyuqliklarni suv va havo bilan aralashtirilishi hisobiga ko‘pik generatorlari, ko‘pik hosil qilish stvollarida ko‘pikka aylantirib ishlatiladi. O‘chirish uchun ishlatiladigan ko‘piklarning xarakterli belgilari, ularning turg‘unligi va ko‘pik hosil qilish darajasi hisoblanadi. Ko‘pik hosil qilish darajasi bu hosil bo‘lgan ko‘pikning uni hosil qilish uchun sarflanadigan moddalar xajmiga nisbatan hisoblanadi. Ko‘pik hosil qilish darajasi komyoviy ko‘piklar uchun 5, mexanik ko‘piklar uchun 8-12 bo‘lishi mumkin. Yuqori ko‘piruvchi mexanik ko‘piklarda bu miqdori 100 va undan katta bo‘lishi mumkin. Ko‘pikning turg‘unligi esa uning katta haroratda so‘nmasdan ma’lum vaqtgacha chidash berishi hisoblanadi. Komyoviy ko‘piklar suyuqlik yuzasida 1 soatgacha PO-I Yordamida olingan mexanik ko‘piklar 30 min, PO-6 Yordamida hosil qilingan ko‘piklar esa 40-45 minut turg‘unlikka ega bo‘lishi mumkin. Ishlab chiqarish korxonalaridagi o‘t o‘chirish sistemalarining asosiy qismini suv va ko‘piksimon moddalar tashqil qiladi. Shuni ham ta’kidlash kerakki, suv va ko‘pik bilan hamma erda va har qanday Yong‘inlarni o‘chirish mumkin emas. Chunki ba’zi bir holatlarda komyoviy reaksiyalar ishlab chiqarish chiqindilari ta’sirida etarli darajada unumdon ko‘pik ajratmasdan, ulardan boshqa moddalar ajralib chiqishi Yong‘inni kuchaytirishga olib kelishi mumkin. Ko‘pikni xilma-xil qurilmalarda hosil qilish mumkin: bular doimiy o‘rnatilgan, ko‘chirib yuborish mumkin bo‘lgan Yoki harakatlanuvchi qurilmalar va qo‘lda ishlatiladigan o‘t o‘chirgichlardir (-rasmlar). Qo‘lda ishlatiladigan ko‘pikli o‘ch o‘chirgichlar juda keng tarqalgan o‘ch o‘chirish sistemalari hisoblanadi. Ularning keng tarqalganligiga asosiy sabab, o‘t o‘chiruvchi moddani xohlagan vaqtida ishlatish mumkin. Uni ishlatish juda oson va uni bir odam bir necha sekund davomida ishga tayYorlashi va ishlatishi mumkin. Bundan tashqari undan ajralib chiqadigan ko‘piksimon modda oqim sifatida anchagina bosim Yordamida (6-8 ati) bir necha metr masofadagi Yonayotgan zonaga (6-8 m) Yo‘naltirilishi mumkin. Bu esa uni samarali ishlatish imkoniyatini beradi.



1-rasm. Komyoviy-ko‘pikli o‘t o‘chirgich,
OXP-10



2 -rasm. Havo-ko‘pikli o‘t o‘chirgich,
OVP-10

Karbonat kislotalar yordamida o‘t o‘chirish

Ishlab chiqarish korxonalarida faqat qattiq Yoki suyuq moddalargina yonmasdan balki elektr qurilmalari, stanoklar va boshqalar ham Yonib ketishi mumkin. Ma’lumki yuqorida aytib o‘tilgan o‘t o‘chirish vositalari ya’ni ko‘pik Yordamida va suv bilan o‘chirish, ularni elektr tokini yaxshi o‘tkazganligi


sababli elektr qurilmalarini o‘chirishda mutlaqo ishlatib bo‘lmaydi. Chunki bunda o‘t o‘chiruvchini elektr toki ta’siriga tushib qolish xavfi bor. Shuning uchun bunday hollarda karbonat kislotalardan foydalilaniladi. Ma’lumki karbonat kislotalari (ya’ni SO₂) bilan o‘chirishning ikki xil usuli qo‘llaniladi. Birinchisida SO₂ to‘ldiradigan ballonlar Yordamida SO₂ ni Yonayotgan xonaga kiritiladi. SO₂ bilan o‘chirganda uning zaharliligini hisobiga olish kerak, uning hattoki 10% miqdorida nafas olish, o‘limga olib keladi. Shuning uchun undan foydalanganda maxsus signal sistemalari bo‘lishi kerak. Shuni aytib o‘tish kerakki 1 l suyultirilgan SO₂ 506 l gazga aylanadi.

Ikkinchisi SO₂ o‘t o‘chirgichlarga to‘ldiriladi. Bunday o‘t o‘chirgichlarning OU-2, OU-5, OU-8 turlari keng qo‘llaniladi. Bu o‘t o‘chirgichlarni ishlatishda uning yuqori qismiga o‘rnatalgan ventil burab ochiladi. O‘t o‘chirgichga to‘ldirilgan suyultirilgan SO₂ bosim ostida uning ichki tomonida siqib chiqarila boshlaydi. Suyultirilgan SO₂ nihoyatda tezlik bilan bug‘lanishi hisobiga qorsimon massaga aylanadi. U nihoyatda sovuq bo‘lganligi uchun elektr qurilmasiga Yo‘naltirilgan taqdirda uni o‘rab sovutadi (uning sovuqligi -81 °S atrofida bo‘ladi) va havo o‘tkazmaganligi sababli o‘chirishga erishiladi. Bu o‘t o‘chirgichlarning son ko‘rsatgichlari uning hajmini bildiradi




3-rasm. Uglekislotali o‘t o‘chirgichlar:

a) -OU-2; b) – OU-5




4-rasm. Poroshokli o‘t o‘chirgich, OPS-10.



5-rasm. Ko‘pikli o‘t o‘chirgich, OP-10

1-idish; 2-gaz ballon; 3-dastak;
4-quvur,



6-rasm. Uglerod oksidli brometilli o‘t o‘chirgich,
OUN-3.

Ishlab chiqarishda karbonat kislotali, zambilg‘altaklarga o‘rnatilgan 25, 50 l va undan katta hajmdagi turlari ham mavjud. Bundan tashqari tarkibiga galogenlar qo‘shilgan o‘t o‘chirgichlardan ham keng foydalaniladi. Ularning asosiy xususiyati kimyoviy reaksiyani to‘xtatishi mumkin.

Maxsus kimyoviy vositalar yordamida o‘chirish

Yonuvchi metallarni o‘chirish juda mushkul hisoblanadi. Bunday Yonuvchi metallar qatoriga kaliy, natriy, litiy, sirkoniy, magniy va boshqalarni kiritish mumkin. SO₂ magniyning Yonishini tezlashtirib yuboradi. Yonayotgan metallga suv sepib o‘chirmoqchi bo‘lsangiz, unda portlash ro‘y beradi va metall parchalari ancha uzoq masofalarga tarqalib Yonish zonasini kengaytirib yuboradi. Hattoki quruq qum ham yonayotgan metall ta’siriga tushib qolishi va qumning parchalanishi kuzatiladi. Bunda sof va kremniy birikmalari hosil bo‘ladi. Kremniy namlikni o‘ziga tortib, reaksiyaga kirishadi, natijada Yonuvchi va zaharli gazlar hosil bo‘ladi. Shuning uchun bunday metallarni o‘chirishda maxsus kimyoviy poroshoklardan foydalaniladi. Asosan poroshoksimon grafit, Na₂SO₃, MgSO₃, MgO₂ va ularning aralashmalari, Shuningdek suyultirilgan inert gazlardan foydalanish mumkin.

MA’RUZA № 44 **YONG’IN VA PORTLASHDAN ZARAR KO’RGANLARGA** **BIRINCHI YORDAM KO’RSATISH.**

Режа:

1. Ёнғинлар ва портлашлар, тушунчалар моҳияти.

1. Ёнғин хавфсизлиги: аҳолининг, халқ хўжалиги ва бошқа мақсадларга мўлжалланган обьектларни ҳамда табиий атроф - муҳитни ёнғиннинг хавфли омилларидан ва таъсиридан муҳофазалашганлик ҳолатига, одамлар ва моддий бойликларни тезкор эвакуация қилиш, ёнғинни чеклаш ва ўчириш учун шароит яратиш.

2. Ёнғин хавфсизлигини таъминлаш: хукукий—меъёрий хужжатларни, ёнишдан хавфсизлик қоидалари ва талабларини қабул қилиш ва уларга риоя қилиш ҳамда ёнғинга қарши тадбирларни ўtkазиш.

3. Ёнғин: D.st, 051 982.2000 “Фавқулодда вазиятларда хавфсизлик. Табиий фавқулодда вазиятлар. Атамалар ва таърифлар”.

4. Ёнғин хавфи: ёнғин хавфсизлиги талабларининг бузилиши, тартиб ва чораларга риоя қилмаслик натижасида ёнғин пайдо бўлиши ва тарқалиш эҳтимоли.

5. Ёнғин хавфсизлиги талаблари: Ўзбекистон Республикаси маҳсус ваколатланган давлат органлари томонидан амалдаги қонунчилик ёки

Меъёрий ҳужжатларда ёнфиндан хавфсизликни таъминлаш мақсадида ўрнатилган махсус шароит ёки ташкилий ва (ёки) техник хусусиятдаги қоидалар.

6. Ёнфинга қарши тадбирлар: ёнфинга қарши тартиб—қоидага риоя қилиш, ўз вақтида ёнфиннинг олдини олиш ва (ёки) тез ўчиришга қаратилган ташкилий ва (ёки) техник хусусиятдаги тадбирлар.

7. Ёнфинга қарши ҳолат: ўт ўчирувчилар командаси томонидан амалга ошириладиган, ёнфинга қарши тадбирларнинг доимий ўтказилиши, ёнгин хавфсизлиги қоидаларига қатъий риоя қилиниши ва ёнфинга қарши хизматнинг аниқ бажарилиш ҳолати.

8. Ёнфиндан сақлаш: ёнфиннинг олдини олиш ёки тўғридан-тўғри ўчириш мақсадида олиб бериладиган хуқукий, ташкилий, техник ва бошқа тадбирлар тизими.

9. Ёнгин ва портлаш хавфи мавжуд объект: фавқулодда вазиятлар юз беришига аниқ таҳдид соловчи, енгил алгангаланадиган ва ёнгин - портлаш хавфи мавжуд моддалар ишлаб чиқариладиган, фойдаланиладиган, қайта ишланадиган, сақланадиган ёки транпортда жўнатиладиган объект.

10. Портлаш: модданинг физик ва кимёвий ўзгариши туфайли чегараланган ҳажмда катта микдорда энергия ажралиб чиқиши натижасида теварак - атрофда техноген фавқулодда вазиятлар содир бўлишга ёки келтириб чиқаришга қодир бўлган зарбали тўлқин ҳосил бўлиши ёки тарқалишига сабаб бўлувчи тез кечар жараён.

11. Портлаш хавфи мавжуд модда: маълум таъсир натижасида портлашга мойил бўлган модда.

12. Зарба тўлқини: портлаш натижасида ҳосил бўладиган ва бутун фронт бўйлаб босим, ҳарорат, зичлик ва муҳит заррачалари (умумий тезлик) ўзгариши билан сиқилиш - ҳавоси сийракланган ҳолатда тарқаладиган ҳаво тўлқини.

13. Зарба тўлқини фронти: портлаш марказидан товуш тезлигидек юқори тезликда ҳаракатланувчи сиқилган ва мўътадил муҳит ўртасидаги бўлиниш юзаси.

14. Зарба тўлқини фронтидаги ортиқча босим: зарба тўлқини фронтидаги энг юқори босим ва фронт олдидағи мўътадил атмосфера босими орасидаги фарқ.

MA'RUZA № 45
KUYISHNING DARAJALARI. BIRINCHI YORDAM
KO'RSATISH USULI.

REJA:

1. Kuyish, sabablari, tasnifi, darajalari, belgilari va birinchi tibbiy yordam ko'rsatish.
2. Sovuq urishi, sabablari, darajalari, klinik belgilari. Sovuq urishida tibbiy yordam ko'rsatish.
3. Elektrotravma, sabablari, klinik belgilari, birinchi tibbiy yordam ko'rsatish

Kuyish

Kuyish (compustio) termik, kimyoviy, elektrik yoki nur energiyasining ta'sirida vujudga keladigan shikastlanishdir. Termik kuyish boshqa kuyishlarga qaraganda ko'proq uchraydi. To'qimaning 52 °C dan ortiq qizishi oqsillarni qaytarib bo'lmas koagulyasiyaga uchratadi. Kuyish issiqlik nuri, qizigan havo, to'g'ridan-to'g'ri issiq narsalarga tegish yoki alanga ta'sirida vujudga keladi. Ko'pincha oyoq kuyishdan shikasti topadi (47%). Kalla, qo'l va tananing boshqa qismlari bir XIL zararlanadi.

Kuyish tasnifi. Kuyish chuqurligini aniqlashda, uning darajasiga ahamiyat beriladi. 1960 yil xirurglar anjumanida 4 darajali tasnif taklif qilindi:

- 1 - darajali-yuzaki epidermal kuyish.
- 2 - darajali-teri yuqori qavatining kuyishi
- 3 - darajali - ba'zi joylardagi kuyish terining butun qavatini, ba'zi joylar esa yuqori qavatini egallaydi.
- 4 - darajali -chuqur to'qimalarning, ya'ni pay suyak, mushaklarning kuyishi.

1-2 darajali kuyish yuzaki, 3 VA 4 darajali kuyish esa chuqur kuyishga kiradi. Kuyish sathini aniqlashning har xil usullari bor zararlangan teri sathini aniqlash uchun A. Uolies taklif qilgan 9 qoidasi ko'proq ishlatalidi: kalla va bo'yin-9%, qo'1-9%, oyoq-18%, tana oldingi qismi-18%, orqa qismi-18%, oraliq sathi-1%. Shuningdek kaft qoidasi bor. Kishining kafti yuza tanasining 1 % maydonini tashkil qiladi. Kishi tanasining umumiyligi sathi 16000 sm² ga tengdir.

Kuyishning klinikasi. Mahalliy va umumiyligi belgilar farq qilinadi. Katta bo'limgan kuyishda umumiyligi belgilar uncha ahamiyatli bo'lmasa, keng maydon zararlarganda esa kuyish kasalligi kelib chiqadi. Mahalliy belgilar kuyish darajasiga bog'liq bo'ladi. Kuyishning zararlanish chuqurligiga qarab 4 darajasi bor;

1 darajali kuyish yallig'lanish bilan kechadi. Yuqori harorat ta'sir qilgan joy kuchli qizaradi va shishadi. Kuchli og'riq paydo bo'ladi. Bir necha kundan so'ng bu belgilar yo'qolib, teri qo'ng'ir rang oladi. 1 darajali kuyishga quyoshdan kuyish misol bo'la oladi.

2. Ikkinci darajali kuyishda yallig'lanish kuchli bo'ladi, kapillyarlar kengayadi, shish kattalashadi. Terining epidermal qavati zararlanadi, pufakcha hosil qiladi. Pufakchaning ichi tiniq seroz suyuqlik bilan to'lgan bo'ladi. Og'riq 3-4 kun davom etadi. Bu kuyish chandiqsiz bitadi va qaynoq suv yoki bug' ta'sirida yuzaga keladi.

3 a -darajali kuyishda nafaqat teri balki uning chuqur qavatlari ham zararlanadi. Pufakchalar paydo bo'ladi, ular rangsiz. qoraroq va timqora bo'ladi

3b- darajali kuyishda so'rg'ich qavat, teri osti yog' kletchatkasi zararlanadi.

4- darajali kuyishda esa chuqur to'qimalar, suyaklar zararlanadi. To'qimalar qora ko'mirga aylanadi va amputasiyani talab qiladi.

Kuyishda birinchi yordam ko'rsatish.

1. Shikastlangan kishiga yuqori harorat ta'sir qilishini to'xtatish zarur: yonayotgan kiyim-boshni o'chirish, shikastlangan kishini yuqori harorat zonasidan chiqarish, tana yuzasidan tutib, tutab turgan va qizigan kiyimlarni yechib tashlash kerak.

2. Alanga olgan kiyimni suv sepib yoki biror qalin matoga o'rabi o'chiriladi.

3. Kiyimlarni tez yechish uchun qirqish mumkin

4. Teri qoplamlariga zarar yetkazmaslik uchun qo'pol harakat qilmaslik lozim.

5. Kuygan yuza tez vaqt ichida bog'lam qo'yib bekitilishi zarur.

Kuygan yuzani hech narsa bilan yuvmaslik, unga qo'l tekkizimaslik, pufakchalarni sitmaslik, yopishgan kiyim parchalarini ko'chirmaslik, biror yog' surtmaslik, poroshok sepmaslik zarur va bemor tezlik bilan kasalxonaga yetkazilishi lozim.

Sovuq urishi

Sovuq urishi deb, past haroratning ta'sir qilishi natijasida to'qimalar nekrozi va reaktiv yallig'lanishiga aytildi. Ortiqcha namlik, mikroiqlimning buzilishi, tor kiyim va poyabzal kiyish, qon aylanishi, gipovitaminoz va shu kabilar sovuq urishi uchun qulay omil yaratadi. Uning asosiy sababi to'qimalar ishemiyasi bo'lib, bunda qon aylanishi sekinlashadi. 20 foiz hollarda qo'l - oyoq shikastlanadi. Sovuq urishlar tasnifi, sovuq urishning 4 darajasi farq qilinadi.

Sovuq urishning birinchi darajasida to'qimaning 40 daqiqadan 60 daqiqagacha sovuq urishi faqatgina teriga ta'sir qiladi, vaqtincha qon aylanishi buziladi. Sovuq ta'sirida teri rangsizlanadi, qonsizlanadi va qotadi. Soha isitilishi bilan tomirlar spazmi kamayadi, giperemiya fazasi boshlanadi. Shikastlangan to'qimada shish paydo bo'ladi. 1-2 hafta ichida qon aylanishi normal bo'ladi, sovuq urish belgilari yo'qoladi. Teri issiq, qizargan, ba'zan qo'ng'ir ko'k rangda bo'ladi, ssish vujudga keladi. "sovuq urish bezi" ko'k-qizil rangni eslatib, og'riydi, qichishadi,

2-darajali sovuq urishda terining malpigiyligini qavatigacha yuzaki nekroz bo'ladi. Sovuq ta'sirida tomirlar spazmi kuchli va uzoq davom etadi, so'ngra to'qimalarning isitilishi, ularni kislorod yetishmovchiligidagi olib keladi. Terida pufakchalar hosil qiladi, og'riq bo'ladi va shishadi.

3-darajali sovuq urishda **terining** chuqur qavatlari va teri osti yog' kletchatkasi zararlanadi.

4-darajali sovuq urishda terining chuqur qavatlari hatto suyaklar ham nekrozga uchraydi, 4-6 sutka o'tgach aniq o'lgan to'qimalar belgilanadi, **nekroz** chuqurlasha boradi. Sovuq urishda tovon, panjalar 4 hafta ichida, tovon esa 1-2 oy orasida uzilib tushadi. Sovuq urishida birinchi yordam ko'rsatish.

Sovuq urishini reaktiv davrida davolash, tomirlar spazmini yo'qotishga qaratilgan bo'lib, bunda kislorodga bo'lgan extiyojni qondirish zarur.

Mahalliy soha spirt, gibitan suyuqligi yoki teri rangiga ta'sir qilmaydigan antiseptik moddalar bilan dezinfeksiya qilinadi va isituvchi steril doka, paxta bog'lab qo'yiladi. Sovuq urgan sohaga issiq grelka yoki kompress qo'yiladi, sovuq olgan sohaga maz, yog' surtmaslik kerak. Vemor zudlik bilan kasalxonaga yetkazilishi lozim.

Elektr tokidan shikastlanish.

Sanoat, qishloq xo'jaligi va kundalik hayotda elektrlashirishni ko'p qo'llash, elektr tokidan shikastlanishlar sonini ko'paytirib yubordi. Elektr simlarining ikkala qutbini ushlaganda tokdan shikastlanish ro'yobga keladi, bu boshqa kuyishlardan farq qiladi. Elekir tokining ta'sir qilishi **uning** kuchiga, kuchlanishi va ta'sir davomiyligiga bog'liq bo'ladi. Elektr tokining ta'siri natijasida elektroliz (bug' yoki gaz hosil bo'lishi) ro'yobga kelib, suyakda fosfor tuzlari eriydi. **Yuqori** kuchlanishdagi shikastlanish nafaqat terini balki mushak va suyaklarni ham zararlantiradi. Mushak ko'chadi. "Tunel" paydo bo'lib, qontalash kuzatiladi. Bu o'zgarishlar tokning kirish, shuningdek, chiqish joylarida ro'y beradi. Elektr tokidan shikastlangan sohada sarg'ish- qo'ng'ir yoki kulrang kuyish jarohatlari yuzaga keladi. Ular odatda katta bo'lmasdan 2-3 mm. o'rtasi past va atrofi do'mboqcha kabi ko'tarilib turadi. Termik kuyishdan farqli elektrdan kuyishda giperemiyu va og'riq bo'lmaydi. Bu belgilar tok chiqish joyida mavjud bo'lishi mumkin. Chuqurligini qiyin, ba'zida mushak, nerv, qon – tomirlar, suyaklar zararlanishi, tok o'tgan sohada **tunel** yoki bo'shliqlar hosil bo'lishi mumkin. Elektr tokidan shikastlanganda mahalliy va umumiy belgilar kuzatiladi.

Umumiy belgilar har xil bo'ladi, u tokning ta'sir qilish davriga bog'liq. Yengil hollarda qo'rquv, darmonsizlik, hushdan ketish, ko'ngil aynishi kuzatiladi. Og'ir hollarda esa shok belgisi, chala o'lim holatiga ham sabab bo'ladi. Shikastlanganda nafas olishning to'xtashi, yurak fibrillyasiysi yuzaga keladi.



1.2. AMALIY MASHG'ULOTLAR MAVZULARI, ASOSIY MATN, TOPSHIRIQLAR. VARIANTLARI, MASALA VA MISOLLAR, KO'RSATMALAR

1. Yerga ulash va nollashtirishni hisoblash.
2. Yong‘indan ogohlantirish tizimi.
3. Yong‘inlarni suv, past va o‘rta karralik ko‘pik bilan o‘chirish qurilmalarini hisoblash metodikasi (usuli).
4. Past bosimli karbonat kislotali yong‘inni uchirish kurilmalarini gidravlik hisoblash usuli.
5. Gazli yong‘in o‘chirish qurilmalari bilan himoya qilinuvchi binolarda ortiqcha bosimni chiqarib yuborish uchun devordagi teshik maydonlarini hisoblash usuli.
6. Bino va inshootlardagi yong‘inlar xaqida odamlarni ogohlantirish tizimini loyihalashtirish bo‘yicha qo‘llanma. (yo‘riqnomasi).
7. Bino va inshootlarning mo‘ljallangan vazifasiga ko‘ra ularda ko‘p yordamida yong‘in haqida xabar beruvchi qurilmalarni o‘rnatish.
8. Yong‘in kuchining turi va himoya qilinayotgan maydonning mo‘ljallangan vazifasiga ko‘ra yong‘indan xabar qiluvchilarning turini tanlash.
9. Modul tipidagi kukunli yong‘in o‘chirish qurilmalarini hisoblash bo‘yicha umumiylar qoidalar.
10. Yong‘indan ogohlantirish tizimining bino va inshootlardagi texnologik va elektrotexnik jihozlar va boshqa tizimlar bilan o‘zaro bog‘liqligi.
11. Yong‘indan ogohlantirish tizimi va yong‘inni o‘chirish qurilmalarining elektr ta’minoti.
12. Modul tipidagi yong‘inni o‘chirish qurilmalari.
13. Past bosimli karbonat kislotali yong‘in o‘chirish qurilmalarini gidravlik hisoblash usuli.
14. Yonuvchi materiallarning yong‘in bosimi va binolarning funksional vazifasiga ko‘ra yong‘in rivojlanishi xavfi darajasiga ko‘ra xonalarning toifalanishi.
15. O‘zbekiston Respublikasining yong‘in va portlash xavfsizligi bo‘yicha meyoriy hujjalari talablarini o‘rganish (Yong‘in xavfsizligi to‘g‘risidagi qonun va boshqa).
16. Qo‘llaniladigan modda va materiallarning yonish va portlashga bo‘lgan xossalari, hamda ularni tavsiflovchi ko‘rsatkichlarni o‘rganish.
17. Ishlab chiqarishda qo‘llaniladigan zamonaviy texnologiyalarning yonish va portlash xavfsizligi bo‘yicha kategoriyalarga bo‘linishini o‘rganish.
18. Korxonalarining yonish va portlash xavflarini bashorat qilish uslublarini o‘rganish.
19. Yonish jarayonining turlarini va yonishda yuzaga keladigan fizik-kimyoviy jarayonlarni o‘rganish.
20. Ishlab chiqarishda qo‘llaniladigan modda va materiallarning o‘z-o‘zidan alangalanish shart-sharoitlarini va uni tavsiflovchi ko‘rsatkichlarni o‘rganish.
21. Ishlab chiqarishda qo‘llaniladigan modda va materiallarning o‘z-o‘zidan yonish shart-sharoitlarini va uni tavsiflovchi ko‘rsatkichlarni o‘rganish.

22. Modda va materiallarning yonish va portlashga xavfliliginig temperaturaga, bosimga va boshqa omillarga bog‘liqligini o‘rganish.
23. Ishlab chiqarish jaryonlarining yong‘in, yong‘in-portlash va portlash chiqish xavfi bo‘yicha kategoriyalari.
24. Ishlab chiqarish jarayonlarida yong‘in xavfining tahlili.
25. Texnologik jaryonlarda yong‘in, yong‘in-portlash va portlash xavfsizligini ta’minlash prinsiplari.
26. Texnologik jarayonlarni bajarishda yonuvchi muhit yuzaga kelishining sabablari.
27. Ishlab chiqarishda yuzaga keladigan yondiruvchi manbalar va ularni bartaraf qilish tadbirlari.
28. Portlashdan himoyalangan elektr jihozlarini tanlash uchun portlashga xavfli aralashmalarni kategoriyalash.
29. Yong‘in xavfsizligi chora-tadbirlarini ishlab chiqish va amalga oshirish.
30. Yong‘in xavfsizligi sohasida axborot bilan ta’minlash.

1- AMALIY MASHG‘ULOT

Yerga ulash va nollashtirishni hisoblash

Mashg‘ulotning maqsadi. Elektr jihozlari va uskunalarini yerga ulashning vazifasi va yerga ulash sxemasi bilan tanishish hamda yerga ulash ko‘rsatkichlarini hisoblash bo‘yicha amaliy ko‘nikmalar hosil qilish.

Mashg‘ulot rejasи


1. Elektr jihozlari va qurilmalarini yerga ulashning vazifasi va sxemasi.
2. Elektr jihozlarini yerga ulash ko‘rsatkichlarini hisoblash tartibi.
3. Yerga ulashni hisoblash bo‘yicha masalalar yechimi.

Topshiriqlar. Elektr jihozlari va uskunalarini yerga ulash tartibini o‘rganish va berilgan variant asosida elektr uskunalarini yerga ulashni hisoblash.

Nazariy qism

Elektr jihozlarini yerga ulash ko‘rsatkichlarini hisoblash tartibi

Insonlarni elektr tokidan himoya qilishning ishonchli va keng tarqalgan usullaridan biri elektr uskunalarini yerga ulash yoki nollashtirishdir. Yerga ulash qurilmasi elektrodlar (1) va ularni birlashtiruvchi o‘tkazgichlardan (2) tashkil topgan bo‘ladi (3.1-rasm).



1-rasm. Ishchi va himoyalovchi yerga ulash sxemasi:

- a) himoyalangan neytral bilan 1000V gacha tarmoqqa ulanganda;
- b) yerga ulangan neytral bilan 1000V dan yuqori tarmoqqa ulanganda. 1 - elektrodlar; 2 - yerga ulanadigan uskuna.

Yerga ulash elektrodlari sun’iy (aynan shu maqsad uchun maxsus o‘rnatilgan po‘lat quvur, burchaksimon po‘lat, armatura) va tabiiy (boshqa maqsadlarda yerga o‘rnatilgan po‘lat materiallar) bo‘lishi mumkin. Tabiiy elektrodlarga po‘lat suv quvurlari, bino va inshootlarning temir-beton konsruksiyasidagi yerga ulangan metall materiallar va boshqalarni misol qilish mumkin.

Sun’iy elektrodlar sifatida ishlatalishi lozim bo‘lgan quvurlar yoki burchakli materiallarning uzunligi 2–3 m, qalinligi esa 3,5 mm dan kam bo‘lmasligi kerak. Elektrodlarni bir-biriga ulashda ko‘ndalang kesimining o‘lchami 4x12 mm bo‘lgan yoki diametri 6 mm dan kam bo‘lmagan po‘lat materiallardan foydalaniladi.

Elektr uskunalarini va jihozlari quyidagi hollarda yerga ulanishi kerak:

- 380 V undan yuqori nominal kuchlanishdagi o‘zgaruvchan tok hamda 440 V va undan yuqori kuchlanishdagi o‘zgarmas tok bilan ishlovchi uskuna va jihozlarning barchasi;

- 42 dan 380 V gacha kuchlanishdagi o‘zgaruvchan hamda 110 dan 440 V gacha kuchlanishdagi o‘zgarmas tok bilan yuqori va o‘ta xavfli sharoitlarda ishlovchi elektr jihozlari;

- 42 V va undan kichik kuchlanishdagi o‘zgaruvchan tok va 110 V va undan kichik kuchlanishdagi o‘zgarmas tok bilan ishlovchi portlashga moyil elektr jihozlari va payvandlash transformatorlarining ikkilamchi o‘ramlari. Bu kuchlanishdagi boshqa elektr jihozlarini yerga ulash shart emas.

Amaldagi Davlat standartlariga ko‘ra kuchlanishi 1000 V gacha bo‘lgan uskunalar yerga ulash sistemasining qarshiligi 4 Om, kuchlanishi 1000 V gacha bo‘lgan yoki quvvati 10 kW gacha bo‘lgan elektr dvigatellari, generatorlari, transformatorlari uchun esa 10 Om gacha ruxsat etiladi. Elektr uskunalarining yerga ulash qurilmasini tekshirishda ularning elektrodlari hamda o‘tkazgichlarining holati ko‘zdan kechiriladi va qarshiligi o‘lchanadi. Tekshirish har 6 oyda bir marta, yuqori va o‘ta xavfli elektr uskunalarini uchun har 3 oyda bir marta o‘tkazilishi kerak. ularning qarshiligi esa bir yilda bir marta o‘lchanadi. Bundan tashqari elektr jihozlari ta’mirlashdan o‘tganda yoki uzoq muddat ishlamasdan turganda ham yerga ulash qurilmasining qarshiligi tekshirilishi kerak.

Yerga ulash qurilmasining qarshiligi amper-voltmetr yoki M-416, M-1103 markali megometrlar (**2-rasm**) yordamida aniqlanishi mumkin. Bu jihozlar yordamida elektr qarshiligini o‘lhash uchun yerga 0,7–0,8m chuqurlikda 2 ta qo‘sishma elektrod o‘matiladi. Yordamchi elektrodlar bilan asosiy elektrodlar orasidagi masofa

20 m dan kam bo‘lmasligi kerak.

Elektr jihozlarini yerga ulash ko‘rsatkichlarini hisoblash tartibi

1. Tuproqning solishtirma qarshiligi aniqlanadi. Agar tuproq quruq holatda bo‘lsa, solishtirma qarshilik miqdori yerga ulashning tuzatish koeffitsientiga ko‘paytiriladi, ya’ni

$$\rho = \rho^1 k$$

bunda ρ^1 - tuproqning qarshiligi, Om m; K – yerga ulashning tuzatish koeffitsienti, (7-jadval).

Ushbu koeffitsient miqdori iqlim ko‘rsatkichlariga bog‘liq holda 7-jadvaldan tanlab olinadi.

Tuproq solishtirma qarshiliginini aniqlashdagi tuzatish koeffitsienti, k

Rayonlar tavsifi	R a y o n l a r			
	1	2	3	4
O'rtacha past harorat, °C	20–15	4–10	10–0	0–25
O'rtacha yuqori harorat, °C	16–18	18–20	22–24	24–26
Suvning muzlash davri, kun	190–170	150	100	0
Elektrodlarning turi	Tuzatish koeffitsientlari			
Uzunligi 2–3 m bo'lgan va sterjen shaklida ko'milgan burchaksimon po'lat materiallar yoki po'lat quvurlar	1,65	1,45	1,3	1,1
Uzunligi 10 m va yerga ko'milish chuqurligi 0,8 m m bo'lgan po'lat polosalar yoki armaturalar	5,5	3,5	2,5	1,5

2. Elektrodning materiali, profili va o'lchami tanlab olinadi. Amalda bajarilgan ishlarning ko'rsatishicha, qalin devorli po'lat quvurlarning elektrod sifatida ishlatilishi maqsadga muvofiqdir.

Elektrodning qarshiliginini 8-jadvalda ko'rsatilgan formulalar asosida aniqlaymiz. Elektrodning qarshiligi uning turi, o'lchamlari, shakli va ularning yerga o'rnatilish holatiga bog'liq. Elektrodlar gorizontal yoki vertikal' holatda o'rnatilishi mumkin.

8-jadvaldagagi formulalarda keltirilgan ko'rsatkichlarning tahriri quyidagicha:
 p — tuproqning solishtirma qarshiligi, $\text{Om} \cdot \text{m}$; l ,

l_g — elektrodning uzunligi, m; d — elektrodning tashqi diametri, m; h — elektrodning yerga ko'milish chuqurligi, m.

Yuqori uchi yer sathidan past bo'lgan va vertikal o'rnatilgan elektrodlar uchun h ning qiymati yer sathidan elektrodning o'rtasigacha olinadi.

v — po'lat polosalarning eni, burchakli materiallar uchun esa bir tomonining o'lchami, m.

-jadval

Yerga ulash sistemasi elektrodlarining qarshiliginini hisoblash formulalari

/r	Elektrodning turi	Hisoblash formulalari
1	Po'lat armatura yoki quvurlardan tayyorlangan vertikal elektrodlar. Elektrodning yuqori uchi yer sathidan pastda joylashgan	$R_{eb} = \frac{0,366\rho}{L} \left(\lg \frac{2l}{d} + \frac{1}{2} \lg \frac{4h+1}{4h-1} \right)$
2	Burchaksimon po'latlardan tayyorlangan vertikal elektrodlar. Elektrodning yuqori uchi yer sathidan pastda joylashgan	$R_{eb} = \frac{0,366\rho}{L} \left(\lg \frac{2l}{0,95b} + \frac{1}{2} \lg \frac{4h+1}{4h-1} \right)$

3	Po'lat armatura yoki quvurlardan tayyorlangan vertikal elektrodlar. Elektrodning yuqori uchi yer sathida joylashgan	$R_{eb} = \frac{0,366\rho}{L} \lg \frac{4l}{d}$
4	Po'lat polosalardan tayyorlangan gorizontal elektrodlar.	$R_{eb} = \frac{0,366\rho}{l_2} \lg \frac{2l^2 \tilde{a}}{bh} g$
5	Po'lat armatura yoki quvurlardan tayyorlangan gorizontal elektrodlar.	$R_{eb} = \frac{0,366\rho}{l_2} \lg \frac{2l^2 \tilde{a}}{bh} g$
6	Po'lat armatura, quvur yoki burchakli materiallardan tayyorlangan elektrodlar uchun, taxminan:	$R_{eb} = \frac{\rho}{l}$
7	Po'lat armatura yoki po'lat polosalardan tayyorlangan elektrodlar uchun, taxminan:	$R_{eg} = \frac{2\rho}{l_g}$

Bir-biriga ulangan va vertikal o'rnatilgan elektrodlar sonini quyidagicha aniqlaymiz:

$$n = \frac{R_{e.u.}}{R_{zaz.v.} \eta_g}$$

bunda $R_{e.u.}$ –yerga ulash qurilmasining umumiyligi qarshiligi, Om; η_g – elektrodlarning qo'shni elektrodlar ta'sirida ekranlashishi (elektrodlardan foydalanish) koeffitsienti, (9-10 jadval).

9-jadval

Burchaksimon po'lat materiallar va po'lat quvurlardan tayyorlangan vertikal elektrodlarning foydalanish koeffitsenti (birlashtiruvchi polosalarning ta'siri hisobga olinmagan) qator qilib o'rnatilgan elektrodlar uchun

Elektrodlar soni	Elektrodlar orasidagi masofaning elektrod uzunligiga nisbati		
	1	2	3
2	0,84 – 0,87	0,90 – 0,92	0,93 – 0,95
3	0,76 – 0,80	0,85 – 88	0,90 – 0,92
5	0,67 – 0,72	0,79 – 0,83	0,84 – 0,86
10	0,56 – 0,62	0,72 – 0,77	0,79 – 0,83
15	0,51 – 0,56	0,66 – 0,73	0,76 – 0,90
20	0,47 – 0,50	0,65 – 0,70	0,74 – 0,79

10-jadval

Burchaksimon po'lat materiallar va po'lat quvurlardan tayyorlangan vertikal elektrodlarning foydalanish koeffitsenti (birlashtiruvchi polosalarning ta'siri hisobga olinmagan) kontur ko'rinishida o'rnatilgan elektrodlar uchun

Elektrodlar soni	Elektrodlar orasidagi masofaning elektrodlar uzunligiga nisbati		
	1	2	3
n	0,06 – 0,72	0,76 – 0,80	0,84 – 0,56
5	0,58 – 0,65	0,71 – 0,75	0,78 – 0
10	0,52 – 0,58	0,66 – 0,71	0,71 – 0
20	0,44 – 0,50	0,61 – 0,66	0,68 – 0,73
40	0,38 – 0,44	0,55 – 0,66	0,61 – 0,69
60	0,36 - 0,42	0,62 - 0,58	0,60 - 0,67
100	0,33 - 0,39	0,49 - 0,58	0,59 - 0,69

Elektrodlarning integral qarshiligini quyidagicha aniqlaymiz: $R_{\text{a.o.b.}}^1 = \frac{R_{e.b.}}{n \cdot \eta_b}$.

Elektrodlarni bir-biriga va elektr jihozlariga ulash uchun ishlataladigan o'tkazgichlarning uzunligini aniqlaymiz,

$$\ell_g = an + 0,5m$$

bunda a – vertikal elektrodlar orasidagi masofa (10-jadval).

Elektrodlarni bir-biriga birlashtiruvchi o'tkazgichning qarshiligini quyidagi formula asosida aniqlaymiz:

$$R_{e.u.g.} = \frac{R_{eg}}{\eta_g}$$

bunda R_{eg} – o'tkazgichning qarshiligi (11-jadvaldagi formula asosida aniqlanadi), Om; η_g – o'tkazgichdan foydalanish koeffitsienti,

11-jadval

Burchaksimon po'lat materiallar va po'lat quvurlardan tayyorlangan, qator qilib o'rnatilgan elektrodlarni birlashtiruvchi o'tkazgichlarning foydalanish koeffitsienti

Elektrodlar orasidagi masofalarning (a) elektrodlar uzunligiga nisbati	Elektrodlar soni			
	4	10	20	30
1	0,77	0,62	0,42	0,31
2	0,89	0,75	0,56	0,46
3	0,92	0,82	0,68	0,58

12-jadval

Burchaksimon po'lat meteriallar va po'lat quvurlardan tayyorlangan, kontur tarzida o'rnatilgan elektrodlarni birlashtiruvchi o'tkazgichlarning foydalanish koeffitsienti

Elektrodlar orasidagi masofalarning elektrod uzunligiga nisbati	Elektrodlar soni					
	4	10	20	30	50	70
1	0,34 ,45	0,27	0,24	0,21	0,20	
2	0,55	0,40	0,32	0,30	0,28	0,26

Yerga ulash qurilmasining to‘la qarshiligi

$$R_{um} = \frac{R_{e.y.b} \cdot R_{e.y.g}}{R_{e.y.g} + R_{e.y.b}}$$

Agar yerga ulash sistemasining umumiyligini qarshiligi (R_{ev}) 4 Om dan katta chiqsa, elektrodlar sonini ko‘paytirib olib, yerga ulash sistemasini ko‘rsatkichlarini qayta hisoblash talab etiladi.

Yerga ulashni hisoblashga oid masalalar yechish

1-masala. Yerga ulash qurilmasining umumiyligini 40 Om dan katta bo‘limgan ($R_{um}^1 \leq 40\text{Om}$) holat uchun po‘lat quvurdan tayyorlangan vertikal elektrodlar sonini aniqlang. Quvur diametri $d=50$ mm. Quvur uzunligi 2 m, tuproq turi – bo‘z tuproq, qarshiligi – 200 Om.

Tuproqning solishtirma qarshiliginini aniqlaymiz:

$$\rho = \rho' \kappa = 200 \cdot 45 = 290 \text{ Om.}$$

Yerga ko‘milgan vertikal elektrodning qarshiligi

$$\begin{aligned} R_{7.b} &= 0,366 \frac{\rho}{e} \left(\lg \frac{2l}{\alpha} + \frac{1}{2} \lg \frac{4h+l}{4h-e} \right) = 0,366 \frac{290}{2,0} \left(\lg \frac{2 \cdot 2}{0,05} + \frac{1}{2} \lg \frac{4 \cdot 1,0 + 2}{4 \cdot 1,0 - 2} \right) = \\ &= 53,07 \left(\lg 80 + \frac{1}{2} \lg 3 \right) = 53,07 \left(1,903 + \frac{1}{2} \cdot 0,477 \right) = 114,1 \text{ Om.} \end{aligned}$$

Bir biriga ulangan vertikal elektrodlar soni

$$n = \frac{R_{e.v.}}{R_{e.u.v.} \cdot \eta_v} = \frac{114,1}{4 \cdot 0,4} = 71,33 \approx 72 \text{ dona.}$$

Elektrodlarning integral qarshiligi

$$R_{e.u.v.}^1 = \frac{R_e \cdot \epsilon}{n \cdot \eta_v} = \frac{114,1}{72,0 \cdot 0,4} = 3,97 \text{ Om.}$$

Elektrodlarni bir-biriga ulash uchun ishlataladigan o‘tkazgichning uzunligi

$$l_g = a \cdot n + 0,5m = 2 \cdot 72 + 0,5 = 144,5 \text{ m.}$$

Elektr o‘tkazgichlar qarshiligi

$$R_{e.u.g.} = \frac{R_{e.g.}}{\eta_m} = \frac{145}{0,20} = 725 \text{ Om,}$$

$$R_{e.g.} = \frac{\rho}{\ell} = \frac{290}{2} = 145 \text{ Om.}$$

Yerga ulash qurilmasining umumiyligini qarshiligi

$$R_{um} = \frac{R_{r.u.v.} \cdot R_{e.u.g.}}{R_{r.u.v.} + R_{e.u.g.}} = \frac{3,97 \cdot 725,0}{3,97 + 725} = 3,95 \text{ Om.}$$

$$R_{um} \leq R_{um}^1 = 4 \text{ Om.}$$

Yerga ulash qurilmasining umumiyligini 4 Om dan kichik bo‘lganligi sababli hisoblar to‘g‘ri bajarilgan.

2-masala. Elektr agregati elektrdvigatelinining o‘ramlar izolatsiyasi buzilgan. Elektr tarmoqidagi kuchlanish 380V. Tarmoq neytrali yerga ulangan va uning yerga ulash qarshiligi $R_0=12$ Om. Himoyalovchi yerga ulash qurilmasining qarshiligi $R_{e.u}=3$ Om, ishchining qarshiligi $R_i=1000$ Om. Ishchi elektr jihoziga tegib ketgan vaqtda uning tanasi orqali o‘tuvchi tok kuchi miqdorini aniqlang.

Elektr zanjirining ekvivalent qarshiliginini aniqlaymiz:

$$R_y = R_i + \frac{R_{e..u} \cdot R_4}{R_u + R_4} = 12 + \frac{3.5000}{3 + 5000} = 14,99 \text{ Om}$$

Elektr zanjiridagi tok kuchi miqdori

$$J_{um} = \frac{380}{1,73 * 14,99} = 14,67 \text{ A}$$

Ma'lumki, parallel o'ramlarda tok kuchi qarshilikka teskari proporsional holda tarqaladi, ya'ni:

$$\frac{J_{eu}}{J_e} = \frac{R_4}{R_{e..u}}, \quad \text{bundan } J_{e..u} R_{e..u} = J_4 R_4.$$

Shuningdek $J_{um} = J_{e..u} + J_i$

$$\text{bundan } J_{um} = J_{um} J_i = 14,67 - J_4$$

Ushbu qiymatlarni $J_{e..u} R_{e..u} = J_i R_i$ ga qo'ysak

$$(14,67 J_i) * R_{e..u} = J_i * 1000; 14,67 R_{e..u} - R_{e..u} * J_i = J_i * 1000$$

$$14,67 \cdot 3 - 3 J_i \cdot 1000 = 0$$

$$997 J_i = 44,01; J_i = \frac{44,01}{997} = 0,05 \text{ A}$$

Bunday tok kuchi og'ir jarohatlarga va o'limga olib kelishi mumkin.

3-masala. Ishchi elektr jihozini ishga tushirishda qo'shib-ajratkich (рубильник) tarmoqlariga tegib ketdi. Elektr tarmoqdagi kuchlanish $U_e = 380 \text{ V}$, tarmoq neytrali yerga ulangan, yerga ulash qarshiligi $R_{eu} = 18 \text{ Om}$. Ishchining elektrga qarshiligi 1500 Om , oyoq kiyim qarshiligi $R_0 = 350 \text{ Om}$, xona polining qarshiligi $R_n = 800 \text{ Om}$. Tegib ketish kuchlanishini aniqlang.

Tegib ketish kuchlanishini quyidagi formula asosida aniqlaymiz.

$$U_{tk} = J_u R_u; \quad J_i = \frac{U_e}{\sqrt{3} R_{um}} \cdot R_u$$

bunda R_{um} – elektr zanjirining umumiyligini qurshiligi, Om

$$R_{um} = R_{ao} + R_i + R_0 + R_e = 18 + 80 + 350 + 1500 = 1948 \text{ Om}$$

Tegib ketish kuchlanishi

$$U_{t.e} = \frac{U_e}{\sqrt{3} R_{um}} * R_4 = \frac{380}{1,73 * 1948} * 1500 = 169 \text{ V}$$

Bunday kuchlanish o'limga olib kelishi mumkin.

2- AMALIY MASHG'ULOT Yong'inidan ogohlantirish tizimi

Ishdan maqsad: Ogohlantiruvchi qurilmalarni o'rganish va joylashtirishni o'rganish boyicha amaliy ko'nikmalar hosil qilish.

Avtomatik ogohlantirish qurilmasi deb, elektr signallarini aloqa kanallari orqali qabul qilib va ma'lum qiymatda uzatilishiga aytildi.

Yong'in aloqasi va signalizatsiyasi. Yong'in aloqasi va signalizatsiyasi yong'inni o'z vaqtida sezish, aniqlash va u to'g'risida yong'in o'chiruvchilarga xabar berish uchun ishlataladi. Ularga tele va radio aloqa, yong'in signalizatsiyasi qurilmalari, elektrik signallar, qo'ng'iroqlar va transport vositalarining signallari kiradi.

A, B va V kategoriyasidagi yong‘inga xavfli obektlarda yong‘in haqida xabar beruvchi datchiklar o‘rnataladi. Ular yong‘in bo‘lgan taqdirda qabul qilish apparatiga signal yuboradi. Bunday sistemalar yong‘in signalizasiyasi deb ataladi. Yong‘inni avtomatik signalizatsiya qurilmasi to‘g‘ri va aylanasimon sxemada o‘rnataladi. Ular ishlatiladigan datchiklar turiga bog‘liq holda issiqlik, tutun muhofazalovchi va kombinasiyalashgan turlarga bo‘linadi. Bu qurilmalar yong‘in va muhofaza-yong‘in turlariga bo‘linadi. Yong‘indan muhofaza sistemalari qimmatbaho materiallar saqlanadigan omborlarda, turar joy kvartallarida ishlatiladi. Yong‘in va uning muhofaza signalizatsiyasining asosiy elementlariga yong‘in to‘g‘risida xabar beruvchi qurilma qabul qilish stantsiyasi, aloqa tarmog‘i, kuchlanish manbai, tovushli yoki yorug‘likli signal qurilmasi kiradi.

Har qanday yonginni o‘chirganda yonginni kuchayishiga olib kelayotgan omillarni va sharoitini aniqlash muxim o‘rinni egallaydi. Bunda yonishning davom etishini to‘xtatuvchi sharoit yaratish katta ahamiyatga ega. Yong‘inni o‘chirganda qattiq jismlar yonganda yong‘inning tezligi 4 m/min, suyuqliklar yuzasi bo‘yi esa 30 m/min ekanligini xisobga olish kerak.

Yonishdan hosil bo‘lgan maxsulotlar asosan qattiq changsimon moddalar, parlar va gazlardan iborat bo‘ladi.

Undan hosil bo‘ladigan harorat esa, moddaning yonganda issiqlik ajratishi va yonish tezligi va alanganing tarqalishi, shuningdek binoning hajmi va havo almashish sharoitlariga bog‘liq bo‘ladi.

Yuqori harorat ta‘sirida qizigan tutun yonish maxsulotlarini tezlikda tarqalishga yordam beradi, shuningdek xona tutunga to‘ladi va bu o‘z navbatida yong‘inni o‘chirishga xalaqit beradi.

Yong‘in vaqtida ko‘p miqdorda inert gazlar, yonuvchi gazlar va shuningdek tutun ajralib chiqadi. Yonuvchi gazlarning asosiy qismi zaharli bo‘lib, ularning zararli ta‘siri yonayotgan materiallarning turi va yonishining intensivligiga bog‘liq.

Zararli ta‘sirchan va zaharli gazlar yong‘inga qarshi muhofaza qatlamlari yonganda (brom birikmalari va xlor), yog‘och materiallar (SO) polimer qurilish materiallari va boshqa juda ko‘p hollarda ajralib chiqadi. To‘la yonib bo‘lmagan yonish mahsulotlari qizigandan keyin va sof oqimi ta‘sirida qaytadan alanga olib ketishi mumkin.

Yong‘in (o‘t) o‘chirish vositalari va usullari. O‘t o‘chirish usulari quyidagicha bo‘lishi mumkin:

- 1.Yonayotgan zonani ko‘p miqdorda issiqlik yutuvchi materiallar yordamida sovitish.
- 2.Yonayotgan materiallarni atmosfera havosidan ajratib qo‘yish.
- 3.Yonayotgan zonaga kirayotgan havo tarkibidagi kislород miqdorini kamaytirish.
4. Maxsus ximiyaviy vositalarni qo‘llash.

2.2. Issiqlik ogohlantirgich qurilmalarning turlari.

Asosan ishslash prinsipi termo elektr to‘lqinlarini mavjudligi. Agar har turdagи metallar orasida harorat o‘zgarsa u holda zanjir birikadi va qurilma


ishlay boshlaydi. Hozirgi paytda DPS-033 va DPS-1AG turlari ishlataladi. Ular differentsial ogohlantirgichlar turiga kiradi.



2.1- rasm. Yarim utkazgichli issiqlik ogohlantirgichlar.

Ishlash prinsipi yuqori sezuvchi harorat sezuvchi qarshiliklar va harorat o'zgarishini sezuvchi element.

Harorat qarshilik tezda sezuvchi rele oraali aniqlavdi: KMT-1, KMT-4, KMT-11. Asosan releni ishlashida unum elektr tarmoqqa ulanilsa tarmoqda elektr toki ko'pay



2.2- rasm. Tutunli ogohlantirgichlar.

Ishlash prinsipi tok kuchini sezuvchi element orkali utayotgan kattaligini uzgarishida bunda asosan sezuvchi element (tutun paytida konsentrasiyasini uzgarishi) .

Sezuvchi element fotoelementli va ionli kamera. Ogoxlantirgich TO-1-tiratron rele, sezuvchi element- ionli kamera, asosan ishni bajaruvchi organ-tiratron razryadi sovuq katod bilan. Ionli kamerada IK radioaktiv moda sifatida plutoniyl - 239 parchalanish davri $2,4 \cdot 10^4$ yil.



2.3- rasm. Kombinasiyalashgan ogoxlantirgichlar.


KO-1 ishslash prinsipi tutun va xarorat kutarilishiga sezish orqali amalga oshiriladi, xarorat oraligi ($60\text{-}80^{\circ}\text{C}$ gacha) nazorat xonasida. Ogohlantirgich normal ishslash sharoiti xarorat -30° do -60°C va nisbiy namlik - 80%. Ishga tushish vaqt 10 sekunddan ortiq emas.

Yoruglik ogohlantirgichlar.



Ishslash prinsipi ul'trafiolet cho'lgamlarini (fotonlar) paydo bulishi, asosan ochik yonish joylarida unumdorligi yuqori. Ogohlantirgich YoO-1 tabiiy yoritilganlik darajasi 50 lk dan oshmasligi kerak.

Standart bo'yicha detektor tutun sezish masofasi 7,5 m dan oshmasligi, issiqlik detektorlar – 5,3 m gorizontal proyeksiya bo'ylab. Shunday qilib oxoglantiruvchilarni joylashtirishda xona turiga qarab joylashtirish oson. Eng yaqin ogohlantirgichgacha gorizontal proyeksiya boylab 7,5 m dan oshmasligi kerak, tutunli – 5,3 m dan ortmasligi kerak. Quydagi joylashtirish orqalig'i ya'ni orasidagi masofa 10,5 m, tutunli - 7,5 m. Ogohlantiruvchilarni ekonom qilish darajasi (taxminan 1,3 barobar) katta xonalarda joylashtirish quydagi chizmada keltirilgan asosan uchburchak shaklida joylashtiriladi.



2.4- rasm. Ogohlantirgchlarni o'rnatish chizmasi.

2.1-jadval

Variant	Issiqlik	Tutunli
1	46x125.	67x89
2	50x67	78x65
3	87x90	110x95
4	95x125	115x135
5	84x143	55x85
6	98x106	86x78
7	35x65	91x96
8	58x85	87x95
9	38x92	95x45
10	39x45	65x75

2.2- jadval

	Xona yuzasi (m ²)	Ogohlan. soni	Devordan masofa (metr)	Radiusi (metr)	Orasidagi masofa
	Tutunli (....m ²)				
	Issiqlik (....m ²)				

Avtomatik yong‘ndan darak beruvchi ogohlantirish qurilmalarining texnik tasnifi

Ishonchligi, konstruksion bajarilishi, yong‘inning aniqlash vaqtini topish tarzlari, issiqlik va tutun xabarlovchilarining o‘rnatilish minimum va maksimum balandliklariga alohida izoh beramiz.

5.3.Jadvalda o‘rnatilgan balandligiga bog‘liq holda, bitta issiqlik yoki tutun xabarlovchisining moyoriy nazorat hududi keltirilgan.

2.3.jadval

Yong‘in xabarlovchisini ng turi	O‘rnatilgan balandligi, m	Maksimal nazorat hududi, m ²
Issiqlik	3,5 m gacha	25
	3,5 m dan 6,0 m. gacha	20
	6,0 m dan 9,0 m. gacha	15
Tutun	3,5 m gacha	85
	3,5 m dan 6,0 m. Gacha	70
	6,0 m dan 10,0 m. Gacha	65
	10,0 m dan 12,0 gacha	55

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, o‘rnatilgan balandligi o‘sishi bilan nazorat hududi kamayib boradi. Agar xabarlovchi belgilangan maksimal balandlikdan yuqorida o‘rnatilgan bo‘lsa, yong‘inni samarali aniqlanishi kafolatlanmaydi. Tashqi ta’sirlardan himoyalanganligi deb - xabarlovchining nazorat qilinayotgan alomatga fizikaviy jihatdan yaqin bo‘lgan turli tashqi ta’sirlarga qarshi turish qobiliyati tushuniladi. Xabarlovchining ma’lum sharoitlarda ishlatilganda belgilangan muddat davomida o‘z ish holatini saqlab qolish qobiliyati uning ishonchliligi deyiladi. Konstruksion bajarilishi – ishlatilishning turli sharoitlariga ko‘ra - oddiy, suvdan himoyalangan, chang va suvdan himoyalangan va portlashdan xavfsiz ko‘rinishda bajarilgan bo‘lishi mumkin. Yong‘in boshlanish paytida nazorat qilinayotgan alomatning absolyut qiymati yuksala boshlaydi ($K_o = f(\mu)$). Ishlash ostonasi qiymatiga yetganda A nuqtasida yong‘in xabarlovchisi ishga tushadi, r_i (inersionlik) vaqtidan so‘ng xabarlovchi ogohlantiruvchi texnik vositalarga signal uzatadi.

Yong‘in boshlangandan to uni aniqlaguncha o‘tgan r_{an} vaqt – yong‘inning aniqlash vaqtı deyiladi. U xabarlovchining ko‘rsatkichlariga (ishlash ostonasi, inersionligiga) bog‘liq bo‘lganidek, nazorat qilinayotgan alomatning xabarlovchi o‘rnatilgan joyda o‘zgarish tezligiga ham bog‘liqdir.

3- AMALIY MASHG'ULOT

Yong'in xavfsizligi bo'yicha evakuatsiya vaqtini aniqlashga oid masalalar

Mashg'ulotning maqsadi. Sanoat korxonalarida yong'in ni sodir bo'lishi va kelib chiqish sabablarini o'rganish, korxonada yong'in sodir bo'lganda ishchilarni evakuatsiya qilish vaqtini aniqlash.

Mashg'ulot rejasি

1. Yong'in haqida tushuncha hosil qilish
2. Yong'inni sodir bo'lish sabablarini o'rganish
3. Sanoat korxonalaridagi yong'inga qarshi oraliqlardagi binolarning o'tga chidamlilik darajasini o'rganib chiqish

Topshiriq. Korxonada yong'in sodir bo'lganda ishchilarni evakuatsiya qilish vaqtini aniqlash

Nazariy qism

Yong'inning kelib chiqish sabablari. Yong'in sanoat korxonalari, xalq xo'jaligining barcha tarmoqlarida yuz berib, yetkazadigan zarari jihatidan tabiiy ofatlarga tenglashishi mumkin bo'lgan hodisa hisoblanadi. Ular katta moddiy zarar keltirish bilan birga og'ir baxtsiz hodisalarga: zaharlanish, kuyish hamda kishilar halokatiga sabab bo'lishi mumkin.

Yong'inga qarshi kurash ishlari davlat miqyosida amalga oshiriladi. Yong'in xavfsizligini ta'minlash, uning rivojlanib, tarqalib ketmasligi chora-tadbirlarini oldindan ko'rish, unga qarshi samarali kurash olib borish yong'inni o'chirishda qo'llaniladigan birlamchi vositalardan to'g'ri foydalanishga qaratilgan.

Murakkab oksidlanish jarayonida yonuvchi moddalardagi bir moddaning ikkinchi moddaga aylanishi oqibatida katta miqdorda issiqlik va nurlanish ajralishi bilan kechadigan holatga yonish deb tushuniladi. Yong'in ga asosan uch omil: yonuvchi modda, yondiruvchi muhit, qizdirish jarayoni sabab bo'ladi.

Yonish jarayoni, asosan, ikki xil bo'lishi mumkin. Birinchidan, qattiq jismlar yonish jarayonida havo muhitidan ajralgan holda bo'ladi. Bunday yonish havo harorati natijasida yonish zonasini kislorod bilan ta'minlaganligi uchun diffuziyali yonish deyiladi, uni yog'och, ko'mir va boshqa moddalar yonganda kuzatish mumkin. Yonishning ikkinchi xili yonuvchi gazlar va suyuqliklarning bug'lari, yonuvchi moddalarning changlari havo bilan aralashgan holatdagi yonishi bo'lib, u kinegik yonish deb yuritiladi. Bunday yonish hajmli yonish jarayonida o'tadi.

Yong'in bo'lgan vaqtda alanga bir binodan ikkinchi binoga o'tib ketmasligni ta'minlash maqsadida yong'in ga qarshi oraliqlar tashkil qilinadi. Bunday oraliqlar belgilanayotganda, asosan, yonma-yon joylashishi mumkin bo'lgan binolarning yong'inga xavflilik darjasи, konstruksiyalarining o'tga chidamliligi, alanganish maydoni, yong'inga qarshi to'siqlarning mavjudligi, binoning tuzilishi, ob-havo sharoitlari va boshqalar hisobga olinadi. Yong'inga qarshi oraliqlarni tashkil qilhsda binolarning o'tga chidamlilik darjasи hisobga olinadi.

Sanoat korxonalaridagi asosiy binolar, yordamchi xona, ombor qurilishlari orasidagi oraliqlardagi binolarning o'tga chidamlilik darjasiga nisbati 1-jadvalda keltirilgan.

Sanoat korxonalaridagi yong‘in ga qarshi oraliqlardagi binolarning o‘tga chidamlilik darajasiga nisbati

1-jadval

Bir binoning o‘tga chidamlilik darajasi	O‘tga chidamlilik toifasi asosida binolar o‘rtasidash yong‘inga qarshi oraliq (m)		
	I va II	III	IV va V
I va II	G va D darajali	9	12
III	korxona binolari uchun	12	15
IV va V	meyorlanmaydi	15	18

Ba’zi yong‘in xavfi deyarli yo‘q bo‘lgan binolar uchun yong‘inga qarshi oraliqlar belgilanmaydi. G va D darajadagi sanoat korxonalari, ularning o‘tga chidamlilik toifasi I va II darajali hamda tomi yonmaydigan materiallar bilan yopilgan bo‘lsa, shuningdek, tashqi devorlari yong‘inga qarshi to‘siz sifatida qurilgan bo‘lsa, yong‘inga qarshi oraliq belgilanmasligi mumkin.

Har bir sanoat korxonasi uchun mo‘ljallangan bino loyiha- lanayotgan vaqtda kishilarni u yerdan o‘z vaqtida chiqarib yuborish uchun — evakuatsiya yo‘llari ham loyihalanadi. Evakuatsiya yollari har qanday sanoat korxonasi uchun, albatta, eng kamida ikkita bo‘lishi kerak. Yon‘in bo‘lgan taqdirda ishchi va xodimlar bu hududdan eng qisqa yo‘l orqali zudlik bilan chiqib ketishlari zarur.

Evakuatsiya yo‘llari binoning qarama-qarshi tomonida joylashgan bo‘lishi shart. Lift va boshqa odamlarni chiqarib tushirishga mo‘ljallangan mexanizasiyalashtirilgan vositalar evakuatsiya yo‘llari sifatida hisobga olinmaydi. Evakuatsiya yo‘llarining eni 1 m dan, eshiklarining eni 0,8 m, bo‘yi 2 m dan kam bo‘lmasligi kerak. Yo‘lka va zinapoyalar odamlar soniga qarab hisoblanadi.


Sanoat korxonalarini loyihalashda odamlarni evakuatsiya qilishga mo‘ljallangan zinapoyalar meyorlar asosida o‘rnatalidi. Zinapoya o‘rnataligan kataklar tutun to‘planmaydigan bo‘lishi, ya’ni, tutunni chiqarib yuborishni ta’minlovchi texnika vosigalariga ega bo‘lishsh lozim. Har xil balandlikdagi binolar uchun yong‘inga qarshi maxsus narvonlar o‘rnatalishi kerak. Evakuatsiya yo‘llarining hisobi, shu yerdagi umumiylar joylarning chiqib ketishi uchun kerak bo‘ladigan vaqtini belgilash bilan amalga oshiriladi. Ma’lumki, yong‘in sodir bo‘lgan vaqtda hosil bo‘ladigan tutun nihoyatda katta hajmni tashkil qiladi. Uning tarqalishi va bo‘g‘uvchi ta’siri natijasida binodagi odamlarni Evakuatsiya qilish qiyinlashadi va alangalanayotgan yerga yetib borishda, o‘tni o‘chirishda qiyinchiliklar tug‘diradi.

Tutun va gazlar eshik, derazalar orqali, shuningdek, aeratsiya fonarlari orqali chiqarib yuboriladi. Tutunni chiqarib yuborish oraliqlari hosil bo‘lgan tutunni atrofdagi xonalarga o‘tmasligani ta’minalash, shuningdek, yong‘inni kerakli tomonga yo‘naltirish imkoniyatini berish kerak. Tutunni chiqarib yuborish teshiklari fonarsiz sanoat binolari va omborlarda qo‘llanilishi mumkin. Yengil devor konstruksiyalari oldindan hisoblab o‘rnatalgan bo‘ladi va yong‘in natijasida hosil bo‘lgan gazlar bosimi xavfdi vaziytni vujudga keltirsa, bu ular qulab, binoning asosiy konstruksiyalariga zarar yetmasligini ta’minalaydi. Yengil

konstruksiyalar, asosan, binoning tashqariga chiqib turgan devorlariga yoki to'siqlariga o'rnatilib bosim ma'lum miqdordan oshib ketganda, yig'ilib qolgan gazlarni chiqarib yuborish imkoniyatini beradi.

Evakuatsiya vaqtini aniqlashga oid masalalar yechish

Korxonada yong'in sodir bo'lganda ishchilarni evakuatsiya qilish vaqtini aniqlash lozim. Korxona boshqarma binosi panel turida, avtomatik yong'indan darak beruvchi tizim bilan jihozlanmagan.. Korxona ikki qavatli, o'lchamlari (A^*B) m, koridor eni b, m . Korxona evakuatsiya chizmasiga ega. Xona hajmi V , m^3 joylashishi zina poya yonida birinchi qavatga tushishda. Zinapoya eni S , m, uzunligi L , m. Xonada n ta ishchi ishlaydi. Umumiyligida N ta ishchi ishlaydi. Birinchi qavatda X ta ishchi ishlaydi. Evakuatsiya chizmasi 1-rasmda keltirilgan.



1-rasm. Evakuatsiya chizmasi

Hisoblash

Kategoriyasi bo'yicha xonalar yong'inga chidamliligi bo'yicha D va II darajali hisoblanadi.

Kritikda vaqt yong'in davomiyligi quydagiga formuladan aniqlanadi:

$$c = 1009 \text{ kJ / kg - grad}, \varphi = 0,5$$

$$W_{\text{riss}} = \frac{(V-80)}{100}, \%$$

$$\tau_{n.k.} = \sqrt[3]{\frac{W_{\text{riss}} \cdot \tilde{n} \cdot (t_{\text{eo}} - t_i)}{(1-\varphi) \cdot \pi \cdot Q \cdot k \cdot M^2}} = \sqrt[3]{\frac{100,8 \cdot 1009 \cdot (70-20)}{(1-0,5) \cdot 3,14 \cdot 13800 \cdot 14 \cdot (0,36)^2}} = \sqrt[3]{129,36} = 5,05 \text{ i } \text{èí}$$

Kislород konsentrasiyasi miqdori bo'yicha yong'in davomiyligi quydagiga formuladan aniqlanadi.

$$W_{O_2} = 4,76 \text{ að / i èí}$$

$$\tau_{n.k.}^{O_2} = \sqrt[3]{\frac{(O,01)^{-1} \cdot W_{\text{riss}}}{\pi \cdot k \cdot W_{O_2} \cdot M^2}} = \sqrt[3]{\frac{100 \cdot 100,8}{3,14 \cdot 14 \cdot 4,76 \cdot (0,36)^2}} = \sqrt[3]{371,69} = 7,19 \text{ i } \text{èí}$$

Minimal yong'in davomiligi 5,05 daqiqani tashkil etadi. Ruxsat etilgan evakuatsiya vaqtini quyidagi obekt uchun: $m=1$; $\tau_{\text{aif}}^1 = m \tau_{n.k.}^1 = 1 \cdot 5,05 = 5,05$ daq

1-uchastka bo'yicha ishchilarining harakat vaqtini, xona gabarit o'lchamlarini hisobga olganda axb m. Ishchilar harakat oqimining zichligi aniqlanadi (1-uchastka) bo'yicha:

$$D = \frac{N_1 \cdot f}{L_1 \cdot b_1} = \frac{7 \cdot 0,1}{6 \cdot 7} = 0,01 \text{ m}$$

Harakat vaqtı 100 m/daq, intensiv harakat 1 m/min, unda 1 uchastka bo'yicha:

$$t_1 = \frac{L_1}{V_1} = \frac{7}{100} = 0,07 \text{ daq}$$

Eshik o'rni nol deb qabul qilinadi. Eshik o'rnidan o'tishda harakat intensivligi normal sharoitda $g_{max}=19,6$ m/daq, eshik o'mining enini b m deb olib quydagi formuladan topamiz:

$$q_d = 2,5 + 3,75 \cdot b = 2,5 + 3,75 \cdot 1,1 = 6,62 \text{ m/daq},$$

$$q_d \leq q_{max} \text{ shart bajarilishi lozim.}$$

Eshik o'rnidan o'tish vaqtı quydagi formuladan aniqlanadi:

$$t_{d1} = \frac{N \cdot f}{q \cdot b} = \frac{7 \cdot 0,1}{6,67 \cdot 1,1} = 0,09 \text{ daq}$$

Ishchilar soni umumiyl N ta ishchi ishlaydi, ikkinchi qavatda odam oqimining' zichligi tashkil etadi:

$$D_2 = \frac{N_2 \cdot f}{l_2 \cdot b_2} = \frac{98 \cdot 0,1}{28 \cdot 3} = 0,11 \text{ m}$$

Harakat tezligi L_2 m/daqni tashkil etadi, harakat intensivligi V_2 m/daq, 2-uchastkada harakatlanish vaqtı (koridordan zinapoyagacha):

$$t_2 = \frac{L_2}{V_2} = \frac{28}{80} = 0,35 \text{ daq}$$

Zinapoyada harakat intensivligi quydagicha aniqlanadi (3 -uchastka): $q_{i-1} = 8i$

$$q_i = \frac{q_{i-1} \cdot b_{i-1}}{b_i} = \frac{8 \cdot 3}{15} = 1,6 \text{ m},$$

Zinada pastga qarab harakat qilish vaqtı (3-4- uchastka):

$$t_3 = t_4 = \frac{L_3}{V_3} = \frac{10}{40} = 0,25 \text{ daq},$$

Birinchi qavatga tushganda odamlar bilan aralashish va harakatlanish. Odamlar oqimining' zichligi birinchi qavatda:

$$D_4 = \frac{N_4 \cdot f}{L_4 \cdot b_4} = \frac{76 \cdot 0,1}{28 \cdot 3} = 0,09 \frac{\text{m}}{\text{daq}}.$$

Ko'chaga chiqishdagi harakat intensivligi vaqtı:

$$N = (N+X)$$

$$t_{d2} = \frac{N \cdot f}{q \cdot b} = \frac{174 \cdot 0,1}{8,5 \cdot 2} = 1,02 \text{ daq}$$

Evakuatsiyaning hisobiy vaqtı quydagi formuladan aniqlanadi:

$$t_\delta = \tau_{i\hat{e}} + t_1 + t_{d1} + t_2 + t_3 + t_4 + t_{d2} = 5,05 + 0,07 + 0,09 + 0,35 + 0,25 + 0,25 + 1,02 = 6,88$$

Xulosa Umumiyl korxonadan evakuatsiya vaqtı $t_{ev}=6,88$ daqni tashkil etadi.

1-jadval

Evakuatsiya vaqtini aniqlashga oid variantlar

T/r	Variantlar										
AxB	(15x17)	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10
B	3	2	4	5	2,5	3,5	4,5	2,75	2,85	3,15	
V	125	128	114	175	166	152	132	134	124	125	
C	1,25	1,5	1,75	1,15	1,35	1,20	1,22	1,30	1,25	1,5	
L	12	11	10	9	13	14	10	11	12	11	
N	7	8	9	10	6	11	12	7	8	9	
N	100	102	96	98	104	110	112	118	120	122	
X	80	82	84	86	76	78	79	82	84	87	
t_{kp}, t_H	65,22	70,25		72,23							
Q	12800	11950	10600	12450	68,19	13200	12550	13000	10350	11250	
K	11	12	13	14	15	10	12	11	11	12	
M	0,25	0,28	0,24	0,32	0,35	0,37	0,27	0,23	0,33	0,34	
axb	5x6	6x7	10x8	10x9	6x8	5x9	6x7	8x9	9x6	7x8	
L ₂	30	25	32	28	32	29	25	22	36	21	
V ₂ , V ₃	85,35	75,25	70,30	82,28	86,35	92,43	95,45	92,27	90,26	81,38	
Q	10	6	11	12	7	8	9	10	6	11	

4-5 - AMALIY MASHG'ULOT Ko'p qavatli binolarning yong'inga qarshi suv ta'minoti tizimini hisoblash

1- Masala. Yong'in o'chirish jo'mraklari juftlangan bo'ladi. Ular ustma-ust o'rnatilib, pastgisi poldan eng kamida 1,0 m balandlikda o'rnatiladi.

O'ta ko'p qavatli binolarga 17 qavat va undan yuqori binolar kiradi. Bunday balandlikda (50 metrdan baland) yuqori qavatlarga o'rnatilgan dastaklarga suv berish qiyinlashadi va yong'in paytida nasos-yeng tizidaqing ishonchli ishlashi kafolatlanmaydi, chunki yaxlit bo'lagi radiusi 16 metr va undan ortiq bo'lgan oqim olish uchun nasosda 100 metr va undan ortiq bosim ushlashga to'g'ri keladi, ishlatilgan yenglar esa 70-90 metr bosimni ushlashi mumkin.

O'ta ko'p qavatli binolardagi ichki suv ta'daqoti tarmog'idagi bosimni kamaytirish maqsadida tarmoq zonalarga ajratiladi. Har bir zonada alohida yong'inga qarshi va alohida xo'jalik-ichimlik vodoprovodi quriladi. Zonalarda o'rnatilgan suv uzatish tarmog'i zonali suv uzatish tarmog'i deyiladi. Zonaning balandligi quyidagi ifoda bilan topilgan qiymatdan ortmasligi kerak.

$$\Delta Z = H_{MAK} - H_{\ddot{E}.K} - h_T$$

bu yerda: N_{MAK} – eng pastki yong'in o'chirish jo'mragi oldidagi maksimal gidrodinamik bosim bo'lib, yong'inga qarshi vodoprovod tarmog'ida 90 metrdan oshmasligi kerak;

$N_{YO.J.}$ – eng yuqorida joylashgan yong'in o'chirish jo'mragi oldidagi talab qilingan bosim;


h_T – tarmoqda bosim yo'qolishi.

Bundan tashqari zonalar soni iqtisodiy jihatdan asoslab berilishi lozim, chunki zonalar soni ortishi bilan qurilishga ketadigan xarajatlar ortadi, ammo suvni ko'tarishga sarflanadigan elektr energiya miqdori kamayadi. Zonali suv ta'daqoti asosan ikki: parallel va ketma-ket sxema bo'yicha amalga oshiriladi.

Parallel sxemada har bir zonaga bino yerto'lasida o'rnatilgan o'zingin nasoslari bilan suv uzatiladi. Ketma-ket sxemada esa suv zonadan zonaga uzatiladi. Parallel sxemada ham, ketma-ket sxemada ham har bir zona o'zingin xo'jalik va yong'inga qarshi nasoslariga va bosim suv baklariga ega bo'ladi.

Tashqi suv ta'daqoti tarmog'idan ichki zonali tarmoqqa suv ikkita kirish quvuri orqali beriladi. Agar tashqi tarmoqda suv sarfi yetarli bo'lmasa, bino oldida zaxira suv rezervuari ko'zda tutilishi lozim.

Ketma-ket sxema parallel sxemaga nisbatan ishonchliligi kam, chunki bir zonaning nasosida yoki uning elementlarida nosozlik kuzatilsa, undan yuqorida joylashgan barcha zonalar suvsiz qolishi mumkin. Shuning uchun parallel sxema ketma-ket sxemaga nisbatan amalda ko'p qo'llaniladi.



Shuningdek parallel sxemaning afzalliklaridan yana biri nasoslarga xizmat ko'rsatishning qulayligidir, chunki barcha nasoslar bitta (yerto'lada) xonada joylashgan. Har bir zona boshqalariga bog'liq bo'lmanan holda ishlaydi, ammo parallel sxemada quvurlar ko'p talab qilinadi.

O'ta ko'p qavatli binolarda ichki xo'jalik-ichimlik vodoprovod tarmog'i alohida, yong'inga qarshi tarmog'i alohida quriladi, kamdan-kam hollarda birlashgan bo'ladi.

Tarmoqlarning alohida qurilishi yong'in o'chirish jo'mraklari ishi uchun talab qilinadigan bosim bilan maishiy xo'jalik asboblariga talab qilinadigan bosim orasidagi farqning kattaligi bilan izohlanadi. Masalan, yaxlit bo'lagi

radiusi 16 metr bo‘lgan oqim olish uchun yong‘in o‘chirish jo‘mraklari oldidagi erkin bosim 25-30 metr bo‘lishi lozim bo‘lsa, maishiy-xo‘jalik asboblariga hisobiy suv sarfini uzatishda 3-4 metr bosim yetarli.

Shuning uchun, o‘ta ko‘p qavatlari binolarning suv ta’daqoti tarmog‘iga 16 qavatgacha bo‘lgan binolarning suv ta’daqoti tarmog‘iga qo‘yiladigan talablardan tashqari qo‘shimcha talablar qo‘yiladi.

Har bir yong‘in o‘chirish tik quvurida (stoyakda) o‘rnatilgan jo‘mraklar soni 12 tadan ortiq bo‘lgani uchun boshi berk tarmoq qurishga ruxsat etilmaydi hamda har bir zona suv ta’daqoti tarmog‘i vertikal bo‘yicha halqalangan bo‘lishi lozim. Yong‘in o‘chirish stoyaklarida juftlangan yong‘in o‘chirish jo‘mraklari o‘rnatilgan bo‘lib, diametri 66 mm li yeng hamda uchida 19 mm li nasadka o‘rnatilgan dastaklar bilan jihozlangan bo‘ladi.

Ichki vodoprovod tarmog‘ida ta’mir jo‘mraklari (zadvijkalari) shunday o‘rnatilishi kerakki, unda suvsiz qoladigan stoyaklar soni bittadan oshmasligi lozim.

Yong‘in o‘chirish nasoslari qo‘lda, avtomatik va masofadan turib boshqarish uskunalarini bilan jihozlangan bo‘lishlari kerak. Bunda nasoslarni avtomatik qo‘shish bakdagi 2 daqiqalik zaxira suv ishlataligandan so‘ng amalgalashirilishi lozim. Qolgan 8 daqiqalik zaxira suv yong‘in o‘chirish nasosini qo‘lda qo‘shish uchun ketadigan vaqtida yong‘inni o‘chirishga berib turish uchun mo‘ljallanadi. Masofadan turib boshqarish esa yong‘in o‘chirish jo‘mraklari oldida o‘rnatilgan knopka yordamida amalgalashiriladi.

Xar bir zonaning yong‘inga qarshi suv ta’daqoti tarmog‘idan tashqariga diametri 80 mm bo‘lgan ikkita patrubka chiqarilgan bo‘lib, ko‘chma yong‘in o‘chirish nasoslari yenglarini ulash uchun yarim gayka bilan jihozlangan bo‘ladi.

2 - Masala. Past bosimli tashqi yong‘inga qarshi suv ta’minoti tarmog‘ining suv berish qobiliyatini tekshirish.

Tarmoqning yong‘in o‘chirish maqsadida bera oladigan suv miqdori. Qachon va birinchi navbatda qayerlarda sinov o‘tkaziladi. Tarmoq turi (halqasimon yoki boshi berk), quvur diametri va undagi bosim miqdori.

Tarmoqning suv berish qobiliyati bevosita amalda sinov natijasida yoki gidravlik hisob asosida aniqlanishi mumkin. Sinov yong‘in xavfsizligi idoralari xodimlari tomonidan vodoprovod xizmati vakillari bilan birgalikda o‘tkaziladi.

Sinov o‘tkazishdan avval vodoprovod tarmog‘i turini: past yoki yuqori bosimli ekanligini aniqlash lozim.

Past bosimli tarmoq uchun eng noqulay nuqtada yer sathida erkin bosim 10 m dan kam bo‘lmasligi, yuqori bosimli tarmoq uchun esa quyidagi ifoda yordamida aniqlangan qiymatdan kam bo‘lmasligi lozim.

$$H_{er} = 28 + T$$


bu yerda T – eng baland binoning balandligi, m.

Shundan so‘ng sinov o‘tkazish joyi tanlanadi. Sinov birinchi navbatda vodoprovod tarmog‘ini past bosimli bo‘lagida, boshi berk chiziqlarida, kichik diametrli (100 mm dan kichik) bo‘laklarida, katta uzunlikka ega bo‘lgan bo‘laklarida, nasos stansiyasidan uzoqda joylashgan bo‘laklarida, suv iste’moli

katta bo'laklarda, eski bo'laklarda, portlash yong'inga xavfli ishlab chiqarish obyektlari oldida va yangi ko'rilgan bo'laklarda o'tkaziladi.

Past bosimli vodoprovod tarmog'ining suv berish qobiliyati quyidagi ketma-ketlikda tekshiriladi:

1. Sinov uchun tarmoq bo'lagi tanlanadi.
2. Tarmoqning sinaladigan bo'lagidagi yonma-yon joylashgan ikkita gidrantga yong'in o'chirish avtonasoslari o'rnatiladi (diametri 66 mm dan kam bo'limgan yeng, dastak uchidagi nasadka diametri 19 mm li bo'lishi tavsiya etiladi).
3. Har bir avtonasosdan yeng chiziqlari tortiladi va dastak – suv o'lchagich o'rnatiladi va gidrant ochiladi.
4. Manovakuummetrlar ko'rsatkichiga qarab sinov bayonnomasiga tarmoqdagi boshlang'ich bosim miqdori yozib olinadi.
5. Nasoslardan biri ishga tushiriladi. Sekin aylanish chastotasi ortira borilib, nasosning maksimal ish rejim hosil qilinadi va 2 daqiqa ushlab turiladi.
6. Bayonnomada sinov boshlanish vaqt qayd qilinib, 2 daqiqa o'tgandan so'ng so'rish chizig'idagi manovakuummetr va dastak suv o'lchagichlaridagi manometrlar ko'rsatkichlari yozib olinadi.
7. Agar manovakuummetr 3 metr atrofida (3m dan kam bo'limgan) ortiqcha bosimni ko'rsatsa, tarmoqning sinovi to'xtatiladi va chiqayotgan suv sarfi aniqlanadi (manometr ko'rsatkichi asosida). Bu bosim nasosning kafolatli ishlashi uchun yetarli. Undan past bosimda nasos ishida uzilish bo'lishi mumkin.
8. Agar birinchi nasos maksimal rejimda ishlaganda so'rish chizig'idagi ortiqcha bosim 3m dan katta bo'lsa, ikkinchi nasos ishga tushiriladi. Bunda nasos ishida uzilish bo'lmasligi uchun birinchi nasos aylanish chastotasi pasaytiriladi.
9. Ikkinci nasos ishga tushirilgandan so'ng ikkala nasosning aylanish chastotasi birgalikda ortira boriladi va manovakuummetr ko'rsatkichi kuzatib turiladi. Bu ko'rsatkich 3m ga yetganda (pasayganda) aylanish chastotasi boshqa ko'tarilmaydi.
10. Ikkala nasosning birgalikda ishlashida 2 daqiqa o'tgandan so'ng barcha manovakuummetr va manometrlarning ko'rsatkichi yozib olinadi (6 punktdagi singari).
11. Agarda ikkala nasos birgalikda maksimal rejimda ishlaganda ham ortiqcha bosim 3m dan katta bo'lsa, oldindan bu ikki nasos o'qi aylanish chastotasi pasaytirilib, uchinchi nasos ham ishga tushiriladi. Keyin sinov uchala nasos birgalikda ishlaganda davom ettiriladi. (xuddi 8,9,10)



Bir vaqtning o‘zida ishlovchi gidrantlar soni har bir nasosning so‘rish bo‘shlig‘idagi ortiqcha bosim 3m ga teng bo‘lish sharti asosida aniqlanadi.

12. Har bir gidrantdan olinishi mumkin bo‘lgan maksimal suv miqdorini aniqlash uchun, bиринчи nasosdan boshlab galma – gal nasoslarni o‘chirib, qolganlarining maksimal rejimda 2 daqiqa ishlagandan so‘ng manometr ko‘rsatkichlari bayonnomaga yozib olinadi.

13. Sinov o‘tkazib bo‘lingandan keyin umumiy bayonnomaga to‘ldiriladi.

Yuqori bosimli tarmoqning suv berish qobiliyatini tekshirish.

Yuqori bosimli suv ta’daqoti tarmog‘ining suv berish qobiliyatini sinash ikki usulda amalga oshirilishi mumkin:

- yeng chizig‘i uchida o‘rnatilgan dastak eng baland binoning tomiga o‘rnatilganda;
- yeng chizig‘i va dastak yer yuzasida yotqizilganda.

Sinov o‘tkaziladigan tarmoq bo‘lagi va o‘tkazish vaqtini past bosimli tarmoqdagi singari aniqlanadi.

Bиринчи usul. Bu usulda sinov quyidagi ketma – ketlikda bajariladi:

1. Meyoriy hujjatdan yong‘in o‘chirish ehtiyoji uchun kerak bo‘ladigan suv sarfi miqdori aniqlanadi.

2. Gidrantlardan beriladigan oqimlar (struyalar) soni aniqlanadi.

$$n_c = \frac{Q_{e_{ng}}}{q_1} \quad (1)$$

bu yerda $Q_{e_{ng}}$ - yong‘in o‘chirish ehtiyojidagi suv sarfi;

q_1 - bitta yong‘in o‘chirish oqidaqing suv sarfi bo‘lib, $5 \cdot 10^{-3} \text{ m}^3/\text{s}$ dan kam bo‘lmasi lozim.

3. Har biridan ikkitadan yeng chizig‘i tortilish sharti asosida, ishlaydigan gidrantlar soni aniqlanadi.

$$n_1 = \frac{n_c}{2} \quad (2)$$

4. Gidrantga kolonka o‘rnatilib undan uzunligi 120 m rezinasiz diametri 66 mm yeng chizig‘i tortiladi va uchida 19 mm li nasadka o‘rnatilgan dastak ulanadi va binoning eng yuqori nuqtasiga o‘rnatiladi.

5. Yong‘in sodir bo‘lgan paytda tarmoqda bosimni ottirish uchun xizmat qiluvchi stasionar nasoslar ishga tushiriladi.

6. Hisobiy gidrantlar soni ishga tushiriladi va dastaklardan chiqayotgan suv sarfi o‘lchab olinadi.

Suv sarfi kolonkada o‘rnatilgan manometr ko‘rsatkichiga qarab quyidagi ifoda yordamida aniqlanishi mumkin,

$$Q = 1,9 \sqrt{H_k - T} \quad (3)$$

agarda gidrantdan ikkita diametri 66 mm bo‘lgan yeng chizig‘i tortilgan bo‘lsa (bunda dastak uchida diametri 19 mm li nasadka o‘rnatilgan).

Agarda gidrantlardan diametri 77 mm rezinasiz yeng chizig‘i tortilgan bo‘lsa (nasadka diametri 19 mm) quyidagi ifodadan foydalanish mumkin.

$$Q = 2,2\sqrt{H_{\kappa} - T} \quad (4)$$

Ikkinci usulda ham sinov birinchi usuldagi ketma-ketlikda o‘tkaziladi, faqat suv sarfi mos ravishda $Q = 1,9\sqrt{H_{\kappa}}$ va $Q = 2,2\sqrt{H_{\kappa}}$ ifodalardan foydalangan holda aniqlanadi.

Shuningdek amalda keng qo‘llaniladigan sodda usullardan biri bu: tarmoq turini (halqasimon yoki boshi berk), quvur diametrini va tarmoqdagi bosimni bilgan holda «yong‘in o‘chirish rahbari» (RTP) spravochnigidagi 126 betdagi 4.1 – jadvaldan tarmoqning suv berish qobiliyatini aniqlash mumkin. Bunda shuni nazarda tutish lozimki, quvurlardan foydalanish davrida ularning (gidravlik qarshiligi ortishi natijasida) suv o‘tkazish qobiliyati pasayadi.

3- Masala. Ichki yong‘inga qarshi suv ta’mnoti tarmog‘ining suv berish qobiliyatini tekshirish

Ichki yong‘inga qarshi suv ta’daqoti tarmog‘ining suv berish qobiliyati qaysi soatlarda tekshiriladi. Sinov o‘tkaziladigan jo‘mraklar o‘rni va sonini tanlash. Suv sarfini aniqlash usullari.

Ichki suv o‘tkazgich tarmog‘ining suv berish qobiliyatini tekshirish uchun binoga kirish joyidan eng uzoqda va balandda joylashgan yong‘in o‘chirish jo‘mragi tanlanadi. Bunda bir vaqtda sinaladigan jo‘mraklar soni QMQ bo‘yicha aniqlangan hisobiy oqimlar soni asosida olinadi.

Sinov tashqi suv o‘tkazgich tarmog‘ida daqimal bosim va ichki tarmoqda maksimal xo‘jalik – ichimlik suv sarfi soatida o‘tkazilishi lozim. Bunda sinovdan o‘tkazilayotgan yong‘in o‘chirish jo‘mragidan yeng chizig‘i tortilib, dastak derazadan bino tashqarisiga chiqariladi va jo‘mrak ochilib yaxlit oqim uzunligi va chiqayotgan suv sarfi o‘lchanadi. Dastakdan chiqayotgan suv sarfini aniqlash uchun xona o‘lchami, texnologik uskunalarning joylashuvi, yonuvchi materiallar va yong‘in o‘chirish jo‘mraklar orasidagi masofaga bog‘liq holda oqimning talab qilingan uzunligi aniqlanishi lozim.

Sinov paytida suv sarfi quyidagi usullardan biri yordamida aniqlanishi mumkin:

Hajmiy usul

$$\tau \text{ vaqt ichida yig‘ilgan suv hajdaqi vaqtga nisbati bilan aniqlanadi, ya’ni } Q = W / \tau \quad (1)$$

bu yerda: W - tekshirilgan bak hajmi, m^3 (hajmi 500 l dan kam bo‘lmagan idish); τ - idishning to‘lish vaqt.

Dastak suv o‘lchagich yordamida quyidagi ifoda bilan aniqlanadi

$$Q = P \sqrt{H_m} \quad (2)$$

bu yerda N_m – dastak suv o‘lchagichda o‘rnatilgan manometr ko‘rsatkichi;

R – yong‘in o‘chirish dastagi uchidagi nasadka o‘tkazuvchanligi (bunda odatda kattaroq diametrli nasadka ishlatalishi lozim).

6-7-8 - AMALIY MASHG'ULOT

Kattiq moddalarni suv bilan o'chirishda kuch va vositalarni hisoblash

Ishdan maqsad: Korxonaning xususiyati; yong'inning tarqalish tezligi; yong'in o'chirishga jalg etiladigan yong'in o'chirish bo'linmalarining soni va turlari; beriladigan yong'in o'chirish moddalarining talab etiladigan jadallik darajasi, yong'in o'chirishga va himoyaga berilgan dastaklarning soni, asosiy yong'in o'chirish avtomobillardagi ekipajlar sonni hisoblashni o'rganish.

1- Masala. Kuch va vositalarni hisoblash uchun quyidagi ma'lumotlar olinadi: korxona xususiyati; yong'in to'g'risida xabar olinganiga qadar vaqt; yong'in yo'nalishi bo'yicha tarqalish tezligi; chaqiruvga chiqish jadvali bo'yicha ko'zda tutilgan kuch va vositalar hamda ularning jamlanish vaqt; yong'in o'chirish moddalarining berish jadalligi.

Hisoblash tartibi.

1. Yong'inning erkin tarqalish vaqtini aniqlaymiz

$$\tau_{\text{erk.yonish}} = \tau_{\text{xabargacha}} + \tau_{\text{borish}} + \tau_{j,j}$$

bunda, $\tau_{\text{xabargacha}}$ – yong'in haqida xabar qabul qilgunga qadar yonish vaqt.

2. Yong'inning bosib o'tgan masofasini aniqlaymiz

$$R = 0,5 \times v_1 \times \tau_1, \text{ agar, } \tau_{\text{erk.yonish}} \leq 10 \text{ daq};$$

$$R = 0,5 \times v_1 \times \tau_1 + v_1 \times \tau_2, \text{ agar, } \tau_{\text{erk.yonish}} > 10 \text{ daq};$$

bunda: 0,5 – yong'inning erkin tarqalish tezligi birinchi 10 daqiqada, meyordagidan 2 marta kam bo'linishini hisobga oladigan koeffisiyent;

v_1 – yong'inning tarqalish tezligi (m/daq), Aholi yashaydigan uylarda yong'inning tarqalish tezligini 1 m/daq deb hisoblaymiz;

τ_1 – erkin tarqalish vaqtining birinchi 10 daqiqa;

τ_2 – erkin yonish vaqtini, birinchi 10 daqiqadan keyingi vaqt

$$\tau_2 = \tau_{\text{erk.yonish}} - \tau_1$$

3. Yong'in maydoni va uning tarqalish shaklini aniqlaymiz.

a) agar yong'in binoning qarama – qarshi devorlarigacha yetib bormasa yong'in maydoni aylana shaklida bo'ladi, ya'ni

$$S_{\text{maydon}} = k \times \pi \times R^2$$

bunda: k – yong'in shaklini belgilovchi koeffisiyent, agar yong'in to'la aylana shaklida bo'lsa, $k = 1$; yarim aylana shaklida, $k = 0,5$; chorak aylana (burchak) shaklida bo'lsa, $k = 0,25$ ga teng bo'ladi;

R – yong'inning bosib o'tgan masofasi.

b) agar yong'in binoning qarama – qarshi devorlariga yetgan bo'lsa yong'in to'g'ri to'rtburchak shaklida tarqaladi

$$S_{yon} = n \times R \times a,$$

bunda: n – тоғыздаштырылған шабактағы көмегінің тарбалысы және тоғыздаштырылған мөлдөмдөлдер; a – бинонинг кенглігі.

4. Йонғыннан оғарыш майданынан анықтамыз, m^2 .

a) Агар йонғыннан айланы шабактағы бойынша

$$S_{o\cdot ch} = k \times \pi \times h_{o\cdot ch} (2R - h_{o\cdot ch})$$

bunda: $h_{o\cdot ch}$ – йонғыннан оғарыш чуқурлігі (жоғалған дастактар мен оғарыштада - 5м, лафет дастасы мен оғарыштада - 10м.).

b). Агар йонғыннан бинонинг қараша қаршы деңгелерге көмегінде борган бойынша

$$S_{o\cdot ch} = n \times a \times h_{o\cdot ch}$$

5. Йонғыннан оғарыш үшін талап кілінген сув сарғынын анықтамыз

$$Q_t = S_{o\cdot ch} \times J_t$$

bunda: J_t – талап кілінген, йонғыннан берілген жадаллік

6. Йонғыннан оғарыш үшін талап кілінген дастактардың санын анықтамыз.

$$N_d = Q_t / q_d$$

bunda: q_d – бітті дастактардың санынан мөлдөмдөлдер

7. Йонғыннан оғарыш үшін талап кілінген дастактардың санын анықтамыз.

Берилген дастактардың саны, йонғыннан жағынан көрсетілген хизметтердің санынан, йонғыннан шароитлардың санынан және көрсетілген тaktik sharoitlarga qarab belgilanadi.

8. SHaxsiy tarkibning санын анықтамыз

$$N_{sh.t} = N^{o\cdot chd} \times n_{odam} + N^{xim} \times n_{odam} + n_{eng\ nazorat} + n_{aloqachi}$$

9. Автомобильдерде көмегінде йонғыннан оғарыш еkipajlari санын анықтамыз.

$$N_{ek\ AS} = N_{sh.t} / n_{sh.t\ ek\ AS}$$

2-Masala. Hajm bo'yicha, ko'pik bilan yong 'in o 'chirishda kuch va vositalarni xisoblash usuli

Ishdan maqsad: Йонғыннан оғарыш үшін ко'пик қылымдардың санын анықтамыз. Йонғыннан оғарыш үшін ко'пик қылымдардың санын анықтамыз.

Hisoblash uslubi:

1. Xona hajdaqi анықтамыз:

$$W_x = a \times v \times h$$

bunda: a - xона ені; v - xона узунлігі; h - xона баландлығы

2. Xona hajdaqi ко'пик bilan to'ldirish үшін GPS санын анықтамыз

$$N_{gps} = (W_x \times K_p) / (q_{gps} \times \tau_{o\cdot ch});$$

bunda: q_{gps} - GPS датчикинде ко'пик сарғы, $m^3\backslash daq$;

K_p – хажм бойынша ко'пикни yemirilish koeffisiyenti;

$\tau_{o\cdot ch}$ - оғарыш вақты, daq.

3. Йонғыннан оғарыш үшін талап көмегінде еkipajlari санын анықтамыз.

$$N_{ek} = N_{gps} / n_{gps\ ek}$$

4. Ко'пик қылымдардың санын анықтамыз

$W_{no} = N_{gps} \times q_{gps\ po} \times \tau_{o'ch} \times 60 \times k$,
 bunda: $q_{gps\ po}$ - GPS dan ko'pik hosil qiluvchi moddani sarfi;
 $\tau_{o'ch}$ - o'chirish vaqt; k - ko'pik hosil qiluvchi moddani zaxira koeffisiyenti.

5. Yong'in o'chirish uchun suv zaxirasini aniqlaymiz

$$W_{suv} = N_{gps} \times q_{gps\ suv} \times t_{o'ch} \times 60 \times k$$

6. Yong'in o'chirish uchun, ko'pik bilan o'chiruvchi avtomobillar sonini aniqlaymiz

$$Nav = W_{no}/W_{av}$$

bunda: W_{av} - ko'pik bilan o'chirish avtomobilidagi ko'pik hosil qiluvchi moddani miqdori

3- Masala. Paxta xom- ashyosi hududida yong'inni o'chirish uchun kerak bo'ladigan kuch va vositalarni hisoblash uslubi

Paxta xom ashyosi hududida yong'inning rivojlanishiga shamolning kuchi, yo'nalishi va g'aramlar o'rtasida yong'in xavfsizlik oraliqlari, xomashyoning namligi yong'inni tarqalishiga o'z ta'sirini o'tkazadi.. Ob-havo sharoitlaridan kelib chiqib yong'inning tarqalish tezligi quyidagicha bo'lishi mumkin:

- shamol yo'qligi yoki o'ta kuchsiz shamolda - past - 0,75 – 1,0 m/daq.
- kuchsiz shamolda - o'rta - 1,0 – 2,0 m/daq.
- o'rtacha kuchli shamolda - yuqori - 3,1 – 5,0 m/daq.
- quruq issiq havoda va kuchli shamolda - o'ta yuqori - 6,0 m/daq.

Yong'inda vaziyat, yong'in o'lchami va uning tarqalish tezligi bilan belgilanadi.

Hisoblash tartibi:

1. Erkin yonish vaqtini aniqlaymiz

$$\tau_{er.yon.} = \tau_{xabargacha} + \tau_{yig'ilish\ vaqt} + \tau_{bor.} + \tau_{k.v.yo.}$$

bunda: $\tau_{xabargacha}$ – yong'in haqida xabar qabul qilgunga qadar yonish vaqt, 8-12 daqiqa 8 daqiqa deb qabul qilamiz.

$\tau_{yig'ilish\ vaqt}$ – tashvish signali bo'yicha jangovar hisobning shaxsiy tarkibini yig'ilish vaqt, 1 daqiqa.

τ_{borish} - shaxsiy tarkibning yong'inga yetib kelgan vaqt quyidagi formula yordamida aniqlanadi

$$\tau_{borish} = 60 \cdot L / V_{borish} = 60 \cdot 1,5 / 40 = 2,25 \text{ daqiqa}$$

Bu yerda: L – yong'in sodir bo'lgan « paxta tozalsh» ochiq aksionerlik jamiyatidan Jizzax tumanida joylashgan 1-KYOXQgacha bo'lgan masofa 1,5 km ni tashkil qiladi;

V_{borish} – yong'in o'chirish avtomobilining o'rtacha harakatlanish tezligi (qattiq qoplamlari keng ko'chalar uchun 45 km/soat, murakkab hududlar uchun 25 km soatni tashkil qiladi) biz 40 km/soat deb qabul qilamiz.

Quyidagi formula yordamida kuch va vositalarning yoyilishga sarflanadigan vaqtini aniqlaymiz. Bunda dastaklar omborga berilgani nazarda tutiladi, ya'ni

$$\tau_{k.v.yo.} = 0,035 \cdot l_{suv} = 0,035 \cdot 40 = 1,4 \text{ daqiqa.}$$

bunda 0,035 – soni kuch va vositalarning yoyilish vaqtida 1 m masofani bosib o‘tish uchun sarflangan vaqt (tajriba va tahlillar natijasi olingan vaqt); l_{suv} – yong‘in o‘chirish avtomobillarini suv manbasiga o‘rnatilgan joydan to uchtarmoqqacha bo‘lgan masofa, m.

Unda erkin yonish vaqt:

$$\tau^1_{\text{er.yon.}} = \tau_{\text{xabargacha}} + \tau_{\text{yig‘ilish vaqt}} + \tau_{\text{bor.}} + \tau_{\text{k.v.yo.}} = 8+1+2,25+1,4 = 12,65 \approx 13 \text{ daqiqa}$$

2. Front bo‘yicha yonginning bosib o‘tgan masofasi quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$R_1 = 0,5 \cdot v_{\text{ch.t.t.}} \cdot \tau_1 + v_{\text{ch.t.t.}} \cdot \tau_2 = 0,5 \cdot 2 \cdot 10 + 2 \cdot 3 = 16 \text{ metr}$$

Bunda: 0,5 – yong‘inning erkin tarqalishi birinchi 10 daqiqada, meyordagidan 2 marta kam bo‘lishini hisobga oladigan koeffisiyent; $v_{\text{ch.t.t.}}$ – yong‘inning tarqalish tezligi, 2 m/daqiqani tashkil qiladi [21]; τ_1 – yong‘in boshlanishidan birinchi 10 daqiqadagi vaqt; τ_2 – yong‘inning erkin tarqalish vaqt, $\tau_2 = \tau_{\text{erk.yonish}} - \tau_1 = 13 - 10 = 3$ daqiqa.

3. Tayyor mahsulotlar omborining o‘lchamlari 24x55x8 m. Yong‘in tayyor mahsulotlar omborining markazida sodir bo‘lgan. Yong‘inni bosib o‘tgan masofasi 16 metrni tashkil qildi. Yong‘in omor devorlarigacha yetib borgan, yong‘in maydoni to‘rt burchak shaklini hosil qilgan va to‘rtburchak shaklida yong‘in tarqalayapdi.

Bu holda yong‘in maydonini quyidagi formula bo‘yicha aniqlaymiz.

$$S_{\text{yo.m.}} = n \cdot a \cdot R = 2 \cdot 24 \cdot 16 = 768 \text{ m}^2$$

bunda, n – yong‘in shaklini belgilovchi koeffisiyent, yong‘in to‘g‘ri to‘rtburchak shaklini hosil qilganligi uchun 2 ga teng; R – yong‘inning bosib o‘tgan masofasi, 16 metr.

4. Yong‘in maydoni bo‘yicha talab etiladigan suv sarfini aniqlaymiz:

$$Q^1_{\text{tal}}{}^{\text{may}} = S_{\text{o.ch.}} \times J_{\text{tal}} = 768 \times 0,2 = 153,6 \text{ l/s}$$

Bu yerda: J_{tal} – yong‘inga suv berish jadalligi, $J_{\text{tal}} = 0,20 \text{ l/s}$

5. Qurshab olingungacha bo‘lgan yong‘in maydonini aniqlaymiz. Yong‘in konturi tushirilgan chizmadan olovning tarqalishini to‘xtatish maqsadida yong‘in o‘chirish yo‘nalishini topamiz va chizmada yong‘in o‘chirish maydonini belgilaymiz. Yong‘in binoning qarama-qarshi devorlariga yetib bormagan, yong‘in maydoni aylana shaklini hosil qilgan va aylana shaklida yong‘in tarqalayapdi, u holda

$$S_{\text{o.ch.may.}} = n \cdot a \cdot h_{\text{o.ch.chuq.}} = 2 \cdot 24 \cdot 5 = 240 \text{ m}^2$$

bunda, $h_{\text{o.ch.chuq.}}$ – yong‘inni o‘chirish chuqurligi, qo‘l dastaklari bilan o‘chirganda – 5 metrga teng.

6. Yong‘inni qurshab olish uchun talab qilinadigan suv sarfini aniqlaymiz:

$$Q^1_{\text{tal}}{}^{\text{o.ch.}} = S_{\text{o.ch.}} \times J_{\text{tal}} = 240 \times 0,20 = 48 \text{ l/s}$$

Bunda: J_{tal} – yong‘inga suv berish jadalligi, $J_{\text{tal}} = 0,20 \text{ l/s}$

7. Himoya uchun suv sarfi yong‘indagi vaziyat va yong‘indagi harakatlarning taktik shartiga qarab aniqlanadi.

$$Q^1_{\text{tal}}{}^{\text{xim}} = N_{\text{das}} \times q_{\text{das}}{}^{\text{xim}} = 2 \times 3,5 = 7 \text{ l/s}$$

bunda: N_{das} – tomga va qo‘shni xonalar himoyasi uchun beriladigan dastaklar soni, dona; $q_{\text{das}}{}^{\text{xim}}$ – tom orqali qo‘shni omor va xonalarga yong‘inning tom orqali tarqalmasligini oldini olish uchun beriladigan dastaklarning suv sarfi, l/s.

8. Yong‘inni qurshab olish uchun umumiy suv sarfini quyidagi tenglamadan aniqlaymiz:

$$Q_{tal}^{1,qursh} = Q_{tal}^{o,ch} + Q_{tal}^{xim} = 48 + 7 = 55 \text{ l/s}$$

9. Ekipajlarning shaxsiy tarkibi sonini inobatga olgan holda yong‘inga yetib kelgan ekipajlarning yong‘inga suv bera olish sarfini aniqlaymiz:

$$Q_{imkon}^1 = N_{ek} \times n_{das}^{rs-50} \times q_{das}^{rs-50} = 4 \times 7 + 4 \times 3,5 = 42 \text{ l/s}$$

bunda: N_{ek} - ekipajlar soni, bunda yong‘in sodir bo‘lgandan keyin yong‘in sodir bo‘lgan « paxta tozalash » ochiq aksionerlik jamiyatidan 1 ta AS-40(130)63B va Jizzax tumanida joylashgan 1-KYOXQdan 2 ta AS-40(130)63B rusumli, jami 3 ta yong‘in o‘chirish avtomobilari jalb etiladi; n_{das} - bitta ekipaj bera oladigan dastaklar soni; q_{das} - har bir dastakning suv sarfi l/s.

$Q_{imkon} = 42 \text{ l/s} < Q_{tal}^{qursh} = 55 \text{ l/s}$ dan kichik, shuning uchun yong‘in qurshab olinmagan hisoblanadi.

4- Masala.

Yong‘in paxta g‘aramida sodir bo‘lgan. G‘aramning o‘lchamlari $25 \times 14 \times 8$ m ni tashkil qiladi. Yong‘in $25 \times 14 \times 8$ m o‘lchamdagи g‘aramda sodir bo‘ldi deb qabul qilamiz. Yuqori chaqiruv bo‘yicha kuchlarning yong‘inga yetib kelgan vaqtidagi holatini aniqlaymiz. Yong‘inni o‘chirish uchun kerak bo‘ladigan kuch va vositalarni hisoblab chiqamiz.

1. Birinchi dastaklarni kiritilgunga qadar erkin yonish vaqtini aniqlaymiz:

$$\tau_{er,yon.} = \tau_{xabargacha} + \tau_{bor.} + \tau_{k.v.yo.}$$

bunda: $\tau_{xabargacha}$ – yong‘in haqida xabar qabul qilgunga qadar yonish vaqt, maskanda yong‘in o‘chirish avtomobili mavjudligini inobatga olgan holda, 5 daqiqa deb qabul qilamiz.

Maskanda ko‘ngilli yong‘in o‘chirish drujinasi va yong‘in o‘chirish avtomobili borligi uchun yetib borish vaqtini 2,25 daqiqa deb qabul qilamiz, $\tau_{borish} = 2,25$ daqiqa.

Quyidagi formula yordamida kuch va vositalarning yoyilishga sarflanadigan vaqtini aniqlaymiz. Bunda dastaklar yonayotgan paxta g‘aramiga berilgani nazarda tutiladi, ya’ni

$$\tau_{k.v.yo.} = 0,035 \cdot l_{suv} = 0,035 \cdot 40 = 1,4 \text{ daqiqa.}$$

Unda erkin yonish vaqt:

$$\tau_{er,yon.}^I = \tau_{xabargacha} + \tau_{yig‘ilish vaqt} + \tau_{bor.} + \tau_{k.v.yo.} = 8 + 1 + 2,25 + 1,4 = 12,65 \approx 13 \text{ daqiqa}$$

2. Front bo‘yicha yong‘inning bosib o‘tgan masofasi quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$R = v_{ch.t.t.} \times \tau_{er} = 3 \times 13 = 39 \text{ metr.}$$

bunda, $v_{ch.t.t.}$ – yong‘inning tarqalish tezligi, 3 m/daqiqli tashkil qiladi (YOO‘R qo‘llanmasi, 22-varaq);

3. Birinchi bo‘lib yetib kelgan bo‘linmaning kuch va vositalarini kiritish vaqtidagi yong‘inning aylanma ko‘rinish maydonini aniqlaymiz:

$$S_{yon} = \pi \times R^2 = 3,14 \times 39^2 = 4775 \text{ m}^2$$

Yong‘inga qarshi oraliqlarni hisobga olgan holda, yonayotgan maydonni aniqlaymiz:

$$S_{yon,b.} = k_{to'l} \times S_{yon}$$

Bu yerda: k_{zap} – to‘ldirish koeffisiyenti xomashyo zonasining maydoni, buntlar maydoniga nisbatan teng:

$$k_{to\cdot l} = \sum S_{yon.b} / S_{xom-ashyo.z} = 5600 / 24480 = 0,22$$

$$S_{yon.b.} = k_{to\cdot l} \times S_{yon} = 0,22 \times 4775 = 1050 \text{ m}^2$$

bu yerda: $S_{xom-ashyo.z}$ – xom-ashyo zahirasi maydoni, $S_{g\cdot m}$ - xomashyo zonasining maydoni, g ‘aramlar maydoni.

4. Birinchi bo‘lib kelgan bo‘linmaning kuch va vositalarini kiritishda, yonayotgan paxta g‘aramlari xili va soni ehtimolini aniqlaymiz:

$$N_{yon.b.} = S_{yon.b.} / S_b = 1050 / 350 = 3 \text{ ta bunt}$$

5. Yonayotgan g‘aramlarni o‘chirish uchun kerak bo‘ladigan suv miqdorini aniqlaymiz:

$$Q_{tal}^t = N_{yon.b.} \times S_{osn} \times J_{tal} = 3 \times 350 \times 0,1 = 105 \text{ l/s}$$

Bu yerda: J_{tal} – perimetri buylab suv berish davomiyligi o‘rtacha $0,1 \text{ l/(s.m}^2)$ ga teng (YOO‘R qo‘llanmasi).

6. Himoya uchun kerak bo‘ladigan suv miqdorini aniqlaymiz:

$$Q_{tal}^z = Q_{tal}^t / 3 = 105/3 = 35 \text{ l/s}$$

7. Yonayotgan paxta g‘aramlarini o‘chirish uchun kerak bo‘ladigan dastaklar sonini aniqlaymiz:

$$N_{das}^t = Q_{tal}^t / q_{das} = 105/20=6 \text{ ta PLS-20}$$

8. Himoya uchun beriladigan dastaklar sonini aniqlaymiz:

$$N_{das}^z = Q_{tal}^z / q_{das} = 35/7 = 5 \text{ ta RS-70}$$

9. Paxta g‘aramlari ustini qoralab, dastaklarning bir qismi g‘aramlarni shamollatish tonnellari ichidagi yong‘inni o‘chirish uchun ishlatiladi.

10. Dastaklar bilan ishlash uchun shaxsiy tarkib sonini aniqlaymiz:

$$N_{sh.t} = N_{das}^{o\cdot chir} \times 3 + N_{das}^{xim} \times 2 = 6 \times 3 + 5 \times 2 = 28 \text{ kishi.}$$

- yeng chiziqlarini nazorat qilish uchun 3 kishi, aloqaga 1 kishi.

Jami 32 kishi. G‘aramlarni tozalash uchun shaxsiy tarkib va paxtani qayta ishslash korxonasining ishchilarini jalg etamiz.

11. Asosiy yong‘in o‘chirish avtomobilidagi ekipaj sonini aniqlaymiz.

$$N_{ek} = N_{sh.t} / N_{sh.t.ek} = 32 / 4 = 8 \text{ ta ekipaj.}$$

Demak, yong‘inni o‘chirish uchun 8 ta ekipaj talab qilinadi.

Xulosa: Yong‘inga tezkor rejaning kuch va vositalarni jalg qilish jadvali bo‘yicha bu korxonaga 8 ta ekipaj jo‘natilishi rejalashtirilgan.

5 -Masala. Tayyor mahsulotlar omborida yong‘in o‘chirishga suv berish uchun yong‘in o‘chirish avtomobilidagi nasoslarda suv bosimini hisoblash

Kerakli ma'lumotlar:

- magistral yeng tarmoqlari 77 mm diametrli rezinali yenglardan tortilgan;
- yong‘inga 7 ta RS-70 dastagi, jo‘mrak diametri 19 mm va 4 ta RS-50 dastagi berilgan, jo‘mrak diametri 13 mm;
- yong‘indan suv havzasigacha bo‘lgan masofa 40 metr;
- tayyor mahsulotlar omborining balandligi 8,0 metr;
- uch tarmoqli ayirg‘ich sexning oldiga qo‘yilgan;
- Himoya dastaklari quyidagicha taqsimlangan: Yonayotgan tayyor mahsulotlar omborining tomi va omor konstruksiyalarini sovutish uchun 4 ta RS-50 dastagi berilgan.

1. Magistral tarmoqdagi yenglar sonini aniqlaymiz:

$$N_{\text{eng}} = 1,2 L / 20 = 1,2 \cdot 40 / 20 = 2,4 \approx 3 \text{ ta yeng}$$

Bu yerda: L - yong‘indan suv havzasigacha bo‘lgan masofa.

2. Nasosdagi bosimni aniqlaymiz:

$$N_b = N_{\text{eng}} \cdot SQ^2 + Z_m + Z_{ct} + H_p = 3 \cdot 3,3 + 0 + 1 + 40 = 50,9 \text{ metr}$$

Bu yerda: N_{eng} - magistral liniyasiidagi yenglarning miqdori, dona;

SQ^2 – bitta 20 m yengning qarshiligi, 51 diametrli, rezinalik yengning qarshiligi 3,3 metr, (YOO‘R qo‘llanmasi 4.8-jadval);

Z_m – joy relyefining geometrik yuqoriga ko‘tarilish yoki pasayish balandligi, metr;

Z_{ct} – dastaklarni maksimal ko‘tarilish balandligi, metr;

H_p – dastakka nisbatan har 10 metrga yo‘qotiladigan bosim miqdori, atm.

Demak, yong‘in o‘chirish avtomobilidagi nasos 50,9 metr ya’ni, 5,09 atm bosimni berishi kerak. Bu nasosni yuqori quvvatda ishlashi demakdir. Yenglar 5,09 atm. bosimiga chidashi uchun 1- toifadan past bo‘lmasligi kerak.

6 –Masala. Korxonaning suv sarfini aniqlash.

Hisobimiz bo‘yicha $25 \times 14 \times 8$ o‘lchamga ega paxta g‘aramlarida sodir bo‘lgan yong‘inni o‘chirishga 6 ta PLS-20 va qo‘shni paxta g‘aramlarini himoya qilish uchun 5 ta RS-70 dastagi beriladi, ya’ni suv sarfini shu paytda kerakli suv sarfiga qarab aniqlaymiz. Korxonaning suv sarfi quyidagi turlarga qarab aniqlanadi:

- vodoprovod tarmoqlarini suv berish sarfi bo‘yicha;
- suv hovuzlarining hajmi bo‘yicha;

Birinchi uslub bo‘yicha jamiyatning suv bilan ta’daqlanganligini tekshiramiz.

$$Q_{\text{suv}} = (1,5 \cdot d)^2 = (1,5 \cdot 6)^2 = 81 \text{ l/s.}$$

Paxta g‘aramlarida yong‘in sodir bo‘lsa yong‘in o‘chirishga kerak bo‘ladigan suv sarfi 140 l/s ni tashkil.

Demak, korxona suv bilan ta’daqlanmagan.

Ikkinci uslub bo‘yicha korxonaning suv bilan sarflanganligini tekshiramiz.

Korxona hududida mavjud bo‘lgan sig‘imi 500 m^3 bo‘lgan 1 ta, 300 m^3 bo‘lgan 2 ta va 50 m^3 bo‘lgan 1 ta ochiq suv havzasi hamda 100 m^3 bo‘lgan 2 ta yopiq suv havzasidan foydalangan holda, korxonaning suv sarfini aniqlaymiz.

Yong‘inni o‘chirish va himoya uchun kerak bo‘ladigan suv sarfi bo‘yicha korxonadagi mavjud suv havzalarining suv sarfini aniqlaymiz:

$$W_{\text{talab}} = Q_{\text{talab}} \cdot \tau^{o\text{-chirish}} \cdot 60 \cdot K_3 + Q_z \cdot \tau^{ximoya} \cdot 3600,$$

agar, $W_{\text{talab}} \leq 0,9 W_{\text{xovuz}}$, unda yong‘in o‘chirishga suv yetarlidir;

agar, $W_{\text{talab}} > 0,9 W_{\text{xovuz}}$, unda yong‘in o‘chirish uchun suv yetmaydi.

Bunda, 0,9 – hovuzdan qolgan 10 % suvni tortib olib bo‘lmasligini ko‘rsatuvchi koeffisiyent; $\tau^{o\text{-chirish}}$ – yong‘inni o‘chirish vaqt, 10 daqiqa, 60 – daqutlarni sekundlarga o‘tkazish; τ^{ximoya} – yong‘indan himoya qilish vaqt, 3 soat, 3600 - soatni sekundlarga o‘tkazish.

Korxonaning suv bilan ta’daqlanganligini tekshiramiz.

$$W_{\text{talab}} = Q_{\text{talab}} \cdot \tau^{o\text{-chirish}} \cdot 60 \cdot K_3 + Q_z \cdot \tau^{ximoya} \cdot 3600 = 105 \cdot 10 \cdot 60 \cdot 5 + 35 \cdot 3 \cdot 3600 = 315000 + 378000 \text{ l/s} = 693000 \text{ l/s} = 693 \text{ m}^3$$

$$W_{tr(talab)} < 0,9W_{vod(xovuz)} = 693 < 0,9 \times (500 \cdot 1 + 300 \cdot 2 + 50 \cdot 1 + 100 \cdot 2) \\ = 1215 \text{ m}^3$$

Xulosa. Korxona suv bilan ta'daqlangan.

9- AMALIY MASHG'ULOT

Yong'inlarni ko'pik bilan o'chirishda kuch va vositalarni hisoblash

1 -Masala. O'rta karrali ko'pik bilan yong'inlarni o'chirishda kuch va vositalarni hisoblash uchun quyidagi ma'lumotlarni aniqlash lozim:

- yong'in maydonini;
- ko'pik hosil qiluvchi modda aralashmasini uzatish jadalligini;
- tanlangan generatorlarning ko'pik uzatib berish quvvatini;
- yong'in o'chirish vositalarining zaxira koeffisiyentini.

Yengil alangalanuvchi va yonuvchi suyuqliklarni maydon bo'yicha o'chirishda kuch va vositalarni hisoblash, to'kilgan mahsulot geometrik o'lchamlardan kelib chiqib amalga oshiriladi.

1.Ko'pik hosil qiluvchi modda aralashmasining talab etiladigan sarfi hisoblanadi:

$$Q_{apalaishma} = S_{\ddot{e}} \cdot I_{apalaishma}$$

bunda: S_{yo} - to'kilgan suyuqlik maydoni, m;

$I_{aralashma}$ - yong'inni bartaraf etish uchun beriladigan ko'pik hosil qiluvchi modda aralashmasining talab etiladigan jadalligi, l/(s.m²).

2. Ko'pik beruvchi generatorlar (GPS) soni aniqlanadi:

$$N_{\Gamma\Gamma C} = Q_{apalaishma} / q_{\Gamma\Gamma C}^{apalaishma},$$

bunda: $q_{\Gamma\Gamma C}^{apalaishma}$ - bitta GPSning ko'pik hosil qiluvchi modda aralashmasi bo'yicha, uzatish sarfi, l/s.

3. Ko'pik hosil qiluvchi moddaning talab etiladigan hajmi aniqlanadi:

$$W_{\kappa.x.k.m} = N_{\Gamma\Gamma C} \cdot q_{\Gamma\Gamma C}^{kxxm} \cdot \tau_p \cdot k_3^{kxxm} \cdot 60$$

bunda: $q_{\Gamma\Gamma C}^{kxxm}$ - GPS ning ko'pik hosil qiluvchi moddani uzatish sarfi, l/s.

τ_p - yong'inni o'chirishning meyoriy vaqt, daqiqa.

k_3^{kxxm} - yong'inni o'chirish uchun kerak bo'ladigan ko'pik hosil qiluvchi moddaning zaxira koeffisiyenti, $k_3^{kxxm} = 3$.

4. Ko'pik hosil qiluvchi modda tashuvchi avtomobillar soni aniqlanadi:

$$N_{a\theta} = W_{\kappa x k m} / W_{a\theta}$$

bunda: W_{av} - avtomobil sisternasi hajmi, l.

5. Ko'pik miqdorini berish uchun kerakli suv sarfi aniqlanadi:

$$Q_{m.\theta}^y = N_{\Gamma\Gamma C} \cdot q_{\Gamma\Gamma C}^{cy\theta}$$

bunda: $q_{\Gamma\Gamma C}^{cy\theta}$ - GPS ning suv uzatish sarfi, l/s.

6. Ko'pikli hujumni o'tkazish uchun kerakli suv zaxirasi aniqlanadi:

$$W_{cy\epsilon}^y = N_{\Gamma\Gamma C} \cdot q_{\Gamma\Gamma C}^{cy\epsilon} \cdot \tau_p \cdot \kappa_3^{cy\epsilon} \cdot 60$$

bunda: $W_{cy\epsilon}^y$ - ko‘pikli hujum o‘tkazish uchun kerak bo‘ladigan suv hajmi, l;

$\kappa_3^{cy\epsilon}$ - yong‘inni o‘chirishda suv zaxirasi koeffisiyenti, $\kappa_3^{cy\epsilon} = 5$.

7. Ekipajlar soni aniqlanadi:

$$N_{\vartheta K} = N_{\Gamma\Gamma C} / n_{\Gamma\Gamma C}^{\vartheta K}$$

bunda: $n_{\Gamma\Gamma C}^{\vartheta K}$ - asosiy yong‘in o‘chirish avtomobilidagi bitta ekipaj bera oladigan GPSlar soni.

10-11- AMALIY MASHG’ULOT

Birlamchi ot ochirish vositalarining turlari va ulardan foydalanish usullari.

Ishning maqsadi: O‘t o‘chirgichlarning tuzilishi, zaryadlash qoidalari, ishlatilish sohalari va usullari bilan tanishish. O‘t o‘chirgichlarni amalda ishlatish bo‘yicha amaliy ko‘nikmalar hosil qilish.

Mashg‘ulot rejasi:

1. Umumiy ma’lumotlar. O‘t o‘chirish moddalarining tasnifi va xususiyatlari.
2. O‘t o‘chirgichlarning tavsifi, tuzilishi, zaryadlash va saqlash qoidalari.
3. O‘t o‘chirgichlarning talab etiladigan sonini aniqlash.
4. Hisobot tarkibi.

Topshiriqlar:

1. O‘t o‘chiruvchi moddalarining xususiyatlari bilan tanishing.
2. O‘t o‘chirgichlarning tavsifi, tuzilishi, ish tartibi, zaryadlash va saqlash qoidalari bilan tanishing.
3. OP-5 o‘t o‘chirgichi korpusini gidravlik presslash yo‘li bilan mustahkamligini sinang.
4. OP-5 o‘t o‘chirgichini zaryadlang va ishlatib sinang.

1. Umumiy ma’lumotlar. O‘t o‘chirish moddalarining tasnifi va hususiyatlari.

Yong‘in – bu maxsus manbadan tashqarida sodir bo‘ladigan va katta material zarar hamda talofatlar keltirib chiqaradigan nazoratsiz yonish jarayonidir.

Obektning yong‘in xavfliligi deganda, Obektning yong‘in sodir bo‘lishi mumkin bo‘lgan holati va yong‘inning oqibatlari tushuniladi.

Obektning yong‘in xavfsizligi deganda, belgilangan me‘yorlar va talablar asosida obektda yong‘in sodir bo‘lish xavfi hamda uning xavfli va zararli omillarini inson hayotiga ta’siri cheklangan, obektdagi materiallar to‘liq himoyalangan holati tushuniladi.

Yong‘in vaqtida sodir bo‘ladigan turli xil xavfli va zararli omillar ta’sirida material boyliklar nobud bo‘lishi va baxtsiz hodisalar ro‘y berishi mumkin.

Yong‘inning xavfli va zararli omillariga asosan quyidagilarni kiritishimiz mumkin: ochiq alanga, atrof-muhitning va yong‘inda qolgan buyumlarning yuqori harorati, yonish vaqtida hosil bo‘ladigan turli xil zaharli gaz va bug‘lar, tutunlar, kislodning kam kontsentratsiyada bo‘lishi, qurulish konstruktsiyalari va materiallarining qulab tushayotgan qismlari, yong‘in vaqtida sodir bo‘ladigan portlash, portlashdagi to‘lqin zARBasi, portlash ta’sirida uchib ketgan materiallar, zararli moddalar va hokazo.

O‘t o‘chiruvchi moddalar va ularning xususiyatlari. Eng keng tarqalgan o‘t o‘chirish moddalariga suv, suv bug‘i, uglekislota, namlagichlar, kimyoviy va havo-mexanik ko‘piklar, galloid tarkibli uglevodorodlar, kukun tarkibli aralashmalar, uglerod ikki oksidi, brometil birikmalar, inert gazlar va boshqa mexanik vositalar (qum, tuproq, brezent va h.k) kiradi.

O‘t o‘chirish moddalari quyidagicha tasniflanadi:

Yong‘inni o‘chirish usuliga ko‘ra: sovutuvchi (suv va qattiq uglekislota); suyultiriluvchi, ya’ni yong‘in zonasidagi kislod miqdorini kamaytirish (ma’lum miqdordagi uglekislota gazi, yupqa zarrali suv, suv bug‘i yoki inert gaz aralashmasi); izolyatsiyalovchi harakatdagi (yonish zonasi atrof-muhit bilan ko‘pik yoki kukun pardasi hosil qilish orqali izolyatsiyalanadi); ingibir xususiyatli (tarkibi brometil, dibromtetraftor etan va brom metildan iborat galoid tarkibli uglevodorodlar, tarkibi 3,5-4 ND freondan iborat moddalar va b.);

elektr o‘tkazuvchanligi bo‘yicha: elektr o‘tkazuvchi (suv, suv bug‘i va ko‘pik); elektr o‘tkazmaydigan (gazlar va kukunlar);

Zaxarliligi buyicha: zaharsiz (suv, ko‘pik va kukunlar), kam zaharli (uglekislota va azot) va zaharli (3,5-brometil, freon tarkibli).

Suv o‘t o‘chirishda alohida yoki turli xil kimyoviy moddalar bilan aralashma holatida foydalaniladi. Suvning o‘t o‘chirish xususiyati yonuvchi moddani yonish haroratidan past haroratgacha sovutishga asoslangan. Suvning hajmi bug‘lanish davrida 1700 va undan oshiq martagacha ortadi va bug‘ yonish zonasidan kislodni siqib chiqaradi.

Uglekislota (is gazi) va uglerod ikki oksid gazi rangsiz va havodan 1,5 marta og‘ir gaz. U yong‘in muhitida parda hosil qilib yong‘in zonasiga kislod kirishini to‘xtatadi. Undan sig‘imlardagi engil yonuvchi va yonuvchi suyuqliklar yong‘inini, elektr jihozlari yong‘inlarini va muzeylar, arxivlar kabi suvdan va ko‘pikdan foydalanish maqsadga muvofiq bo‘lmagan binolardagi yong‘inlarni o‘chirishda foydalaniladi.

Namlash vositalarining fizik hususiyati yonuvchi materiallarni namlanish, ho‘llanish xususiyatini oshirishga asoslangan. Ularga sovun, sintetik aralashma va boshqa aralashmalar kiradi. Bu aralashmalar yong‘in muhitida og‘ir bug‘ va gaz hosil qilib, yonish zonasiga kislod kirishini to‘xtatadi, haroratni susaytirib, yong‘inni o‘chiradi.

Ko‘piklar kam issiqlik o‘tkazuvchanlik, etarli darajada qo‘zg‘aluvchanlik, issiqliknini qaytarish samarasi katta, tutun zichligini kamaytirish xususiyatiga va kam mexanik mustahkamlikga ega bo‘lgan o‘t o‘chiruvchi moddalar hisoblanadi. Ular tayyorlanish usuliga ko‘ra kimyoviy, havo-mexanik va yuqori karrali ko‘piklarga bo‘linadi.

Kimyoviy ko‘piklar alohida saqlanuvchi aralashmalar (ishqorli va kislotali) ni yong‘in zonasiga uzatish yoki ko‘pik hosil qiluvchi kukunlar aralashtirish orqali PG-50, PG-100 ko‘pik generatorlari yordamida hosil qilinadi. Ko‘pik kukunlari – oltingugurt ammoniy va natriy bikorbonat aralashmasi bo‘lib, 1 kg kukun va 10 l suvdan 40-60 litr ko‘pik olish mumkin. Neft mahsulotlari yong‘inlarini PO-1, PGP kukunlari, spirt va atseton yong‘inlarini GGPS kukuniga 2% sovun aralashtirilib tayyorlangan ko‘piklar yordamida o‘chirish mumkin. Havo-mexanik ko‘piklar havo-ko‘pik stvollarini yordamida suv, injekterlangan havo va ko‘pik hosil qiluvchilar asosida olinadi.

Suvning bosimi va ko‘pik hosil qiluvchilar xususiyatiga ko‘ra ko‘piklar o‘rtta va yuqori karrali bo‘lishi mumkin. Ko‘pik karraligi deganda hosil bo‘lgan ko‘pik hajmini, uni hosil qilishga sarflangan barcha suyuqlik miqdoriga nisbati tushuniladi. 5 dan 100 karralikgacha ega ko‘piklar kam va o‘rta; 100 dan katta karralikga ega ko‘piklar yuqori karrali ko‘piklar deyiladi.

Inert gazlar (azot, argon, geliy, tutun va chiqindi gazlar) asosan yong‘indan saqlanish maqsadida neft mahsulotlari sig‘imlarini payvandlashdan oldin to‘ldirib ishlov berishda ishlatiladi.


Mexanik vositalar (brezent, voylok, qum, tuproq va b.) yong‘inni boshlanish davrida, ya’ni uchqunlanish fazasida o‘chirish maqsadida foydalilaniladi.

2. O‘t o‘chirgichlarning tavsifi, tuzilishi, zaryadlash va saqlash qoidalari.

O‘t o‘chirgichlar yong‘inni boshlang‘ich fazasida o‘chirish uchun ishlatiladi. Ular sig‘imi, o‘t o‘chirish moddasi, o‘t o‘chiruvchi moddani chiqarish usuli bo‘yicha turlicha bo‘ladi.

Kimyoviy ko‘pikli o‘t o‘chirgichlar qattiq va suyuq moddalar yong‘inini o‘chirish maqsadida foydalilaniladi. Ularga OP- M va OP-9 MM o‘t o‘chirgichlari kiradi. Ularning ishlash vaqtini ko‘pik karraligi 5 ga teng bo‘lganda 60 sek. Ballonlar hajmi 8,7 va 9 l. Zaryadlari ishqorli va kislotali qismdan iborat. Ishqorli qismi – 450...460 gr. bikorbanat natriy va qizilmiya ildizi ekstraktining suvdagi aralashmasidan, kislotali qismi - 15 gr oltingugurt va 120 gr. dan ortiq oltingugurt kislotasining suvdagi aralashmasidan iborat.

Sanoatda OV-5, OVP-10 markali qo‘l o‘t o‘chirgichlari, OVP-100, OVPU-25 markali yuqori karrali statsionar o‘t o‘chirgichlar ishlab chiqariladi. Ularni zaryadlashda PO-1 ko‘pik hosil qiluvchidan foydalilaniladi.



1 -rasm. Uglekislotali o‘t o‘chirgichni sxematik ko‘rinishi OU-5
 1- ballon; 2- himoyalagich; 3- Ohish-zapor maxovigi; 4- metall plomba; 5- ventil;
 6- quvurli surulish mexanizmi; 7-sifonli quvur.

Uglekislotali o‘t o‘chirgichlar turli xil moddalar, materiallar va elektr qurilmalaridagi yong‘inni o‘chirishda ishlataladi. Ularni zaryadlashda uglerod ikki oksididan (SO_2) foydalaniladi. Bunday o‘t o‘chirgichlarga OU-5, OU-8, OU-25, OU-80 va OU-400 markali o‘t o‘chirgichlar kiradi. Ular tarozida tortib ko‘rib tekshiriladi. Agar ularning massasi 6,25; 13,35 va 19,7 kg dan kam bo‘lsa (mos holda, OU-2, OU-5 va OU-8 o‘t o‘chirgichlari uchun) ular qayta zaryadlanadi.



2 -rasm. Uglekislotali o‘t o‘chirgich umumiy ko‘rinishi

Uglekislotali-brometilli o‘t o‘chirgichlarga OUB-3A va OUB-7A lar kiradi. Ularning hajmi 3,2 va 7,4 litr bo‘lib, brometil va uglekislota aralashmasi bilan zaryadlanadi. Bu markadagi qo‘l o‘t o‘chirgichlarini ta’siretish vaqt – 35 sek, uzatish uzunligi 3,0 -4,5m.

Kukunli o‘t o‘chirgichlar OP-1, “Moment”, OP-2A, OP-10A, OP-100, OP-250 va SI-120 markali bo‘lib, ular uncha katta bo‘lmagan yong‘inlarni o‘chirishda ishlataladi. OP-1 va “Moment” o‘t o‘chirgichlaridan avtomobillar va kuchlanishi 1000 V. gacha bo‘lgan elektr qurilmalarida foydalaniladi.

OP-10A o‘t o‘chirgichi ishqorli metallardagi (natriyli, kaliyli) hamda yog‘och va plastmassalardagi yong‘inlarni o‘chirishda ishlataladi.

SI-2 ko‘chma o‘t o‘chirgichi neft mahsulotlari, metalloorganik birikmalar va shu kabi boshqa moddalar yonishini o‘chirishda, SJB-50 va SJB-150 o‘t

o‘chirgichlari tok ta’siridagi elektr qurilmalar yonginini o‘chirishda hamda aerodrom xizmatidagi o‘t o‘chirish mashinalarini jihozlashda ishlatiladi.

O‘t o‘chirish qurilmalari yong‘inni boshlang‘ich fazada to‘liq bartaraf etish va yong‘in bo‘linmalari kelguncha yong‘in tarqalishini cheklash maqsadida ishlatiladi. Ular statsionar, yarim statsionar va ko‘chma bo‘ladi. Zaryadlovchi moddalarning turi va tarkibiga ko‘ra esa suvli, bug‘li, gazli (uglekislota), aerozol (galoid uglevodorod), suyuqlikli va kukunli bo‘lishi mumkin. Bundan tashqari o‘t o‘chirishda ATS-30(66), ATS-40(131), ATS-40(130E) markali mashinalar va MP-600, MP-900, BMP-1600 markali motopompalardan ham keng foydalaniladi.

O‘t o‘chirgichlarni sinash tartibi. Barcha turdag‘i o‘t o‘chirgichlar qayd etish nomeriga ega bo‘lishi kerak. Ular muntazam ravishda (har 6 oyda bir marta) tekshirilib va qayta zaryadlanib turilishi kerak. Agar korpusda yoriq yoki chirigan joylar aniqlansa foydalanishdan chiqarilishi kerak. O‘t o‘chirgichlar foydalanish muddatiga ko‘ra 3 guruhga ajratiladi: 1-guruh foydalanish muddati-1 yil; 2-guruh-2 yil;

3-guruh-3 yil. 1-guruhdagi o‘t o‘chirgichlarning 25 foizi, 2-guruhdagilarning 50 foizi, 3-guruhdagilarning 100 foizining korpusi foydalanilgandan 1 yil o‘tgach 2 MPa bosim ostida 1 minut davomida sinov-dan o‘tkaziladi.

O‘t o‘chirgichlarni zaryadlash tartibi. Ko‘pikli o‘t o‘chirgichlarni zaryadlashda ishqorli aralashma sig‘imi 101 dan kam bo‘lmagan emallangan satil yoki shisha idishga solinadi va unga 8,5 litr xona haroratidagi suv qo‘shiladi. eritma sig‘imi 1,0-1,5 litrli kislotaga bardoshli bankaga qo‘yiladi va unga 80-100 °S haroratdagi qaynoq suv qo‘shiladi. eritma sovugandan so‘ng kichik teshikli setka orqali kislotali stakanga qo‘yiladi. eritmaning muzlash haroratini -24°S gacha pasaytirish maqsadida ishqorli eritmaga uning hajmiga nisbatan 40 foiz miqdorida etilenglikol yoki glitserin qo‘shiladi. O‘t o‘chirgich korpusi va hisobga olish jurnaliga zaryadlash sanasi ko‘rsatiladi.

3. O‘t o‘chirgichlar sonini aniqlash.

Ishlab chiqarish binolari uchun talab etiladigan o‘t o‘chirgichlar soni quyidagicha aniqlanadi.

$$n_o = m_o \cdot S$$

bu erda S - ishlab chiqarish xonasining yuzi, m^2 ;

m_o - $1m^2$ maydonga me‘yor bo‘yicha belgilangan o‘t o‘chirgichlar soni.

Bu ko‘rsatkich materiallar ombori, garajlar, chorvachilik binolari, bug‘xonalar, tegirmonlar, oshxona va magazinlar uchun $100 m^2$ maydonga 1 ta, elektr payvandlash tsexlari, temirchilik tsexlari, labaratoriylar uchun – $50 m^2$ maydonga 2 ta qilib qabul qilinadi.

1-jadval

	O‘t o‘chirgichlar	S (30 · 10) sexlar.	S (25 · 15) lab.	S (18 · 45) maggazin
1	Uglekislotali			

12-13- AMALIY MASHG‘ULOT

Nafas olish jarayonida gaz va tutunlarning inson organizmiga ta’sirini hisoblash

Ishdan maqsad: Kislorodli himoya gazniqoblarni, respirator, siqilgan havoli apparatlarni, GTHX (gaz va tutundan himoyalash xizmati) avtomobililarini, tutunyutgichlarni, kompressorlarni vazifasi, tuzilishi va ishslash tartibini o‘rganish va tushunchaga ega bo‘lish.

Nazariy qism

Nafas olish jarayonida gaz va tutunlarning odam organizmiga ta’siri. Bizga ma’lumki, nafas olish jarayoni tirik organizmning belgi va xususiyatlaridir. Nafas olish tufayli organizm va tashqi muhit bilan gaz almashuvi ro‘y beradi. Gaz almashuvi natijasida qon kislorod bilan to‘yinadi, bu organizm tomonidan sarflangan energiya manbalarini tiklash uchun iste’mol qilingan ozuqa moddalarining oksidlanishi uchun kerak.

Nafas olinganda havo burun bo‘shtlig‘i orqali, tomoq, traxeya va bronxlar orqali o‘pka alveolalariga tushib, organizmda to‘plangan uglekislota va suv bilan ta’daqilanadi. Ishlatilmay qolgan kislorod va qondan ajralgan mahsulotlar atmosferaga nafas orqali chiqib ketadi. Oksidlanish jarayoni, ma’lumki organizm hujayralarida ro‘y beradi. Organizm barcha to‘qimalarga kirib boruvchi kislorod, o‘ziga xos transport vositasi bo‘luvchi qon orqali hujayralarga yetkazib turiladi.

Shunday qilib, nafas olishning o‘ralgan halqasi uch jarayondan iborat:

- (o‘pka) nafas olishdan;
- ichki (to‘qima) nafas olishdan;
- gazlarning qondan olib o‘tilishidan;

Bundan tashqari, umumiylashtirishda gaz almashuvining 1-2% teri bug‘lari orqali ro‘y beradi.

Nafas olinadigan va chiqariladigan havoning tarkibi

Normal holda atmosfera havo tarkibida quyidagi gazlar mavjud:

- 78,09% azot;
- 20,95% kislorod;
- 0,03% karbonat angidrid;
- 1% boshqa gazlar;

Inson nafas chiqarish jarayonida havo tarkibi quyidagi gazlardan tashkil topgan:

- 78,09 % azot;
- 16 % kislorod;
- 3 % karbonat angidrid;
- 1% boshqa gazlar.

O‘pkaning hayotiy hajmi. Bu ko‘rsatkich spirometr nomli qurilmada aniqlanadi. Bu qurilma odamning nafas chiqargandagi havoning hajdaqi aniqlaydi, bu kattalik-3500 ml ga teng. Odam tinch holatda 500 ml atrofida havo yutadi va chiqaradi. Bu havo hajmi nafas chiqarish hajmi deb ataladi. Vaholanki, odam tinch nafas olish va nafas chiqarishdan so‘ng, yana qo‘srimcha 1500 ml atrofida havo yutishi va chiqarishi mumkin. Odam qo‘srimcha yutishi mumkin

bo‘lgan havo va organizmdan qo‘sishimcha chiqarilgan havo, zaxira havo deyiladi.

Nafas olish qo‘sishimcha va zaxira havolarning hajmi yig‘indisi o‘pkaning hayotiy hajdaqi tashkil etadi.

O‘pka hayotiy hajdaqing kattaligi odamning yoshiga, jinsiga, jismoniy mashqiga bog‘liq.

Odatda mashq qilmagan 19-35 yoshli erkaklarda o‘pka hayotiy hajmi o‘rtacha 3500 ml.ga teng. Sport bilan shug‘ullanuvchilarda esa bu ko‘rsatkich birmuncha yuqori bo‘lib, u 5000 ml. va undan yuqori.

Nafas olishning tezligi: Nafas olishning tezligi deb, vaqt birligida nafas olish va chiqarishlar miqdoriga aytildi. Jismoniy mashq qilmagan odam uchun tinch holatda bu ko‘rsatkich taxdaqan 1 daqiqada 12-18 ta nafas sikliga teng, jismoniy mashq qilgan odamning (sportchilarda) nafas olishi bir muncha kam bo‘lib, daqiqada 6-8 nafas olish sikliga teng. Nafas olish tezligi, mushaklar ishining oshishi bilan o‘sib boradi, mashq qilmagan odamlarda ham ular ishlaganda o‘sib boradi.

O‘pkani shamollatish: O‘pka ventilyasiyasi vaqt birligi ichida o‘pkada aylanayotgan havo miqdori bilan aniqlanadi, ya’ni 1 daqiqqa davomida odam nafas olgan va chiqargan havoning hajmiy miqdori bilan aniqlanadi. Odatda o‘pka ventilyasiyasi nafas olish va nafas chiqarish havosining tezligi bir nafas olish siklining tarkibidir. Agarda tinch holatda nafas olish siklini, nafas olgandagi hajmi 500 ml ni tashkil etsa, o‘pka orqali 1 daqiqada 8-9 litr havo o‘tadi.

Yong‘in jarayoni mahsulotlari va ularning odam organizmiga ta’siri

Yonish jarayoni oksidlanishdir, buning natijasida issiqlik ajralib chiqish va yonish mahsulotlari tutun holida kuzatiladi. Yonishda ajralib chiqayotgan tutunning tarkibiy qisdaqi «normal gaz» deb ataluvchi (kislород, azot, karbonat gazi, suv bug‘lari va uglerod oksidi) moddalar tashkil etadi. Bu moddalarning yong‘inlarda hosil bo‘lishi turlicha.

Yong‘inlarda havoda keskin kislород yutish sodir bo‘ladi. Shuning uchun bir qismi material kislород yetmagan holda yonadi. «Quruq haydash» sodir bo‘lib, har xil suyuq, qattiq va gazsimon mahsulotlar hosil qiladi. Masalan, yog‘och chala yonganda, ko‘mir (qattiq modda), karbonat kislota, uglerod oksidi, metan va boshqa uglevodorod (gazlar) hosil bo‘ladi. CHala yonish mahsulotlari odam hayoti uchun xavfli, ayniqsa, uglerod oksidi juda kuchli zaharlovchi moddadir.

Kislород - inson hayoti uchun kerak bo‘lgan gaz. Nafas olganda, kislород o‘pkada qon gemoglobini bilan qo‘silib organizmning barcha katak va to‘qimalariga tarqaladi. Kislород hidsiz va rangsiz gazdir. U havodan bir oz og‘irroq (1,43 g/l), yonmaydi, lekin yonish jarayonini tezlashtirishga ko‘maklashadi va shu joyda kislородning pasayib ketishi kuzatiladi. Shuning uchun yong‘inda nafas olish organlari himoya qilinmagan sharoitda kislород yetishmasligi sodir bo‘ladi. Boshlanishida havoda kislородning miqdori 16-18% bo‘lganda, yurak urishi tezlashadi, harakatlanish koordinasiyasi biroz buziladi, nutq qobiliyati birmuncha pasayadi. So‘ngra kislород miqdori kamaya borishi bilan ko‘rsatilgan belgililar yanada keskin shaklda o‘zgarib, odam hushidan ketadi. Kislород yetishmasligining qo‘rqinchli tomoni shundaki, odam jismonan

bu o‘zgarishlarni sezmaydi va kerakli choralarni ko‘ra olmaydi. Ko‘p miqdorda bo‘lsa, hatto atmosfera bosimi holatida ham kishi organizdaqi zaharlashi mumkin.

Misol: $R = 0,1 \text{ Mpa}$ (1 kg/sm^2) bo‘lgan atmosfera holatida toza kislorod bilan nafas olganda, uch kundan keyin o‘pkada yallig‘lanish holati kuzatiladi. Agar kislorodning parsial bosimi $0,3 \text{ MPa}$ (3 kg. k/sm^2)dan oshsa, $15\div30$ daqiqadan keyin mushaklar tortishib, odam hushidan ketishi mumkin.

Karbonat angidrid (Uglerod dioksidi, SO_2). Oddiy holda rangsiz, nordon ta’mga ega, yonmaydi va yonishni tezlashtirmaydi, havodan $1,5$ marotaba og‘irroq, suvda yomon eriydi. Inson organizmi to‘qimalarida oksidlanish mahsuloti sifatida paydo bo‘lib, o‘pkadan og‘iz va burun orqali nafas olish va to‘qimalardan terlash natijasida chiqarib yuboriladi.

Karbonat angidridning organizmda normal holda bo‘lishi markaziy nerv tizimi orqali boshqarib turiladi. Uning havodagi miqdori ko‘payishi bilan kishi organizmidagi miqdori ham asta-sekin oshib borishi kuzatiladi. (Zararsiz miqdori $0,04\%$ ga teng).

Havo tarkibida SO_2 ning miqdori 3% gacha bo‘lganda yurak urishi va nafas olishi tezlashadi. Organizmning o‘zini bunday tutishi undagi SO_2 ning ortiqcha miqdorini chiqarib yuborishga xizmat qiladi.

Havo tarkibida SO_2 ning miqdori 3% dan ortiq bo‘lganda va undan uzoq, muddatda nafas olish natijasida organizmda patologik o‘zgarishlar ro‘y beradi, chunonchi markaziy nerv tizimida, yurak va nafas olish tizimida xamda modda almashish tizimida buzilish holati vujudga keladi. SO_2 bosidaqing oshishini, kislorodning zaharlilik qobiliyatini va azotning narkotik ta’sirini kuchaytiradi. Atmosfera bosimi normal holda, og‘irligi 70 kg bo‘lgan odam organizmida 1 litr azot aralashmasi hosil bo‘ladi. Bundan tashqari, mahsulotlar yonishi natijasida uglerod oksidi (SO) ham ajralib chiqadi.

Uglerod oksidi (SO) - rangsiz va hidsiz gaz bo‘lib, havodan bir oz yengilroq ($1,25 \text{ g/l}$), suvda erimaydi, yaxshi yonadi. Uglerod oksidining zaharlovchi omili uning qon gemoglobini bilan birikib karboksigemoglobin hosil qilishidadir. Bu holatda kishi organizmda kislorod yetishmasligi yuzaga keladi. Organizmning uglerod oksidi bilan zaharlanish darajasi, uning yutiladigan havo muhitidagi tarkibiga bog‘liq.

Insonda nafas olish maxsus organ-o‘pka bilan bajariladi. O‘pka mayda pufaklar - alveolalardan tashkil topgan bo‘lib, ularning kattaligi o‘rtacha $0,2 \text{ mm}^2$ ga yetadi va umumi yuzasi 90 mm^2 ni tashkil qiladi. Qon alveol hujayralari orasida to‘xtovsiz harakatlanib kislorodni yutadi va SO_2 ni ajratib chiqaradi. O‘pka orqali chiqayotgan gaz aralashmasi $16\div18\%$ kislorod (O_2), $3\div5\%$ karbonat angidrid (SO_2) dan iborat bo‘lib, bunda tana harorati $36,8 {}^\circ\text{Sni}$ va namligi $85\div100\%$ ni tashkil etadi.

Inson 1 daqiqada o‘rtacha $16\div20$ marotabagacha nafas olib - nafas chiqaradi. Shu vaqt ichida o‘pka orqali $9\div10 \text{ l.}$ havo o‘tadi. O‘pkadan o‘tuvchi bu havo miqdorini daqiqaviy nafas miqdori deyiladi (D.N.M.).

Inson organizmiga berilgan og‘irlik miqdoriga mos ravishda nafas olish va kislorod yutish miqdori ham oshadi. Agar oddiy sharoitda inson organizmi: o‘tirganda - $10,6 \text{ l.}$, turganda - 12 l. havo yutadigan bo‘lsa, $3\div3,5 \text{ km/s}$ tezlik

4-Masala. Ishlab chiqarish soatiga shamollatkich ish unumdorligi $L \text{ m}^3/\text{s}$ ga teng. Agar xonada shamollatish qurilmasi bo'lmasa, xona harorati t_{xi} , ${}^{\circ}\text{C}$ gacha yetishi mumkin. Tashqi muhit harorati $t_{xt} {}^{\circ}\text{C}$ bo'lsa, xona havosi haroratini kamaytirish uchun talab etiladigan issiqlik miqdorini Q_{op} kkal/soat hisoblang. $C=0,24$; $\gamma_t=1,205$

$$L = Q_{op}/(C(t_i - t_j) \gamma_t), \text{ m}^3/\text{s}.$$

bu yerda Q_{or} - xonaga kiruvchi ortiqcha issiqlik miqdori, kkal/soat;

C - havoning o'rtacha solishtirma issiqlik sig'imi, $C=0,24$ kkal/kg.grad

t_i - xonadan chiqarilishi lozim bo'lgan havo harorati, ${}^{\circ}\text{S}$;

t_t - tashqi havodan xonaga kiradigan harorati, ${}^{\circ}\text{S}$;

γ_t - tashqi havo zichligi, kg/m^3 .

5-Masala. Ishlab chiqarish xonasida texnologik jarayonda ishlatiladigan qurilmalardan soatiga m_i kg suv bug'lanadi. Xonaning va tashqi muhitning nisbiy namligi mos xolda V_i va V_m ga teng bo'lsa, talab etiladigan shamollatkich ish unumdorligini aniqlang? $\theta_{xi}=14,4$ $\theta_{xt}=10,5$

$$L = \sum m_i / [(V_i \cdot \theta_{xi}/100) - (V_m \cdot \theta_{xt}/100)], \text{ m}^3/\text{s}$$

6-Masala. Xonada texnologik jarayonlar natijasida ish unumdorligi $L, \text{ m}^3/\text{s}$.

Xona ichining nisbiy namligi V_i ga yetadi. Tashqi muhit havosi namligi V_m . Xona namligini kamaytirish uchun talab etiladigan m_i massani toping.(5-masaladan).

7-masala. Ishlab chiqarish xonasining yuzasi $S, \text{ m}^2$ va balandligi $h, \text{ m}$ bo'lgan xolat uchun shamollatkich ish unumdorligi $L, \text{ m}^3/\text{s}$. Talab etiladigan havo almashish karraligini aniqlang? (1-masaladan)

8-masala. Agar xona havosi harorati $t_{xi} {}^{\circ}\text{S}$, tashqi muhit harorati $t_{xt} {}^{\circ}\text{S}$ ga teng bo'lsa, Issiqlik miqdori Q, kal . Xona haroratini kamaytirish uchun talab etiladigan shamollatkich ish unumdorligi qancha bo'lishi lozim?(4-masaladan)